

**Chingiz AYTMATOV**

# **OXIRZAMON NISHONALARI**

**(Kassandra tamg'asi)**

**Suyun Qoraev tarjimasi**

## **CHINGIZ AYTMATOVNING FALSAFIY «VAHIYLARI»**

Chingiz Aytmatovning eng yaxshi asarlari allaqachon yangi jahon adabiyoti klassikasining tarkibiy qismi bo'lib qoldi. Uning kitoblari uslubi jihatidan ham, ko'tarilgan falsafiy masalalarga ko'ra ham bir-biridan farq qiladi, shu bilan birga ularning umumiy jihatlari ham bor. Shu boisdan muallifning har bir asarini oradan vaqt o'tishi bilan qayta-qayta o'qizing keladi va har gal yangi va yangi jihatlarini kashf etasan. Aytmatov asarlarining kitobxonni ayricha hayajonga soladigan ta'sir kuchi jamiyatda pishib yetilgan muammolar o'rtaga tashlanishidadir.

Aytmatov ijtimoiy voqeа-hodisalarни kuzatish va tahlil qilishda noyob iste'dodga ega donishmand faylasuf, kishi ruhiyatining nozik torlarini cherta oladigan sehrgar san'atkordir.

Yozuvchining yangi falsafiy romani – «**Oxirzamon nishonaları**»ni o'qir ekansiz bu fikrning haq ekanligiga yana va yana ishonch hosil qilasiz.

Murakkab dunyoviy fojealarni buyuk qalamkashning sezgir qalbi hatto bashoratchi futurolog olimlardan ham oldin payqaydi. Roman falsafa, fantastika va so'z san'ati mahsuli o'laroq ulkan san'atkorning mushohada qudratidan dunyoga kelgandir. Qalovini topsa qor ham yonadi deganlaridek, nisbati to'g'ri tanlansa, uch tarkibiy qismdan iborat hayotiy jarayonda vaqt ham, fazo ham, inson ham yaxlit bir holatda namoyon bo'ladi.

Yozuvchi kitobxonaga badiiy tafakkurning yangi bir qirralarini ochadi, uni o'yga toldiradi va hatto idrok etish qiyin bo'lgan hodisalar girdobiga tashlaydi. Yozuvchi fantastik usuldan foydalangan bo'lsada, roman teran realistik asar sifatida qabul qilinadi. Asarning badiiy tuzilishi, hayotni tasvirlash printsipi yozuvchining boshqa asarlarinikidan tubdan farq qiladi. Kitobxon romanni varaqlar ekan, odamlarning inson sha'niga nomunosib xatti-harakatlardan nafratlanadi.

Roman voqeasi o'ta shiddatli psixologik mojarolar va to'qnashuvlar zaminiga qurilgan. Yer kurarsi axloqiy muammolar sinab ko'rildigan poligonga aylangan. Insoniyat halokat yoqasiga borib qolgan. Bu halokat tashqaridan kelgan emas, balki bani odamning xatti-harakatlari, munofiqligi, xudbinligi, axloqsizligi oqibatida yuzaga kelgandir. Dunyo bedavo dardga chalingan, agar insoniyat ijtimoiy xastaliklardan forig' bo'lmas ekan, intiqom muqarrardir. Birgina misol. Ikkiyat ayollar tekshirib ko'rilganda ayrimlarining homilalarida irlsiy va boshqa og'ir kasalliklar mavjudligi aniqlansa ham sho'rlik ona shunday bolalarning dunyoga kelishidan manfaatdor ekanligini aytishgan, chunki nogiron farzandli ona kvartira, nafaqalar olishda imtiyozlarga ega bo'larkan.

Romanning mazmuni bunday. Fashizmga qarshi urush yillari sahar chog'i bir ayol endigina tug'ilgan chaqalog'i qop-matoga o'rab bolalar uyining eshigi oldiga qor ustiga tashlab ketadi. Bolaga Andrey Kriltsov deb nom qo'yishadi. Tashlandiq bola o'ta zehnli bo'lib ulg'ayadi va meditsina institutini bitirib genetik olim va nihoyat akademik bo'lib yetishadi. U institutda o'qib yurganidayoq homiladorlik mo'jizasini va odamning dunyoga kelish sir-asrorlarini o'rganishga maftun bo'lib qoladi.

Kriltsov o'z laboratoriyasida undirilgan embrionlardan uzoq muddatga hukm qilingan mahkuma ayollarning bachadonlarida ko'plab iksurriyotlar, ya'ni ota-onasi ham, aka-ukalari ham, tog'a-jiyanlari

ham, xullas bironta qarindosh urug'i yo'q bolalar yetishtira boshlaydi. Bunday odamlarni yaratish hukmron partiyaning diqqat markazida va homiyligida amalga oshiriladi. Partiya MK kotibi Konyuxanov Kriltsov bilan bo'lgan suhbatda, jumladan shunday deydi: «Gap shundaki, siz uchun bu qiziqarli laboratoriya eksperimentlari ob'ekti bo'lsa, biz uchun ikszurriyot – yangi tipdag'i odam. Va bizning prognozlarimizga ko'ra, mehnatkash sinflarni eski dunyodan xalos qilish uchun uni ag'dar-to'ntar qiladigan ham xuddi ana shu ikszurriyotdir.

Ikszurriyot kelajakda eski, o'z umrini o'tagan dunyoni tub-tomiri bilan qo'porib tashlash barobarinda yangi dunyoni buniyod etajak».

Kriltsovning xotini Yevgeniya erining hech kim jur'at eta olmaydigan g'ayriinsoniy kirdikorlarini sezib qoladi va jirkanch ishni tashlab uzoqlarga ketishni, farzandli bo'lismi taklif etadi. Eri bunga unamaydi. Shundan so'ng xotini butunlay ketib qoladi. Mahkumalardan biri – Runa ismli ayol professorning bu ishlaridan nafratlanib qamoq muddatiga muddat qo'shilishidan ham qo'rmasdan olimni bu kasbkoridan voz kechishga chaqiradi va o'zini daryoga tashlab g'arq bo'ladi. Muhabbat izhor qilmoqchi bo'lgan ayolidan ham judo bo'lgach va o'z eksperimentlarining pirovard natijada nimalarga olib kelajagiga aqli yetgach, so'qqabosh Kriltsov «Menga yerda joy yo'q ekan» deb kosmosga ketishga majbur bo'ladi.

U xalqaro kosmik kemaning ilmiy stantsiyasida uch yildan ortiqroq muddatda o'zining tibbiy-biologik tadqiqotlarini davom ettiradi va o'ta mukammal asboblar yordamida ulkan kashfiyot qiladi, bu hodisani «Kassandra tamg'asi» deb ataydi (Kassandra – qadimgi yunon mifologiyasida Troya podshosining qizi, folbin). Ayrim ikkiyat ayollarning peshonalarida homiladorlikning dastlabki haftalarida ikki qosh oraligida qizil dog', ya'ni Cassandra tamg'asi paydo bo'lar ekan. Kriltsov buning sababini aniqlaydi – bu bolaning taqdiri yomon kechishidan nishona ekan. Bunday hollarda homila-embryon yorug' dunyoga kelishni xohlamaydi va o'zini yo'qotishlarini talab qiladi, sho'rpeshona bo'lib, boshqalarga tashvish keltirib yashagandan ko'ra tug'ilmaslikni afzal ko'radi.

Olim kosmosdan maxsus nur yuborib, Cassandra tamg'asini kuchaytiradi: oqibatda ilgari bilinarbilinmas bo'lgan qizil dog' kuchayib hammaga ko'rina boshlaydigan bo'ladi. Shu yo'l bilan butun yer kurarsi bo'ylab barcha ayollarning homilalari aniqlanadi. Yorug' dunyoga kelgach, urush-g'ovg'adan boshi chiqmaydigan, jamiyat peshonasiga bitgan balo – Gitler yoki Chikatilo bo'lib tug'iladigan bunday homilalardan kelgan signallarning ma'nosи taxminan mana shunday: «Erk menda bo'lsa, men tug'ilmaslikni afzal ko'rgan bo'lur edim... Bordi-yu mening xohishimga qaramasdan tug'ilishga majbur qilsalar, men taqdiri azalmi qabul qilishga majburman, hamma zamonlarda odamlar xuddi shunday yo'l tutishgan... Ikin men bilan vidolashishga hali kech emas va men Cassandra-embryonman, tug'ilishni xohlamayman, istamayman, istamayman...»

Kriltsov kosmosda uzoq ishlab anomal hodisalar – Cassandra-embryonlarning yil sayin ortib borayotgani, yovuzlik avj olib, gunohi kabiralar ko'payib borayotganiga amin bo'lgach, ikszurriyotlarni dunyoga keltirganidan pushaymonga tushadi va nihoyat, o'zini fazoviy rohib deb e'lon qiladi va Filofey laqabini oladi. U Cassandra tamg'asi va Cassandra-homilalarni aniqlash borasida qilgan buyuk kashfiyotini va insoniyatning o'zi oxirzamonni yaqinlashtirayotganini oshkor aytib, Rim papasi orqali butun bashariyatga, qo'yingki kelajak avlodlarga murojaat qiladi. Nomaning bir nusxasini orbital kompyuterdan «Tribyun» gazetasiga bosib chiqarish uchun jo'natadi.

Fazoviy rohib Filofeyning Rim papasiga yo'llagan xati romanning bosh falsafasi, kvintessensiyasi, mag'zidir. Xat e'lon qilingach, barcha qit'alarda xalq ommasi hayajonga keladi, vahimaga tushadi, Filofeyga la'natlar o'qiydi, uni kosmosdan urib tushirishni talab qiladi, olomon amerikalik bashoratchi futurolog olimni Filofey kashfiyotlariga xayrixohlik bildirgani uchun o'ldiradi... Rohib buyuk eksperimentlarining mohiyatiga afrikaliklar ham, osiyoliklar ham, ruslar ham, amerikaliklar ham tushunib yetmagach, o'zini ochiq kosmosga uloqtirib halok bo'ladi.

Xullas, roman jahon tsivilizatsiyasining istiqbollariga, ma'naviy, birinchi galda axloqiy muammolariga e'tiborni qaratadi, jamiyatni sog'lomlashtirish yo'llarini qidirib topishga undaydi.

Tabiatda tabiiy saralanish qonuni hukmron, kuchlilar unadi, o'sadi, zaiflar nobud bo'ladi, jungli

qonuni ham shunday – kuchli kuchsizni nobud qiladi, yeydi. Yer kurrasida odamlar ko'payib ketayapti, ochlik, xilma-xil kasalliklar avj olayapti. Tavrotda «uninglar, o'singlar, o'zlariningdan ko'payinglar» deyilgan bo'lsa, abort qilish ham taqiqlansa, jamiyatni sog'lomlashtirish yo'li bormi o'zi? – degan fikr kelib chiqadi.

Bugungi kunda tug'ma kasalliklarga mubtalo bo'lgan yoki ichkilikbozlik yo giyohvandlikka moyil homilalarni aniqlay oladilar. Bundan bir necha yil oldin Rossiya FA meditsina-genetika ilmiy markazining professori, odam tsitogenetikasi laboratoriyasining mudiri Nikolay Kuleshovning xodimlari 300 mingga yaqin homilador ayollarni tekshirishdan o'tkazib, og'ir tug'ma va irsiy kasalliklarga mahkum 1250 bolaning dunyoga kelishining oldini olgan. Mumkin ekan-ku!

Odamzotning bugungi aqliy takomiliga yetishi uchun necha ming yilliklar kerak bo'ldi. Ehtimol butun koinotda yakka-yagona ana shu aql o'chog'ini yo'qotish uchun esa ko'p narsa kerak emas. Insoniyatning ertangi kuni haqida hozir, shu bugun bosh qotirish kerak. Atom bombasi pultining tugmachasi ikszurriyot vasvasning qo'liga tushib qolmasin. Eng muhimi kishilar o'zlarini vasvaslik, yovuzlik, ochko'zlik, axloqsizlik, boylikka hirs qo'yish kabi nuqsonlardan tiyishlari kerak.

Kishilarning shafqatsizliklari, nafsoniyatlari, hissiyotlari, ishtahalari aql bovar qilmaydigan darajada oshib-toshib ketayotirki, asti qo'yavering.

Tropik o'lkalarining ko'rki bo'lgan sayroqi to'tiqushlarning tillaridan milliarderlar uchun tayyorlangan tansiq ovqat pulga chaqilib, och-yalang'ochlarga tarqatilsa necha ming kishi o'lim changalidan qutilib qolarkin? Odam o'zidagi Azozilga hay berishi, har qanday sharoitda ham inson bo'lib qolmog'i kerak. Shundagina u inson degan ulug' nomga munosib bo'ladi. Nahotki fan-texnika va iqtisodiyotning mislsiz rivojlanishi imonsizlik, vijdonsizlik, shafqatsizlikning beqiyos avj olishiga to'g'ri mutanosib bo'lsa? Odamlar butun hokimiyatni janob dollarning qo'liga ishonib topshirib qo'yishgandan keyin boshqacha bo'lishi mumkin ham emasmikin?

Chingiz Aytmatovni ko'pdan beri qiyab kelgan va «Oxirzamon nishonalari» (Kassandra tamg'asi)da adibning bo'g'zidan olgan global muammolardan biri ekologiya – ekologik qasirg'alar, yadro sinovlari, «qora tuynuklar», «ozon teshiklari», hokazolardir. Devqomat kitlarning o'zlarini qirg'oqqa otib gala-gala bo'lib o'lim qabul qilishiga insonlarning noinsoniy xatti-harakatlari sabab ekanligi rost bo'lsa, bu oxirzamon nishonasi bo'lmay nima?

Oxirzamon tushunchasi dunyo kabi keksa. Bibliyaning bir bo'limi Yangi ahdda (milodning birinchi asrida) oxirzamonning bo'lishi haqida bashorat qilingan. Bu tushuncha islomda ham bor. Shuning uchun Muhammad Salloholi alayhi vassalom oxirzamon payg'ambari deyilgan.

Paleontologlar yer kurrasida bir necha bor «oxirzamon» bo'lib hayot qayta tiklanganini tan oladilar. Lekin tarix nazdida bir-ikki ming yil hech qancha muddat emas. Oxirzamon tushunchasi nisbiy tushuncha, shunday bo'lsa ham butun progressiv insoniyat, birinchi galda intellektuallar – allomayu ulamolar bu haqda shu bugun bosh qotirishlari, ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasi uchun kurashishlari darkor.

Asarni qayta-qayta mutolaa qilar ekanmiz, uning mohiyatiga nazar tashlab, kosmik yuksaklikka ko'tarilib ezgulik bilan yovuzlik o'rtasidagi azaliy kurashning yangi qirralarini kashf etish, insoniyatning taqdiri haqida jon kuydirib yangi asar yozish faqat Chingiz Aytmatovdek buyuk adibga nasib bo'lganiga ishonch hosil qilamiz.

## **Endi tarjimalar va tarjimonlar haqida**

Chingiz Aytmatovning deyarli barcha asosiy asarlari o'zbek tiliga o'girilgan. Yozuvchining ko'pchilik qissalarini, hikoyalarini, "Asrga tatigulik kun" romanini Asil Rashidov, "Qiyomat" romanini Ibrohim G'afurov, "Oxirzamon nishonalari" romanini, "Chingizxonning oq buluti" qissasini, "Htar qush nolasi" rivoyatini Suyun Qoraev o'zbek tiliga tarjima qilgan va uchala tarjimada ham mutarjim asarlardagi ichki ohangni ushslashga erishgan.

Suyun Qoraev filologiya fanlari nomzodi, geografiya fanlari doktori, Hzbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Xalqaro Aytmatov akademiyasining akademigi. U taniqli jurnalist – 45 yildirki, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasining a'zosi, tajribali mutarjim va publitsist; yarim asrdan oshiq vaqt davomida ko'plab ilmiy, ijtimoiy-siyosiy kitoblarni ruschadan o'zbekchaga o'girgan va tahrir qilgan; tilshunoslik va terminologiyaga oid bir qancha ilmiy ishlar, maqlolar e'lon qilgan, 70-yillarda Ch.Aytmatovning «Otadan qolgan tirnoq» («Soldat o'g'li»), «Jimjiloq» hikoyalarini, «Manas otaning oq qori va ko'k muzi» nomli publitsistikasini, 1997 yilda «O'tar qush nolasi» rivoyatini o'zbekchaga tarjima qilgan; S.Qoraev Aytmatovning faoliyati va ijodi haqida, chunonchi «Oxirzamon nishonalar» romani, «Chingizxonning oq buluti» qissasi to'g'risida qator maqlolar yozgan.

1995 yilda S. Qoraev muallifning roziliqi bilan «Kassandra tamg'asi»ni o'zbekchaga tarjima qilgan. Romanning «Epilog» qismi (asarning deyarli beshdan bir bo'lagi) 1995 yilda «Cho'lpon» nashriyotida «Ikszurriyot» nomi bilan 10 ming nusxada nashr etilgan. Roman tarjimasidan parchalar «Xalq so'zi», «O'zbekiston ovozi» kabi gazetalarda bosib chiqarilgan. «Chingizxonning oq buluti» qissasi S.Qoraev tarjimasida 1998-1999 yillarda «Birlik», «hamkor», «Vatan», «Qishloq hayoti», «Markaziy Osiyo madaniyati», «Inson va qonun» va boshqa gazetalarda deyarli to'laligicha e'lon qilingan. Demak ilmiy til bilan aytganda tarjima ma'lum ma'noda «ishlab chiqarishga joriy qilingan»: ozmi-ko'pmi kitobxonlar nigohidan o'tgan.

Chingiz Aytmatovning tili asardan asarga murakkablasha va qiyinlasha borganini e'tiborga olsak, yozuvchi asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish oson kechmagan, albatta, ularda ba'zi bir kam-ko'stlar bo'lishi mumkin.

Valloh a'lam – Alloh bilguvchidir, inson esa xato qilguvchidir. Tarjimon bilan bahslashsa bo'ladi, masalan muallifning qariyb yarim sahifa keladigan jumlalarini bo'lib-bo'lib tashlash mumkin edi, ayrim so'zlarni boshqacharoq tarjima qilsa bo'lardi.

Umuman mutarjim muallifning fikrini to'g'ri tushunib, kitobxonga yetkazishga harakat qilgan. «Chingizxonning oq buluti» qissasi va «Htar qush nolasi» rivoyati matnlari ravon, badiiy jihatdan yuksak saviyada tarjima qilingan.

*Odil Yoqubov,  
O'zbekiston xalq yozuvchisi*

*Kassandra Appolon muhabbatini rad qilgach, Appolon Kassandrani shunday duoyi bad qildiki, uning bashoratlariga hech kim ishonmay qo'ydi.*

***Qadimgi yunon mifologiyasidan***

*Ikkovidan qaysi biri hali yashab ko'rmagan bo'lsa, qaysi biri yorug' dunyoda qilinayotgan yovuz ishlardan bexabar bo'lsa, o'shanisi saodatmanddir.*

**Yekklesiast**

**B i r i n c h i b o b**

Bu gal ham dastlab So'zdan boshlandi. Bir zamonlarda bo'lgani kabi. O'sha mangu Mavzudagi kabi. Keyinchalik nimaiki ro'y beribdiki, hammasi Og'izdan chiqqan so'zlar samarasi edi.

Biroq aslo kutilmagan hodisaga birinchi bor duch kelgan kishillardan ko'plari vaqtি kelib memuarlarida xuddi ana shu hodisani o'z hayotimizdagи eng hayajonli voqeа bo'ldi deya ko'klarga ko'tarib yozajaklarini xayollariga ham keltirmagan edilar. Buni qarangki, bu hodisa shohidlarining hammasi o'z esdaliklarini «O'sha kunda bo'lib o'tgan favqulodda voqealar detektiv romandagidek rivojlana bordi» degan siyqasi chiqqan ibora bilan boshlagan edilar.

Sirasini aytganda, xuddi shunday bo'ldi ham. «Tribyun» gazetasining xodimlari to'satdan bosh muharrirdan farmoyish oldilar – ana shu farmoyishga ko'ra, tahririyaning rahbariyat joylashgan qavatida shoshilinch chaqirilgan favqulodda majlisi paytida qaerga bo'lmasin qo'ng'iroq qilish, telefonlar va fakslarga javob berish va hatto, tahririya binosiga chet kishilarni kiritish qat'ian man qilingan edi.

Hamma narsa ana shu favqulodda majlisdan boshlandi.

Gazeta sahifalarida bunday bayonotni e'lon qilish yetti uxbab tushga kirmas! Lekin yurak yutmoq va harakat qilmoq kerak edi. Masala jiddiy edi: yo ostidan, yo ustidan. Va «Tribyun» gazetasi kurrai zaminning «nuktadoni bisoti – afkori omma darg'asi» degan nomga dog' tushurmaslik uchun jon kuydirib yelib-yugurar ekan, izzat-nafsi vasvasasidan qutula olmadi (keyinchalik muxoliflar buni «shayton vasvasasi» deb atadilar), axir solim o'ta katta edi-da – olamshumul sensatsiya. Tahririya bu materialni yakka o'zi chop etish huquqini oldi va har qanday tasodiflarga qaramasdan tavakkal qildi – insoniyat tarixidan ko'z ko'rib-quloq eshitmagan hujjatni yashin tezligida chop etishga botindi.

Xuddi o'sha paytda voqealar boshida tahririya sharhlovchilaridan biri ko'plarning xotirasiga mixlanib qolgan so'zlarni aytib soldi: «Endi bo'ldi, yigitlar, — dedi u gazeta sahifasining hali qurib ulgurmagan nusxasini qo'liga ushlab turar ekan, — tarix oti aql pakkasidan o'tib ketdi! Bu esa biz tufayli, bizning «Tribyun»imiz tufaylidir. Bu marraga hech kim yetolmaydi, undan o'ta olmaydi. Hali o'Imasak hammasini ko'ramiz, hayot ko'rsatadi. Bularning bari nima bilan tugar ekan? Ko'ramiz! – U boshini chayqab, ma'nodor qo'shib qo'ydi: — Ammo lekin, hamkasblar, kechirasizlar, ogohlantirib qo'ymoqchiman, endi har kim o'zi haqida o'ylasin – bir soatdan keyin nima bo'ladi u yog'ini xudo biladi».

Ochig'ini aytganda, xavf oyoq ostida deganday, hadiksirashga asos bor edi. O'sha kuni tahririyyadagi kayfiyat soat sayin o'zgarib turdi, bir qarasangiz hammaning qo'lting'idan tarvuzi tushib, bosh muharrirdan tortib jurnalistika fakultetidan kelib shu yerda bo'lajak reportajlarning sir-asrorini o'rjanib yurgan shogirdlargacha – Hamma-hammasi eshiklarni yopib olib, hatto bir-birlari bilan gaplashishdan ham o'zlarini tlyib bosh ko'tarmasdan ishlashar, bir qarasangiz, aksincha, qulogni qomatga keltiradigan shov-shuv, qiy-chuv ko'tarilar, hamma izg'ib, yo'laklar va xonalarni boshlariga ko'targancha shovqin-suron og'ushida bir-birlariga hayajonli nigoh tashlar edilar. Biroq xuddi shu paytda boshqa bir hodisa to'g'risida ham o'ylash joiz edi – quturgan olomon bosib kelib qolsa-yu eshik-derazalarni g'ovlar bilan to'sish ehtiyoji paydo bo'lsa-chi; bunday xavf shak-shubhasiz edi – shiddat ila yopirilgan odamlar toshqinining qahr-g'azab bilan hujumga o'tishi hech gap emas edi. (Bunday toshqinni hech qanday politsiya ham to'xtata olmagan bo'lur edi) – Olomon deraza-oynalarni

chilparchin qilib, telefonlarni yerga urib pachoqlab tashlasa, mebel va orgtexnikani buzib-qiyratishsa, janjal desa o'zini tomdan tashlaydigan telexodimlarning ob'ektivlari oldida nari-berisi bir soat ichida butun dunyoning tinchini buzib, odam bolasini chindan ham Xudoning o'zi bilan yoqalashtirib qo'yishga jur'at etgan gazetchilarining giribonidan tutib olishsa, qo'lingizdan nima ham kelardi...

Hozircha esa hech narsadan bexabar, kemaday pishqirgan olomon Amerikaning azim shahri ko'chalari bo'ylab har doimgiday suzib borar, oynadan libos kiygan osmon o'par binolar oldida odamlar daryosi tinmay oqar, ularning yonginasida esa yaltiroq avtomashinalar shodalari uzlusiz jilib borar, tepada bo'lsa bahaybat ninachilar yanglig' vertolyotlar timim bilmas edi. Lekin hali hech kim dahshatga tushmagan edi, dunyoning ilgari hech qanday shubha tug'dirmagan sirlariga kufrona tumshuq suqqan isyonkor gazetani qo'llarida silkitib shahar maydonida baqirib-chaqirmayotgan edi. Hali hech kim barchani oyoqqa turg'izib asfalasofilin sari yetaklash uchun g'alamiskorona xitoblar bilan chiqmagan edi.

«Tribyun» raqobatdan cho'chib oshiqayotgan edi. Bir zumda qaytadan sahifalangan gazetaning bu soni aqalli yarim soat kechiksa bormi, kosmosdan kelgan bu materialni dunyoning xohlagan burchagidagi o'zga bir gazeta boshiga har qanday kulfat tushsa ham bosib chiqargan bo'lur edi. «Tribyun» o'zining shu qilmishi dastidan to'fon boshlanib butun yer yuzidagi barcha tirik mavjudotlarni suv olib ketganda ham, hech kimga va hech qaerga hech qanday gazeta kerak bo'lmay qolgan taqdirda ham bu imkonni qo'ldan boy berishga rozi bo'lmas edi...

Nuh to'fonining obi ombori, keljakda ham muqarribu muqarrar jahon to'foni mavjlarini o'zida jam qila oladigan okean esa, o'sha kuni qit'alar orasida bor qudrati ila chayqalib, o'zining butun tinbitinchimas jismi bilan yer kurrasini sezilar-sezilmas tebratar, bahaybat oqimlar bilan o'ynashar, o'z-o'zidan hayajonlanib va ko'z ochib yumguncha o'rakch-o'rakch to'lqinlar ko'tarib ummongagina xos bepoyon kenglikda milt-milt yog'dular o'yinini namoyish qilar edi.

Futurolog magmaday qaynab turgan ummonga tepadan nazar tashlar, Atlantika okeani ustidan uchib o'tayotgan avialaynerning darchalaridan bepoyon okeanni zavq bilan tomosha qilib borar edi. Quyosh har qachongiday charaqlab turibdi. Nima uchundir manzara uni maftun qilib qo'ysi, holbuki bu safar ham hech qanday hayrotomuz voqeа sodir bo'lмаган edi — Har galgiday, yuzlarcha aviayo'lovchilar uchun hatto zerikarli bir manzara – pastda okean, suv, to'lqinlar, bo'm-bo'sh ufq hukmron edi. U bo'lsa inson ko'zining cheksiz dunyoviy kengliklarni ko'ra oladigan qanday g'aroyib bir mitti mo'jizaga aylanganligi haqida o'ylardi. Bu tasodifiy emas edi. Hech narsa, hatto bulutlar bilan bellashadigan yuksakparvoz tog' burguti ham bunchalik gir atrofni birvarakayiga ko'zdan kechira olmaydi. Ha, texnika yutuqlari tufayli inson hayotga moslashishning olamshumul yangi-yangi imkoniyatlariga ega bo'ldi va Allohnning qudrati bilan mengzagulik kuchga erishdi. Axir, Xudogina nozohiriy yuksaklikda dunyo uzra ko'z ilg'ag'isiz quyun kabi parvoz qilar ekan, butun Yer kurrasini birato'la ko'zdan kechira olish imkoniyatiga egadir. Bir maromda gurillab uchib ketayotgan samolyot shovqini ostida futurolog ana shular haqida o'ylar edi. Hzliging bilan xoli qolish naqadar yaxshi fursat... U muz solingan katta qadahdagi oltinlanib turgan viskidan shirakayf bo'lib, qonining yoqimli jo'shishiga monelik qilmas, aksincha, kamdan-kam uchraydigan his – o'z erki o'zidalik kayfiyatini ko'proq saqlab qolishni xohlardi. Buning ustiga yon-veridagi o'rindiqlar bo'm-bo'sh – uni suhabatga tortib, alahsitudigan qo'shnilar o'z o'rinalarida emas edilar; buni ham siyrak uchraydigan omad desa bo'lardi.

Futurolog Yevropaga qilgan navbatdagi safaridan qaytib kelmoqda edi. Yana xalqaro konferentsiya, daholar anjumani, yana uzundan-uzoq munozaralar, ana shu daydi allomalarining turmush tarziga aylangan tortishuvlar, fikrlar va bashoratlar to'qnashuvida bir-biriga ulanib ketadigan bahslar. Bu safar ham dunyo tsivilizatsiyasining istiqbollari haqida, yakka qutbli taraqqiyotning xavfliligi to'g'risida va shu kabi har doim ham dolzarb bo'lib kelgan muammolar xususida so'z bordiki, Garvard dorilfununi allomasining butun umri ana shu muammolarning mag'zini chaqishga sarflangan desa bo'ladi. Olim yillar o'ta bashorat ilmini tobora ko'proq egallagani sari unga bu yo'ldagi barcha harakatlari behuda ketganday sezilar edi. Ba'zida o'ylab qolasan kishi — Har doim taqdirdan oldinroq

odim tashlash, hayotning mazmun-mundarijasini fahmlab olish ilinjida mashaqqatlar chekish, ya'ni bugun ham, ertaga ham, ming yildan keyin ham hech qachon hech kimga yuz ko'sratmaydigan o'sha abadiy muammo ketidan sarson-sargardon yelib-yugurish joningga tegib ketadi. Biroq kelajak haqidagi ana shu fikrlar to'qnashuvidan bosh tortib ko'r-chi, o'zingni o'zing kemirib yemasang, umidsizlanish kasaliga mutbalo bo'lmasang, endigina ufqda qorayib ko'ringan narsaning sir-asrorini bilib olish havasi paydo bo'lmasa, men kafil. Biz kelajakning qiyofasini aniq tasavvur qila olmasak, butun intilishlarimiz samarasiz bo'lib qolaveradi. Lekin ba'zan juda qiyin bo'ladi – o'zingni ilmda temsa tebranmaslikka, «bellashuv ustida» mavqe saqlashga chaqirib, tarix g'ildiragi qaerga, qaysi jarlikka tushib ketishi mumkinligini xolisanlillo bashorat qilish, oldindan aytib berishning o'zi bo'lmaydi, to'g'risini aytganda, bu g'ildirak ham emas, ehtimol, umuman aylanishga qodir bo'limgan, puchaygan, qandaydir qattiq zarbadan kegaylari otlib ketgan velosiped gardishidir, — fanda harakatning ana shu shaklining aniq bir ta'rifi yo'q. Taxminiylik, xomakilik, tantanavorlik – «qo'ng'iroqxona» futurologiyasining hamishalik alomatlaridir, shunga qaramasdan u hamma narsani ta'birlab, oldindan aytib berishga qo'l uradi. Olguday yuksak, lekin shaloq «qo'ng'iroqxona»dan turib qilingan ba'zi bir bashoratlardan yomg'irli qora bulutdan qochganday uzoqlashging kelardi, o'z bashoratlaringdan, tarix g'ildiragining mash'um aylanma harakatlarini sezsa boshlaganingdan va eng avalo, o'tirsa ham, tursa ham faqat hokimiyat deya ochiqdan-ochiq surbetlik yo'lini tutib, eski yovuzlik o'rniga yangisini tug'dirayotgan asov kuchlarning bostirib kelayotganidan yuraging orqaga tortib ketadi, chunki har qanday hokimiyat o'z maqsadlari xususida nimaiki demasin, uning qon tomirida amr-farmon oqadi. Haqiqat va benazir ideal ishtiyoqmandlarining orzu-istiklariga qarshi o'laroq futurologiya bu borada kishi qalbi uchun jon qiyogn'i va azob-uqubatdan boshqa narsa emas edi. Shu bilan bir vaqtda so'zlashishni ham eplay olmagan o'sha ibtidoiy odamlarning o'zlarining azaliy mashqlaridan – kelajakni oldindan aytib berishdan voz kechishi qiyin bo'lgani kabi, tamomila beg'araz, shu kasbdan – behalovat insoniyatning faraziy taraqqiyot yo'llarini xaloskorlik niyatida bo'lsa ham oldindan aytib berishdan bo'yin tov lash futurolog uchun o'zidan voz kechish, o'zlikdan voz kechish qadar qiyin edi. Ta'magirlik bosh a'mol bo'lgan hozirgi jamiyatda bashoratchilarining martabali bo'lishi oson ish emas. Ha, shon-shuhratlarga to'la antik dunyoda Delfa shahrining sohibkaromat ayollari halokatni ham, zafarlarni ham xudolar nomidan barvaqt xabar qilishar edi. Lekin u zamonlar o'tdi ketdi. XX asrda bo'lsa sohibbashoratlarga masxaraomuz munosabatda bo'ladilar, attang!

Biroq bunisi ham u qadar qo'rqinchli emas. Futurolog va uning hamkasbleri o'z doiralarida, o'zlarining kasbiy manfaatlari bilan yashar edilar. Chunonchi, uning Yevropaga hozirgi safari simpozium bilangina emas, balki Frankfurt-Mayn shahrida chop etilgan yangi kitobining taqdimoti bilan ham bog'liq edi. Kimdir qabul marosimida shu munosabat bilan nemischa «mayn» so'ziga yangi ma'no berib hazil mutoyiba bilan dedi: Mayn daryosi bo'yidagi buyuk shahar, «Mayne Xerausforderung» («Mening o'zimga qarshi da'vatim») degan buyuk kitobni bosib chiqardi, bu kitobdagi fikrlarni muallifdan boshqa hech kim inkor eta olmasa kerak. O'sha kitobda muallif so'lchilikdan yopishqoq chakamug'dan qochganday qochgan. Bu esa muallifning o'z-o'ziga, to'g'riroq'i yoshlikdagi mashqlariga qarshi chiqishi edi. Asrimizdagagi ekstremistlik kasalligiga barham berishni o'zidan boshlashga to'g'ri keldi.

Kitob taqdimoti tugagandan so'ng u matbuot konferentsiyasi o'tkazdi, dastxatlar berdi, so'ngra Reyn daryosi bo'ylab uzoq safar qilindi, o'sha yerda sayyohlik kemasida u «Shpigel» gazetasiga intervyu berdi. Futurologiyaning keksayib borayotgan pirlaridan birini Reyn daryosi sohilida sekin suzib ketayotgan qoyalar oldida suratga tushirishdi. Va yana hazil-mutoyiba qilishdi: qadimiy qoyalar futurologning tashqi qiyofasiga juda o'xshab ketadi, uning o'zi esa keksa qoya kabi ulug'vor deyishdi. U ham hazilga hazil bilan javob berdi: intervyuga ham «Keksa qoyaning mulohazalari» deb sarlavha qo'ysak-chi? Va keksa qoya tilga kirdi. Xilma-xil savollar berildi. Fanda va umuman hayotda o'zi bilan o'zi kurashish degani nima? Bu o'z tajribasi va e'tiqodlarini taftish qilish emasmikan? Pirimiz nima deydilar: pessimizm – Har doim hayotning peshanada yozilganiday yakunlanishi emasmi? U futurologiyadagi avanturizm to'g'risida nima deydi? Va nihoyat, u o'zini yaxshi sezyaptimi? Unga

o'sha Reyn vinosi yoqadimi?! Mana bunisi juda soz! Amerikaliklar har doim shunday. Ayniqsa, nemislardan chiqgan amerikaliklar shunday!

Mana endi shiddatli matchdan so'ng hamma tashvishlarni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib tezroq charchog'ini yozish uchun kiyimxonaga shoshilgan sportchi kabi, Robert Bork samolyotda sal bo'lsa ham alahsishga, doimo miyasida g'uujg'on o'ynagan narsalar haqida o'yamaslikka harakat qildi. Lekin o'yamaslik mumkin emas edi. U yangi monografiya haqida xayol surib ketdi. Ehtimol, bu yakuniy kitob bo'lar. O'zining hech ham bitmaydigan ishini bitirishi, shoh asarini yozib tugatishi kerak edi. Nasib etsa, albatta. Agar ko'p yillik tadqiqotlar asosida yangi ilmiy bashoratlar ostonasiga ko'z yogurtira olinsa, Robert Borkning fikriga qaraganda, hozirgi insoniyat butunlay yangi muammolarga duch keladi, bordi-yu birdan quyosh sovib qolsa, yoki aksincha, yanada qizib ketsa bormi, hamma joyda hammaning boshiga mislsiz ko'rgililiklar, intiqomlar tushgani kabi, insoniyatni ko'z ko'rib, quloq eshitmagan sinovlar kutadi. Insoniyat ana shu yangi muammolar mag'zini chaqar ekan, o'zining fojeiy halokatini anglab yetishigina kifoya qilmaydi. Balki, eng muhimi – bu tuyg'u omon qolishning yangi usullarini qidirib topish va taraqqiyotning yangi yo'llari hamda shakllarini aniqlashga turki bo'lmos'i darkor, bu esa, o'z navbatida, yangicha hayot tarziga, yangicha tafakkur qilishga olib kelmog'i lozim. Ana shular haqida yozish, bo'lajak taraqqiyotning yo'lini aytib berish – uning, Robert Brokning oxirgi «Shoh asari» bo'lmos'i kerak edi. Uddalay olarmikan? Vazifa o'ta ulkan... Vaqt esa tutqich bermaydi...

Bepoyon okean samolyot qanoti tagida hamon chayqalmoqda, to'lqinlar o'yini yog'du sochmoqda edi. Quyosh, tubsiz ochiq osmon, kenglik, shiddatli parvoz — Hammasi okean ustida harakatsiz qotib qolganday... Bir yarim soatlardan keyin qit'aning qirg'oqlari ko'rina boshlashi kerak, va shunda cheksiz osmonda samoviy parvoz tugaydi va yana olag'ovur aeroportda birinchi qadamdan boshlaboq u odamlar oqimiga sho'ng'ib ketadi.

hozircha parvoz davom etmoqda, yo'lida esa, futurologni nogahoniq va favqulodda voqeа kutmoqda edi.

U shunchaki havaskor fotograf edi. Shunga qaramasdan hech qachon fotoapparatini qo'lidan qo'ymas va ko'ngliga yoqqan har qanday narsani surishtirmay-netmay suratga olaverar edi. Xususan, osmonni suratga tushirish desa o'zini tomdan tashlar edi. Uyni to'ldirib yuborgan uch pulga qimmat suratlar ayniqsa xotini Jessining joniga tekkan edi. Jahli chiqgan kezları u erini fotoaxlatchi deb haqoratlar va bir kuni suratlardan yaxshigina gulxan yoqaman deb po'pisa ham qilib qo'yar edi; lekin bu gaplar uni sevimli ishidan sovuta olmas edi. Bu safar ham biror durustroq manzarani suratga olib, ufqda erkin o'ynab yurgan bir jimjimador bulut rasmi bilan o'z kollektsiyasini to'ldirish niyatida yaxshi ob-havoni kutayotgan boladay oynaga yopishib fotoapparatni tayyorlay boshladi. Afsuski, arziyidigan hech narsa ko'rinnmaydi – osmonning hamma joyi musaffo edi, faqat juda pastda bir necha daydi bulutlar sang'ib yurar edi.

Shu on samolyot qiyshayib burila boshlagan edi, u birdan okeanda suzib ketayotgan bir to'da kitlarni ko'rib qoldi. U kitlar shu qadar aniq ko'rindiki, har bir kitning qanday suzib ketayotgani, bor gavdasi besh qo'lday namoyon bo'ldi, u hayratdan bir entikib tushdi. Axir uning tushiga tez-tez kitlar kirib turardi-da! ha, u cheksiz ummonda suzib yurgan kitlarni tushlarida ko'rib turar, kitlar uni go'yo hamkorlikka chorlar edi. Mana endi ularni o'ngida ko'rib turibdi. Favqulodda manzara! Kitlar osmonda uchib ketayotgan turnalar kabi o'tkir uchburchak hosil qilib suzib borishar edi. Yigirmatalar chamasi kit. Samolyot tekis ucha boshladi, lekin pastda kitlar hamon suzib ketayotgan edi. Kitlar to'lqinlarni yorib o'tib, boshlari uzra favvoralar otib, bir qarasang okean qa'riga sho'ng'ib ketar va yana tog'day tanasi bilan suv yuzasiga suzib chiqardi. Kitlarning mana bunday bir maromda va bir tekisda harakat qilishlari go'yo butun bir komanda o'yinchilari biron-bir o'zin qoidasiga qat'iy amal qilayotganday tasavvur qoldirardi kishida.

Robert Bork kitlar galasining bunday kuch-qudrati va san'atiga mahliyo bo'lib butun borliqni unutib qo'ysi, birdan o'zi ham devsifat kitlarning ana shu benazir poygasiga qo'shilib, o'zini kit-odam deb o'ylab, ummonda suzib ketayotganday, baland tepalikda yoqqan jala suvi yelkasidan yaltirab oqib tushayotganday tasavvur qildi. U mavj urayotgan okeanda suzib borar ekan, birdan bundan buyon bir

umr kitlar bilan birga bo'lishini qandaydir g'ayrishuuriy his bilan tushundi, uning qalbida ana shu uchrashuvning botiniy tub mohiyati namoyon bo'ldi: kitlarning taqdiri uning taqdiriga aylanadi, uning yozmishi kitlar yozmishi bo'lib qoladi...

Demakki, uning tushiga kitlarning kirishi tasodifiy emas ekan-da? Mutlaqo. Lekin kech kirganda ular qayoqqa oshiqib ketishmoqda edi? Kitlar uni qayoqqa, qanday maqsad bilan chorlamoqda? U ana shunday uzoq masofadan biron narsa chiqishiga to'la ishonmasa ham fotoapparatning tugmasini bosdi.

Darhol uyiga qo'ng'iroq qilish uchun o'rindiqdagi aviatelefon dastagini qo'lga oldi. Telefon tablosida bankning hisob nomerini, shahar kodini, uy telefonining nomerini tez terib bo'lgach, qandaydir raqamda yanglishib ketdi shekilli, nomerlarni qaytadan terdi. U o'zi ko'rib turgan narsalarini xotiniga gapirib bermoqchi edi. Ba'zan shunday bo'ladiki, odam vujudini larzaga solgan narsasini birovga gapirib bermasa yuragi tars yorilib ketadiganday tuyuladi. «Xo'sh, Jessi nega endi telefonni olmayapti?! Qaerda bo'ldi ekan? Ehtimol, uydan chiqib ketgandir? Yoki meni kutib olish uchun yo'lga chiqdimikin? hali erta-ku?! Mashinaga qo'ng'iroq qilay-chi?!» O'zi ko'rgan kitlar haqida boshqa birovga emas, faqat xotiniga gapirib berishga oshiqayotgan edi, go'yo uyga kelgandan so'ng aytib bersa bo'lmaydiganday. Yaqin do'stlarining futurolog ustidan «u tushida ham xotiniga sodiq» deb kulishlari bejiz emas edi.

Okeanda endi kitlar ko'rinxmay qolgan, g'oyib bo'lishgan edi.

– Jessi! — deb qichqirdi u telefonda xotinining ovozini eshitgach. — Tushimga kitlar kiripti deganim esingdami?!

– Esimda, xo'sh nima edi? Senga nima bo'ldi? Qaerdasan o'zi?

– Men hozirgina kitlarni ko'rdim! Okeanda kitlarga duch keldim! Bilasanmi, bu... bu qandaydir afsonaviy manzara edi, men bunaqasini hayotimda hech ham ko'rgan emasman... Bu...

– To'xta, to'xta, nega buncha hovliqasan? Marhamat qilib, o'zingni bos... Keyin, uyda gapirib berarsan. Kitlaringni qo'y!... Bu yerda bizda shunday voqealar bo'lyaptiki, senga nima deyishimni ham bilmayman! hamma hayajonda. Hamma «Tribyun»ni o'qimoqda. Sizlarning salonda bugungi gazetalar bormi? Aytganday, qaerdan ham bo'lsin. Sizlar samolyotda ekanligingizda bu yerda shunday g'aroyib voqealar sodir bo'layaptiki! Bu «Tribyun» gazetasining shoshilinch maxsus soni, bu haqda hozirgina radio va televiedenie orqali e'lon qilishdi... Hamma bosh ko'tarmasdan o'qiyapti...

– Nima ekan o'zi? Siyosiy sensatsiyami?

– Yo'g'-e... Siyosiy sensatsiya bo'lsa koshkiydi. Senga qanday tushuntirishni ham bilmayman. O'zim hali o'qib tugatganim yo'q. Bu — butunlay boshqa narsa.

– Har holda nima haqida so'z boradi? Nima o'zi?

– Samoviy rohibning Rim papasiga xati! Umuman olganda uning hammaga, butun insoniyatga maktubi, murojaati...

– Nima-nima? Samoviy rohib degani kim ekan? Shoshma, iltimos. Samoviy rohiblar tayyorlanadigan mahkama bormi o'zi?

– Men bir narsa deya olmayman. Bu juda katta mavzu. Hamma o'qiyapti?

– Bu maktub nima haqida o'zi? Uning mazmunini aytib ber. Ikki og'iz so'z bilan tushuntir.

– O'sha samoviy rohibning gaplariga qaraganda u buyuk ilmiy kashfiyat qilgan emish. Endilikda kishilarning dunyoga kelishlarini, tug'ilish-tug'ilmasliklarini odamlarning o'zlari hal qilar emish.

– Nimalar deyapsan o'zi, Jessi?! — Futurolog dovdirab qoldi. — Hech narsaga tushunmayapman. Qandaydir alahlash bo'lsa kerak. Shunaqa deb bo'ladimi? Unda Xudo qaerda qoladi?

– Bilmayman. Ehtimol bu Xudoning amri bilan bo'layotgandir.

– Ana xalos! Nimalar deb valdirayapsan o'zi?! Nima deyayotganiningi o'zing bilasanmi? U yoqda nimalar bo'layapti o'zi?

– Kelganidan keyin o'qib olasan. Hamma bir-biriga qo'ng'iroq qilayapti. Hamma sarosimaga tushib qolgan, ko'plar shu qadar g'azabga minganki, «Tribyun»ni yer bilan yakson qilishga tayyor. Do'stlaring shu topda sening fikring kerak bo'p qoldi deyishayapti. Bu ishlarning mag'zini chaqish,

undan keyin nima bo'lishini aytib berish kerak ekan...

- O'sha samoviy rohib kim ekan o'zi? Orbitada aqldan ozib qolgan astronavtlardan biridir-da?
- Ha, o'sha vataniga qaytishdan voz kechgan kosmonavt ekan, esingdami — kosmik ilmiy stantsiya ekipaji a'zolaridan birining Yerga qaytishdan bosh tortganligi haqida matbuotda xabar berilgan edi.
- Esimda bo'lganda qanday. Uning rus ekanligi, amerikalik va yapon astronavtlari bilan uchganligi haqida yozishgan edi. Lekin oti esimda yo'q.
- Xatda o'zini rohib Filofey deb atagan.
- Filofey? Bu uning haqiqiy ismi ekanmi?
- Bilmayman.
- Bu o'rischa ism. Hozir o'rislardan hamma narsani kutsa bo'ladi. Ular o'z umrlarida nimalarnigina ko'rмаган deysiz... Demak, darvish samoviy hujraga kirib olib, u yerdan turib g'oyalar yubormoqda. Bunisi yangilik!..

## **I k k i n c h i b o b RIM PAPASIGA!**

hazratim! Koinotning o'ta yiroq nuqtalaridan — yer atrofi orbitasidan, mana uchinchi yildirki kosmik ilmiy-tadqiqot stantsiyasida ishlab turgan ekspeditsiyadan sizni bezovta qilganim uchun kechirim so'rashdan oldin fikran qarshingizda tiz cho'kaman va qo'lingizni astoydil o'paman. Osiy bandani kechirasiz va mumkin bo'lsa, mening so'zlarimga qulq ossangiz — gap shundaki, mening amaliy chiqargan xulosalarim va ehtimolki, Tangri taolonning irodasi va amri ila o'z boshimda sinab ko'rigan g'oyalar va bunday qaraganda tamomila tuturuqsizday, hatto axloqiy-tarixiy tajriba nuqtai nazaridan zararliday tuyulishi mumkin. Aks holda, hazratim, men Sizni bezovta qilmagan bo'lur edim, mening Sizga murojaat etishim gunohi kabira ekanligini juda yaxshi tushunaman. Biroq ishonamanki, murojaatimning boisi maktubim mazmunidan anglashiladi.

Shunday qilib, gapni masalaning mohiyatidan boshlayman. Taqdir taqozosi ila kaminai kamtaringa endigina dunyoga kelayotgan ruhning ilgarilari noma'lum bo'lgan xususiyati — inson embrionining refleksiyasi (ruhiy holati)ni o'rganish nasib bo'ldi, refleksianing kashf qilinishi va uning mavjud ekanligini anglab yetish, g'oyat ehtimolki, yaratgan qudratining sir-asrorlarini yaxshiroq bilib olishimizga imkon beradi. Men shu vaqtga qadar inson nigohidan yashiringan ana shu refleksiyani eksperimentlar yo'li bilan aniqlashga muvaffaq bo'ldim va buni men inson zoti evolyutsiyasini takomillashtirish yo'lida yangi bir imkoniyat deb bilaman.

Va shuning uchun, hazratim, mening so'zlarimga qulq osishingizni o'tinib so'rayman.

Takror aytaman, men juda katta kashfiyat qildim, bu kashfiyatning oqibatlari, shubhasizki, insoniyatning bundan keyingi hayotiga ta'sir etajak. Men o'z haqimda shunday deyishga majburman, chunki boshqa biron kishi men erishgan yutuqqa baho berishga hozircha qodir emas, negaki mislsiz kashfiyotlarimning tabiatи haqida hech kim tasavvurga ega emas.

Men shunga amin bo'ldimki, inson homilasi ona qornidagi rivojining birinchi haftalarida o'zining keljak hayoti qanday kechishini ichki his bilan sezish va taqdiri azalga o'z munosabatini bildirish imkoniyatiga ega bo'lar ekan. Agar embrionning qismati keljak hayotda yomon kechadigan bo'lsa, homila o'zining yorug' dunyoga kelishiga qarshilik qilar ekan.

Men embrionda shunday signal-nishon topdimki, embrion tug'ilishga salbiy munosabatda bo'lsa o'zidan nishon, ya'ni signal beradi. Bu signal tug'ilishni xohlamaydigan bolaga homilador ayolning peshonasida kichkinagina rangli dog' shaklida ko'rindi. Men bu dog'ni Kassandra tamg'asi deb, ko'ngilsiz signallar berib turadigan homilani kassandra-embrion deb atadim.

hayratlanarlisi shundaki, odam embrioni homilador-likning dastlabki haftalaridagini taqdiri azalga o'z munosabatini bildirish va falokatdan xabar berish qobiliyatiga ega ekan. Shundan so'ng bu qibiliyat so'nadi, sababki, pusht asta-sekin taqdirga tan beradi.

Kassandra-embrionning keljak hayotdan noroziligi insoniyat hayotining butun tarixi davomida

nishon berib kelgan, albatta. Lekin ba'zi bir homilador ayollarning peshonasidagi rangli dog'ga hech kim ahamiyat bergan emas va hozir ham e'tibor berishmaydi. Men bunday dog'ning ahamiyatini aniqlash barobarinda, uning sezilarliroq, aniqroq namoyon bo'lish usulini topdim. Buning uchun nurlantirish seanslari o'tkazaman, Yerga osmondan turib zondaj-nurlar jo'nataman. Orbital moduldan yo'naltirilgan bu nurlar ona qornidagi cassandra-embrionning impulslarini kuchaytirib beradi. Natijada ilgarilari odamlar husnbuzar deb o'ylashgan kichkinagina rangli dog' fazodan yo'naltirilgan nurlar ta'sirida milt-milt etib o'chib yonib hammaga ko'rina boshlaydi. Zondaj-nurlar atmosferada ko'rinxaydi va kishi tanasi uchun butunlay zararsiz. Bunday nurlarni men osmondan deyarli hamma qit'alarga, butun sayyoraga yo'naltiraman. Bunday nurlantirishdan maqsad — cassandra-embrionlarni yoppasiga aniqlashdir. Embrionlar osmondan turib «so'rov qilinmoqda». Cassandra-embrionlar bergan axborotlarning mohiyatini taxminan mana shunday ta'riflasa bo'ladi: «Erk menda bo'lsa, men tug'ilmaslikni afzal ko'rgan bo'lur edim. Siz yuborgan so'roqlarga signallar jo'natyapman, siz bu signallarni o'qisangiz, kelajakda meni va binobarin mening qarindosh-urug'larimni achchiq taqdir, sho'rpeshonalik kutayotganini bilib olasiz. Agar siz ana shu signallarning sir-asrорларини aniqlasangiz, bilib qo'yingki, men, cassandra-embrion tug'ilmasdan, hech kimni ortiqcha g'am-tashvishga qo'ymasdan daf bo'lishni afzal ko'raman. Siz so'rasangiz — men javob beraman: men yashashni xohlamayman. Bordi-yu xohishimga qaramasdan meni yorug'dunyoga kelishga majbur qilsalar, men taqdiri azalni qabul qilaman, barcha zamonlarda hamma kishilar xuddi ana shunday yo'l tutishgan. Nima qilish kerak, sizlar, birinchi galda menga homilador bo'lgan ona, o'zlarining hal qilingizlar. Lekin dastlab gapimga qulq solishga va meni tushunishga intilinglar. Men — cassandra-embrionman! hozircha men bilan vidolashishga kech emas va men bunga tayyorman. Men cassandra-embrionman, men o'zim haqimda ko'p kunlar davomida xabar berib turaman, men cassandra-embrionman, sizlarga o'z signallarimni jo'natib turaman. Men, cassandra-embrionman, tug'ilishni xohlamayman, istamayman, istamayman... Men cassandra-embrionman!»

Hu-zidan tushunarlik, cassandra-embrion signalini bunday izohlash ayrim holda hech kimni hech narsaga majbur qilmaydi. Homilador ayolning manglayida miltillab turgan Kassandra tamg'asi tezda xiralashadi va nihoyat nom-nishonsiz yo'qoladi. Hamma narsa unutiladi ketiladi.

Biroq, fan bunga befarq qaray olmaydi. Fazoviy kompyuterdan olingan statistik ma'lumotlar cassandra-embrionlar sonining yil sayin ortib borayotganini ko'rsatadi.

Botiniy falokatning bunday ortib borishi — embrionlarning hayot oqimidan bosh tortishga, yo'q bo'lib ketishga, yashash uchun kurashdan bosh tortishga tayyor ekanligi — bular nimadan darak bermoqda? Bizning kundalik tajribamizdan chetda bo'lgan g'ayritabiyy holatdan xulosa chiqarishning ma'nosи bormikin? Agar bor bo'lsa, endigma paydo bo'layotgan organizmning qo'rqinchini real hayotga tadbiq qilsa bo'larmikin? Ona qornidagi homilaning taqdiri azalni sezsa boshlashiga birinchi sabab ana shu gunohkor hayot emasmikin? Ona — o'zicha bir dunyo. Atrofdagi vogelikning homilaga taqdirni hal qiluvchi ta'siri ona orqali amalga oshmayaptimikin?

Bu savollarning hammasi javob kutadi.

Lekin gapni davom ettirishdan oldin, xuddi shu vaziyatda nima Sizga, hazratim Rim katolik cherkovining boshlig'iga murojaat qilayotganimning boisini tushuntirib berishga harakat qilaman.

Sizga, payg'ambar qatori bir zotga, Sizning Iisus Xristosning noibi, muqaddas Petrning vorisi ekanligingiz va shu tufayli dunyoda katta obro'ga ega bo'lganining boisidangina murojaat qilayotganim yo'q, bu o'z yo'liga, yana shuning uchun ham murojaat etayapmanki, Sizning shaxsingiz Yer kurrasida yashaydigan juda ko'p sonli kishilarning axloqiy imon-e'tiqodlari va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgandir. Va men Sizga murojaat qilar ekanman, o'zimning barcha zamondoshlarimga va kim biladi deysiz, ehtimol barcha avlodlarimizga murojaat qilgan bo'larman.

O'z-o'zidan tushunarlik, Siz mening murojaatimni o'rinsiz, andishasizlik deb hisoblappingiz mumkin va hokazo, lekin nima bo'lganda ham yuqorida qayd qilingan «embrion umidsizligi» muammosining muhokama qilinishi ilohiy mo'jizaning yuz ko'rsatishi — katoliklar uchun nozik hisoblanmish tug'ilish

sirlari mavzusiga borib taqaladi, albatta.

Men katolik emasman, lekin bu holat menin katolik diniga bo'lgan samimiy hurmatimga sira ham putur yetkazmaydi. Mening tasavvurimda osmon xilma-xil qushlarning parvoz qilishi uchun makon va maskan bo'lgani kabi o'zining boshqalardan ustun ekanligidan mag'rurlanib qotib qolmagan har qanday din ham turfa ovozlarning yangrashiga yo'l qo'yib berishi kerak. Shu ma'noda katolik osmonidan uchib o'tayotgan qush bo'lib qolsam, o'zimni baxтиyor hisoblagan bo'lur edim...

ha, men dilimda, katoliklarning axloqiy-etik aqidalarini doimo qo'llab-quvvatlayman, chunki bu aqidalarda hayot mantiqiga eng yaxshi javob beradigan va shuning uchun ham umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan, hamma qabul qilsa arziyidigan qadriyatlar mavjud deb bilaman. Bizning dilimizga g'ulg'ula va qiyonoqlar soladigan abort — bola oldirish muammosi haqida so'z borganda, ayniqsa, shunday. Ahvol shu darajaga borib yetdiki, bola oldirish yong'oq chaqishday gap bo'lib qoldi. Odamning dunyoga kelish-kelmasligi osongina hal qilinmoqda. Odamning tug'ilishi kerakmi — tug'ilmasligi kerakmi, inson yashashi kerakmi — yo'ymi? Bu masalani kim hal qiladi? Bularning hammasi tasodifly sabablarga, o'tkinchi voqealarga, ko'pincha turmush hodisalariga bog'liq bo'lib qolayotir. Va ko'plar bunga xudoning nima aloqasi bor, deyishadi. Egamning bunga aloqasi yo'q. Xudo o'z marhamati bilan bizga hayotni in'om etdi. Bundan buyog'ini o'zimiz — urug'ni saqlab qolish yoki aksincha, homilani daf qilish huquqiga ega bo'lgan biz odamlar hal qilamiz deyishmoqda. Kishilarning ana shu to'xtovsiz bahslarida abortni muqarrar tarzda taqiqlash zarur deb biladigan katolik cherkovining mavqeini men eng to'g'ri, aytar edimki, hayotning boshlang'ich qurumiga, uning yaratilgandan e'tiboran qanday ekanligiga mos tushadi, degan bo'lurdim. Chunki har bir zig'irday pushtda, yangilangan har bir homilada abadiylik harakatining takrorlanmas shifri voqedir, paydo bo'lgan har bir mavjudot vaqtlar charxida o'z kodiga ega bo'lib, o'ziga o'xshash mavjudot qoldiradi va bularning hammasini Xudo dunyoni bunyod etayotganda azaldan ana shunday qilib yaratgan.

ha, katoliklar fikriga qo'shilib eslatib qo'yaylikki, bola oldirish Xudoning irodasini inkor etishdir. Necha martalab aytiganki, bola oldirish qasddan qotillik qilish bilan baravar zo'ravonlikdir, abort «qotillik qilma» degan diniy amr va Injilning «O'zlaringdan ko'payib, uvali-juvali bo'linglar» degan oq fotihasiga mutlaqo ziddir.

Bularning hammasi to'g'ri, albatta. Shu bilan birga boshqa nuqtai nazar ham mayjud. Qaerga bormang, homilador ayolning ishiga aralashmaslikka chaqiradigan, hatto go'yo shaxs va jamiyatning manfaatlari yo'lida hech qanday ishtiboh qilmasdan abort qilishni targ'ib etadigan ovozlar yangramayapti deysizmi? Endigina homila shaklini olgan inson bolasining qismati kelajakda dunyoda uni poylab turgan azob-uqubatlar — najotsiz qashshoqlik va kasalliklar, zo'ravonlik, illatlar va xo'rliklar iskanjasiga tushajak. Shuning uchun namoyishga chiqqan ayollar ko'tarib ketayotgan balandparvoz shiorlar (masalan, «homila menikimi — meniki!» kabi shiorlar soddagina qilib aytganda «hamhangiz mendan nari turing!» degani) hech kimni xijolatga solmaydi, xuddi shuningdek, oy-kuni yaqinlashgan piyanista ayollarning «nima bo'pti, ichganman, yana ichaman, ertaga esa bu yaramasni, tekinxo'rni uloqtirib tashlayman va yuraman, yayrayman, va meni balo ham urmaydi» degan hayosiz gaplaridan ko'plar nafratlanmaydi ham. Xudoingiz menga kim bo'pti, gunoh deganingiz nima o'zi?! Menga tupurishar ekan, men ham hammasiga tupurdim!... qabilida bo'lajak insonni qandaydir axlat kabi bir zumda uloqtirib tashlashadi... Va bunda shunday vajlar keltirishadiki, mantiqiga qoyil qolasan kishi.

Hamma joyda bola tug'ishga qarshi ommaviy chiqishlar tobora ko'paymoqda, kishining g'ashiga tegadigan gaplar aytib, parlamentlarda deklaratsiyalarga zo'r berishmoqda, erkaklar bilan teng huquqlilik harakatlarida, maydonlarda va ko'chalarda, izdihomlarda baqrib-chaqirishmoqda... Ko'pgina mamlakatlarda odam zotini davom ettirish erki zaiflashib qolishi u yoqda tursin, balki tag-tomiri bilan sug'urib tashlangan. Bu hol hayotning boshi berk ko'chaga kirib qolganligidan nishona emasmi?

Va shu bilan bir vaqtda hamma joyda o'z holiga tashlab qo'yilgan homilador ayollarning ayanchli qismati barchaga ma'lum. Bu ayollarning qornidagi bolalar kimga kerak? Afrika sahrolarida ham, zamonaviy shaharlarning ko'chalarida ham juda ko'p kishilar ana shunday o'ylashadi. Zaruriyat bilan

imkoniyat o'rtasidagi tafovut tobora ortib bormoqda. Ayni vaqtida... inson bolasining yer yuzidan yo'qolib ketmasligi uchun qo'limizdan kelganining hammasini qilayotirmizi degan shubha va qynoq bilan yashayotirmiz.

Modomiki Yerda baxt topa olmas ekanmiz, avlodlar silsilasini davom ettirishga barham berishimiz kerakmi yoki tegishli ruxsat bo'lsa, boshqa sayyorralarga o'tib ketishga to'g'ri keladimi? Tokaygacha vijdonan o'zini qiyab zorlanish va o'z-o'ziga ojizona savol berish mumkin: bu savollarning hammasiga javob yo'q.

Bu masalalar haqida qancha gaplar bo'lgan, qancha jo'shqin munozaralar bo'lib o'tgan va bularning hammasidan axloqsizlikning hidi anqib turibdi, men bo'lsam xuddi Oydan tushganday bu haqda takroran gapirishga majburman. Men Siz orqali butun insoniyatga murojaat qilaman, chunki yangi, oldinlari butunlay noma'lum bo'lgan falokat yuz berdi: embrionlar najot so'rab bizga murojaat qilmoqda va endi bu haqda o'yamaslik mumkin emas!

Ehtimol, bu falokatgina emas, balki odam bolasining bundan buyongi yo'llini oldindan aytib berish uchun Tangri taolo yuborgan imtihon hamdir. Biroq ana shu sinalmagan yo'ldan yurib qaerdan chiqamiz? Bizni kelajakda nimalar kutmoqda? Bizning ichimizda turib olib o'zimiz haqimizda so'ylab berayotgan cassandra-embrionlardan qochib qaerga boramiz?

Yetti uxbab tushimizga kirmagan jahannam labiga kelib qoldik. Dunyoda yangi bir muhlat boshlandi... Biz bu haqiqatdan ko'z yumib yashay olamizmi?

Xuddi ana shuning uchun hazratim, lozim deb topsangiz, mening kashfiyotim koinot qa'rida birinchi quyosh yonida birdan ikkinchi quyosh paydo bo'lgani kabi insoniyat uchun kutilmagan bir hodisa ekanligiga aniq baho berarsiz deb ushbu xat bilan Sizga murojaat qilayotirman.

Men butunlay sarosimaga tushib qolganman. Stantsiyaning optik asbob-uskunalari meni Yerga shu qadar yaqinlashtiradiki, yerdagi voqelikni idrok etishda masofa deyarli hech qanday rol o'ynamaydi, har qanday bo'lganda ham men jismonan kosmosdaman. Narsa-hodisalarning haqiqiy holatini insoniyat to'satdan anglab olishi lozim bo'lgan paytda men Yerimizda, osiy bandalar orasida bo'lishni xohlar edim. Lekin men bu yerda — fazoda bo'lishim kerak. Men orbitada, ilmiy stantsiyada bo'lishga majburman, chunki samoviy rohib Filofey o'z qilmishlarimga, ya'ni cassandra-embrionlarning flyuidlarini (psixik toklarini) aniqlash uchun zondaj-nurlar seanslarini uzlusiz va muntazam o'tkazib turishga to'la javob beraman. Cassandra tamg'asini aniqroq ko'rsatib beradigan ana shu nurlanish usulini men ishlab chiqqanman va bunga o'z vijdonim bilan javobgarman.

Lekin sayyoradoshlarimizning buni qanday qabul qilishlari meni tashvishga solmoqda. Kishilar hech qachon bunday mislsiz hodisaga duch kelishgan emas. Va odamlar o'zlari o'zlariga ich-ichidan qarshi chiqishdi.

Bo'lajak onalarning peshonalarida miltillab turgan zig'irtday ana shu nuqtachaning nima ekanligini odamlar tushunib qolishsa bormi, hamma sarosimaga tushib qoladi.

Majolsiz qolgan paytlarimda yig'lab va zorlanib Parvardigorga munojot qilamanki, oxirzamon embrionlarining sirini birinchi bo'lib tushunish, genetikaning burchak-burchaklarida biqinib yotgan va endigina yuz ko'rsatgan falokatning mash'um belgisi bo'lmish Cassandra tamg'asini aniqlash birinchi o'laroq menga nasib qildi. Mening ahvolim dahshatli devga ro'para kelgan Faustnikidan ham ayanchli. Parvardigordan menga rahm-shafqat qilishini, men ojiz bandasini afv etishini o'tinib so'rayman. Hech kim, hech qachon bunday ahvolga tushgan emas. Nega endi bu qismat mening hissamga tushishi kerak ekan? hazratim, Sizga murojaat etishga jur'at qilar ekanman, hech kim, hech narsa meni bunga majbur qilmayotir. Balkim mening bu haqda og'iz ochmasligim, o'zim kashf qilgan sirni go'rim-ga olib ketishim kerakmidi? Men agar shu yo'lni tutganimda bormi, bu sirni hech kim bilmagan, menga hech kim ta'na toshini otmag'an va ayb qo'yagan bo'lur edi, albatta.

Nega endi men bu shum xabarni odamlarga ma'lum qilayotirman? Men bu ishni oilani buzmoq uchun, avlodlarga hayotni davom qildirishda, binobarin foni yashashning ma'no-mazmuni bormi deb o'ylanib va cho'chib yurgan har kishida shubha uyg'otish uchun, aql-idrokarda bema'ni to'ntarish yasash, boshboshoqlik va nifoq urug'ini sochish uchun qilmayapman-ku, axir! Buyog'i

qanday bo'larkin? Odam Ato va Momo havodan buyon hayotning metinday mustahkam turgan poydevorining darz ketganini endi qanday qilib asliga keltirib bo'larkin?

Men o'zimga-o'zim bu haqda ko'p marta savol berdim va o'zim ko'p marta javob qaytardim... Oxiri shu xulosaga keldimki, har qanday holatda ham, har qancha mulohazaga borganda ham yashirin embrionlar olamida qilgan kashfiyotim haqida og'iz ochmaslikka haqqim yo'q ekan, chunki takror aytaman, cassandra-embrionlar soni to'xtovsiz ortib bormoqda. Buning sababi — inson hayotining axloqsizligi va falokat yoqasiga kelib qolganligini dunyoviy ongning tobora ko'proq tushunib yetganligidadir. Cassandra tamg'asi — dunyoning oxir bo'lishi yaqinlasha-yotganini ona qornidayoq butun borlig'i bilan va umidsizlanish hissi ila kutayotgan oxirzamon homilasining kadr orti ovozidir. Bu esa homilada yashashga tabiiy intilish hissini so'ndiradi.

Endilikda shu kunlarda industriyalashib bo'lgan jamiyat sharoitida bunday holatni dunyodan yashirib bo'larmidi? Yo'q, albatta, bunday yashirish insoniyatga qarshi, o'z-o'zlarimizga qarshi jinoyat bo'lur edi.

Biz o'z-o'zimizni anglashimizning keskin o'zgarishi oldida turibmiz, chunki shu paytdan e'tiboran biz xohlaymizmi, yo'qmi, shu narsadan ko'z yuma olmaymizki, embrion bo'lajak shaxs sifatida qanday genetik makonda dunyoga kelishiga befarq qaray olmaydi, boshqacha aytganda, bizning kim ekanligimizga, biz kelajak hayotga umid ko'zi bilan qaraydigan nekbinlarmizmi, biz shaxslarmizmi — bu masalalarga e'tiborsiz qaray olmaydi. U tashvishlanib o'z taqdirining periskopidan ko'z uzmaydi, taqdir degani kelajak hayotning ko'zgu orti dengizida suzib yurgan ko'zgu orti suv osti kemasidir. Cassandra-embrionning ana shu periskopiga o'zimiz nigoh tashlasak-chi?! Bizga qaqshatqich zarba berayotgan taqdir qasirg'alariga o'zimiz sababchi emasmikanmiz?

O'ylashga ham yuragim dov bermaydi: cassandra-embrion bizning bu dunyodagi o'z burchlarimizdan yuz o'girganimiz oqibati emasmikan? Bizlar aslida pok ilohiy mavjudotlar qanday qilib shu ahvolga tushib qoldik? Odam bolasi homila bosqichidayoq oxir zamondan xabar bera boshlashi uchun odamlarning ishlari va tafakkurlarida qanday ko'ngilsiz o'zgarishlar, o'pirilishlar ro'y bermog'i kerak edi?

Yillar, asrlar o'ta genlarda kompyuter xotirasidagi kabi nimaiki to'plangan, jamg'arilgan bo'lsa, ana shu hodisada hammasi yuz ko'rsatadi. Bugun bizlarga embrion refleksiysi — Cassandra tamg'asining ekrandagiday aksini topish imkoniyati berilgan. Ana shu tamg'ani bo'rttirib ko'rsatadigan zondaj-nurlarni taqdir taqozosi ila fazodan men jo'natib turibman. Ana shuning uchun men so'z so'rayman. Men, samoviy rohib Filofey shu yo'l bilan hamma gaplarimni aytib olmoqchiman. Bu mening burchim.

Ruxsat etasiz, hazratim, sizning qimmatli vaqtingizni olganim uchun kechirim so'rab, uzundan-uzoq tuyuladigan so'zimni davom ettirmoqchiman.

Kassandra tamg'asi nima ekanligini bila turib, bundan buyon qanday yo'l tutishimiz lozim? Buni tushunib yetish uchun, nihoyat shuni ochiq tan olish kerak: biron kishi tomonidan qilingan yovuzlik shu kishining jismonan yo'qolishi bilan, hayoti so'nishi bilan tugamaydi, balki genetik o'rmonda azaliy urug' shaklida saqlanib qolib, ehtimol bo'lmish iks soatni kutadi va belgilangan vaqtida portlaydigan minaga o'xshab o'zini namoyon qildi.

Aytgancha, ko'chma ma'noda emas, balki chinakamiga belgilangan vaqtida portlaydigan mina haqida gapiRAYLIK. Bu voqe Afg'onistonda, cheklangan sovet qo'shinlari kontingenti shu mamlakatga yuborilgan davrda bo'lib o'tgan. Bu voqealarning siyosiy zamiri yetarli darajada yaxshi ma'lum, men esa urushayotgan kelgindilar tomonidan yasalgan konkret «murda» qopqonlar qanday qo'yilganligi haqida gapirmoqchiman. Dushmanning murdasini qishlog'i yaqiniga, yo'l yoqasiga, ko'rinaridigan joyga tashlab tagiga maxsus mina qo'yishgan. «Kontingentchilar»ning o'zları esa bo'ladigan voqeani suratga tushirish uchun yashirinib turishgan. Kishilar murdani ko'mish uchun olib ketishga kelishlari bilan mina portlab odamlarni joyida o'ldirgan. O'ta sezgir plyonkada butun voqe o'z aksini topgan... Mana vafot etgan afg'onga xotini yaqinlashib keladi. Qo'shnilar uni ushlab qolishga harakat qilishadi, lekin ayol

zor yig'lab, erining murdasiga tashlanadi. Shu zahoti kuchli mina portlab, ayolni va u bilan kelgan kishilarning yostig'ini quritadi. Hammasi o'ladi. Bularning bari kinoga olingan. Boshqa bir kadrda esa hurkib, cho'chib turgan bolalarni ko'rasan. Ular dod-faryod solib, yastanib yotgan otasining yoniga chopib kelishadi va yana mina portlab bolalarning tit-pitini chiqaradi... Yo'l yoqasida o'lib yotgan odam yonidan befarq o'tib ketmasligi uchun otdan tushgan yo'lovchi «bu kim ekan?» deb jasadning yelkasidan tortishi bilan yana portlash ro'y beradi. Va yana qurban. Bosh suyagidan yaralangan ot bor vujudi bilan qocha boshlaydi, so'ngra yiqilib oyoqlarini qoqib, pishqirib jon taslim qiladi. Bularning hammasi plyonkaga tushirilgan... Shunday qilib, «murda» qopqonlarning operatsiyalaridan eng xarakterlilari kinoga olingan. Ana shu yo'l bilan plyonkaga tushirilgan bu manzaralar jangovar topshiriq sifatida baholangan va shtablarda tegishlicha taqdirlangan. Bunday plyonkalarni ko'zdan kechirgan ayrim kishilar bu manzaralarda o'z ko'rsatmalari va maqsadlarining ijrosini ko'rishgan. Bu dahshatlarni ekranada ko'rib o'z kasbidan qanoat hosil qilganlar kimlar ekan o'zi? Ana shunday ajal qopqonlari qo'yib, jinoyatga qo'l urgan va o'z qilmishlarini butun dahshatlari bilan kinoplyonkaga tushirgan mardlar kimlar edi, qayoqdan kelgan edi? Ularning zoti-zurriyoti noma'lum, ota-bobolarining kimlar ekanligini ham bilmaysan. Faqat qilmishlarini ko'rib ularning kim ekanliklarini bilib olsa bo'ladi.

O'z-o'zidan savol tug'iladi — umrbod ta'magirlik bilan va har doim Xudoning jig'iga tegib yashaydiganlar kimlar ekan, biz hammamiz Yaratganning mehr-shafqatini suiiste'mol qilib hamisha uni oliy suyanchiq deb bilamiz va najot yo'lida toat-ibodat bilan murojaat qilamiz-ku unga, xo'sh, bizning jismimizga — genlarimizga yo'qotib bo'lmaydigan yovuzliklar urug'ini ekadigan o'sha battollar kimlar o'zi? Qaerdan kelgan? Ularning o'zlarini kimilardan chiqqan? Javobsiz savol... Lekin shunday degan bilan mushkul oson bo'lmaydi. Bularning hammasining manbai qaerda? Bular g'orda tiriklain ko'milganlarga o't qo'yan ibtidoiy odamlardanmikin yoki bo'g'ib o'ldirayotganda qurbanining qiyonoqlaridan shahvoniy lazzatlanadigan vasvaslardanmikan, ming yillar davomida jaholat va shafqatsizliklarning iblisona jahannamidan o'tgan qancha-qancha zolimu berahmlardan kelib chiqdimikin; va azaldan davom etib kelayotgan ana shu uzundan uzoq ro'yxatda jallod xonning yonida jallodlik qilganlarni yoki o'z tajribasi bilan bizga tanish bo'lgan, partiya galalari orasida mutaassib g'azabnok jarchilarni, balkonlar va minbarlardan turib bor vujudi bilan tomog'ini yirtib-qichqirib, inqilob va urush olovini yoqqan, jon-jahdi bilan hokimiyatga yopishib kattaroq amalgamiga sari quturib qahr-g'azabga to'lgan rahbarlarni eslamay bo'larmidi?

Qon va hokimiyat — yovuzlik urug'lari asrlar osha ana shu chirindi ustida ko'karib kelgan... Yovuzlik o'rnini yovuzlik olgan, o'z urug'larini bo'lajak yovuzlik uchun qoldirgan...

Qo'lga chiroq olib o'tmish changalzorlari ichra allaqachonlar chirib ketganlarning murdalarini qidirish shart emas, shu ma'noda bizlarga ko'p narsalarni aytib bera oladigan davr — Stalingitler davri yoki, aksincha, Gitlerstalin davri hali ko'plarning xotirasidan ko'tarilmagan. Ana shu ikki yarim bir butun shaxs insoniyat uchun shu qadar qimmatga tushdiki, jahon statistikasi oradan ko'p yillar o'tganiga qaramasdan o'zaro urushda, qonli jahon urushida qurban bo'lganlarning umumiy sonini hamon hisob-kitob qilolmayotir, o'shanda fiziologik jihatdan bir butun maxluqning ikkita kallasi hayot-mamot uchun jangga kirgan edi. Bolshevikmsiz fashizmning bo'lishi mumkinmidi? Stalinsiz Gitlerning bo'lishi mumkinmidi va aksincha? Ayrim-ayrim tug'ilgan, lekin jahannam tog'orasida birga cho'qintirilgan Stalingitler va Gitlerstalin nomini eshitganda XX asrda yashayotganlarning naq yuragi chiqib ketay deydi.

Kim biladi deysiz, Gitler bo'lib yoki Stalin bo'lib dunyoga kelish xavfi bo'lgan kassandra-embriyon, kelajakda murda bilan jinsiy aloqa qilishga ham tayyor (nekrofil) sho'rpeshona pusht Kassandra tamg'asi orqali o'zining kelgusi taqdiri haqida butun dunyoni, eng avvalo homilador onasini o'z vaqtida ogoh qilmaganmikin, o'sha embrion o'zining mudhish rol o'ynayajagini ichki bir shuur bilan sezib seskanmaganmikin, unda tug'ilmaslik istagi paydo bo'liganmaganmikin?

Ular dunyoga kelmaganlarida nima bo'lardi? Biron narsa deyish qiyin. Bunday hollarda odatda tarixni qayta qurib bo'lmaydi, deyishadi. Shunday bo'lsa ham, savol berish mumkin: tarix biron bir o'tmish zamonda misli ko'rilmagan shafqatsizlik va odamkushlikning qonli cho'qqisiga ko'tarilishi

uchun Gitler bilan Stalin chizib bergen qonli egri chiziq bo'ylab rivojlanishga mahkum edimi? Ana shu ikki birodar yovuzlikda million-million kishilarni bir-birlari bilan, umuman insoniyatning o'zini o'zi bilan to'qnashtirib qo'yishdiki, o'sha davrda sayyora aholisi o'z-o'zidan tugab, abadiy yo'q bo'lishni o'ziga maqsad qilib olib, pirovardida jamiiki g'ayriinsoniy kirdikorlarni bor bo'yi bilan namoyish qildi go'yo. Tarixni ana shunday jahannam yoqasiga olib kelib qo'ygan barcha sabablar tafsilotlariga to'xtab o'tirilmasa-da, shu haqda o'ylab ko'rishga to'g'ri keladiki, yuqorida tilga olingan shaxslarning irsiyatida saqlanib qolgan mudhish zolimlik kasalining muvaffaqiyat bilan ildiz otishi uchun o'z boshiga balo qilib stalinizmni va gitlerizmni voyaga yetkazgan hamda ardoqlagan kishilarga o'sha paytdagi dunyoviy ong naqadar qo'l kelgan.

U zamonlar o'tdi-ketdi. Kishilar ilmiy bashorat usulini, jumladan, Kassandra tamg'asi orqali signallar berib turgan cassandra-embrionlarni bilganlarida edi, tarix taraqqiyot va rohat-farog'at borasida qanchalar imkoniyatlarni qo'lga kiritgan, qancha-qancha kishilar qayg'u-hasratdan, baxtsizlikdan qutqarib qolning bo'lur edi. Afsuslar bo'lsinki, insoniyat o'zining genetik tuzilishida yashirinib yotgan kalitni juda kech payqab qoldi...

Mana, embrionlarning transtsendental qobiliyatlarini bilib olish yo'lida yangi so'z aytildi. Ana shu kashfiyotlar ketidan bizlarni mo'jizalar kutayaptimi? Yo'q. Azal-azaldan insoniyatga nozil qilingan Ezgulik energiyasini va shu bilan birga ezgulikka qarshi Yovuzlik energiyasini hech Kim o'zgartira olmaydi. Bular bir-biriga teng miqdorlardir. Lekin insonga abadiylikning bitmas-tuganmas harakatini o'zida mujassamlashtirgan aqliy afzalliklar ato qilingan va inson omon qolishni istasa, taraqqiyotning cho'qqlari sari ko'tarilishni xohlasa, u o'zidagi Yovuzlik ustidan g'alaba qilmog'i zarur. Axir kishilarning butun umri bu yo'lida shunday tinimsiz intilishlarda o'tadiki, bizning asosiy burchimiz ham ana shundadir.

Mana, bizning o'zimizda yashirinib kelgan botiniy sir yuz ko'rsatdi. Bu jonli ruhning ilgarilari noma'lum bo'lgan hadlariga chuqur kirib boriladi degan so'z emasmikin? Ichki dunyoning yangi kvantlari topildi degan so'z emasmikin? Buni kim ayta oladi?

Shundaymi, yo'qmi – aytish qiyin, lekin men jamiyatning diqqatini yana shu narsaga qaratmoqchimanki, cassandra-embrionlarning kashf etilishi hayotimizda yangi muammolarni keltirib chiqardi – ilgarilari bunaqasi bo'lgan emas.

Kassandra-embrionning signaliga qanday munosabatda bo'lish kerakligini kim aytib bera oladi. Ota-onalar qanday yo'l tutishlari kerak? Cassandra tamg'asiga taqdiri azalning darakchisi deb qarash kerakmi? Yoki aksincha, uni umuman xayoldan chiqarib tashlash lozimmi? Qo'l siltash kerak, vassalom, oradan ikki haftacha vaqt o'tgandan so'ng, ayniqsa, kechalari homilador ona tinchgina uLAYOTGAN paytda miltillab turadigan g'alati nuqta yo'qoladi, o'z-o'zidan so'nadi, vassalom. Xudo xohlasa, unutiladi ham.

ha, ehtimol shundaydir. Lekin shunga qaramasdan buni eslashadi, ha, bola oy-kuni yetgach, tug'ilgandan so'ng ota-onalar xohlashadimi-yo'qmi haligini eslashadi. Keyinchalik, ehtimol, bu esda ham qoladi, bolalikda, onaning taqdirida, oilaning hayotida har xil mushkul vaziyatlar ro'y berishi mumkin, va har gal Cassandra tamg'asining signallarini eslaganda yurak orqaga tortib ketadi va muvaqqat rangli dog' haqida xilma-xil fikrlar esga kelib, qancha-qancha savollar tug'iladi. Shunisi qiziqliki, bu belgi nima uchun ularning bolalariga, shu ayolning bolasiga to'g'ri keldi, deb o'ylab qolasan kishi. Bunday belgi boshqa onalarda ham bo'ldimikin, agar bo'lgan bo'lsa, ular ham buni hammadan va o'zlaridan yashirishadimi, esga olmaslikka, aql bovar qilmaydigan bir hodisa sifatida unutishga harakat qilishadimi? Bola ham qandaydir yo'llar bilan, elas-elas tush ko'rganday bu haqda shubhalana boshlasa-chi va bu narsa umuman bolaning ruhiyatida aks etadimi?

Bu esa savollar va shubhalarning birinchi to'lqini, xolos. Bundan buyon ular tobora ko'payib, murakkablashib boraveradi. Nahotki ota-onalar o'zlari haqida, o'zlarining bevosita va bilvosita gunohlari to'g'risida o'ylashmasa? Ehtimol ular — ona ham, ota ham hammasida ayblidirlar? Eng og'iri, eng mushkuli shudir, chunki o'zini ayblashdan qiyin azob yo'q. Mana shu o'rinda o'z-o'zidan eng qiyin savol tug'iladi — nima uchun xuddi shu ota-onalarning pushtlari falokat signallari bera boshladi,

buning sababi nimada — ota-onalar xuddi ana shu haqda o'ylaydilar. Embrionni shu ahvolga solgan xilma-xil omillarni, ya'ni o'zlarining biologik individlar sifatidagi xatti-harakatlarinigina emas, shu bilan birga shaxsiy turmushlari, jamiyatdagi hayotlari bilan bog'liq hamma narsalarni — ijtimoiy ahvoli, da'vo-talablari, nafsoniyatlari, maslak-e'tiqodlari: kishining hayotini tarkib toptiradigan va larzaga soladigan jamiyki tushunchalarni, inchunin adolat nima,adolatsizlik nima, yaxshi nima, yomon nima degan tushunchalarni ham eslashga majbur bo'ladilar.

Hayotdagi o'ta xilma-xil jihatlarning ana shunday o'zaro bog'liqligining boisi shundaki, pushtning paydo bo'lishi Makon va Zamondagi markaziy voqeа, tabiat arxetiplarida tarixning mevasidir.

Kassandra-embriон o'ta o'tkir ichki sezim (intuitsiya)ga, zamonning qanday bo'lishini oldindan sezish xususiyatiga ega. Shu bois embrion impulslarini tushunib yetish birinchi galda o'zimizdan tashqarida va o'z ichimizda pala-partish barpo qilayotgan dunyomizning mazmunini anglab yetish demakdir. Shu ma'noda Kassandra tamg'asi, ehtimol, voqealikning mohiyatiga yangidan kirib borishga, ilgarilari biz uchun qatag'on bo'lgan sirni tahlil qilishga turki sifatida Tangri Taoloning inoyati ila kashf etilgandir. Va har bir kishi o'z tushunchalariga qarab va qalb amriga ko'ra xulosa chiqarishga erklidir.

Shu o'rinda ana shu huquqdan foydalaniб, orbital stantsiyada turib kuzatishlar olib borar ekanman, men — samoviy rohib Filofey — so'z so'rayman. Sayyoradoshlarimga murojaat qilayotirman. Yaratuvchi tomonidan bizga ato qilingan hayotning mazmun-mohiyati hurmati, biz yashab turgan dunyoga endigina kelayotgan kassandra-embriонning zamon oxir bo'lishidan nishona bera boshlashiga sabab nima ekanligi haqida fikr yuritaylik.

Bu masala yuzasidan har xil farazlar bo'lishi mumkin. Mening ham o'z fikrlarim bor. Kosmik stantsiyaning takomillashgan asbob-uskunalari turli qit'alarda turli vaqtarda olib boriladigan televizion ko'rsatuvlarni qabul qilishga imkon beradi. Optik asboblar Yer yuzasining turli nuqtalaridan hamma narsalarni turli shakkarda ko'rsatib turibdi. Men yerliklarning kundalik hayotlarini kuzatib turibman, agar men Yerda bo'lganimda edi, bunchalik keng manzarani ko'ra olmagan bo'lur edim. Men shunchaki kuzatuvchi emasman, mening dasturim ham kosmosni, ham Yerni qamrab oladi, men hozirgi va bo'lajak insoniyat oldida ayta olamanki, juda katta mas'uliyat olgan eksperimentchiman. Bu balandparvoz gaplar emas, haqiqat. Shuning uchun, haqiqatga to'la mos kelmaydigan biron ta o'z ayta olmayman. Men ishonamanki, tadqiqotlarim o'zimizning dillarimizda o'zimiz keltirib chiqargan tushunchaning — dunyoning oxir bo'lishi haqidagi tushunchaning oldini olishga yo'naltirilgandir. Men bizning ustimizdan abadiy hukmronlik qilib turgan xudbinlik va riyokorlik imkon bermaydigan so'zlarni hammaga baralla eshittirib aytib olishga harakat qilaman.

Men Kassandra tamg'asini butun bir sistema ekanligini aniqlashga qaratilgan eksperimentlar o'tkazayotgan bo'lsam-da, bu haqda dunyobexabar ayollarga lom-mim demayman. Bu hammaga kelgan to'y. Garchi ana shu ko'zga ko'rinas zondaj-nurlar sog'liq uchun butunlay zararsiz bo'lsa ham, kishilarning dilini og'irtyapman deb har gal vijdon azobida qiynalaman.

Fazodan turib «so'roq» qilinganda kassandra-embriон miltillab nishon bersa bormi, bunday hollarda ularni men tashvishlanishdan xalos qila olmayman. Buni taqdir deydilar, taqdirdan esa qochib qutilib bo'lmaydi. Shuni tushunish muhimki, ana shu taqdir muayyan shaxs taqdiri bo'lsa ham, ayni vaqtda hammaning, butun jamiyatning taqdiri hamdir, chunki bu falokatning sabablari dunyoviy sabablardir.

Biz xohlaymizmi yo'qmi, kassandra-embriонlar bilan Kassandra tamg'asi bor narsa. Va shuning uchun o'zimning kosmik tadqiqotlarimni og'ishmay davom ettiraveraman, bu haqda ochiq gapiraveraman, Yerda bu falokatga uchragan yoki bundan buyon uchraydiganlarga hamdardlik bildiraman. Odamlar o'zları haqidagi haqiqatni bilishlari kerak. Mening Xudo oldidagi burchim ana shunda. Lekin bu holda men tashvish torta boshlayman, hazratim, ana shu tashvishlarimni yashira olmayman va jamoat hukmiga havola qilaman.

Takror aytaman, men o'zim kashf etganim va sirni oshkor qilganim kassandra-embriон oldida ham (axir, oshkor qilinishini kassandra-embriонning o'zi talab etmoqda) va homilani ko'tarib yurgan ona

oldida ham javobgar ekanligimni anglayman, ona Kassandra tamg'asining ahamiyatini tushunmaganda edi, xotirjam yashayvergan bo'lur edi.

Hozir ham ana shu yo'rg'a satrlarni kompyuterda terayotgan paytimda ham qiynalayapman, shunday qilishga haqqim bormi degan fikr meni azobga solmoqda.

Men orbital kemaning devorlarini ko'zdan kechiraman, vaznsizlikda kompyuterdan nariroqqa suzib ketaman, meni alahsitudigan, o'zimning kashfiyotim haqida butun dunyoga jar solib to'g'ri ish qilganimga ishonch bag'ishlaydigan nimalarnidir qidirib atrofga alang-jalang boqar ekanman, stantsiya korpusining har ikki tomoniga o'rnatilgan teleekranlarga ko'zim tushadi. Barcha ekranlar yog'dulanib ishlab turibdi, turli mamlakatlardan turli tillarda teleko'rsatuylar namoyish qilinmoqda. Mana bu yer yuzidagi voqelik, butun haqiqat barcha qirralari va rang-barangligi bilan namoyon bo'lmoqda, reklamadan tortib sportgacha, sud reportajidan tortib rasmiy shaxsning aeroportda kutib olinishiga qadarli, yana qancha-qancha voqeа-hodisalar ko'z o'ngimdan o'tmoqda va hokazo.

Ko'z o'ngimda butun dunyoda namoyish qilinayotgan ana shu serqirra manzara orasida ko'chada hayajonga tushib, shovqin-suron ko'tarayotgan namoyishchilar mening diqqatimni tortadi. Nima uchundir talay politsiyachilar norozilik bildirib ko'chaga chiqqan namoyishchilar bilan birga ketishyapti. Hamma ko'chalar odamga liq to'la, turli nuqtalardan, jumladan baland joylardan ko'rsatuylar olib borilmoqda, kishilarning hayajonli ovozları yangraydi. Joylardagi voqealar haqida gapirayotgan muxbirning va studiya diktiorining ovozini ko'chalardagi shovqin-suron, baqiriq-chaqiriqlar bosib ketadi. Bu voqeа qaerda bo'layapti ekan? Italiyada bo'layotganga o'xshaydi. Shu qadar uzoq va yaqin — Hammasi shu yerda bo'layotganga o'xshaydi: chaqnagan ko'zlar, imo-ishoralar, asabiy chehralar. Ha, bu Sitsiliyada bo'layotir. Kishilar naridan beri yozilgan shiorlarni ko'tarib ketishmoqda. Ha, o'sha. Yana mafiya! Yana terrorchilar. Prokurordan so'ng bu safar bosh sudya qatl qilindi. Qatl qilinganda ham hammaning ko'z oldida, makkorlik bilan shafqatsizlarcha o'ldirildi. Ko'chaning transport o'tadigan qismida uzoqdan boshqarilgan portlatish natijasida barcha odamlar — Hamma-hammasi, ana shu mash'um paytda avtomabilda sudya va uning qo'riqchilari o'tib ketayotgan mahalda shu atrofda bo'lganlarning bari tit-piti chiqib portlab yonib ketdi. Hamma nayranglar barchaning ko'z oldida bekami-ko'st ishladi.

Namoyishchilarining sabr kosasi to'lib toshgan... Odamlar daryosi oqib bormoqda. Lekin ular kimlarga qarshi chiqishmoqda? Ommaning qo'lidan nima kelishi mumkin? Mafiyachilarining o'zlarini namoyish qatnashchilarining orasida miyig'ida kulib o'tirishmaganmikin? Oradan bir-ikki soat o'tgandan so'ng namoyish tarqalib ketadi, mafiyachilar o'z manfaatlaridan voz kechishmaydi, o'zlarini balandparvoz so'zlar bilan mafiya, kartel, sindikat va hatto imperiyalar deb atashadi. Butun-butun mamlakatlar, mafiya mustamlakalari hozirdanoq ana shu kuchlarning yashirin zulmi ostida yashamoqda!..

Namoyish qatnashchilari olg'a qarab borishmoqda. Ularning tepasida esa g'izillab vertolyot uchib o'tib, varaqalarni yomg'irday yog'diradi-da, uylar ortida ko'rinxmay ketadi. Bularning hammasi mening ko'z o'ngimda bo'lib o'tayotir. Odamlar tepadan tushgan varaqalarni ko'zdan kechirishadi. Varaqalarda ajal nishonasi — kalla suyagi yonida ilik suyaklari tasvirlangan... Mafiya ajal urug'ini sochayotganini yashirmaydi. Barchaga, mafiyaga qarshi chiqqanlarning hammasiga o'lim! Oahrli hayqiriqlardan odamlar hayajonga tushishadi. Ko'plarning ko'zlarida yosh qalqiydi. Boshiga beretni qiyshaytirib kiygan, galstugi yechilib ketgan politsiyachi kiyimidagi juvonga ko'zim tushadi. Qo'liga kamera ushlab olgan politsiyachi ayol videoga olayotgan bo'lsa kerak. Juvon vertolyotni suratga olib ulgurdi. Bundan ne foyda? Mafiyachilar ahmoq emas — vertolyot boshqa rangga bo'yab qo'yiladi, chil-parchin qilib tashlanadi, va hokazo. Mana politsiyachi ayolning qo'liga mikrofon tutgan yordamchilari. Ular hayajon bilan nima haqidadir shosha-pisha gapirmoqda. Men ularning ahvolini tushunaman. Butun dunyoda har kuni mafiya qo'lidan qancha politsiyachilar nobud bo'lishadi. Bularning qismati ham shunday bo'lishi mumkin. Ehtimol bu ayolning ham. Nimani ko'rayapman o'zi: uning peshonasida o'sha mash'um xol — Kassandra tamg'asi. Ha, to'g'ri ekan! Men bu kadrni yaqinlashtirib, kattalashtirib ko'raman — adashmagan ekanman. Yo, Parvardigor, politsiya xodimining hech narsadan xabari yo'q,

hozir uning bu haqda o'ylashga vaqt ham yo'q, lekin juvon o'zi-ku bu dunyosini ich-ichidan xush ko'rmaydi, shuning uchun hozir fuqarolarga qo'shilib olib norozilik bildirmoqda, ana shu bor nafrati-hissiyoti bo'lajak farzandiga o'tganini o'zi bilarmikin? Mana, falokat darakchisi uning peshonasida miltillab turibdi. Ha, bu cassandra-embriolarning zondaj-nurlarga aks sadosini aniqlash uchun orbitada turib o'tkazgan seanslarimdan birining amaliy samarasidir.

O'ylab ketasan kishi — bordi-yu ana shu yoki qandaydir boshqa bir cassandra-embriol tug'ilsa, vaqt kelib, xuddi o'sha o'g'il bola (yoki qiz bola) eng dahshatli jinoyatchilardan biri bo'lishi mumkin. Ko'p kishilarga, butun jamiyat boshiga u qancha jabr-jafo, baxtsizliklar keltiradi, katta jinoiy ishlarga qo'l uradi, buning asosiy sabablaridan biri shuki, embriol boshqalardan o'ch olish instinkti bilan dunyoga kelgan, negaki uni tug'ilishga, foniy dunyoni qabul qilishga majbur etganlar. Bolaning keyingi hayotida ona qornidagi davrining fojiali boshlanganligi esida qolmaydi, lekin o'ch olish hissi xavfli samaralar beradi. Agar taqdir taqazosi bilan cassandra-embriondan paydo bo'lgan bola keyinchalik uning salbiy genetik negizini zararsizlantira oladigan muhitga tushib qolsa-ku yaxshi; boshqa hollarda esa undagi yovuzliklarning avj olishi uchun hech qanday harakat kerak emas — tog'dan qulagan tosh tobora tezligi oshib ketaverGANI kabi, ana shunday odam taqdirining o'zi tubanlashib boraveradi.

Kassandra-embriolarning signallariga e'tibor berar ekanman, ularning istiqbollari haqida o'ylab ketaman va ularga achinaman. Ularning nidolari o'zimizga qaytib kelgan kamon o'qimizdir, bu o'zimiz, bu bizning uzlusiz osiyligimiz evaziga tobora avj olayotgan qo'rqinchdan nishonadir. Va shuning uchun bu signallarni — cassandra-embriolarning ovozlarini Yer kurrasida hamma eshitishi, ularning da'vatlari mazmunini tushunishi kerak.

Yo'q, bu o'tkinchi narsa emas, so'z abadiylik to'g'risida ketayotir. Abadiylik o'z-o'zicha abadiydir, inson esa faqat bir yo'l bilan — avloddan-avlodga axloqiy jihatdan takomillashish yo'li bilangina abadiylik sari qadam tashlashi kerak. Taraqqiyot g'oyaning texnikaviy samarasidir, xolos. Kerak bo'lsa butun dunyoni ostin-ustin qilishga tayyorlanayotgan mutaassib yakka hokim qo'lidagi yadro quroli bunga yaqqol misoldir.

Yerliklar cassandra-embriolarning signallaridan tashvishga tusharmikin, bu signallarni genetik inqirozdan, va demakki, insoniyat tsivilizatsiyasi inqirozidan nishonadir, deb qabul qilisharmikin?

Oldindan bir narsa deyishga qo'rqaman. Yana shuning uchun qo'rquamanki, shubha va vijdon azoblari har bir voqeа doirasidan tashqariga chiqmaydi, va Kassandraning har bir tamg'asi ayrim-ayrim holda o'z yechimini va xotimasini topadi.

Ko'pchilik ayollar ana shunday g'ayrioddiy homiladan tezroq qutilishga harakat qilishadi deb cho'chiyman, erlari ham xotinlariga bu borada monelik ko'rsatishmasa kerak. Bunday ayollar bolasini oldirishni eng maqbul yo'l deb topishadi. Aytish mumkinki, bu axloqiy jihatdan ham, shubhasiz, eng to'g'ri vajdir — qismati oldindan ma'lum bo'lgan baxtsiz kishilarni dunyoga keltirishning nima keragi bor? Busiz ham baxti qarolar dunyoda to'lib yotibdi. Bu holda abortga rozi bo'lgan ayollarni kim ayblay olar ekan?! Kim? Jamiyatmi? Tarixmi? Axloqmi? Genetik qo'rqinch shaklida o'nashib qolgan yovuzlikning manbalarini jamiyat tarixidan qidirmoq kerak, axloq esa voqelikning surbetlarcha siquvi qarshisida ko'pincha durustroq samara bermaydi.

Va mana shu o'rinda, hazratim, o'z mavqeimni aniqlab olishni burchim deb bilaman. Men katolik dinining abortni ta'qiqlashini jon-dilim bilan yoqlash barobarinda Cassandra tamg'asini ko'ra-bila turib abort qildirgan ayollarni qoralay olmagan bo'lur edim; buning ustiga bu hol cassandra-embriolarning niyat-maqсадlariga ham mos tushgan bo'lur edi.

Oqibatda biz o'ta murakkab ziddiyatga duch kelayotirmiz. Bunday keskin harakatlar (abortlar) dunyoviy ongning asosiy muammolarini yecha olmaydi, aksincha, yanada kuchaytiradi — pushtda oxir zamon xabarchisi bo'lgan sabablar aniqlanmay qoladi.

Bo'lajak ona quyidagi musibatlar haqida o'ylamasligi mumkin emas:

- ocharchilik;
- xaroba kulbalar;

- kasalliklar, jumladan OITS (SPID);
  - urushlar;
  - iqtisodiy buhronlar;
  - ijtimoiy qasirg'alar;
  - jinoyatkorlik;
  - fohishabozlik;
  - giyohvandlik va narkomafiya;
  - elatlararo qirg'inlar;
  - irqchilik;
  - ekologik, energetik halokatlar;
  - yadro sinovlari;
  - qora tuynuklar
- va hokazo, va hokazo.

Bularning hammasi odamlar dastidan. Odamzodning boshiga tushayotgan musibatlar avloddan-avlodga ortib bormoqda. Va bularning hammasida barchamiz ishtirokchimiz. Mana, nihoyat, Illoh bizni jahannam labida to'xtatib, Kassandra tamg'asi orqali o'zi haqida nishon bermoqda...

Men yana takror aytaman, mening Cassandra-embriyonlarning signallarini aniqlash borasida olib borgan kosmik tadqiqotlarim kishilarning endi bunday yashash mumkin emasligini, bundan buyon avlodlarning, naslning buzilishi boshlanajagini anglab olishlariga yordam berishni maqsad qilib olgan, xolos.

har qaysi kishi, hamma birgalikda, butun bani bashar bir bo'lib, falokat va illatlarga barham berishsa, hayotning istiqbolini yangilashlari mumkin. Bu xomxayollikmi? Yana xayolparastlikmi?! Yo'q, bu navbatdagi xayolparastlik emas. Bu tirik jonning omon qolish yo'li, boshqacha yo'l yo'q...

Imonim komilki, Cassandra-embriyonlardan tezda xalos bo'lish uchun o'zlarini chetga olmaydigan, orqaga chekinmaydigan, mardonavor kishilar topiladi; bunday kishilarga taqdiri azaldan xabar beruvchi signallar ko'p narsalar to'g'risida: inchunin hammaning va har bir kishining hayot tarzi uchun, avlodlar taqdiri uchun mas'uliyati to'g'risida, odam bolsining o'z-o'zi bilan mislsiz bellashajagi haqida gapirib beradi. Bunday kishilar hayotning yaxshilanishiga erishadilar.

Men bunga ishonaman.

Endi qisqacha o'zim haqimda.

Meni hech kim sochimni qirqib rohiblikka qabul qilgan emas, men shunchaki, boshqacha aytganda, shartli samoviy rohibman va ismimni ham shartli tanlab, o'zimni Filofey deb ataganman, qadimgi Rusda shunday ismli rohiblar bo'lishgan. Fazovi hujrada darvishona yashashni o'zim tanlaganman. Bizning xalqaro ekipajimiz — amerikalik, yapon va men (yaqin vaqtgacha sovet olimi va kosmik laboratoriyaning ilmiy rahbari) o'z dasturimizni tugatib, Yerga qaytishimiz kerak edi, men orbital stantsiyani tashlab, ko'p marta foydalilaniladigan fazoviy kosmik kemaga o'tishdan bosh tortdim. Men bu haqda bayonot berdim va meni tinch qo'yishlarini talab qildim. O'tkir ustaranli tomog'imga qadab, sheriklarimni meni o'z holimga qo'yishga majbur qildim. Va o'z so'zimni o'tkazdim...

Mana beshinchi oy, bir yuz o'ttiz yettinchi kundirki, orbitada yakka-yolg'iz yashab tadqiqotlar olib bormoqdamani, Stantsiyada qoldirilgan oziq-ovqat zahiralari menga bu yerda yana ko'p vaqt bo'lishimga imkon beradi. Yomon aytmay yaxshi yo'q degani rost bo'lsa kerak. Sovet imperiyasining parchalanishidan butun dunyo zil ketdi, menga esa bu qo'l keldi. Kosmos uchun xizmat qiladigan yerdagi sobiq sovet mahkamalari boshlari gangib, meni va ilgarilari «Vostok-27» deb atalgan orbital stantsiyani unutib qo'yishdi. Hali-veri eslashmasa ham kerak, taxminimcha, men haqimda o'ylashga ularning vaqtлari ham yo'q, ehtimol, ular kosmosdagi mulklarni yangi davlatlarga bo'lib berish kabi be'mani tadbir bilan hali uzoq vaqtgacha band bo'lishadi, men yashab turgan orbital stantsiyani ham bo'lib olishga harakat qilishlari mumkin, balki kosmosning o'zini ham taqsimlab olishar... Lekin bu ularning ishi. Mening tanlagan ishlarim aniq va o'z burchimni bajarayapman. Men butun insoniyatning fikrini o'rGANIB, Cassandra-embriyonlarning signallarini umrimning oxirigacha aniqlash bilan

shug'ullanishga bel bog'laganman.

Yerda meni hech kim kutmayapti, chunki men so'qqabosh, tashlandiqman, bolalar uyida tarbiyalanganman. Barcha ma'lumotlarga qaraganda, go'dakligimda onam meni qandaydir jiddiy sabablarga ko'ra bolalar uyi eshigi oldiga tashlab ketishga majbur bo'lgan ekan. Mening hayotim qanday kechdi, kosmosga ketishga meni nima majbur qildi — bu haqda hozircha hech nima demayman, bu alohida mavzu.

hazratim, men Sizning nuroni siymongiz oldida yana bir marta bosh egaman. Aybga buyurmagaysiz. Siz orqali odamlarga murojaat etar ekanman, mening birdan-bir orzum — kishilar haqiqatni bilishsin.

*Filofey, samoviy rohib,*

*hayotda — Andrey Kriltsov*

Rim papasiga orbital kompyuterdan jo'natilgan maktubga «Tribyun» gazetasining tahririyasiga yuborilgan xat ham ilova qilingan edi. «shurmatli muharrir! Siz bilan kelishganimizdek, maktubimni bosib chiqarish huquqini faqat «Tribyun» gazetasiga beraman.

Men «Tribyun» gazetasi ana shunday ishga jur'at etib o'ziga o'ta og'ir mas'uliyat olayotganini yaxshi tushunaman. Sizning jasoratingizga qoyilman.

Tahririya mening murojaatimga kelgan eng qiziqarli fikrlarni jo'natib tursa, minnatdor bo'lur edim. Men yerliklarning fikrlarini bilib turishim zarur.

Ehtirom ila

*Filofey, samoviy rohib,  
RX orbital stantsiyasi».*

## **U ch i n ch i b o b**

Uning tushiga yana kitlar kirdi. U okeanda uzoq vaqtgacha kitlar orasida suzib yurdi. U kitlarning to'lqinlar yuvib turgan ko'zlariga boqar va ularning fikrini o'qir edi. Uning o'zi ham kit edi. Va kitlar samolyotdan ko'ringan holatni takrorlaganday o'tkir burchak hosil qilib suzishar edi. Ularni qandaydir g'ayritabiyy kuch ufq sari, go'yo o'sha tomonda nimadir kutayotganday olg'a yetaklab borar edi. Ufq uzoqlashgandan uzoqlashar, kitlar esa qudratli tanalari bilan to'lqinlarni yorib hamon suzib borishmoqda edi. Okean suvi tobora isib, to'lqinlarning zarbidan tana qizib bormoqda edi. Issiq to'lqinlarda suzish borgan sari qiyinlashib, dahshatli tus olmoqda edi. Okean chidab bo'lmaydigan darajada birdan qaynab ketganini ko'rди va tushundi. Okean ustida birdan ikki quyosh paydo bo'ldi. Cho'g'day yonib turgan qizil-jigarrang ikkita shar osmonda bahaybat juft projektor kabi olov purkamoqda edi. Shulardan qaysi biri haqiqiy, mangu quyosh ekanini, qaysi biri esa qaerlardandir daydib kelgan, ehtimol, chinakam quyosh bilan raqobat qilayotgan kelgindi quyosh ekanini bilib olish qiyin edi. U o'takasi yorilguday qo'rqib ketdi. Yonginasida suzib ketayotgan kitlarga qarab qichqira boshladи: "Qaranglar, qaranglar, kitlar, mening birodarlarim! Osmonga ikkita quyosh chiqibdi! Birdaniga ikkita quyosh-a! Eshityapsanlarmi? Bu yaxshilik alomati emas! Okean qaynab ketadi, va biz hammamiz nobud bo'lamiж! Ikkita quyosh — dahshat!..."

Robert Bork qutirgan okeanda o'zini uyoqdan bu yoqqa tashlayotgan kitlar orasida yana ancha vaqtgacha suzib yurdi va keyin qora terga tushib uyg'onib ketdi, uning gurs-gurs urayotgan yuragi qulog'idagi tomirda lo'qillar edi. O'ziga kelguncha ko'rganlari tush ekanligiga ishonmadi. Okean ustida ko'zni qamashtirib turgan ikkita quyosh xuddi o'ngida ko'ringanday ko'z oldidan ketmas edi. Uning tushiga kitlar ko'p kirgan, lekin tepadan birdaniga ikki quyosh kuydirib nur sochib tursa — bunaqasi bo'lgan emas. Dahshat, dahshat!...

Xuddi shu onda u tushida ikkinchi quyosh qayoqdan kel-ganini tushundi. Yalt etib xayoliga kelib seskandi. Buni birdan anglab olmaganiga ajablandi qam. "Qarang-a!" — miyig'ida kulib qo'ydi Futurolog va ko'zgu oldida turgan soatga qaradi. Ertalab soat yetti bo'lib qopti. Xotini qo'shni xonada

hali uqlab yotgan edi.

Bork ertalabki gimnastika qiladigan ochiq ayvonga chiqdi. Lekin bu safar uning miyasi boshqa fikrlar bilan band edi. Dala hovlisidagi jamiki narsalar unga boshqacha mazmun kasb etganday tuyuldi. Hatto hovuz oldida yulduzlarning joylashishiga qarab yaponchasiga qurilgan toshlar bog'i ham bugun butunlay unutgan edi. Holbuki, Jessi tarqatgan yarmi hazil, yarmi chin mishmishlarga qaraganda, jonsiz xarsang toshlar quchog'ida Futurolog har kuni ertalab sehrgarliklar ko'rsatar, qum ustida qandaydir sirli belgilar chizar edi. Bugun hazil-mutoyibalarga o'r'in yo'q. Stolda uyilib qolgan gazeta-jurnallarni ko'zdan kechirish, xilma-xil masalalar yuzasidan turli kishilarga qo'ng'iroq qilish — tezda vaziyatni fahmlab olish vazifasi ko'ndalang turar edi.

hammaning dili-tilida cassandra-embrionlar. Robert shunday bo'lismiga hech shubhalanmas edi. Uning o'zi esa o'zini o'tmish yoshlik yillaridagidek bardam sezaga boshladi, o'sha paytlarda zamonaviy tsivilizatsiya muammolari yuzasidan dorilfununlarda olag'ovur munozaralar bo'lib turar, insoniyatning istiqbolini allomalarining og'zidan tushmay qolgan "Rim klub" modelidagiday hal qilish mumkin, faqat eskilikka yopishib qolgan muxoliflarning fikri o'zgartirilsa bas deb o'ylar edilar. Cassandra tamg'asi atrofidagi voqealar Borkda yoshlik paytlaridagidek qandaydir katta qiziqish uyg'otdi, uni tahlika yo'llini tanlashga, g'oya yo'lida ochiqdan-ochiq to'qnashuvlarga tik borishga undadi.

Bu voqealar Borkni aeroportdayoq giribonidan oldi. Jessi uni eshik oldida olomon orasida qo'lida qalin gazetasi bilan kutib oldi va gazetani silkitar ekan, qandaydir g'alati jilmayar, biron ayb qilib qo'yganday tashvishli va ma'yus edi. Jessi to'satdan yoqqan sharros yomg'irda qolgan kabi bir oz yasharganday ko'rindi. U Borkdan to'qqiz yosh kichik edi, lekin o'qtin-o'qtin betob bo'lar, qon bosimidan azob chekar, hatto holdan toyib, rangi ketib qolar edi, bu gal esa aeroportda erining ko'ziga u xuddi yoshlik yillaridagi kabi hayajonga tushganday jo'shqin bir holatda ko'rindi. O'sha paytlarda u xotinining buyuk navozandalardan bo'lismiga qanchalar to'sqinlik qilgan edi! Axir u ajabtovur violonchelist edi-ku! Unga kanaday yopishib olgan: jinnisang'i o'sha Bork bo'lmaganda edi, ehtimol, Jessi teatr orkestri bilangina cheklanib qolmagan bo'lur edi. Lekin har kimning taqdiri azali o'zida.

Jessining aeroportda aylanma eshiklar oldidagi tiqilinchda aytgan so'zlari jumlasida quyidagi jiddiy ibora erini qarshi olishdan mammunligini ham ifoda etar edi.

— Bilmayman, Robert, nima balo, sen safarga otlanish oldidan o'zingning bema'ni toshlaring orasida qandaydir sehrli belgilar chizganmiding, bo'lmasa yuz bergan bu voqealarni qanday izohlash mumkin? Buni izohlab bo'lmaydi, Robert, hech ham... Tushuntirib ham bo'lmaydi. Bu mislsiz bir hol. Ishon menga, bundan butun dunyo larzaga keladi!

— Demak, mening mixxatlarim nimagadir arzir ekan-da?! — deb javob qaytardi uning so'zlariga yarasha Futurolog.

— Lekin umuman olganda, yetishding, mening aziz Futurologim, sehrgarlikda yetishding... Mana eni buyog'ini bilib olaver.

Yo'lida mashinani Jessi boshqardi. Bork gazetani ochdi, lekin u yoq-bu yog'ini ko'zdan kechirdi-da gazetani yig'ishtirib qo'ydi.

— Yo'q, buni uya bema'lol o'tirib diqqat bilan o'qib chiqish kerak, — deb ko'zoynagini g'ilofiga solib qo'ysi Bork.

— Sen nima deb o'ylab eding?! — dedi Jessi. — Kosmosdan emas, biron kimsa yerdan turib shunday bashorat qilganda bormi, uni olomon qilib o'ldirib yuborishgan bo'lur edi. Tasavvur qilasanmi: embrion, zig'irday pusht salkam fikr yuritar emish! Nimanidir faraz qilar ekan! Va tug'ilishni xohlamayman deb jar solar ekan. Bu jiddiy gap emish. Shunday bo'lismi mumkinmi?!

— Unchalik bo'lmasa kerak, — dedi hayrat bilan yelka qisib Bork. Unga ayoli o'ylamasdan gapirganday tuyuldi, lekin bunaqasi kam bo'lgan, negadir bu safar xotinining nohaq bo'lismini xohladi. — Ehtimol, mavjud embrion refleksiyasi nazarda utilayotgandir. Lekin nima bo'lganda ham mulohaza qilish uchun bahona bor. Zora osiy dunyomizni idrok etishning, hisob-kitob qilishning halol yo'lli topilsa... Bilasanmi, hozir birdan shu haqda o'ylab ketdim. Bunaqasi chindan ham faqat embrion

bosqichidagina bo'lishi mumkin. Shunda ham fantastik tasavvurlarda. To'g'risini aytganda, bir narsa deyish qiyin. Hozir buni qo'yib turaylik, avval uyg'a boraylik, o'qib ko'ray, shundan so'ng masala jiddiy bo'lsa, gaplasharmiz... Bilasanmi, gapiraversam rosa kulasan.

Futurolog xotiniga nemislarning sinchkovligi va o'taketgan rasmiyatichiligi haqida, shu bilan birga yevropaliklarning ichki erkinligi to'g'risida, bu esa ularning amerikaliklar bilan ellashib ketishiga imkon bergenligi haqida jo'shib gapira ketdi. U bir kun ertalab Reyn daryosining sohilida Dyusseldorf shahrida velosipedga minib olib ovozining boricha mashhur bir ariyani ijro etib ketayotgan kishini ko'rib qoldi; velosipeddagi odam oq ko'ylak, lak tufl kiyib, galstuk taqib olgan, boshiga shlyapa kiyganmi, yo'qmi, baribir xuddi opera sahnasidan chiqqanga o'xshaydi. Daryo bo'yida uning ashulasiga quloq osadigan biron ta Jon yo'q. Lekin velosipedda uchib ketayotgan ashulachining hech kim bilan ishi yo'q. Uning o'zi xon, ko'lankasi maydon; to'lib-toshib oqayotgan Reyndan tortib daryo uzra ertalabdan suzib ketayotgan yuk kemalari-yu paroxodlar barcha-barchasi go'yo uning o'zinikiday... Yoz quyoshi endigina ko'tarilib kelayotir. Bu manzara shu qadar ajib va ulug'vor ediki, Bork o'sha tentakvoy ashulachi ketidan quvib ketguday bo'ldi. Dunyodagi bor erkinlik, baxt uniki edi. Qani edi, Bork cheksiz sohil bo'ylab xirgoyi qilib uchib ketayotgan xonandani qarshi olish uchun Reynga kalla tashlab, suza ketsa-yu, unga qo'l silkitsa, suvdan boshini chiqarib biron bir shirin so'z ila uning ko'nglini olsa, yonma-yon birga chopib, dunyoning jamiki tashvishlarini unutsa.

Ular katta yo'lda g'izillab ketayotib o'sha g'alati hofizni eslab rosa kulishdi.

Bork yana o'z uyiga, o'lan to'shagiga, ishxonasi, yozuv stoliga qaytish ishtiyoqida yonar ekan, "Endi uyga, uyga. Ishlash kerak, ishslash!" deb qo'yar edi o'z-o'ziga. Bu haqda o'ylar ekan, odatdagiday vujudida ikki xil tuyg'u jo'sh urar edi — Har gal safardan qaytib kelganda bo'lgani kabi aeroportda — Jessi bilan uchrashganda qandaydir o'kinch, hafta davomida uyda bo'l'maganligi, qo'ldan boy berilgan kunlar uchun achinish hissi uning dilini tirnar edi. Inson o'z umrida qancha kunlarni behuda o'tkazganligini, bu kunlarning qadr-qiyomatini juda kech tushunadi.

Bu safar odatdag'i kayfiyatga yana bir his — samolyotda ekanligidayoq eshitilgan xabarning aks sadosi qo'shilganday bo'ldi. Bunday axborotlar odatda, hammani hayratda qoldiradigan sensatsiya bo'lib alanga oladi-da tezda so'nib qoladi. Lekin Bork bu safar qulog'iga chalingan voqe'a haqida o'ylagan sari ro'y bergen hodisaga o'zini daxldorday, daxldor bo'lganda ham endi undan bosh torta olmaydigan, o'ziga hech aloqasi bo'l'magan mojaroni miyasidan tamomila chiqarib tashlay olmaydigan darajada daxldorday sezib, o'zi o'zidan tobora ko'proq hayratlanardi. Agar tasodifan u sudxonaga kelib qolganda kutilmaganda birdan hukm chiqarishib, sudlanuvchigina emas, balki shu paytda ishni eshitish uchun kelgan barcha kishilar sud protsessida ishtirot etganliklari uchungina aybdor deb topilsa qanday bo'lardi? Bu hukmnomani o'qib eshittirilganligi uchungina bekor qilib bo'lmasa-ya!

Kosmosdan kelgan yangilikdan chindan ham g'alati, kutilmagan va tushuntirib bo'lmaydigan vaziyat vujudga keldi. Rulda o'tirgan Jessi ham bu yangilik og'ushida g'arqday ko'rindi. Buni Bork xotinining chehrasidan, ko'zlaridan bilib oldi. Tabiat Jessiga chaqnoq nigoh ato qilgan — ko'z ilg'amas darajada tovlanib turadigan bu nigoh Robert Bork uchun butun bir olam desa arzigulik. Ular birinchi bor xayriya kontsertida tanishishgan edi — o'shanda Bork uni yosh musiqachilar orasida, Jessi esa Borkni sahma yaqinida, tomoshabinlar o'rtasida ko'rgan edi; shundan so'ng ular bot-bot uchrashib turishdi; o'sha birinchi kundan boshlab, uning ko'zidan "hayotning issiqsov uqlarini" o'qib olishni o'rgandi, uning butun borlig'ini bilib oldi va Jessi ham erining butun fe'l-atvorini o'rgandi. Bir-birlarini bir so'zdan, bir qarashdan tushuna olishlari ularning inoq va baxtli oilaviy hayot qurishlariga zamin yaratdi.

U o'z tabiatiga xos bo'l'magan tarzda o'yga tolib jimib qolgan ziyrak xotinini oldi-qochdi gaplar bilan alahsitmaslikka harakat qildi. Jessining tashvishlanishi uchun durustroq asos ham yo'q edi. Ularning turmush poydevorlari o'ta mustahkam edi, oldindan aytib bo'l'maydigan birdan-bir narsa shu ediki, Xudoning qancha umr ato qilganini hech kim bilmas edi. Hozircha ular o'zlarining ijodiy rejalarini vaqt va sog'lik imkon bergen qadar amalga oshirishga harakat qilishmoqda edilar. Bork shu narsani tushunar ediki, hozir Jessining avzoyi buzuq ekan, demak, u samoviy rohib Filofeyning haligi xatidan

g'alati ahvolga tushib qolgan edi.

"Uyda gaplashib olarmiz, — deb o'yladi Robert Bork. — Ehtimol, hozir yo'ldayoq dorilfunundagi do'stlardan birontasiga qo'ng'iroq qilib, gaplashgan ma'qulmidi? — U telefon dastasini ko'tarmoqchi bo'ldi-yu, yana o'ylanib qoldi.

— hozir emas, oldin o'sha samoviy folbinning maktubini diqqat bilan o'qib ko'ray-chi, undan keyin..."

— Radioni qo'yaymi? — Erining fikrini o'qiganday so'radi Jessi.

— Kerak emas... Radiodagi valdirashlarning menga nima keragi bor? Sen yonimdasan, shuning o'zi yetadi.

— Bu gapingga jon deb ishonaman, juda ishonaman, — dedi Jessi bosiq istehzo bilan, yana bir mashinani quvib o'tar ekan.

— Agar o'sha yerdan turib aytganlari chindan ham bor narsa bo'lsa, unda hech kim chetda qolmaydi, albatta, — deb yuqoriga qaradi Bork.

— Nahotki, sen shu narsaning haqiqatda ham bo'lishi mumkinligiga ishonsang?

— Bilmayman. Bordi-yu bu to'g'ri bo'lsa, hammaning e'tiborini tortishi turgan gap.

— Tilingga tirsak, Futurolog! — rostakamiga tashvishlanib javob berdi Jessi. — Olomon qo'zg'aldimi, undan qo'rqlilik.

— Odamlar o'zlarini halokatga yo'liqqanday his qilishsa bormi, aytib qo'yay, genetika biologiyaning sirli sohasidan siyosatga aylanib ketishi hech gap emas.

— Bu endi quyushqonga sig'maydigan gaplar, Robert, — kuchayib borayotgan ko'ngil vahimasini sal bosib qo'yishga urinib, dedi Jessi. — Yana ham kim biladi, — dedi u endi o'ychan bir qiyofada. — Artur bilan Yelizabet mening jo'nab ketishim oldidan Shnaera aeroportiga telefon qilishdi. Ular ham xavotir olishayapti. Bizning Jon Koshut Atlantadan qo'ng'iroq qildi, spektakl qo'yyapti ekan. U birdan esiga kelib aytdiki, insoniyat tarixining tugashi to'g'risida Fukuyama nazariyasiga bag'ishlangan munozarada sen odamzodni yangi bir fojia, yangi bir ko'rgilik kutyapti degan emishsan. Mana buyog'ini eshit, sening sovuqnfafas Futuroloqing qag'llab, bashorat qilibdiki, tilla topgan tentakday, dunyodagi jamiiyki yovuzliklar orasidan qidirib, jahon urushi o'rniqa odamning qalbidagi urushni — tug'ilsmannikin, tug'ilmasannikin degan muammoni tanlab opti. Futuroloqing jimbiz turganda bunchalik bo'lmasmadi. U bo'lsa, o'ylamay-netmay darvozani lang ochib qo'ydi, mana oqibati, dedi. Men: bunisi nimasi, deb so'rasam u "bu shunaqasi" deydi. O'shanisining oti ham yo'q ekan.

— Ha, bilaman, bilaman, Koshutni, — dedi Bork istehzo bilan, yelkasini qisib. — Hamma vaqt hazil-huzul qilib kulib yuradi, o'zi bo'lsa teatrda Shekspir, Esxil va boshqalarning asarlaridan tragediyalar qo'yib dunyosini naq ag'dar-to'ntar qiladi. Men bo'lsam devorga chiqib olib qag'llayotgan qarg'a emishman. Rahmat bunisiga, "do'stingdan top" degani shu-da.

— E, uni qo'yaver, qandaydir g'alati o'zi. Esingdami, bir kun bunday desa bo'ladi: senga havasim keladi, Robert, xotining ham jononmisan jonon, sochlaring esa hali quyuq. "Meniki-chi" deb edi u. Sen esa unga "Xotinimni tortib olishing mumkin, lekin sochimni, oq bo'lsa ham hurpaygan sochimni hecham ololmaysan" degansan. O'shanda u ko'ziga yosh olgan, kulganini ham, yig'laganini ham bilmaysan, naq artist-a!

Bork uning so'zlarini ma'qullaganday boshini o'ychan chayqab qo'ydi. U uyiga dilini bezovta qiladigan qandaydir og'ir tashvish bilan qaytib kelayotgan edi.

— Bob, sen chindan ham okeandagi kitlarni ko'rdingmi? — dedi Jessi uning fikrini chalg'itib.

— Ko'rganda qanday?! Shuning uchun ham senga qo'ng'iroq qilgandim-da, — qaytadan jonlanib tilga kirdi u. — Tasavvur qilolasammi? Bu manzarani so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. Ko'z oldingga keltir: okeanda bahaybat hayvonlar kemalarga o'xshab suzib ketayotir, suzganda ham kitlar galasi osmonda uchib ketayotgan qator turnalarga o'xshab o'tkir uchburchak hosil qilib suzib borayotir. Ko'z uzib bo'lmaydigan manzara. O'shanda yonimda bo'lsang edi. Yaxshiyamki, telefonda gaplasha oldim. — Bork jim bo'lib qoldi, so'ngra qizishib ketib, so'zini davom ettirdi: — Senga qanday tushuntirsam ekan, bilasanmi, hozir o'ylasam, bu hecham tasodifiy bir hol emas ekan. Mana, quloq sol. Frankfurtda bu

safar tanish-bilishlardan tashqari Avstraliyadan, Melburn dorilfununidan kelgan bir olim ishtirok etgan edi. Har holda avstraliyaliklar bizlardan nima bilandir farq qilishadi, sababini tushunmayman, ehtimol, tupkanning tubida bo'lishgani uchundir. Balki uning o'zi tabiatan shundaydir. Uni men o'zimcha delfinshunos deb atadim, chunki delfinlar bilan juda qiziqar ekan. U tiyrak, risoladagiday, sinchkov, o'zi gapga chechan odam ekan. O'shanda gap tasodifan delfindan boshlanib kitlarga borib taqaldi. Kitlar haqidagi uzoq suhbatdan so'ng biz do'stlashib qoldik. Ehtimol bu senga kulgili tuyular. Ana shu suhbatda men o'zim uchun jumboq bo'lib kelayotgan bir masalani — kitlarning gala-gala bo'lib o'zlarini o'ldirish hodisasini tushunib olganday bo'ldim. Axir buni fan hali-hamon tushuntirib berolmaydi-ku!

— Sen kitlarning qirg'oqqa otilishini nazarda tutyapsanmi?

— ha, xuddi o'shani. Soppa-sog', aqli-hushi ham joyida bo'lgan kitlarning u yo'q — bu yo'q, kelishib olishganday to'satdan kechasi qirg'oqqa yaqin suzib kelib, suv to'piqdan keladigan sayozlikka bo'g'ilib o'lish uchun sakrashadi. Ular o'sha yerda okeanga qaytib ketishga urinmasdan halok bo'ladi. Kitlar nima uchun, qanday sabablarga ko'ra shunday qilishadi?

— Hay, to'xta, — deb uning so'zini bo'ldi Jessi chehrasi ochilib. — Bu haqda gazetalarda qancha marta yozishdi. Xo'sh, sening o'sha avstraliyalik do'sting buning sababini bilarmikin?

— Hamma gap shunda-da. Biz u bilan qanday fikrga keldik degin. Bu hodisa turning o'z jonini saqlash biologik qonuniga ziddir. Boshqacha aytganda, tabiatga ziddir. Hayvonot olamida bunaqasi yo'q.

— Lekin odamlar orasida xohlaganingcha bor.

— Bu butunlay boshqa narsa. Ha, tamomila boshqa narsa. Gap bu haqda ketmayotir. Bu yerda butunlay boshqa bir manzara, Jessi.

Robert Bork jim qoldi, o'rmonlar orasidan tepalikka ko'tarilib boradigan keng avtomobil yo'liga nazar tashlab, yo'l yoqasidagi belgilari va tanish manzarani zavq bilan tomosha qilib ketar edi. Bir zum u o'zini juda baxtli sezdi — yo'lda mashinani Jessi haydar borar ekan u o'zicha kitlarning ulkan bir sirini xotiniga aytib berishini, buni eshitib Jessining lol qolishini, so'ngra ikkalasi bu kashfiyotga maftun bo'lib, mavzuga takror-takror qaytib, uni atroflicha muhokama qilishlarini ko'z oldiga keltirdi.

Shuning o'zi baxt emasmi? Baxt degani dillarning uyg'unlashib ketishi degan so'z. Uyga yetib kelgach, ayvonda xotini bilan suhbat quradi, Jessi qo'ygan musiqani miriqib eshitadi (Jessi klassik xalq musiqasi desa jonini beradi) va o'zi xush ko'rgan oq vinosidan xo'plab o'tiradi... Shu on birdan samoviy rohib esiga tushib qoldi uning, u bugun kayf-safoga o'rin yo'q ekanini tushundi.

— Nega jimb qolding, gapir. Bob. Faqat meni gapirtirib qo'ymoqchimisan?

— Yo'g'-e. Fikrimni jamlayapman. Sen o'sha avstraliyalik Kiffer kitlarning o'zini o'zi o'ldirishi sabablarini bilarmikin deb so'rading. Senga nima desam ekan? U boshqalarning yetti uxbab tushiga kirmagan fikrni aytmoqda. Bu qandaydir mantiqan to'g'ri fikrgina emas, men uni alohida axloqiy-falsafiy mushohada degan bo'lar edim. Ha, ha, shunday. Kulma ham, ajablanma ham. Bu haq gap. Avstraliyalik olim dunyoviy ahamiyatga ega fikrini o'rta ga tashlamoqda. Bilsang kerak, barcha sut emizuvchilar orasida kitlar bilan delfinlar aqliy jihatdan eng rivojlangan mavjudotlardir. Afsuski, ular gapira olmaydi, bu esa hozircha bizlar bilan ular ortasida yengib bo'lmaydigan g'ov bo'lib turipti.

— E xudo, sen ma'ruza qilishga odatlanib qolibsani, Robert. Men tushunolmayapman — qanday axloqiy-falsafiy mushohada haqida gapiryapsan?

— Ana shu g'alati hodisaning tabiatini birorta olim tushuntirib bera olmadi. Kiffer bo'lsa mening ko'z o'ngimda birdan dunyoviy ahamiyat kasb etadigan fikrni o'rta ga tashladi.

— Uning gipotezasining mohiyati nimada ekan?

— U hammani hang-mang qoldiradigan xulosaga kelibdi. U kitlarning gala-gala bo'lib o'zini o'zi o'ldirishida dunyoviy aqning yerdagi hodisalarga aks sadosini ko'rmoqda.

— Bu g'irt xayolparastlik-ku, Robert!

— Bunday dema, aslo bunday deya ko'rma, azizam. Men bu gipotezaning maftuni bo'lib qoldim. Inson ongning mutlaq hokimidir, demakki dunyo oldida burchdordir, agar biz takomillasha olmas

ekanmiz, biz o'n sakkiz ming olamni o'rgana olmas ekanmiz (bizdan talab qilinadigan narsa ham shu, dunyoda biz ana shuning uchun yashaymiz), demak, biz o'z burchini oqlay olmaydigan tekinxo'rлarmiz, hemirilik maxluqlarmiz. Lekin meni kechir, bir oz chalg'ib ketdim. Men faqat shuni aytmoqchi edimki, bizga, odam bolasiga qancha huquq berilgan bo'lsa, biz shuncha burchdormiz. Birinchi galdeg'i burchlarimiz: turmushni, hayotni uyg'unlashtirish, takomillashtirish, bizning barcha orzu-niyatlarimiz, amaliyotimiz shu jumlaga kiradi. Hayotning uyg'unlashishi! Biroq bu sohada qancha buyuk va ayni vaqtida bo'limgur fikrlar tug'iladi, o'zlarimizda deyarli har qadamda qanchadan-qancha hasadgo'ylik, ichiqoralik, razillik yuz ko'rsatadi, axir uyg'unlik degani o'z nafsi tiyish, ma'naviy axloqsizlikka qarshi kurash demakdir. Va bu o'rinda o'z-o'zidan bir savol tug'iladi — vijdon deganining o'zi nima, barcha zamonlarda har bir kishi vijdonni o'zi xohlaganday ayyorlik bilan, o'ziga moslab, bilganicha izohlab keldi, o'zi holicha tabiat oldida, tarix oldida, dunyoning kelajagi oldida, nihoyat, bizni yaratgan va biz o'zimiz o'ylab topayotgan Xudo oldida mohiyati nimadadir?

— Robert, — dedi xotini toqati toq bo'lib, — Agar o'rtta asrlarda yashaganingda edi chindan ham sendan otashin notiq chiqqan bo'lur edi. Shu bilan barobar shakkokliging uchun seni inkvizitorlar jon deb gulxanga tashlagan bo'lar edi. Xudoni o'ylab topib, yaratib bo'ladimi?

— Ha, nima demoqchi ekanligingni endi tushundim. Jessi, sen ham juda aqidaparast bo'lib ketyapsan. Bay, bay, bay. Baribir meni yondira olishmagan bo'lardi. So'z bilan hammasini, hammasini qilsa bo'ladi. Ha, ha. Shuning uchun ham so'z nozil qilingan. Nimaiki xayolimizga kelsa, boshimizga tushsa, barini so'z bilan izhor qilamiz. Inson qo'li bilan nimaiki yaratilibdi, bari so'zning amalga joriy qilinishidir. Ko'priq daryo ustiga qurilmasdan oldin so'z edi. Undan ham muhimi, so'z — abadiylikning o'zimizdag'i imkoniyatidir. Biz o'lamic, lekin so'z qoladi. Shuning uchun ham u — Xudo. Biz ana shu so'zda iztirob ila yugurib yelamiz, so'zlarda — ba'zan qanot bog'lab abadiylikka uchamiz, ba'zida so'z bizni xachir kabi yetaklab olishi muqarrardir. Lekin men boshqa narsa haqida gapiryapman. Hayotning butunlay qarama-qarshi mohiyati haqida — dastlab so'z bo'limganligi to'g'risida gapirayotirman. Bu esa — butun boshli tabiatdir. Misol uchun o'sha kitlarni olaylik. Shu ma'noda ular fojeali maxluqlardir. Gapira olmagani uchun, kitlarga noyob intuitsiya — ichki shuur, faqat shu jonivorlarga xos tafakkur va ruh, o'ziga xos energoinformatsion (energiya hamda informatsiya chiqarib turadigan) biomaydon ato qilingan. Kitlarning ukalari bo'lmish delfinlarga qarab ham shunday xulosa chiqarsa bo'ladi.

— Shunday bo'lsa ham, Robert, sen o'zingga nimalarni kashf qilding?

Robert Bork o'zi uchun o'ta muhim bo'lgan masala yuzasidan og'iz ochishdan oldin o'ylanib indamay qoldi. U har safar aeroportga ketayotganda yoki aeroportdan kelayotganda nima uchundir uyda kam gapiriladigan narsalar to'g'risida so'z yuritish istagi paydo bo'lishini payqadi.

— Bilasanmi, — davom etdi u, — Kifferning gapiga qaraganda (men buni asossiz deya olmayman) kitlar — ochiq okeanlardagi radarlardir, ular koinotdan keladigan signallarni sezishadi, ehtimol, vulqonlarning otilishi yaqinlashganini xuddi o'sha kitlar birinchi bo'lib sezib olishadi va yerning ichki energiyasining siquvidan sassiz o'kirishadi, lekin ular uchun, har qanday kemalar ham bas kela olmaydigan dahshatli po'rtana va to'fonlarga metindek bardoshli bu jonivorlar uchun eng dahshatlisi inson aqli yetmaydigan, payqamaydigan holat, ya'ni nosog' ijtimoiy muhitning, odamlar qilgan yovuzliklarning signallari ta'sirida dunyoviy ruh muvozanatining buzilishi bo'lsa kerak. Aftidan kitlar uchun eng dahshatlisi, ana shu, Alp tog'lardan esadigan shamol (men nimani nazarda tutayotganimni payqagan bo'lsang kerak, bu haqda qancha-qancha adabiyotlar bor) tog' odamlarining tinka-madorini mudom quritib turadigan bo'ron bo'lgani kabi, devkor maxluqlar uchun eng mashaqqatlisi ana shu yovuzliklardir. Axir vulqon qancha qo'rqinchli bo'lmasin, u lavani otib chiqaradi-da so'ngra tinib-so'nib qoladi. Odamlarning yovuzlik shamollari esa tinim bilmaydi. Gap mana shunda. Hayot shunday qurilganki, ezgulik har doim tanqis, yovuzlik esa mo'l-ko'l, oshib-toshib yotibdi. Tasavvur qil, yerda odamzot to'xtatib qolishga ojizlik qiladigan dahshatli bir hodisa ro'y bersa, bir-birlarimizni o'ldirib, qiyonoqqa solib, oyoqosti qilib, surbetlarcha aldab, shu hodisani keltirib chiqargan bo'lamic (biz bunga o'zimizning qilmish-qidirmishlarimiz sabab bo'ldi deb ham qo'yamiz),

kitlar choraszlikdan najot istab bizga keladi. Chunki dunyoviy aqlning barbod bo'lish, yo'qolish, demak, barham topish xavfi tug'ilayotir. Bundan har qanday tilsiz maxluqot zamonning oxir bo'lismashini sezadi. Tirik mavjudotlar ichki sezim bilan ana shundan qo'rqiadi. Nima uchun kalamushlar cho'kib borayotgan kemani tashlab qochadi, deb o'ylaysan. Xuddi ana shuning uchun. Gapirish, so'zlash baxtidan mahrum bo'lgan kitlar bizlarning dastimizdan naqadar azob chekayotganini izhor eta olmaydi, bu holat ularning vujudini siqadi, ezadi, bo'g'adi, keyin ular qanday qilib bo'lsa ham ichini bo'shatish yo'lini qiladi. Buning naqadar azobli, mashaqqatli ekanini tasavvur qil. Esingdami, kimdir aytib bergen edi. Ko'chada bir gung qizni ko'rib qopti. Uning onasini ablah otasi o'ldirib qo'ygan ekan. Sho'rlik qiz esa voqeani odamlarga tushuntirib beraolmaganidan uyoq-bu yoqqa chopib, o'zini tramvay tagiga tashlamoqchi bo'pti. Aftidan, kitlar ham xuddi shu ahvolga tushadi. Lekin bu holat boshqacha miqyosda, dunyo miqyosida ro'y bermoqda. Kitlar, aftidan, lovullab alanga olgan o'rmon yong'inlari uchun okeanda turib bezovta bo'ladi, tog' ko'chkilari ro'y bersa, muzliklar harakatga kelib o'z yo'lidagi hamma narsani yakson qilib ketsa iztirob chekadi, lekin inson xulqidagi nopokliklarga, shafqatsiz va dahshatli yovuzliklarga chiday olmaydi, bilasanmi, dunyoviy aql egasi bo'lgan odamda halokatga olib keladigan ehtiroslarning junbushga kelishiga bardosh bera olmaydi. Bizga dunyoviy aql, substrat, to'g'rirog'i, abadiylik shahodati ishonib topshirilganligi haqida o'ylaymizmi? Shubham bor. Qaerdadir bizning oramizda, muhitimizda o'pirilish, yemirilish, axloqiy buzilish ro'y beradi, yovuzlik va qo'rquinchning ko'rinxmas radiatsiyasi o'sha o'pirilgan muhitdan dunyo bo'y lab tarqaladi, dunyoviyadolatbuziladi, o'ylaymanki, shundayadolatbor narsa, hayotning uyg'unligi izdan chiqadi, shundan keyin kitlar bardosh bera olmaydi va junbushga kiradi, suzib kelib o'zini qirg'oqqa otadi, o'zini o'zi halok qiladi. Tasavvur qil, Atlantika ustida uchib ketayapman va birdan burilib uchgan samolyotning qanoti tagida okeanda bir to'p kit ko'rindi. Men to'lqinlar orasida kitlarning turnalar parvozini eslatadigan shaklda uchburchak hosil qilib suzib ketayotganini ko'rdim-u hang-mang bo'lib nafasim ichimga tushib ketdi, keyin ular qayoqqa oshiqayapti, ularni qanday kuch qaerga va nima uchun haydab ketayapti deb o'ylab qoldim.

— Samolyotdan menga telefon qilib qolganing boisini endi bildim. Men bo'lsam tushunmay, qanday kitlar haqida gapiryapti, nima bo'lyapti o'zi deb yuribman. Shunday manzaraning guvohi bo'lganindan keyin telefon qilasan-da, albatta.

— Men bu manzaraning guvohi bo'libgina qolganim yo'q.

— Hay-hay, sekinoq, — dedi xotini iltifot bilan. — Mening qimmatli futurolog do'stim! — u eriga yengil istehzo bilan qarab qo'ydi.

— Shunday qilish sening tabiatingga xos narsa. Lekin bunisi qiziq bo'ldi, hatto juda qiziq. Menga qara, bu rostdan ham norozilikning o'ziga xos bir shakli bo'lsa-chi? Voy esim qursin, Robert, benzin olishimiz kerak-ku, qara — benzinimiz tugayapti. Kitlar haqida bahs qilib, yeldek uchib ketaveribmiz-u...

Ular benzokolonkaga burilishdi-yu, hamma narsa — samoviy rohib ham, kitlar ham, barcha mavhum fikrlar bir zumda unut bo'ldi. Shundan so'ng shahar chetidagi ko'cha bo'y lab ketishdi, endi uylari juda yaqin qolgan edi.

Bork birdan o'zining charchaganini his qilib dedi:

— Jessi, bugun telefon qo'ng'iroqlariga javob bermaymiz. Avtomatga qo'yib qo'y, yozilib qoladi. Charchadim. Yo'l azobi go'r azobi...

— Faqat bir marta qo'ng'iroq bo'lishi mumkin. Bugun kechqurun Oliver Ordok telefon qiladi. Unga seni bugun uchib keladi deb aytgandim. U senga, hatto Yevropaga telefon qilmoqchi bo'lувди.

— Oliver Ordok-a?

— Ha, o'sha. U prezidentlikka o'z nomzodini qo'ygan. Bundan xabaring bormi?

— Borlikka bor. Hozir nomzodlarning hammasi birinchi qurdan o'tishayotir. Lekin undan qochib qutulib bo'lmaydi. U tutganini kesadigan odam. Masalaning mohiyatiga yetmaguncha telefon qilaveradi.

— Kechirasani, Bob. Men yo'q deya olmadim.

– Mayli, qo'ng'iroq qilaversin. E, xudoyim-ey, Oliver Ordok bilan talay vaqtadan buyon telefonda gaplashgan emasmiz. Esingdami, u vitse-gubernator edi. Shu shtatda fan, ta'lif ishlari va aholining ish bilan bandligi masalasi bo'yicha shug'ullanar edi. Bizda xalqaro ilmiy konferentsiyalar tashkil etishga yordam bergen, esingda bo'lsa. Gorbachev qayta qurishining birinchi yillarida bиргаликда Moskvaga borganmiz. O'shanda u yerga butun dunyodan siyosatshunoslar, futurologlar to'plangan edi. Ordok siyosatshunos hamda shtat ma'muriyatining vakili sifatida ishtirok etgan. Ha, qayta qurish, qayta qurish! Biz hammamiz Sharqda ham, G'arbda ham seskanib tushganday bo'ldik, nimasini aytasan! Romantikaga to'la paytlar. U mendan yoshroq, lekin hozir uyam anchaga kirib qoldi.

– Ellik oltida, — eslatdi Jessi. — Gazetalarda shunday deb yozishmoqda: ellik olti yoshli Oliver Ordok. Uni qara-ya! Men ham taxminan shu yoshlarda bo'lsa kerak deb o'ylovdim. Bundan chiqdi, Oliver Ordok yurak yutibdi-da, taqdirini sinab ko'rmoqchi bo'pti-da. Oliy hokimiyatning sehriga qarang. Birdan ishi o'ngidan kelib qolsa-ya? Saylov kompaniyasi ochiq dengizday gap, to'lqin turib qolsa, qarabsanki, qirg'oqqa otib tashlaydi. Jamoatni og'zingga qarata olsang, bas. Sezgirlik, ustomonlik kerak. Bu jihatdan Ordok o'zini suvda suzgan baliqday his qiladi. Fikri unchalik teran bo'lmasa ham, ayni vaqtida ahmoq ham emas.

– Ha, o'sha damlar esimda. Yaxshi xotirlayman. O'shanda Moskvada bo'lganimizda, sakson oltinchi yil edi, sen Kremlida, saroyday eski, katta zalda forumda so'zga chiqqan eding, forumni Gorbachevning o'zi boshqargan edi. Ordok ham biz bilan birga edi. Esingda-mi? O'shanda binoyiday, hatto yaxshigina ma'ruza qilgandi.

– Binoyiday. Binoyiday bo'lganda qanday. U g'ayrat-shijoat bilan zavq-shavqqa to'lib so'zlagan. U har doim fursatdan to'g'ri foydalana biladi. Garchi takror aytaman, bilimi bo'lmasa ham. Ehtimol, bunday hollarda teran bilimning o'zi kerak emasdir. Omaning ongiga ta'sir eta olish uchun, avvalo, nomzodning dasturi dolzarb bo'lmog'i lozim. Undan tashqari, kishining nuktadonligi katta rol o'ynaydi.

– Hoy, Robert, yetar, boyta kitlar to'g'risida vaysab edik, endi bo'lsa Oliver Ordokka yopishib oldik. Bizning boshqa tashvishlarimiz yo'qmi? Ko'p o'tmay uyg'a yetib kelamiz. "Ordok, Ordok" deb valdirayveramizmi?

– Hozirgi populizmning mohiyati ham ana shunda-da, Jessi. Bir shaxs deb hamma telba bo'lib qoladi, o'sha shaxs ham hamma uchun telba bo'lib qolganday. Biz Amerikada bundan mustasno emasmiz.

– Albatta. Faqat nima uchun u birdan shoshilinch suratda senga – Yevropaga qo'ng'iroq qilmoqchi bo'pti? Boisi ne ekan?

– Bu yerda fol olib o'tirishga hojat yo'q. O'ylaymanki, o'sha samoviy rohib hozirning o'zidayoq ko'plarning boshini og'ritdi, birvarakayiga dovdiratib qo'ydi. Sababi xuddi ana shunda deb o'ylayman. Yanayam xudo biladi.

– Bunga sening nima daxling bor! Kosmik fenomen yuzasidan Ordokka sen ham telefon qilishing mumkin edi, Bob. Salom, mo'ysafid, Rim papasiga kosmosdan kelgan maktub haqida nima deya olasan deyishing mumkin edi. Esingdami, Moskvada o'rislar bunday hollarda "masalani nima bilan hazm qilish mumkin" deyishadi. Sen ham "bu sensatsiyani nima bilan iste'mol qilsa bo'ladi, azizim Ordok", desang bo'lardi. Nega shunday deb bo'lmas ekan?

– To'g'ri aytasan. Hozirning o'zidayoq ko'plar senga qo'ng'iroq qilishdi deganding. Nima uchun odamlar kosmosdagi savdoyining qiliqlarini meni izohlab beradi deb o'ylashadi. Buning sababini tezroq bilib olishim kerak. Bu shunchaki safsata bo'lsa-chi?

– Safsata bo'lsa, kulishamiz, jinnilik qilamiz.

– Hay, hay, bunday deya ko'rma. Bunday safsatalar yaxshilikka olib kelmaydi.

– Mana isbot, senga bahona topilsa bas. Kulgisevar frantsuzlarning seni pessimistlikda dunyoda buning oldiga tushadigani yo'q deb atashlari bejiz emas. Bu gaplarning barini uygayam olib kirma, ko'chaga tashlab ketaylik. Bugunga shuncha muammo ko'plik qiladi — orbitadagi rohib Filofey deysanmi, okeandagi haligi kitlar deysanmi, eh-he, men esa ertaga orkestr bilan jiddiy repetitsiya qilishim kerak... E, Xudoyim-ey...

– Men o'zim bugun sen bilan bafurja suhbatlashib o'tirmoqchiman, Jessi... Mana, uyg'a ham keldik.

## To'rtinchibob

Bamaylixotir dam olishning iloji bo'lindi. Kech soat yettidan oshishi bilan telefon jiringladi. Ayol kishi dadil ohangda, kech bezovta qilgani uchun kechirim so'radi-da, mister Bork prezidentlikka nomzod mister Ordok bilan gaplasha olarmikin deb qoldi. Shundan so'ng Ordokning o'zi gaplashdi. Har doim so'zamol, o'ta samimi odam bu gal nima uchundir hayajonda edi. Ikki do'st o'rtasidagi erkin suhbat qirq minutdan ko'proq davom etdi. Robert Bork ish yuzasidan ko'pgina kerak-nokerak gaplarni eshitdi. O'zi ham ko'nglidagi gaplarini aytib oldi.

Suhbat hazil-mutoyibadan boshlandi:

– Xelou, Robert, qaytib kelganing rost bo'lsin, men senga aytib qo'yishim kerak: bu safar Amerika qit'asida sening kelishingni hech kim menchalik kutmagan bo'lsa kerak, bundan sening go'zal rafiqang mustasno, albatta, seni Reyn sohilida qandaydir frankfurtlik jononlar davrasida uchratib qolsam kerak degan umid bilan Yevropaga jo'nashga ham tayyor edim.

– Rahmat, Oliver! Frankfurtlik ayollar chindan ham go'zal. O'ylaymanki, sen meni faqat shu sababli axtarib yurmagandirsan. Boshqa biron gaping bo'lsa kerak. Ancha vaqtidan beri ko'rishganimiz yo'q.

– Ha-da, juda gap ko'p. O'zing tushunasan-ku: jin ursin, aytganday keyinroq jin haqida men senga tunov kuni o'zim guvoh bo'lgan qiziq bir voqeani so'zlab beraman, buyog'ini eshit, sen Yevropa bo'ylab sayr qilib yurgan kezlaringda men saylovoldi kampaniyasiga o'ralashib qoldim.

– Bilaman, bilaman. Bunga qattiq kirishgansan.

– Qattiq bo'lganda qandoq. Menga yetarlicha beli baquvvat, eng muhimi, manfaatdor puldorlar sherik bo'lishmoqda. Lekin gap bu haqda ketmayotir, aqcha bir orkestr bo'lsa, ashulasini sening o'sha manman do'sting, ya'ni kamina aytishim kerak. Buning ma'nosi nimaligini o'zing mendan ko'ra yaxshiroq bilasan. Faqat biron natija chiqarmikin? Bu jiddiy masala. Biroq men orqaga chekinmoqchi emasman. Qisqasi ezmaliq qilishga o'r'in yo'q. Sen buni juda yaxshi bilasan. Omma bilan uchrashuvlarda obro'yimga obro' qo'shamoqchiman (olomon demoqchi emasman, hecham, har qanday holda ham, ha, albatta, umumzakovat, buni men barcha uchrashuvlarda ta'kidlayapman, men barcha darajalardagi umumzakovatning rivoj topishi tarafdoriman). Shunday bo'lsa ham sen — sen o'zimiznikisan, aytib qo'yay, sening ikkiyoqlama muhitlar haqidagi maqlolalarining o'qiganim bor, demakki, populizm degani portlash xavfi bo'lgan mintaqaga kirib qolgan bilan baravar: odamlarning ko'nglidagidek qadam tashlamasang, javob bermasang, fikr bildirmasang, birovlarining ko'ngli to'ladi, boshqalarniki — yo'q, va hamma sendan nimadir kutadi, va bunga har qanday holatda ham tayyor bo'lib turmoq darkor. Eng muhimi, muammolarni o'z nuqtai nazaringdan xalqqa tushunarli qilib gapirib berishda. Ular, saylovchilar nimalarni kutishadi — muammolarning hal qilinishini. Allo, allo, eshitayapsanmi? Robert, kechirasan, men senga — olimga qayoqdagi narsalarni gapirib o'tiribman, o'zim ham xijolatdaman. Lekin hozirgi paytda mening qismatim shunday. Ko'chada o'tib ketayotgan har bir kishi meni tushunishi kerak.

– Xavotir bo'lma, Oliver. Men seni eshityapman, qulog'im senda.

– Rahmat. Eng muhimi, dunyodagi hozirgi krizis holati qarshisida o'z dasturimni — Amerika istiqbolining strategik dasturini saylovchilarga tushuntirib berishga harakat qilaman. Dunyoda krizis bo'lib turgan paytdagi dasturimni. Ta'kidlab aytaman — krizis holati dasturini. O'z-o'zimga shunday deb qo'yaman — Hayot o'zi qachon krizis holatida bo'Imagan. Krizis har doim, hamma zamonlarda bo'lgan. Har doim kimdir o'zini tahlika ostiga qo'yib boshqalarni o'z ortidan ergashtirgan. Shu ma'noda krizis odamlarni ergashtirish, ishontirishning zaruriy shartidir. Konstituttsiya va mavjud qonunlar bor bo'lsin, dunyoda osoyishtalik hukmron bo'lsa birov birovga qulop solarmidi? Krizis bo'lmasa, birov birovning gapiga kirarmidi? Men shunday deb tushunaman. Ko'rib turibsanki, mening dasturimning bosh g'oyasi abadiy muammodan — Hammaning va har bir kishining hayotini ertaga

qanday qayta qurish kerakligi masalasidan kelib chiqqan. Albatta, har bir kishi hayotda o'zi uchun yaxshi o'zgarishlar bo'lismeni istaydi, istabgina qolmasdan bunga qanday erishish kerakligini, erishganda ham tezda farovon turmushga erishishni xohlaydi. Senga kulgili tuyulmasin, lekin odamlar buni bila turib, o'zlarini ishontirish va yana ishontirish kerakligini tushunmaydilar.

Ordok o'zining bu sohadagi mulohazalari va tashvishlarini hikoya qilib berguncha Bork prezidentlik lavozimiga da'vogarning gapidan saylovoldi mashaqqatlarining ma'lum va mashhur mavzularini payqab olish bilan birga nomzodning hozircha yashirinib yotgan fikrini, asl maqsadini ham anglab oldi.

Suhbat zamiriga nazar solinsa, Ordok suhbatdoshida yaxshi taassurot qoldirishga, grajdalar va demokratiya printsiplari manfaatlari yo'lida go'yo xavf-xatarga rozi bo'lganiga va hayajonli nutqlar bahonasida o'zini bezovta qilgan qandaydir masalalarni oydinlashtirishga urinayotganini bilib olish mumkin edi. U chindan ham ana shu maqsadda qo'ng'iroq qilgan ekan.

Bork Ordokni partianing mahalliy bo'limining boshlig'i sifatida shu firqaga qarashli binodagi katta cho'zinchoq oynali keng kabinetda, telefonlar va boshqa orgtexnika o'rnatilgan stolda, qora ko'n qoplangan aylanma kursida patlarini hurpaytirgan qushga o'xshab gavdasini sal orqaga tashlagancha, o'n beshinchi qavatning oynalari orqali qarshidagi xuddi shunday baland binolarning oynavand qavatlariga telefonni qulog'iga tutgancha ma'nosiz qarab o'tirgan holatda tasavvur qildi. Oliver Ordok har qancha dilkash va samimi bo'lmasin, u haqda xilma-xil fikrlar mavjud edi — birovlar yaxshi desa, birovlar yomon der edi, hatto uning o'taketgan ziqna ekanligi to'g'risida mish-mishlar ham yurar edi va hokazo. U populist-siyosatchilik bobida itday hid bilar emish. Bunday mish-mishlar kimlar haqida bo'lmaydi deysiz. Buning ustiga ishni advokatlikdan boshlab yashin tezligida o'ziga jamoat fikrini tortsa-da, boshqalarning ko'zini kuydirib g'alaba ketidan g'alaba quchsa, uni yaxshi bilganlarning tanqidiy gaplariga tupurib, yo'q yerdan martabaga erishaversa.

Ordok dastlab kasaba uyushmasi, so'ngra ekologik harakat sohalarida amallarga mindi, teleekranlarda va matbuot sahifalarida ko'rinish, anchagina qobiliyatli ekanligini namoyish qildi. Bu esa zamonning dolzarb talablariga, uning o'z tili bilan aytganda, notanish kishilarning ehtiyojlariga to'la javob berar edi. U yirtqichning izidan tushgan itga o'xshab, past tabaqalarning ijtimoiy kayfiyatini xatosiz aniqlay olar va bu muhitga ta'sir etar ekan, yuqori tabaqaning tanqidiga matonat bilan bardosh berar edi. Shu yo'l bilan yutib yurdi. Shak-shubha yo'qli, muvaffaqiyat qanot bag'ishlar, ishonch ato qilar, odamni o'zgartirib yuborar edi. Ordokning hatto tashqi qiyofasi ham birdan tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketdi. Uning qushlarnikiga o'xshagan yuzini va tomirlari bo'rtib chiqqan bo'ynini qoplab yotgan qandaydir oqish-kulrang dog'lar ham o'z-o'zidan yo'qolib ketdi.

Ordokning ko'zlar ostiga qoramir dog'lar tushgan, go'yo sho'ra sachraganday yuzi yaqin-yaqinda ham Gebbelsning hayajonli yuzini eslatardi. Bu yog'ini eshiting, uning vrach bir raqibi o'z vaqtida shunday degan edi: Ordokning yuzidagi dog'lar uning shuhratparast orzu-istiklarining, hokimiyatga bo'lgan chanqoqligining ruhiy ko'satkichidir. Agar taqdir kulib boqmaganda edi, uning butun nimjon badani boshidan oyog'igacha ana shunday antiqa dog'lar bilan qoplanar, u xuddi shu zaylda go'rga ketgan bo'lur edi. Oq'ziga kuchi yetmaydiganlar ana shunday mish-mishlarni tarqatishar edi. Sir nimada ekanligini biladiganlar aksincha, Ordokka achinar edilar, chunki bu dog'lar kam uchraydigan va olapes deb ataladigan asab kasalidan nishona edi. Ordokning yuzidagi dog'larning o'z-o'zidan yo'qolib ketishiga uning sabr-bardoshliligi va nihoyat, ko'pdan buyon kutilgan maqsadlarga erishib ich-ichdan keskin o'zgarishi sabab bo'ldi deyishdi. Ordokning basharasidagi nuqson uning siyosiy muvaffaqiyatlari tufayli barham topdi desak kulgili tuyuladi. Lekin aslida shunday bo'lib chiqdi. Ammo turmushning ikir-chikirlari unutildi ham. Oliver Ordok ekranlarda soppa-sog' ko'rindi, dog'lardan nishon ham yo'q. Uning serharakat, o'ynoqi qora ko'zlar yo'qotgan narsasini axtarganday doimo jiddiy boqar edi. Ordokning tan olishiga qaraganda, u o'ziga qarshi bo'lgan odamni bir ko'rsam der edi. U raqibiga ro'para chiqar va uni iskanjaga olar edi. Buning ustiga Ordok binoyiday va'xon edi: jaranglagan ovozi, so'zlarni chertib-chertib talaffuz qilish, ta'sirchan imo-ishoralar, xullasi kalom, olomonning diqqat-e'tiborini tortadigan jamiyki sifatlar notiqa muhayyo edi.

Ordokning Bork e'tiborini eng ko'p jalb qilgan xususiyati, butunlay tasavvur qilib bo'lmaydigan nodir fazilati shu qadar hayrotomuz ediki, asti qo'yavering. Chindan ham biron kishiga aystsangiz bunga umuman ishonmaydi, bo'lishi mumkin emas deydi. Bork buni orqavorotdan eshitib emas, balki shaxsan bilar edi, chunki ular Oliver Ordok bilan bir dorilfununni bitirishgan, lekin turli yillarda o'qishgan — Bork sal oldin, u esa keyinroq o'qigan, Bork tarix fakultetini, Ordok bo'lsa yuridik fakultetni tugatgan. O'shandan buyon ko'p vaqt — bir necha o'n yil o'tdi, lekin dorilfununda o'tkazilgan romantik yillar ularni yaqinlashtirgan edi. Ordokning eng noyob qobilyati shunda ediki, u telefonda qachon, kim bilan, nima haqda gaplashganlarini umr bo'yi yodida saqlab qolar edi! ha, u telefon orqali qilgan hamma suhbatlarini yoddan bilar edi. Aytaylik, biron arzimas masala yuzasidan bo'lsa ham, bundan o'n-o'n besh yil oldin qaysi kuni, soat nechada, kim bilan qancha vaqt gaplashganini aytib bera olar edi, masalan, uning bir vaqtlar aeroportning ma'lumotxonasiiga qo'ng'iroq qilgani yoki bir ming to'qqiz yuz yetmish birinchi yil 12 avgust chorshanba kuni soat uchda birdan benzokolonkadan telefon qilishgani degandek. Xotiraning ana shunday xususiyatini, kallada shu qadar bemaza ma'lumotlarning to'planishi mumkin ekanligini hech kim tushuntirib bera olmadidi. Robert Bork Ordokning ana shu g'alati fazilatiga ba'zan havasi kelsa, ba'zida esa undan dahshatga tushar edi. Bu haqda gohida mutlaqo jiddiy, ayrim hollarda esa kulgili va qo'rqinch bilan o'ylar edi, rost-da, bunday bema'ni qobiliyatning odamga nima keragi bor? Bu Tangrining mukofotimi yoki aksincha, jahannamdan yuborilgan jazomi? Kim biladi?

Robert Bork birga o'qigan o'rtog'inining telefondagagi ezmaligiga qulq osgan paytida ham Ordokning o'sha fazilatini esga oldi. Birdan o'ylab ketdi: «Salomat bo'lsak, balki o'n yillardan so'ng hozirgi suhbatimizni ham gapirib berar, men bo'lsam hammasini unutgan bo'laman, ajab emas, birdan mening ham esimga tushib qolsa... Buning nima keragi bor?».

Shu asnoda u gap mavzusini o'zgartirib muddaoga o'tdi:

— Endi, Robert, dardimni eshit. Uzr, gapni uzoqdan boshlashga to'g'ri keladi; shunday bir voqeа ro'y berdiki, uni dab-durustdan tushuntirib berolmayman. Sen buni yaxshi bilasan, albatta, bu haqda butun Amerika shang'llayapti. O'sha samoviy rohib, oting qurg'ur — Filoveymidi, Filovey-a?

— Filofey, — to'g'riladi Bork. — Ismi Filofey. Men uning maktubini bir soat oldin o'qidim.

— O'zim ham shunday bo'lsa kerak deb o'ylagan edim, Robert. Bilasanmi, cassandra-embryonlar muammosi shaxsan mening boshimga tosh bo'lib tushganday bo'ldi. Bundan ko'ra dahshatli zilzila bo'lgani yaxshiroq edi. Meni kechirasun, tushkunlik ruhimni ezib tashladi. Umrimda hech qachon bunday ahvolga tushmaganman. Shu vaqtga qadarli jahannam nima ekanini tasavvur ham qila olmas edim, hozir esa jahannam yoqasida turibman. Men raqibimni qidirib topishga va hammaning ko'z o'ngida u bilan bellashishga odatlanganman, bu yerda esa o'zingni qanday tutishingni, kim bilan ish qilishingni, qo'y-chi, kim bilan solishish kerakligini bilmaysan. Aytmoqchimanki, bu qandaydir mavhum narsa. Shu bilan bir vaqtida, aslini olganda bu hammaga va har bir kishiga daxldordir, hammamiz gangib qoldik, balki faqat sen va senga o'xshagan allomamisan allomalarining e'tiqodigina o'zgarmagandir.

— Kechirasun, Oliver, — uning so'zini bo'ldi Bork, — men ham bu borada hamma qatoriman. Ochig'ini ayt, nega endi bu masala yuzasidan boshqa odam qurib qolganday menga murojaat qilayotirsan. Ikkalamiz ham bir dorilfunundan chiqqanmiz, men xohlaganiningcha senga qulq solishim mumkin, shunday bo'lganda ham...

— Ochig'ini aytaman. Bu fikr menda paydo bo'lgani yo'q. Bu masala yuzasidan sharh va maslahat so'rab senga murojaat qilish g'oyasini mening yordamchim Entoni Yunger aytdi. U yosh yigit, ishchanligidan tashqari o'ta savodli, falsafa bilan ham qiziqadi. Men uni hurmat qilaman. Shu desang, gangib qolgan mening barcha maslahatchilarim va yordamchilarim ko'zlarini ola-kula qilib, qo'llarida «Tribyun» gazetasi bilan chopib kelishsa g'alati bo'lib ketibman. Ertaga men okrugda odamlar bilan, xalq bilan katta uchrashuv o'tkazishim kerak. O'zing bilasan-ku, demokratiya bilan xalq bir narsa. Men hamma narsaga tayyorman, har qanday savollarga shayman, lekin men o'sha cassandra-embryonlar to'g'risida so'rab qolishlarini eslaganimda, bilasanmi, sal narida yo'lbars turganday yuragim orqaga

tortib ketadi. Birdan kosmosdan momaqaldiroq gumburlashi yetti uxbab kimning tushiga kiribdi. Oldinda — saylovchilar bilan qancha uchrashuvlar rejalashtirilgan. Men nima qilish kerakligini hisob-kitob qilib o'tiribman. O'zing bilasan, biz amerikalik saylovchilarimiz, o'ta sinchkov xalqmiz, janjalkash desa ham bo'laveradi. Buni hamma biladi, bizni butun dunyo kuzatib turibdi, shunday bo'lishi mumkinki, bizning serxarxashaligimizdan hammaning kulgusi qistashi hech gap emas. Demokratiya — birdan-bir maqsad. Xuddi ana shunday. Xudo haqi, meni kechir, yana mavzudan chetga chiqdim. Shunday qilib, men nima demoqchi edim? ha, ertaga saylovchilarim mening hamma oziq tishlarim joyidami-yo'qmi ekanligini bilib olish, mening tish doktorimdan so'rab bunga ishonch hosil qilish barobarinda o'sha samoviy rohibning maktubi yuzasidan fikrimni albatta bilishni xohlaydilar. Men nima deyishim kerak? he yo'q, be yo'q, yelkamni qisib turaveramanmi? Siyosatchi uchun bu umuman yarashmaydi.

— Bu haqda savol berishlariga aminmisan?

— Aminman! O'ylab o'tirishga hojat yo'q.

— Demak, faqat bir yo'l bor — Filofeyning kashfiyotini o'z-o'zimizni kosmos orqali tuzatishimiz deb tan olish lozim. Bu kosmik zondlash orqali botin ko'zimizga ko'ringan yangi bir manzaradir. Shunday emasmi?

— Ehtimol shundaydir, lekin bilmayman, men bunday deyishga tayyor emasman. Sen bilan gaplashish yaxshi, lekin bunday tuzatma, qo'shimcha, paroksizm, yangi nuqtai nazar kerakligini odamlarga qanday tushuntirish mumkin? Farqi nimada? Osmoni falakdagagi rohib qandaydir cassandra-embrionlar, ularning dunyoga kelishdan bosh tortishi, umuman olganda tajriba qilib bo'lmaydigan mislsiz narsalar to'g'risida so'z yuritadi. Agar bu faqat ilmiy sohagagina daxldor bo'lganda ham bir gap edi. Axir Filofeyning Rim papasiga, aslida butun insoniyatga murojaat qilayotir. Buning ustiga Rim papasining o'zi nima der ekan? U umuman javob qaytararmikin? Mening Rim papasining ahvoliga ham, o'zimning ahvolimga ham havasim kelmaydi. Papa Vatikanda, rohib osmonda, men esa olomon qarshisidaman!

— To'xta, to'xta, Oliver, birinchidan, sen bir o'zing emassan. — vaziyatni oydinlashtirmoqchi bo'lib so'z qotdi Bork. — Bunda hamma...

— Tushunaman, tushunaman, lekin kechirasan, gapimni oxiriga yetkazay. Sening nima demoqchi ekanligingni bilib turibman. Sen demoqchisanki, bu muammo sof shaxsiy muammo, har bir kishi ana shunday paroksizm degan narsani qabul qilish-qilmaslikni faqat o'zi hal qilishi kerak. Ha, lekin tashqaridan qaragandagina shunday, Robert. Bizning hozirgi zamon — ko'cha noroziliklari va olomon talablari zamoni, shaxsiy tashvishlarni ma'muriy tuzumga yuklab qo'yadigan zamon. Hatto OITS (SPID) uchun ham ma'muriy sistemani aybdor deb bilishmoqda. Hozirgi odam shunday maxluqliki, sal ko'ngilsiz hodisa ro'y berdimi, avvalo o'zini emas, balki tuzumni aybdor deb hisoblaydi. Shu paytda samoviy rohibdan shunday yangilik kelib qoldiki, uni kimga to'nkash, qaerga ag'darish kerakligini bilmaysan. Endi nima qilish kerak? Umuman olganda muammolar to'lib yotibdi. Lekin ko'plar bu safar ham hunar ko'rsatmoqchi — men o'z hamkasblarimni, siyosatchilarini nazarda tutyapman, — bu ishda ular saylov oldi kampaniyasidan foydalanib qolishga urinmoqdalar, hatto qirg'inbarot urushdan ham naf ko'rib qolish mumkin. Men demoqchi bo'lganim shu.

— Ha, do'stim, bugun senga oson emas. Men seni tushunaman, Oliver. Biroq Filofey maktubi mening uchun muammo emas deb o'ylama. Men ham hayajondaman. Lekin shuni aytishim kerakki, muxoliflar Filofeyning da'volarini rad etolmas, fosh qila olmas ekanlar, bularning hammasi chin bo'lib chiqadigan bo'lsa va haqiqatdan-da nodir kashfiyot qilingan bo'lsa, kashfiyot deganimiz ham ruh paydo bo'lishining biopsixologik faktoriga, embriondagagi intuitsiyaga, jumladan oxirzamon nishonasiga (men uni «Filofey nishonasi» deb atagan bo'lur edim) aloqador bo'lsa, erk va qo'rqinch, tug'ilish bilan o'lim kishi hayotida qanday o'r'in tutsa, bu ham bundan buyon xuddi shunday o'r'in tutajak.

— Hatto shu darajadami? Nahotki shunday bo'lsa, unda hech narsa deb bo'lmaydi. Hayratomuz gaplar! — Ordokning ovozida samimiy hayrat va ranjish alomati sezildi. — Unday bo'lsa bundan buyon nima qilmoq kerak?

- Sen nimani nazarda tutyapsan?
  - Men nimani nazarda tutishim mumkin? Biz sen bilan musohaba qilgan yuksak materiyalar o'z yo'liga, lekin men saylovchilarning savollariga konkret javob berishim, «Filofey nishonasi»ga o'z munosabatimni bildirishim kerak. Bu borada tushunmovchiliklar bo'lmasligini xohlar edim.
  - Ha, seni tushunaman, — Ordokning fikrini ma'qullab dedi Bork. — O'ylab ko'rish kerak...
  - Biron soatdan so'ng telefon qilsam-chi? Rostdan ham, Robert, g'alati bo'lib ketayapman. Xotirjam bo'lganimda seni bezovta qilmagan bo'lur edim ham, lekin o'zim nafsoniyati kuchli odam bo'lganim uchunmi (men shunday odamman, xudodan yashirmaganni bandadan yashirmayman) o'sha auditoriyada o'zimga o'zim kuchli ishonishim hecham kifoya qilmaydi. Sening gaplaringdan payqadimki, bu — inson tabiatida butunlay yangi bir haqiqatdir. Axir biz amerikaliklar, o'zing bilasanki, hamma sohada birinchi bo'lmosg'i imiz, o'zimizning mustaqil va boshqalarga o'rnatko'lib bo'ladigan fikrimiz bo'lmosg'i zarur. Xudo ko'rsatmasin, bugun galaktikadan o'zga sayyoraliklar kelib qolishsa, ertaga o'shalar bilan achenlashib tushgan rasmlarimizni bosib chiqarishimiz kerak. Aks holda biz amerikalik bo'lomaymiz.
  - Ha, to'g'ri, xuddi shunday, — kului Bork va qo'shib qo'ydi: — Albatta, endi telefonda gaplashishlar kifoya qilmaydi, balki muhimroq narsa, aytaylik qandaydir forum, yo'q deganda maxsus konferentsiya, bittagina konferentsiya emas, bizning Amerikadagina emas, balki boshqa mamlakatlarda ham konferentsiyalar o'tkazilmog'i kerak, bu tashabbusni aholi zich yashaydigan regionlar, birinchi galda Rossiya, Xitoy, Hindiston, Yaponiya ayniqsa jon deb qo'llab-quvvatlaydi, Filofey uloqtirgan tosh suv yuzida qanday to'lqin hosil qilajagini tasavvur etaman. Lekin boshlagan suhabatimizni davom ettiraylik. Nima qilmoq kerak, ertaga nima qilamiz? Axir sen, Oliver, o'zingning saylovoldi dasturing bilan chiqmoqchi eding shekilli? Shundaymi? Sen hozirgina saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazding, sening o'zingning birinchi o'ringa qo'ygan masalalaring, dalil-isbotlaring, har bir da'vogarda bo'lganidek, ta'sir qilish usullaring bor. Matbuotda nomzodlarning reytingi to'g'risida ma'lumotlar ko'zga tashlandi. Xomcho'tlar, bashoratlar. Sening ishlaring chakki emasga o'xshaydi. Men sening raqiblarining ham yaxshi bilaman.
  - Hamma gap shunda-da. Juda kuchli, tadbirkor shaxslar. Ana shunday kutilmagan omil — Filofey nishonasi mana men deb turganda o'shalarni hech ham unutib bo'lmaydi.
- Bork uning ko'nglini ko'tarishga urindi:
- Menimcha, hali vaziyat aniq emas ekan, bu haqda gaplashishga vaqt erta. Prezidentlikka nomzod ekansan, bu mavzuning senga bevosita aloqasi yo'q.
  - Oliver Ordok og'ir xo'rsindi.
  - Sen u qadar haq emassan, — e'tiroz bildirdi Ordok. — Albatta, butun tarix uchun hecham mas'ul emasman. Lekin bu vaziyatning saylovoldi ishlarimga ta'siri meni tashvishga soladi. Endi menga qulq sol, Robert. Mening senga murojaatimga kelganda shuni aytish kerakki, hozirgi yoshlar seni yaxshi bilishadi va ma'naviy jihatdan senga ergashishadi. Ko'p vaqtingni oldim, men tasodifan qo'ng'iroq qilayotganim yo'q, axir sen mashhur futurologsan va hokazo, bizdek siyosat amaliyotchilariga senga o'xshagan allomalar maslahat bermasa, kim maslahat beradi. Saylovlardagi raqiblarim tullak siyosatdonlardir, ular orasida men yangiman. Bilasanki, hozir birinchi qur, agar oldindan to'g'ri siyosiy yurishlar qilinmasa, o'yindan chiqib ketish hech gapmas. Ana shu vaziyatda saylovchilar kimni afzal ko'rishadi? Qanday mavqe tutish kerak? Ochig'ini aytganda, men konservator deb nom chiqarishni xohlamagan bo'lar edim, buning keragi yo'q, shu bilan birga biron sohada inqilob qilish — Hamma vaqt xatarli bo'lib kelgan. Qandaydir bema'nilik, tushunmovchilik sababli, aytaylik, ana shu samoviy voqealari munosabati bilan poyganing boshidayoq o'yindan chiqib ketish alam qiladi. Men hammasiga tayyorman, saylovoldi kurashining hamma variantlari, Olimpga ko'tarilish yo'lida ro'y berishi mumkin bo'lgan barcha mushkulotlar hisob-kitob qilib qo'yilgan. Xuddi ana shu paytda samoviy rohibning «Assalomu alaykum» deb qolishi qiziq bo'ldi-ku! Nima qilish kerak — «men sen bilan» deymanmi yoki «seni jin ursin, nari tur» deymanmi? Xudo haqqi, bunaqasi tushingga ham kirmaydi. Lekin go'rga borasanmi? Shu masala yuzasidan sening fikringni bilmoxchi edim, shunchaki qiziqsinib emas, balki

zaruratdan. Kutilmaganda ovozlarni boy berib qo'ymasam bo'lgani. Mana muammo qaerda.

— Yaxshi, Oliver, men hammasiga tushunganday bo'ldim, — javob berdi Robert Bork, Ordokning g'ayrati va shijoatiga qoyil qolib (Siyosiy jihatdan omon qolish uchun siyosatchilar bilan bel bog'lab kurashish oson emas!).

Bork rohib Filofeyning kosmosdan dumli yulduz yanglig' uchib kelishi kishilarning ongiga qanday rahna solganligi, dunyoda qanday yovuz ig'vo-ehtiroslar xuruj qilganligini bir lahzada ko'z oldiga keltirgach, miyasiga qon quyilganday bo'ldi, qulog'i shang'illab ketdi. Bu yaxshilikka olib keladimi yoki yomonlikka? Bevosita qo'yilgan savolga javob berish kerak edi.

— Agar sen, Oliver, saylovoldi poygasida ishtirok etmaganingda ham, — dedi Bork telefon simining narigi uchida suhbatdoshi uni ko'rib turganday beixtiyor bosh chayqatar ekan, — o'shanda ham baribir muhokama qilinishi kerak bo'lgan masalalar topilardi. Gap menin Filofey maktubi ta'sirida bo'lganidagina emas. Gap shundaki, men har qancha shubha qilmayin, Filofeyning xulosalarini rad etish uchun asos topolmayapman. Aksincha, ishonch paydo bo'layotir.

— Ishaqish kerak demoqchimisan?.. Bu nimaga olib keladi, Robert?

— Zamon nimaga olib kelgan bo'lsa, o'shanga. Bundan buyon masala shunday qo'yiladi — biz Filofeyning kashfiyotini ma'lumot uchun qabul qilamizmi yoki uni qo'limizdag'i dalillar bilan rad etamizmi, yo bo'lmasa, hech qanday muhim voqeа ro'y bermaganday, pinagimizni buzmay turaveramizmi, Filofeyni xira pashshaday haydab yuboramizmi? Birinchisi ham, ikkinchisi ham, uchinchisi ham hozircha bizning ixtiyorimizda. Bordi-yu Filofey ko'targan muammolardan o'zimizni chetga oladigan bo'lsak, hayot doimgiday davom etaveradi, Kassandra tamg'asidan bexabar bo'lganidorda, cassandra-embrionlarning genetik fojeasi to'g'risida tasavvurga ega bo'lmanidorda boshqa gap edi, lekin biz buni bilib oldik. Endi qanday yo'l tutish kerak? O'zimizcha hech qanday xavf yo'q deb beparvolik qilib turaveramizmi yoki haqiqatdan ko'z yummay, oxir zamonning muqarrar ekanligini sezib, cassandra-embrionlarning ovozini eshitib turaveramizmi? Nima qilish kerak? Kechagina insoniyat bu haqda hech narsa bilmas edi, bugun esa bundan xabardor. Boshqacha aytganda, tashxis qo'yilgan. Oqibatda inson o'z jismida o'zini yangidan kashf etdi deyish mumkin — o'zining endigina paydo bo'lib, unib kelayotgan pushtida u o'zi kim, oldingi avlodlarning irsiy yo'l bilan o'tgan illatlari uni qayoqlarga, qanday genetik zimistonga olib ketadi? Biz o'sha mudhish ko'zguda o'zimizga yaxshilab razm sola olamizmi? Yoki ko'rmaslikka olib, o'zimizni borgan sari burchakka ko'proq tiqaveramizmi? Men Filofeyning kashfiyotini ana shunday tushunaman.

— Hm, hm, — kuchanib to'ng'illadi Oliver Ordok telefonda va og'ir uf tortib jimb qoldi.

— Nima uchun jimb qolganiningni tushunaman. Lekin menin fikrimni umuman inobatga olmasliging ham mumkin. Eshityapsanmi?

— Eshityapman. Har holda sening fikring men uchun muhim, Robert. Mening boshqa yo'lim yo'q — men yutishim yoki yutqazishim mumkin, bu menin yo'l tanlay olishimga bog'liq. Tushunyapsanmi? Yutqazish esa mena hecham yoqmaydi. Nega endi men yutqazishim kerak ekan? Tushunib turibman, masalan, men ish tashlovchilar tomoniga o'tsam yoki aksincha, aparteidga qarshi namoyishchilarning birinchi saflariga qo'shilsam, yo bo'lmasa, aksincha, bunday yo'lni ma'qul ko'rmasam va hokazo. O'shanda sen nima uchun mag'lub bo'lganiningni bilasan, jin ursin. Biron arziydigan ish uchun! Bunda-chi? Kosmik stantsiyadagi qandaydir telbaning xayoliy gipotezasi uchun martabangni, ehtimol, bo'lajak prezidentlik mansabingni xavfga qo'yasanmi? Qanday be'manilik bu! Ana shu voqeа yo oldinroq emas — yo kechroq emas, xuddi shu paytda ro'y berib qolsa nima deysan? Kechirasan, o'zimning shubha va dardlarimni aytib olyapman.

— Qulog'im senda, Oliver. Gapisaver. Lekin Filofeyning kashfiyotini qandaydir xayoliy gipoteza hisoblab to'g'ri qilmayotganga o'xshaysan. Bu sening ishing, albatta. Lekin o'sha gipoteza emas, balki bor narsa deb qo'rqaman. Agar shunday bo'lsa, bu hodisa yer yuzidagi barcha kishilarga taalluqli bo'lib chiqadi. Biron tarmoqda ish tashlash, shaharlarning ko'chalaridagi namoyishlar va boshqa siyosiy voqealar Filofeyning kashfiyoti oldida hech gap bo'lmay qoladi. Demak, hamma narsani o'z o'niga qo'yib, o'zimizga hisob bermog'imiz darkor.

Ularning har ikkalasi o'ylanib jim qolishdi. Yana Oliver Ordok tilga kirdi:

– Shunday ekan, sen, Robert, Filofeyning maktubini qo'llab-quvvatlashni maslahat berasanmi?

– Bilasanmi, Oliver, sen har narsaga siyosiy yondoshib o'rgangansan. Bu tushunarli, albatta. Lekin men bu masalada shaxsiy mayllarni inobatga olmayman. Filofeyning dalillari va mantiqi bilan hisoblashmaslik mumkin emas. Samoviy rohibning kashfiyoti shuni ko'rsatadiki, insoniyat yangi sinovlar oldida turipti. Shuning uchun meni to'g'ri tushun. Sen — siyosatchisan, sening muiddaong muammolarning dolzarbligini payqab olish. Kayfiyatlar yo'nalishini sezish. Men bo'lsam olimman, futurologman. Sen mening fikrimni bilmochchi bo'lding. Agar sal nafim tekkan bo'lsa mammunman.

– Katta rahmat, Robert. Matbuotni kuzatib boraman. Sen bu masala yuzasidan matbuotda va televidenieda chiqasan, albatta.

– Yaxshiyam Jessi mening kelganim haqida hozircha jurnalistlarga lom-mim demaydi.

– Bundan chiqdi Jessi seni mendan — shilqim Ordokdan himoya qilombabdi-da? Lekin jahling chiqmasin. Men sen bilan do'st bo'lganim uchun yuragimni yozdim. Aslini olganda men beorroq nusxaman, yaxshigina ezmaman. Aytgancha, men senga shayton haqida gapirib bermoqchi edim.

– Shayton haqida? ha, esimga tushdi. Xo'b, shayton haqida nimalarni eshitar ekanmiz?

– Qiziq bir voqeа. Tasavvur qil, men yaqinda birinchi saylovoldi uchrashuvini o'tkazdim. Katta zalda igna otsang yerga tushmaydi. Besh ming chamasi odam bor! hayajondaman. Dasturimni aytib berdim. Nimalarnigina so'rashmadi deysan. Bachchabozlikdan tortib xalqaro munosabatgacha. Sport bilan shug'ullanamanmi, oilam qanday, ishqivozligim va hokazo. Birdan mikrofon oldida bir nusxa paydo bo'lib, shunday savol beradi: «Mister Ordok, marhamat qilib ayting-chi, sizning shaytonga munosabatingiz qanday?» Men dovdirab qoldim. Zal jim bo'lib qoldi.

– «Shaytonga munosabatim? Qanday shayton haqida gapirayotirsiz?!» — «Siz haqingizda, mister Ordok. Siz — shaytonsiz!» — «Bu nima deganingiz?» — «Siz mister Ordok, vengersiz. Venger tilida Ordog «shayton» degani! Siz buni yodingizdan chiqarmasligingiz kerak edi, mister Ordok!» Zal sharaqlab kulib yuborsa bo'ladi. Meni ter bosib ketdi. O'sha nusxa qo'shimcha qildi: «kechirasiz, mister Ordok. Men shunchaki gapirayotganim yo'q? Sizning Amerikada eng mashhur shayton bo'lib qolishingizni xohlayman!» Va yana zalda shipni yorguday kulgi gumburladi. Bu yog'i qanday bo'ldi, Robert?

– Bunaqasini o'ylab ham topolmaysan! Buni Jessiga ham aytib beraman.

– Aytib ber, aytib ber, bir maza qilib kulsin.

– O'key! Zarur bo'p qolsam, qo'ng'iroq qilarsan.

– Albatta, — javob berdi Ordok, u xayrashmoqchi edi, birdan gap boshqa yoqqa burilib ketdi. — Eshityapsanmi, Robert, mening xom kallamda betamiz bir fikr nish urdi, — dedi Ordok, telefon dastasiga kinoya bilan «hm, hm» der ekan. — Tasavvur qil, bordi-yu, bizning yo'limizda to'satdan o'sha samoviy rohib paydo bo'lib qolsa, o'shanda unga nima kerakligini hech kim bilmaydi, shunda sen bizning komandamizda bosh maslahatchi bo'larmidring? O'sha kampaniya paytida, albatta. Tabiiyki, tegishli haq evaziga. Lekin gap bunda emas, Xudo haqi, meni kechir, buni pisanda qilmasa ham bo'lardi.

– Rahmat, Oliver, taklifing uchun rahmat, — qandaydir keraksiz mavzuga burun suqmaslik uchun shoshib javob berdi Bork. — Lekin aytib qo'yay: o'zimning ishlarim shu qadar ko'pki, ulgurmayman. Senga tong sahardan qora kechgacha yoningda yelib-yuguradigan uddaburon, ishchan yigitlar kerak. Axir bu kampaniya ovozlar ketidan quvish degan so'z. Men bo'lsam bu ishga keksalik qilaman.

– Unday dema, Robert, unday dema. Sen o'zing o'ylagan darajada keksa emassan. Sen o'zingni qari qilib ko'rsatyapsan. Mening gapimga ishon. Men chin dildan gapiryapman. Ma'qul bo'lsa, o'ylab ko'r. Shoyad! Kosmos Filofeyi bo'lgandan keyin kurrayi zamin Filofeyi ham bo'lishi kerak! Nima deysan?

– Bu haqda birgalikda o'ylashib ko'rarmiz, — xijolat tortib dedi Bork. — umuman olganda, kerak bo'lib qolsa telefonlashib turishimizga hech narsa xalaqit bermaydi.

– O'key! Gaping to'g'ri. Xayrli kech! Menden Jessiga salom ayt.

- Jessi hozir televizor ko'rib o'tiribdi.
- Tushunarli, hozir hamma televizorga yopishib qolgan. Hamma sharhlovchilarning fikr-mulohazalariga qulqoq tutib o'tiribdi. Ertaga nima bo'larkin? Qanday shamol esadi? Xudo biladi. Xayr, Robert.
- Ko'rishguncha.

## B y e s h i n c h i b o b

Robert Bork, nihoyat, telefon dastasini qo'yari ekan, boshini chayqadi — Filofeyning maktubi chindan ham hammani qiziqtiradi. Asrlar osha hal qilinmay qolgan muammolar kam bo'lgan deysizmi? Mana, endi cassandra-embriionlar jumbog'i yoz kuni boshga qor yoqqanday bo'ldi. Endi butun dunyo jazavaga tushadi. Qancha odamlar dovdirab qoladi. Vaqt(soati keldi! Na qochib, na yashirinib bo'ladi! Nimadir nishona bermoqda! hoziroq osmonda muallaq turipti! Yetilib kelayotgan olovli hodisavoqealarning tafti sezilmoxda! Bozorning qoq o'rtasida kimningdir nomusiga tegishsa yoki diniy tuyg'usini haqoratlashsa, ko'z ko'rib qulqoq eshitmagan qiy-chuv ko'tarilgani kabi Filofeyning maktubiga shoshilinch va ayovsiz javob qaytarilishi aniq. Hokimiyat davrlarida, yangi xudolarni deb, yangi xaloskor haqiqatlar ilinjida, ideal hayot qurish yo'lidagi xayoliy bepoyonliklar sari boshlangan katta va kichik yurishlarda har gal bo'lgani kabi, Filofeyning g'oyalari pachavasi chiqquncha tanqid qilinsa, masxaralansa, badnom etilsa, la'natlanilsa kerak. Hammavaqt shunday bo'lgan. Nahotki tarix bu gal ham yana, yana ko'r-ko'rona takrorlansa! Nahotki har qachon bo'lgani kabi, entikib nafasi tiqilsa, hech narsa kashf qilolmasdan hech nimaga erishmay barbod bo'lsa? Lekin avloddan avlodga tobora ko'proq to'plana borgan yovuzlik, asrlar bo'yi yig'ilgan yovuzlik mahsuli o'laroq hayotdan bosh tortgan cassandra-embriionlar o'z-o'zidan yo'qolmaydi, Filofey kashfiyoti munosabati bilan cassandra-embriionlar to'g'risidagi xabar insoniyatning qiyin qismatidan — oxirzamon bo'lishidan nishona beradi. Boshqacha bo'lishi mumkin emas.

Ana shular haqida fikr yuritar ekan, Robert Bork nogahon o'ylab ketdi — o'zidagi bu ehtiros qaydan keldi, koinotning bir burchagida olam kezib yurgan samoviy rohib Filofeyning qilmishini nega yuragiga shunchalik yaqin olayotir, nega unga bu qadar kuyib-pishayotir, nega endi u cassandra-embriion ta'limoti muallifining otashin tarafdoi, hamfikri bo'lib qoldi? Bularning sababi nimada? Borkni hammadan ham ko'proq hayratda qoldirgan narsa shu ediki, uning butun o'tgan hayoti o'z umrida ko'rgan-kechirganlari, bor tajribasi va bilimi xuddi shu paytda, Filofeyning kashfiyoti munosabati bilan chinakam ahamiyat kasb etganday bo'ldi. Ana shu ishonch unda ham taajjub uyg'otdi, ayni vaqtida misli ko'rilmagan darajada ich-ichidan qoniqish hissini hosil qildi, u o'zini qidirib yurgan narsasiga, masalalar masalasiga yo'l topganday sezdi. Ana shu masalani hal qilishni ehtimol u butun umr orzu qilgandir: shuning uchun ham samoviy rohibning kashfiyotini o'zining jonajon ishiday himoya qilishga tayyor ekanligini his etdi. Bo'lajak ma'ruzasining mavzusi ham esga kelib qoldi — «Kassandra-embriionlarning qo'rjinch hissi nimadan darak beradi».

Xuddi shu zahoti u o'ylab ketdi — Hayotda shunday yuksak daqiqalar bo'ladi: yillar davomida to'planib, kun sayin boyib borgan fikrlar birdan yashin yanglig' yalt etib yuz beradi. Bunga, albatta qo'shimcha shart-sharoit — oiladagi inoqlik, o'zining ilmiy doirasida tan olinganligi, ya'ni insonning kundalik holatiga, ish qobiliyatiga har kuni ta'sir etadigan hamma narsa yordam beradi, buni esa juda oddiy qilib aytganda baxt deydilar. Buni kundalik turmush baxti desa ham baxtning bahosi tushib ketmaydi.

Xufton payti edi; charchaganligiga qaramasdan Robert Bork kabinetiga kirib olib, kompyuterni yoqdi. Endi ko'ngildagi jamiki tuyg'ularni nazardan qochirmasligi kerak. Bularning hammasi qog'ozda, so'zda o'z ifodasini topmog'i lozim.

Mehmonxonada yonib turgan kamin pechka kabinetning ochiq eshididan ko'rinish turar edi. Jessi yil bo'yi, har qanday mavsumda ham kaminga olov yoqib qo'yadi. U olov musiqasini sevar edi.

Dastlabki qanotli iboralar osongina paydo bo'ldi. Toza yangi ekranada satrlar dalada traktor plugi

ag'darib ketayotgan tuproq qatlamlariday aniq va ketma-ket terilgan edi. Kabinetning yon tomonidagi nim yorug' oynalaridan ko'kintir kuz kechasi ko'zga tashlanar edi. Bog'dagi daraxtlarning tanish sharpalari g'ira-shira sezilardi. Oy osmonning bir chekkasida suzib, pag'a-pag'a bulutlarga sho'ng'ib ketar, yana yuz ko'rsatar edi.

Ish yurishib turgan ana shu onda Robert Borkning xayoliy nigohida butun jahon kompyuter ekrani ortida yashiringan yuksak tog'dan ko'riniq turganday edi. Ana shu kezda Bork odamning boshqalar orasida yashashining, inson bolasining tug'ilishdan to o'lishga qadarli umrining muqarrar suratda muhammadorligi, hayotning bosh mohiyatiga yetishishga urinishi haqida yozdi — inson daf'atanoq himmat-saxovatli qilib yaratilgan emas, mutlaqo bunday emas, buning uchun hormay-tolmay ruhiy kuch-quvvat sarflash talab qilinadi va har gal, har bir bolaning tug'ilishi bilan — yetib bo'lmaydigan idealga yetishish uchun bu ishni yana boshlamoq darkor. Odamning butun borlig'i ana shunga yo'naltirilgan bo'lmoq'i lozim. Ana shundagina u — insondir.

Robert Bork inson hayoti to'g'risida fikr yuritar ekan, Filofey maktubi taassurotida tahlil qilmoqchi bo'lgan masala hayotning oldindan ko'rib bo'lmaydigan darajada murakkab ekanligini, uning naqadar ziddiyatli, makkor va keskin ekanligini xayoliga ham keltirmagan ekan. Jumladan, u prezidentlik kursisi uchun kurashgan Oliver Ordok bilan gaplashganda rohib Filofey kashfiyatiga munosabatini bildirgan soatdan boshlab o'zining taqdiri hal qilib qo'yilganligi haqida o'ylamagan ham edi. Holbuki ana shu soatdan e'tiboran uning taqdiri Ordok taqdiriga bog'liq bo'lib qolgan edi. Ikkinchisi tomondan esa uning taqdiri butunlay tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada, boshqa bir kishining o'sha paytda orbitada, fazoviy hujrada kun kechirayotgan va o'z navbatida Borkni bilmaydigan, uni tushida ham ko'rmagan Filofeyning taqdiri bilan bog'lanib ketgan edi.

Lekin nimaiki bo'lmasin, bo'lar ish bo'lgan, bo'yog'i singan edi. Va taqdirlar bir-birlari bilan payvasta bo'lib ketgan edi. Buni o'sha oydin kechasi hali hech kim bilmas edi. Taqdiri bog'lanib ketganlarning birontasi — birinchisi ham, ikkinchisi ham, uchinchisi ham bilmas edi... Lekin taqdirlar tarang tortib bog'langan edi.

Oy esa tun qo'ynida yog'du sochar ekan, Yer ustida belgilangan aniq soat va daqiqalarda o'zining abadiylik yo'lida og'ishmay olam kezar edi. O'sha kechada bo'lgan qancha homilalarni oyning tortish kuchi olam substantsiyasiga, abadiylikning aylanma harakatini — tug'ilish va o'lish jarayonini davom ettirishga jalb qilgan edi. Hayotning abadiyligi onalar qornidagi yangi homilalarda yangilanib borardi. Va o'sha kechada paydo bo'lgan barcha homilalar kelajak shaxslari edi. Mana shu barcha homilalarga ozodlik eshlari, tug'ilish eshlari ochib qo'yilgan edi. Va o'sha kechada hosil bo'lgan embrionlar vaqt kelib biri mo'min-musulmon, biri so'qqabosh ruhoniy va hokazo va hokazo bo'lib tug'ilishi mumkin edi. Lekin abadiylik qonuniga zid o'laroq, o'sha kechadagi homilalar orasida hayot da'vatidan bosh tortgan genetik jihatdan nigliitlar — cassandra-embrionlar ham paydo bo'lgan edi. Ular ikkiyat ayollarning qornida turib Cassandra belgisi nuri orqali o'zi haqida xabar berish uchun paydo bo'lgan, o'gay taqdiri azalga qarshi o'laroq, o'zining sassiz iltimosini — Hayotdan vidolashishga ruxsat berishlarini so'rab qilgan iltimosini Filofeyning zondaj-nurlari yordamida tashqi dunyoga ma'lum etish uchun paydo bo'lgan edi.

Va o'sha kechasi okeanda zulmat qo'ynida milt-milt yongan mash'al yonida sohil yaqinida kitlar suzib bormoqda edi. O'ynoqi oydin kechada kitlar galasi qorong'ida sadafday tanasini yaltiratib, sabot bilan to'xtovsiz suzar edi. Ular qayoqqa suzib ketmoqda edi? Ularni nima o'ziga jalb qilar edi? Ularni nima quvmoqda edi? Sohilda turib okean suvida va kitlarning ko'zlarida aks etgan mash'al ularga nimalar demoqchi edi?

Va o'sha kechasi kompyuter oldida futurolog Robert Bork o'tirgan ko'yi, bir tashvish tortsa, bir umidvor bo'lar, bir umidvor bo'lsa, bir tashvish tortar edi. Va u okeanda kitlar orasida suzib borar, kitlar uning o'zları bilan birga suzishini bilishar edi. Shunday qilib, ular birga suzishar edi, negaki uning taqdiri bilan kitlarning taqdiri borgan sari bir-biriga payvasta bo'lib borar edi...

Jo'sh urgan to'lqinlar orasida kitlar qanday suzsa, u ham okeanda xuddi shunday suzar edi, uzoqdagi mash'alning nuri kitlarning ko'zlarida qanday aks etsa, uning ko'zlarida ham shunday aks

etar edi...

\* \* \*

Moskva vaqt bilan kechasi roppa-rosa soat uchda mashhur Kreml kurantlarining har safar davlatning buyukligi haqida butun dunyoni ogoh qilib zang urishi bilan jaydari boyqush Spas minorasidagi uyasidan uchib tushdi-da Kreml devori bo'ylab soya yanglig' parvoz qilar ekan, keng qanotlarini sassiz qoqar, tik boqadigan sehrli ko'zlarini yaltiratib, ulkan yapaloq boshini ilg'ab bo'lmas darajada qimirlatib borar edi. Boyqush har kechasi ayni bir vaqtida, atrofda tirik jon yo'q paytda navbatdagi soqchilar roppa-rosa ikki yuz o'n tantanali-marosimi shaxdam qadam tashlash uchun Spas darvozasidan chiqib Lenin maqbarasiga qarab yurgan kezda uchib tushadi. Maqbara bu yerda uning, boyqushning ko'z o'ngida qad ko'tardi, va u lahza sayin, kechayu kunduz yil bo'yи, har doim qo'riqlanadigan maqbaraning eshigi og'zida ma'lum vaqtgacha haykal sifat qaqqayib turgan ko'plab yosh soldatlarni ko'rgan.

Butun maydonni u yog'ida bu yog'iga kesib o'tar ekan, boyqush oydinda granit libosi jilolanib turgan maqbara ustida, so'ngra maqbaraning orqa tomonida, qarag'aylar tagida, Kreml devorining shundaygina yonida davlat marosimi bilan dafn etilgan do'kay rahbarlarning qabrлari ustida bir necha bor aylanib uchdi va odatda yarim kechadan o'tgan sokin paytda paydo bo'ladigan va quyib qo'yganday bir-biriga o'xshash, har ikkalasi ham pakana, har ikkalasi ham xumkalla shu yerlik arvohlarning, aftidan bu gal ham qadam ranjida qilmoqchi emasliklariga ishonch hosil qilgach, (qaerga yo'qolishtiykin, yana aytishib qolishmadimikin?!) postda toshday qotib turgan soqchilar yonidan shovqinsiz otlib uchib nariroqqa ketdi. Boyqushning hafsalasi pir bo'ldi — Har ikkalasi ham pakana, har ikkalasi ham xumkalla arvohlar, g'iybatchi suhbatdoshlar, ajralmas ikki do'st Qizil maydonda sayr qilish uchun, hayot ikir-chikirlari to'g'risida gap sotish uchun ancha vaqt dan buyon kelishmayapti. Narigi dunyolik bu ikki shaxs bundan boshqa nima ish ham qilishsin?

Chindan ham, ular gaplashishni, o'tmish haqida, albatta siyosat bobida suhbatlashishni o'ta xush ko'rishardi. Shunday bo'lardiki, arvoхlar qizishib, janjallashib qolishar, tortishishar, so'kishib ham ketishar edi. Ulardan biri jon-jahdi ila ikkinchisi bilan endi hech qachon uchrashmasligini, uni yomon ko'rishini, ko'rarga ko'zi yo'qligini, uning yoniga yaqin kelmasligini so'zlar, ikkinchisi esa bunga javoban mening boradigan joyim yo'q, o'lganidan keyin to'kilgan xazonday gapsan, shamol uchirgan tomonga ketaverasan derdi. Olloh taoloning irodasiga ko'ra, ana shu bir-biri bilan chiqisha olmaydigan, tinib-tinchimas sharpalarning narigi dunyodagi omonat hayotini faqat boyqushgina ko'ra va eshita olardi... Boyqush uzoq yillar davomida ularga o'rganib qolgan, ular bo'lmasa zerikib qolar, o'zini biror narsa yetishmayotganday his qilar edi. Lekin boyqush ularning boradigan boshqa joyi yo'q ekanini, ertami, kechmi qadam ranjida qilishlarini bilar edi. Mana, yaqinda maydonda katta parad va namoyish bo'lishi kerak, shularning ketidan kechasi hayajonga tushib, ko'rgan-bilganlardan ko'zlarini mast odamlarnikiday baqraytirib sharpalar albatta kelishadi. Barabanlarning gumbirlagan ovozi, harbiy saf muzikasi, soldatlarning maydon uzra yurakka qadaladigan qadam tashlashlari ularni o'ta hayajonga soladi. Harbiy texnikaning shovqin-suroni-chi! Namoyishlar, namoyishlar shunday hayajonga soladiki — odamlar daryoday oqadi, bor ovozi bilan qichqirishadi, maqbara ustida turgalnarning rasmlarini, shiorlarni ko'tarishib shodu xurram o'tishadi. Va olomon "ura-aa" deb qichqirib, urug' qo'yish uchun suzayotgan baliqlarday kallasiga tekkunday bir tomonga oqadi.

Lekin sharpalarning kunduz kuni, yorug'da paydo bo'lishi joiz emas, bo'lmasa ular vaqtning kechish jarayoni bilan hisoblashmasdan, fanodan oniy hayotga qaytib kelgan, ishga kirishib ketgan, hayajonga tushgan odamlar daryosi tepasidagi yuksak maqbaraning ustki minbarida turgan bo'lur edi. Shundan so'ng bularning hammasi birdan stop-kadrdagiday to'xtagan, harakatsiz serrayib qolgan, ovozsiz sahnada tarixning tushuniksiz lazzatli zavq-shavqi ila abadiylikka, mangulikka qotib qolgan bo'lur edi. Kreml ustidan guvillab uchib o'tayotgan samolyotlar ham, harakatsiz to'xtab qolgan, hurkak kabutarlar ham osmonda turib qolgan va porloq ko'zlar ham, baqiroq ovozlar va hatto harakatga kelgan pok fikrlar ham miya qatlarida turib qolgan bo'lur edi... Quyosh ham bir joyda abadiylikka qotib qolgan bo'lur edi...

Begim kunlari, xususan havo aynigan kezlarda, surunkali yomg'ir paytlarida, yer bag'irlab izg'irin turgan onlarda — maqbara yonidagi soqchilar oyoqlariga piyma etik, kalish, boshlariga qulochchin, qo'llariga qo'lqop kiyib olgan va og'izlaridan chiqqan hovur kiyim yoqalariga, yelkalaridagi miltiq-avtomatlarning og'izlariga oppoq qirov bo'lib qotib qoladigan fursatlarda, xumkalla-pakana arvoхlar, balki havo ayniganidan bo'lsa kerak, vaysaqi bo'lib bir-biri bilan chiqisha olmay qolishadi, ko'proq burchak-burchaklarga tiqilib, oyga ko'z qirini solar ekanlar, bir-biriga gap qaytarishadi, ana shunday mahallarda boyqushning qulog'iga asabiylashgan ovozlar tez-tez eshitilar edi: "Tushuntirib bo'lmaydigan narsalarni menga ishontirishga urinma! O'limga davo yo'q, davo bo'lishi mumkin ham emas, o'lim haqdir. Men o'lgan ekanman, abadiy yashab qolmoqchi emasman, soxta hayotning menga keragi yo'q! Bu qachongacha davom etadi?! Oxiri bormi o'zi, tinchim ham yo'q, hammasi jonimga tegdi! Ilgarilari o'ylamagan ekanman, endi bo'lsa nega tug'ildim, meni onam nima uchungina tug'di ekan degan fikr kallamdan chiqmaydi. Men tug'ilishni xohlamagan edimku! Endi bo'lsa maqbaraga qamalib qolganman. Bularning hammasi sening ishing! Bu sening iblisona, makkorona g'oyang! Bunga hech qachon rozi bo'lmayman, hech qachon, esingda bo'lsin". Bunga sherigi o'zining butunlay o'chib qolgan trubkasini osoyishta tortar ekan xirillagan ovozi bilan javob berar edi: "Quloq sol, men senga ko'p marta tushuntirganman. Bu partiyaning xohishi edi. Men senga aytganman: sen partiyaga butun borlig'ing bilan, ko'rgazmali quroq shaklida kerak eding, tushunyapsanmi, jahon inqilobi uchun sinfiy qasam ichishlar uchun kerak eding, sen partiyaga o'lganingga qaramasdan va o'lganiningdan keyin ham kerak eding. Sen inqilob fir'avnisan, seni asrashadi, avaylashadi, senga tosh tobutingda ta'zim qilishadi!" — "Men bo'lsam buni mutlaqo xohlamayman! Men qat'iy norozilik bildiraman! hech kimning, mutlaqo hech kimning o'lim bilan hisoblashmaslikka haqi yo'q. Bu — bema'nilik".

Boyqush ularning tepasidan uchib o'tar ekan, hang-mang qolar edi – ular turfa olam haqida g'azabnok janjallahar ediki, bunaqasini dunyoning biron go'shasida eshitmaysan...

Lekin bugun ular, yarim kechada paydo bo'ladigan janjalkash sharpalar yo'q edi... Maydon xoli edi...

Boyqush Kreml qal'asining kungirador devori ustidan shuv etib uchib o'tgach, o'zining ulkan ko'zları bilan butun tevarak-atrofni ko'zdan kechirib bordi-da, bo'm-bo'sh tomlar ustidan o'tib saroy bog'lari tomon yo'l oldi. U bu yerda kuzning qalin shox-butoqlari orasida sekingina "uh" tortdi, tepalik ustiga chiqqach pastda sokin oqayotgan daryoning muyulishiga, uxbab yotgan uylarning qorong'u tomlariga nazar tashladi. Ko'priq tagida daydi ko'ppak angillar edi. Sovuq yegan bo'lsa kerak...

Boyqush birdan xayol surib ketdi, qulog'iga ko'z ilg'agis uzoq-uzoqlardan, dunyoning bir chekkasidan qandaydir tovushlar eshitilganday bo'ldi — okeanda tun qo'ynda kitlar galasi suzar, tog'day tanalari bilan bahaybat to'lqinlarni yorib borar edi. Kitlar atrofida okean suvi guvillar edi. Suv ularning suzishiga monelik ko'rsatar, lekin kitlar parvoyi palak qayoqqadir shoshilmoqda edi. Ularning vulqonday qaynoq nafasidan qandaydir tashvish-xavotir sezilganday edi.

Boyqush Kreml tepaligida turar ekan yer kurrasida qandaydir voqeа sodir bo'lismeni sezdi. Har doim shunday bo'lgan — dunyodagi har qanday falokati kabir oldidan kitlarni tashvish-xavotir bosar edi.

Kreml bog'ida boyqush og'ir xo'rsindi. Tong yorishmoqda edi...

Ertasiga ro'y bergen voqeа Robert Bork uchun qandaydir kutilmagan narsa bo'lmedi, voqealarning bunday kechishini oldindan bilish mumkin edi. Lekin bunchalik keskin tus olishini kutmagan edi...

U ertalab lektsiya o'qish uchun dorilfununga ketayotganida o'zini xotirjam va mamnun sezar edi. Keyinroq esa...

Tushdan keyin Bork uyiga qaytdi. Yo'lda mashina rulida diqqat-e'tiborini bir yerga to'play olmadi. Tezroq uya borib, Jessidan bosimni o'lchaydigan haligi apparatni, o'sha oting qurg'ur o'sha asbobni toptirmoqchi bo'ldi. Jessi ba'zan o'ziniki bilan birga Robertning ham bosimini o'lchab qo'yari edi. Uning sog'ligi joyida, nolishga o'rinn yo'q edi, bosimini o'lchashga uringanda xotinining injiqqliklariga marhamat yuzasidan kulib qo'yib rozi bo'lardi. Endi esa sog'ligidan xavotirlanganday hammasini o'zi

bilib olmoqchi bo'ldi. Tobi qochganday sezdi o'zini. U umr dunyosining omonatligini sezganday g'alati bo'lib ketdi. Hayot qandaydir o'rnidan qo'zg'alganday, shamolda qalqib turganday tuyuldi, ko'p yillardan beri tanish-bilish kishilarning ko'zlarida va ovozlarida ham nimadir o'zgarganday sezildi, ehtimol uning o'zida ham shunday bo'lgandir?

Tez yurishga mo'ljallangan va mukammal jihozlangan o'sha ajoyib keng yo'lni ham o'zi yaxshi bilmaganday his qildi. Yo'lda ham negadir xavotirga tushib borar edi. Hamma narsa oldingiday emas, butunlay o'zgarib ketganday edi. Hammasi o'z o'rınlarida bo'lsa ham tevarak-atrofdagi borliq go'yo boshqacha ahamiyat kasb etgan... Buning boisini tushunish qiyin edi...

Jessining mashinasi uyining yonida turgan ekan. Bork buni ko'rib bir oz o'zini yengil sezdi. Demak, xotini hali repetitsiyaga ketmagan ekan.

— Xo'sh, ishlar qalay? — deb Jessi istiqboliga chiqdi. Uning chehrasida har doimgiday tabassum balqir edi. — Yana bir narsa bo'ldimi? Nima uchundir avzoying g'alati. — Jessi erining yuziga boqdiyu tabassumli nigohi birdan o'zgardi. — Tobing qochib qoldimi?

— hechqisi yo'q. Jessi, tasavvur ham qila olmaysan, odamlar jinni bo'lib qolganga o'xshaydi! — dedi-da, portfelini divanga tashladi, pidjagini yechib uloqtirdi.

— Kofe ichasanmi?

— Mayli. Qo'ng'iroq qilishdimi?

— Qilishdi. Bu haqda keyinroq gaplashamiz. Shaharda nimalar bo'layotganini aytib ber.

— Nimalar bo'lyapti? Bo'Igani bo'lyapti. Vahima. Hammaning og'zida Filofey. Shunaqa gaplar. Gazetalar, radio va televidenieni gapirmayoq qo'ya qolay. Olag'ovur, hamma buning mohiyatini bilib olishga urinadi.

— Hsha mahkamalardan telefon qilishdi: "Si-en-en", "Amerika ovozi", "Ozodlik" radiosи. Men seni kechroq keladi deb edim. Gapiraver.

— Dorifununda bo'lsa qadam bosib bo'lmaydi, hamma oyoqqa turgan. Ko'chalar yonib yotipdi. Hammaning og'izda faqat bir gap. Barchani hayajonga solgan voqeа haqida hamma birday gapirsa yomon bo'larkan. Qayoqqa borma, g'azab to'la gaplarni eshitasan. Gitlerning maydonlarda nima ishlar qila olganini, odamlarni qanday ko'ylarga solganini endi tushundim.

— Ehtimol sen haqdirsan. Axir ular studentlarku, nima demoqchisan. Yosh, qaynoq, g'ayrati ichiga sig'maydi. Birdan Filofey chiqib qolsa? — Sening aytganingcha bor. Esimda, Kennedi otib o'ldirilgan kuni ham xuddi shunday bo'lgan. Bugun qanaqangidir beboshlik, tartibsizlik, to's-to'polon. Birovlar Filofey tabiatning botiniy siriga burnini suqdi deyishadi-da, ketidan buning teskarisini aytishadi — tekshirib bo'lmaydigan qataq'on sirlarning o'zi bo'lishi mumkinmi? Boshqa birovlar — tashvishlanishga arzimaydi, samoviy rohib orbitada turib nasihatgo'ylik qilaversin, bizga nima, uch pulga arzimaydi deydi. Bor-yo'q gapi jinday husnbuzar ekan. Bunga javoban luqma tashlashadi: sen erkaksan, senga sariq chaqalik ekan, bo'lajak bolasi tug'ilishni xohlamagan ayol sho'rlik nima qilsin? Endi buyog'i nima bo'ladi? Cassandra tamg'asiga qanday munosabat bildirish kerak? Mayjud voqeadan qanday ko'z yumsa bo'ladi? Uchinchi bir xil odamlar kurakda turmaydigan gaplarni aytishadi. To'rtinchi xil odamlar, beshinchi, o'ninchи xil odamlar va hokazo. Nihoyat, hammalari ayyuhannos ko'tarishadi: genetik kodga burun suqishning nima keragi bor — buni taqdiri azal deydilar, taqdiri azal esa Xudodandir. Odam ming-ming yillardan beri taqdiri azal bilan yashab kelgan, birdan bizning irodamizdan tashqari narsani taftish qila boshlashsa... Shunga o'xshash gaplar. Hammasini aytib ado qilolmaysan. Kimgadir bu uch pullik narsa, bor-yo'g'i husnbuzar, kimgadir fojia. Ha, aytib oxiriga yetib bo'lmaydi. Eng dahshatlisi — Cassandra harakatga keldi. Aytishlaricha, yuridik fakultetda o'qiydigan bir qiz lektsiya paytida oynaga qarab turib birdan auditoriyadan otilib chiqipti. Uning peshonasida o'shanday dog' — cassandra-embryon signalni nishon bergen ekan. Boshqa bir voqeа bundan ham o'tib tushipti. Yo'lda halokat yuz beribdi. Rulda ketayotgan ayol mashinada o'tirib kuzatish oynasiga qarasa, peshonasida o'shanday xavfli dog' ko'ringanday bo'libdi. Yaxshiyamki, falokat ro'y bermabdi.

— E, Xudoyim-ey! — Jessi stulga cho'kdi. Hammamizning boshimizga balo bo'ldi! Buyog'i nima bo'ladi? Qandaydir yo'l topish kerak-ku!

– Bilmayman, Jessi, bilmayman. Menden nima xohlaysan? Buning ustiga, sen repetitsiyaga borishing kerak. Qaytib kelganiningdan keyin gaplashamiz. Yuragim g'ash.

– Repetitsiyaga balo bormi? Dunyoda nima ishlar bo'lyapti-yu, repetitsiya deysan.

– Boshlandi endi!.. Sen ham chakki emassan. Butun boshli bir orkestr kutib tursa-yu, uyda Filofeyning vahimalariga qovurilib o'tirsang.

– Telefon qilib kasal bo'lib qoldim deyman. Axir ular orasida yoshi kattasi menman. Yaqinda buvi bo'laman. Sen buni yaxshi bilasan-ku.

– Mening qismatim ham senikiday, farqi faqat men erkak buviman, — xotinini kuldirishga urinib dedi eri. — Chikagoga Erikaning uyiga sen buvi, men buva bo'lib borsak, toza omadi ish bo'lardi-da! hozir bu haqda o'ylaydigan mavridi emas, Jessi, repetitsiyani barbod qilma, bo'lar bo'lmasga.

Jessi o'ylanib qoldi.

– Xo'p, mayli. Mening yana yarim soat, hatto ko'proq vaqtim bor. Endi kishilar qanday yo'l tutishi kerak, ular nima bo'ladi? Erika yetti oylik homilador. Uning peshonasida ham Kassandra tamg'asi nishon bergen bo'lsa-ya? Agar Erika yaqinda homilador bo'lganda bormi, men kechalari umuman uxmlamagan bo'lar edim. – Jessi indamay qoldi va bir oz o'ziga kelgach, qo'shib qo'ydi: — Robert, senga kofe tayyorlab keyin ketaman.

– Kofeni o'zim tayyorlashim mumkin, sen jo'nayver.

– Yo'q. Aytgancha, boshqalar qatori Ordok nomidan Entoni Yunger degani telefon qildi.

– Yunger? ha, esladim. Xo'sh, u nima dedi.

– hozir kelib aytib beraman.

Xotini oshxonada bug' bilan ishlaydigan va shuning uchun parovoz deb ataladigan eski kofeqaynatgichda kofe tayyorlaguncha Robert Bork kursida o'tirib dam olar ekan, shalviragan qo'llarini yoniga tashlab, go'yo o'z uyida yotsirab qoldi. U hatto gir-atrofga nazar tashladi. Go'yo birinchi bor ko'rayotgan kabi zilday mebel to'la katta mehmonxonaga razm soldi: Venetsiyadan qachonlardir Jessi sotib olgan chilchiroq va kamin-pechka ustida katta oyna turipti. Royal, violonchel. Oynavon shkafda zarhal muqovali kitoblar (kitoblarning ko'pchiligi ikkinchi qavatda, kabinet yonidagi kutubxonada saqlanadi). Va butun uy, hatto o'zi ham qandaydir begonaday tuyuldi o'ziga. Esaki Venetsiya ko'zgusiga qarar ekan, o'zining keksayib qolgan polvon oq yol odday suyaklari turtib chiqqanini sezdi, u o'zining o'tmish hayotini, o'z hayoti bilan bog'liq narsalarni, o'zini, o'zining har doim g'ayrioddiy fikrlar bilan band ekanligini ko'z oldiga keltirdi. U o'ylanib qoldi: «Nahotki menga ko'p narsa kerak bo'lsa, nega men chindan ham zamon oxir bo'lganday bunchalik kuyib pishaman? Ehtimol, endi men noma'lumlikka sho'ng'ib ketishim uchun mening butun o'tmish hayotim shunchaki debocha bo'lgandir. Maxfiy eshikni axtargan ko'rday timirskilashim kerakmi? Futurologiyaga yopishib olib har holda ishi yurishgan olim sifatida tinch-totuv yashab nimaga erishdim? Nihoyat samodagi Filofey siymosining mening taqdirimga ta'sirini olaylik. Bu nima? haqiqat g'alaba qilgan lahzami? Intiqommi? Shundaymikin? Filofey men uchun kim? O'ylab ko'rsa, hech kim emas. Nega bo'lmasa men tinib-tinchimayman? Demak, uning menga daxldor joyi bor ekan-da? Ba'zan kitlar tushimga kiradi, endi bo'lsa...»

Bu fikrlar, shuhbalar uni tark etmas edi. Nima to'g'risida o'ylamasin samoviy rohib kashfiyotlari esiga kelaverar edi. Hamma-hammasini — bundan oldin bo'lgan voqeа-hodisalarini ham, undan keyin ro'y bergen narsalarni ham qiyoslashga to'g'ri keldi.

Jessi kofe olib kirdi. Gap yana oldingi mavzu atrofida aylandi. Robert Bork asarlarining shaydosi Entoni Yunger prezidentlikka nomzod qilib ko'rsatilgan Ordokning qo'mondasi nomidan dorilfununga, Borkka telefon qilmoqchi bo'lgan ekan, lekin uni topisha olmabdi. Shundan so'ng kunning ikkinchi yarimida yana qo'ng'iroq qilaman debdi. Jessi unga Borkning o'zi telefon qilsa bo'lmaydimi deb so'raganda, Yunger: "Meni topish qiyin, yugurib-elib yuribman, bugun bizlarning behalovat kunimiz, Ordokning saylovchilar bilan uchrashuvi tayyorlanyapti, shundan so'ng katta matbuot konferentsiyasi bo'ladi, umuman tashvish ko'p, Bork bilan gaplashishni juda-juda xohlar edim" depti. Yana: "ko'pdan beri gaplashmoqchi edim, endi buning uchun bahona topildi. Iltimos, aytib qo'ying, menda ko'p

ma'lumotlar va savollar bor. Albatta qo'ng'iroy qilmoqchiman".

Jessi repetitsiyaga jo'nab ketgandan keyin ko'p o'tmasdan telefon jiringladi. Bu o'sha Entoni Yungerning edi.

– Mister Bork, biz bilan sizning Filofey ismli umumiyoq do'stimiz bor, shunday emasmi, biz hozircha baxtga qarshi telefon orqali tanishdik, bu tanishish umuman olganda Filofeyning maslahati bilan bo'ldi.

– To'g'ri. O'sha samoviy rohib endi bizning hayotimizda katta rol o'ynaydi.

– Gap ana shu haqda ketayotir-da, mister, Bork. Bu boshqalardan ko'ra sizga ko'proq ma'lum bo'lsa kerak deb o'ylayman. Endi voqealar jarayonining qanday kechishiga, ruscha qanotli ibora bilan aytganda, tarix g'ildiragining qanday aylanishiga bog'liqdir. Maqtanib qo'yishim mumkin, axborotingiz uchun ruschani yomon bilmayman. Bordi-yu shu jihatlarim bilan sizga foyda keltira olsam, mammun bo'lar edim.

– Ha, bunisi yaxshi, — dedi Robert Bork hayratomuz javob qaytarib va Entoni Yungerning o'ziga bo'lgan ishonchiga va ovozining jarangdorligiga qoyil qolib. "Ancha g'ayratli yigit ko'rindi!" — o'yladi u.

– Yoshi nechalarda ekan? — Men ham Gorbachev davrida Rossiyada bo'lganman: — dedi rus mavzuiga javoban. — Moskva, Leningrad, Kiev. Aytmoqchi, Entoni, siz necha yoshdasiz? Shunchaki gap kelganda so'rayapman.

– Marhamat! Ulug'sifat bo'lib ko'rinish uchun — o'ttiz yoshdaman demoqchi edim, endi, anig'ini aytaman — yigirma sakkiz yarim yoshdaman, — dedi u. — Aql kiradigan vaqt kepti. Yana nima deyish mumkin? hayot va bilimning boshqa qutbi bo'lmish Moskva menga ko'p narsa berdi, lekin kegebega xizmat qilmaganman. Boshidanoq aytib qo'yay.

Amerikada keng tarqalgan bu hazilga har ikkalasi ham kulib yubordi.

– Kechirasiz, Entoni, yoshingizga qaraganda siz mening o'g'lim tengisiz. Bunga qiziqishimning boisi shuki — gap jiddiy masalalar ustida ketganda suhbatdoshning yoshini bilib qo'yan yaxshi.

– Men ham shunday deb o'ylayman. Siz haqingizda hamma narsani bilib oldim desam bo'ladi. Sizning kitoblariningizni o'qiganman, keyingi vaqtida "Jahonshumul uyning to'qqiz eshigi" nomli maqolangizni qayta-qayta diqqat bilan o'qidim.

– Ha, bu futurologiya sohasida butun dunyoda bayon etilgan g'oyalarni tahlil qilishga urinish edi. Rahmat, boshim osmonga yetdi, — javob berdi Bork.

– Men o'zim, sizga aytam, akademik uslub bilan aytganda, tushunib bo'lmaydigan nusxaman, — dedi Entoni kinoya aralash, — bilim rezgilaridan yasalganman, falsafadan tortib ilmi nujumgacha barcha sohaga tirishib-tirmashib yopishganman, qachonlardir kosmosni orzu qilganman. Kasaba uyushmasi ishlari bilan ham, jurnalistika bilan ham shug'ullananganman. Oliver Ordok bilan yaqinligim shundan. U populizmga umid bog'lagan, uning kuchi ana shunda. Saylov oldi poygasida endi unga yordam berish kerak. Biz yordam berishga harakat qilyapmiz ham. Uning qo'mondasida ommaviy axborot vositalari bilan shug'ullanayotirman. Masalan, shu bugun uch soatdan keyin "Alfa-Beysbol" sport zalida saylovchilar bilan katta uchrashuv bo'ladi. Odam deganingiz dengiz, bevosita televidenieda ko'rsatishadi. Shundan keyin kechqurun — matbuot konferentsiyasi bo'ladi, bu ham bir necha kanalda bevosita televidenie orqali ko'rsatiladi. Bularning hammasini sizga bekorga gapirib berayotganim yo'q, mister Bork. Ehtimol, bizning, ya'ni Ordokning ishlari qaysi sohalarda yaxshi ketayotganini, qaysi jabhalarda oqsayotganini bilish siz uchun qiziqarlidir. Kechirasiz, sizning vaqtingiz bormi, men sizni gapga tutib qolmadimmi?

– Yo'q, qulog'im senda, Entoni.

– Shu munosabat bilan mening nimaga e'tibor bermoqchi ekanligimni bilib qo'ysangiz. Ertalab biz hammamiz yigirma chog'li odam — yordamchilar, ekspertlar va boshqalar Ordok kabinetida yig'ildik, u eng avval samoviy rohibning maktubi yuzasidan kecha siz bilan telefon orqali uzoq suhbat qilganligi haqida axborot berdi.

– Ha, gaplashib edik, — tasdiqladi Robert Bork.

– Hammaning dilida va tilida bo'lgan narsalar yuzasidan Ordokning siz bilan maslahatlashgani zo'r bo'pti. U borgan sayin ko'proq shuhrat qozonayotgan siyosatchi, lekin hecham payg'ambar emas va...

– Entoni, azizim, — uning gapini bo'ldi Bork. — Bilaman, menga murojaat qilishni Ordokka sen shipshitgansan. Lekin men ham payg'ambar emasman. Meni hammasini bir zumda fahmlab oladigan odam deb o'ylaysanmi? Shu barcha masalalarni ipidan ignasigacha tushunib olishimga yordam bersa, xohlagan odamga murojaat qilishga tayyorman. Sen bu masalalarning hammasini biladiganday menga telefon qilyapsan. Men o'z mulohazalarimning shubhasizligiga kafolat bera olmayman. Buni nazardan qochirmaslik kerak.

– Shunday ekan men mammunman! — Entoni Yunger Borkni o'z javobi bilan ham hayratga soldi. Va uning ovozi yoqimli jarangladi.

– Sen nimadan mammunsan?

– Sezgirligim pand bermaganidan. O'z elidan payg'ambar chiqmaydi degan matal bor, lekin shunga qaramasdan, men yana bir marta amin bo'ldim-ki, prezidentlik kursisiga da'vogar bo'lgan siyosatdon dastlab siz bilan, sizga o'xshagan mutafakkir bilan maslahatlashishi kerak ekan. Ordok bugun butun bir stadion to'la odam oldida nutq so'zlashi, savollariga javob berish kerak. U bir qop afkor ommani o'ziga qaratib, yelkasiga ko'tarib ketadimi-yo'qmi, gap unda emas. Muhimi shuki, sizning qarashlaringiz shu yo'l bilan omma mulki bo'lib qoladi. Men buni ertalab bizga Oliver Ordok aytib bergen so'zlarga qarab gapirovotirman.

– U nima degan ekan?

– Umuman, men shunday tushundimki, u sizning fikringizga suyanib Filofeyning kashfiyoti bor narsa, u bilan barcha odamlarning, jamiyatning barcha tabaqalari, barcha qit'alardagi odamlarning hisoblashmasligi mumkin emas deb sharhlashga moyil. Shunday emasmi? Menimcha shunday. Ordok taxminan shunday dedi.

– Buning bor narsa ekanligini ma'lumot uchun qabul qilish — bu bir gap, bu boshlang'ich nuqta. Xo'sh, undan keyin-chi? Cassandra-embriyonlarning paydo bo'lishiga olib kelgan va olib kelayotgan sabablar nima bo'ladi? Ijtimoiy, tarixiy, psixologik jabhalarda-chi. Bu sohada savollar to'lib-toshib yotipti.

– Siz haqsiz, mister Bork, — dedi Entoni va yana nimalardir demoqchi, o'zining xayrixohligini bildirmoqchi edi, lekin Bork yana tilga kirdi:

– Bu hodisa mening butun borlig'imni qamrab oldi, hatto shunday tuyuladiki, men kechagi odam emasman, va hayotning mag'zini qaytadan chaqishim kerak, lekin men umrning tugayotganini ham unutmasligim joyiz. Filofey kashfiyoti inson taqdiri masalasiga doir bizning oldingi fikrlarimizni yo'qqa chiqaradi. Biz ilgarilar tan olmagan narsalar oshkor bo'lib qoldi. Taraqqiyot, tsivilizatsiya bor joyda salbiy narsalar ham bo'lib turadi deb o'ylardik. Daraxt kessang, payrasha uchadi. Ruslarda shunday matal bor.

– Ha, bu matal juda mashhur. Masalan, Stalin ommaviy repressiyalarni shu matal bilan oqlamoqchi bo'lgan. Gapirovering, men jon qulog'im bilan eshitayapman.

– Mana shunday gaplar. Men nima demoqchi edim? Filofey kashfiyoti shuni ko'rsatdiki, ko'rsatganda ham shafqatsizlik bilan ochib tashladiki, odamlar butun tarix davomida, avloddan avlodga muntazam suratda bir-birlarini qiy nab jonlarini olib kelishgan, oqibatda insoniyat yashab kelgan dunyo ko'p narsa yo'qotgan; o'zlarining tarixiy takomil topish yo'lida qo'lga kiritishi mumkin bo'lgan juda ko'p yutuqlardan mahrum bo'lishgan. Umumiylar tarzda aytganda, manzara ana shunday. Barcha uzluksiz urushlar, jumladan shonli urushlar deb nom olgan urushlar, barcha inqiloblar, g'alayonlar, qo'zg'ononlar, jinoyatlar, hokimlarning shafqatsizligi, ta'limot hamda mafkuralarning zulumkorligi — bularning hammasi, kishilarning hayotini, taqdirlarini mudom chil-parchin qilib egib ezib turadigan, xalqlarda bir-birlariga nisbatan nafrat uyg'otadigan, odamlarni ochko'z maxluqlarga aylantiradigan jamiki vositalar, bularning barcha-barchasi Filofey ko'zi bilan qaraganda borgan sari ko'payib ketayotgan cassandra-embriyonlarning nidosiz noroziligida o'z ifodasini topmaganmikin? hayotdan bosh tortish oxirzamon nishonasi emasmikin? Nima bo'ldi deng: uzil-kesil ishonilmagan

afsona — oxirzamon to'g'risidagi afsona hayot taqozosi bilan bor narsa bo'lib chiqdi. Shu bugun kechasi boshlagan maqlamda shu haqda yozyapman. Oliver Ordok Filofeyga va uning kashfiyotiga o'z nuqtai nazari bilan qarashi mumkin, lekin nima bo'lganda ham Ordok ham, uning komandasi ham — Hammamiz qanday murakkab vaziyatga to'g'ri kelib qolganimizni anglab olmog'imiz lozim. Men kecha Ordokka taxminan shunday dedim.

— Bugun ham, kecha ham sizni telefonda uzoq vaqt band qilib qo'yib yaxshi qilmadim. Lekin bundan o'zim mammunman — bilmoqchi bo'lgan narsalarimni bilib oldim. Sizning fikringizga qo'shilaman, albatta, Filofey nazariyasida hali o'ylash kerak bo'lgan jihatlar ko'p. Har qanday bo'lganda ham u bizning oldimizga misli ko'rilmagan masalani qo'ydi. Hammaning oldiga, butun insoniyat oldiga! Mana buni shaxs deydilar! U koinot kalitini burab yubordi! Kechirasiz, agar barcha o'tmisht zamonlarning jabrini biz tortguday bo'lsak, — shunday bo'ladiganga o'xshab qoldi o'zi, — sizning iborangiz bilan aytganda, ochko'z mavjudotlar, ya'ni bizlar, hammamiz va bizdan oldin o'tganlarning gunohi kabiralari kasriga biz qoladigan bo'lsak, bizlar o'zimizga o'zimiz norozilik bildirmasak kim norozilik bildiradi?! Shu narsa aniqlandiki, yovuzlik uni ijro etgan kishilar bilan birgalikda izsiz, javobsiz ketmas ekan, balki irsiyatning qaysi bir xampalarida talay vaqtgacha saqlanib turar ekan. Bundan chiqadiki, ertami-kechmi kimdir hayotidan voz kechib o'shaning kasriga qolar ekan?!

— Ha, shunday bo'lib chiqayotir, Entoni. Gap shundaki, ezgulik bilan yovuzlikni bir shodaning donalari deb hisoblasak ham, ularning nisbati to'g'risida kam o'ylaymiz. Yovuzlikning ustunlik qiladigan kuch ekani to'g'risida, yovuzlikning bizning tub mohiyatimizni, burchimizni xonavayron etib, doimo barbod qilib turishi, bizning umumbashariy qadriyatlarimizni ko'kka sovurishi haqida, odamning hozirgiga nisbatan butunlay boshqa sifat kasb etishi uchun yashashning yangi usullarini aqlning bilib olishiga yovuzlikning yo'l bermasligi to'g'risida kam o'ylaymiz.

— Mister Bork, odamlar jismoniy jihatdan bizga o'xshagini holda sifat jihatidan boshqa intellektga, zakovatga ega bo'lishi, butunlay boshqa xulqqa ega bo'lgan mavjudotlarga aylanishi mumkinmidi?

— Aylanganda qanday. Biz hammamiz o'z yog'imizga o'zimiz qovrulib keldik, biz butun Koinotda birdan-bir aqli mavjudotlar edik. Hech qanday mahluqlar bilan raqobat qilmadik. Shunday ekan, bizda boshqa ma'naviy evolyutsiya, tamomila boshqa taraqqiyot bo'lishi mumkinmidi? Bu haqda qanchalar o'ylash, munozara qilish mumkin. Lekin shunisi haqiqatki, biz fan va texnika taraqqiyotida ham har qancha yutuqlarga erishmaylik, hammamiz, afsuski, bir-birlarimizni yamlab yutadigan yirtqichligimizcha qolayotirmiz.

— Afsus, ming afsus. Demak, samoviy rohib bizni genetik jinoyat ustida tutib opti-da?! Lekin, har qancha kaltafahmlik bo'lmasin, aytayki, bizning hozirgi ahvolimizga nisbatan boshqacharoq bo'la olmaganimiz menga alam qiladi. Mister Bork, ana shu fikrda bizlarni mazoxistik kechinmalar sari eltadigan odatiy idealistik ohang yo'qmikin?

— Albatta bor, chunki mazoxizm — cho'lda turib daraxtzor yo'q ekan deb shikoyat qilish demakdir.

— Ana shunday daraxtzor yo'q bo'lsa, bundan keyin ham bo'lmasa, siz nimani taklif qilgan bo'lur edingiz.

— Faqat bir narsani — aql bog'-rog'larini barpo qilishni.

— Bu nima degani?

— Bu nima degani? Sen tutgan joyidan uzadigan jurnalist ekansan! Filofey kashfiyotlari nuqtai nazaridan bu faqat bir narsani anglatadi: cassandra-embrionlarning signallariga quloq solish, Kassandraning har bir belgisini ogohlantirish deb qabul qilish. Bizning qalbimizda yetilib kelayotgan his — yorug' dunyoga kelishdan qo'rqinch hissini faqat shu yo'l bilan to'xtatish mumkin. Genetik halokatning yaqinlashib kelayotganini har bir kishi, umuman insoniyat bilib-tushunib olmog'i zarur. Men "Tribyun" uchun yozayotgan maqlamda xuddi ana shu haqda gapiraman. Kechirasani, Entoni, telefonda hammasini aytib bo'lmaydi. Qisqasi, insoniyatning kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyati bundan buyon yangi mazmun olajak, ehtimol, bu evolyutsiyaning yangi bir davrasidir. Kecha Ordokka ham taxminan xuddi shunday dedim. U ham tashvishda.

– Ha, mister Bork, bu safar bizning Ordokka yana shuning uchun ham qiyin bo'ladiki, bu vaziyat uning siyosiy repertuaridan emas. Ordok kabi siyosatchilarni men yakkama-yakka kurashuvchi siyosatdonlar deyman. Ordok ko'z oldida raqib bo'lsa, ishonch bilan kurashadi, o'shanda hujumga o'tadi, bu hammaning ko'z o'ngida bo'lishi kerak. Tor doirada u hatto "zaruriy dushman" tushunchasini ishlataladi. Ana shundagina u o'zini g'olib sezadi. Bunisi esa qandaydir mavhumlik!

– Unchalik emas, Entoni. Ana shunday mavhumlik ko'z ochib yunguncha aniqlikka aylanishi mumkin. Aniqlik bo'lganda ham qat'iy aniqlikka aylanadi. Chunki bunda gap odamlarning hayoti to'g'risida boradi.

– Ha, albatta. Men Ordokning psixologik xususiyatini aytib qo'ymoqchiman, xolos. Lekin bu ayni vaqtda uning siyosiy hayoti shakli hamdir. Bu shunchaki gap. Men so'zimni tugatyapman, mister Bork, aybga buyurmang, siz bilan gaplashgan sari odam xumordan chiqadi. Menga qo'ng'iroq qil deya ko'rman, osonlik bilan qutula olmaysiz.

– Yaxshi, yaxshi, Entoni. Zaruriyat bo'lib qolsa, nega gaplashmaslik kerak ekan.

– Xayr, mister Bork. Televidenieda "Alfa-Beysbol"dagi miting soat oltidan sakkizgacha, "Sheraton" mehmonxonasiidagi matbuot konferentsiyasi — soat to'qqizdan o'ngacha — marhamat qilib ko'ring.

– Rahmat. Harakat qilaman...

## O l t i n c h i b o b

O'sha yilgi kuzni rassom rangli qilib chizganda kartinada shaffof osmon, rang-barang xazonrezgi, shahar chekkasidagi uylarning tomlari ustida aylanib uchib xayrlashayotgan kelgindi qushlarni ko'rgan bo'lur edingiz... Tevarak-atrofda o'ynab yurgan bolalarning sho'x ovozlari qulqoqa chalinadi. O'sha quyoshli kun barcha tirik jonga sokinlik, xotirjamlik ato qilgan edi...

O'sha mo"jizakor kun ham boshqa kunlar qatori tugagan bo'lur edi va hayot maromiga hech nima monelik qilmayotganday edi. Lekin hozircha pinhoniy, hali pishib yetilmagan, keyin o'zini ko'rsatish uchun mudom jamg'arilayotgan elektrday allaqanday hodisa yaqinlashayotgan edi. Buning uchun odamlarning bir joyga to'planishi taqozo qilinar edi. Odamlar qancha ko'p to'plansa, qanchalik zich va qalin bo'lib, qaynoq nafas oladigan yaxlit olomonga aylansa, shuncha yaxshi.

Robert Bork soatiga qarab-qarab qo'yarkan, o'zini Ordokning saylovchilar bilan bo'lajak uchrashuvini hayajon bilan kutayoganday, prezidentlik kursisi uchun kurashib, nutq so'zlaydiganday, gazetchilar ta'biri bilan aytganda, shu paytni qo'ldan boy bermaslik niyatida go'yo ommaning ishonchi va madadiga erishish uchun shaxsan kurashadiganday his qildi. Bork nima uchun, nima sababdan shu qadar hayajonlanayotganini o'zi ham bilmas edi. Aslini olganda jiddiy bir voqeа sodir bo'layotgani yo'q — saylovoldi kampaniyasi jarayonidagi siyqasi chiqqan tadbir, vassalom. Bu haqda o'ylashga arzirmikin? Bo'lar-bo'lmas voqeaga kuyib-pishishga, o'ziga hech aloqasi yo'q narsa uchun xavotirga tushishga arzirmikin? Jinnilik-ku bu! himoyachi yo'g'iysi-ya.

Lekin u o'z ustidan qanchalik kulmasin, miyasi gangib qoldi, o'zini qo'yishga joy topmas edi. Uning uydan chiqib toshlar bog'iga borgisi kelaverar edi — bu yerda uyoq-bu yoqqa yurib, yoki qumga sehrli belgilar chizib, ochiq derazadan kelib turgan kuyni eshitishni xush ko'radi. Hozir ham radiodan musiqa eshitdi. U musiqadan, Betxovenning simfoniyasidan, uning qudrati va koinotshumulligidan taskin topar, musiqaning o'zini ovuntirishiga, o'z olamiga, o'zgacha kechinmalarga chorlashiga, har galgiday jilovsiz fikr va xayollarga undashiga ishonar edi. Uning tan olishicha, musiqa — quyosh energiyasining son-sanoqsiz o'zgargan shakllaridan biri, u koinot qa'ridan chiqadi, bastakor esa radarga o'xshab koinotdan kelgan musiqani tutib oladi, unga sayqal beradi, uyg'unlashtiradi, muayyan ohang baxsh etadi. Boshqacha aytganda, musiqa — ochuniy Bo'shliq va Vaqtning tovushdagi aks sadosidir. O'zining ana shu kashfiyotlarini hech kimga aytmagan, aks holda odamlar uni mazax qilishgan bo'lur edi. Hatto Jessi ham bundan bexabar. Uning yana bir nazariyasi ham bor edi, uni ham sir saqlar edi: musiqa odamlarga inson umrining o'lguday qisqaligi uchun mukofot qilib berilgan deb o'ylab qolardi. Odam musiqani eshitayotganda ruhan musiqaga sho'ng'ib ketadi, vaqtning insonga noma'lum

kategoriyasiga kirishadi, u abadiylik oqimiga qo'shilib ketadi va uning umri uzayadi, abadiylik bilan to'qnashib cho'ziladi, ehtimol, bir necha o'n yilga, bir necha yuz yilga va ko'proqqa cho'ziladi, cho'zilganda ham uzunlik o'lchovlarida emas, balki tabiat hali aniqlanmagan o'lchovda cho'ziladi. Ehtimol, bu o'lchov mohiyati hech qachon aniqlanmas.

Biroq bu safar Bork shunga ishonch hosil qildiki, musiqani ana shunday tushunish uchun muayyan moyillik, kayfiyat, masalan, ibodat oldidan, dengizda suzish oldidan odam o'zida qandaydir moyillik, kayfiyat sezgani kabi... Buning ustiga Jessi repetitsiyaga hayallab qoldi. Hozir transport ishida tig'iz payt va mashinasi yo'llarda tiqilib qolgan bo'lishi mumkin. Bork bo'lsa uyda ham o'zini tiqilinchda qolganday his qildi. Ishi yurishmaydi, u shoshilinch tugatish kerak bo'lgan ishga qo'l ham urmadi. "Tribyun" esa va'da qilingan maqolani olishi kerak edi. U bo'lsa gazeta sahifalaridagi sensatsiya imillashni xush ko'rmasligiga aqli yeta turib bugun o'zini kompyuterga o'tirishga majbur qila olmadidi. Juda bo'lmaydigan bo'lsa yana kechasi ishlayman, gazetaga pand bermayman, deb ham ishni orqaga surgay berdi. Ranj chekdi, o'zini u yoqdan bu yoqqa tashladi va shu bilan birga matn sharros yomg'irdan so'ng bo'y cho'zgan maysaday yetilganini tasavvur qilib oldin mamnun bo'ldi. Uning miyasida maqola matni pishib yetildi. Maqola tayyor bo'lgan edi desa bo'lardi.

Lekin u go'yo o'ziga aloqasi bo'lmagan narsani butun diqqat-e'tibori bilan kutib turganday qo'lini sovuq suvgaga ham urmadi. Shaharning eng gavjum qismida, har xil odamlar liq to'la bo'ladigan mashhur sport zalda o'tkaziladigan o'sha ulkan saylovoldi mitingi nima uchundir xuddi o'zining yonverida, ayvonda, gulxonalarda, toshlar bog'ida o'tishi kerakday tuyuldi unga. Olomon uning uyini yoppasiga o'rab olib, nafasini bo'g'ib qo'yadiganday sezildi... U o'zini alahlaydigan jinni deb atadi. Bunaqangisi tushga ham kirmas.

Bork u yoq-bu yoqqa yurar, bir uyga kirsa yana tashqariga chiqar, soatiga qarab qo'yar, musiqaga chala-chulpa qulop solar, telefonga umuman javob bermas, lekin o'zi telefon qilib turar edi. Mehmonxonadagi katta televizorning yoniga bormas, vaqtliroq tomosha qilishni xohlamas edi; ko'pdan-ko'p kanallar orqali nimalar namoyish qilinishini ko'zni yumib turiboq aytib berishi mumkin — o'sha betartib teleko'rsatuvalar... Jessidan hamon darak yo'q.

Borkning yuragi qandaydir notinch edi, fikrini to'play olmas, lekin miyasiga jiddiy fikrlar ham kelib qolardi. Dorilfunundagi suhbatlarda, "Tribyun" jurnalistlari bilan bo'lgan muloqotlarda ham samoviy rohib Filofeyning murojaati nima uchun shaxsan Rim papasiga yo'llanganligi masalasi tilga olinmadidi. Shuni tushunish qiyin emas ediki, papaning o'zi ham juda qiyin ahvolga tushib qolgan edi — nima qilmoq kerak, qandaydir qallob rohibning o'ta g'ayriodatiy, sovuq desa ham bo'ladigan murojaatiga matbuotda javob berish kerakmi, javob berish lozim bo'lsa, nima deyish kerak?

Robert Bork cassandra-embrionlar muammosi hamma joyda muhokama va munozara qilina boshlasa, turli dinlarda favqulodda g'alayonlar boshlanishini yaqqol ko'z oldiga keltirdi. Filofey kashfiyotlari yo'lidagi xavflardan biri ana shunda edi.

Axir, dinlar Xudoga yetishish orzusida inson ruhi azaliy g'ayratining azob-uqubatlarini ham, zavq-shavqini ham o'zida mujassamlashtirish barobarinda ma'lum darajada bu o'rinda pismiqlik ham qiladi — Xudo o'z yo'liga; Xudo hamma uchun bitta deb tan olinadi, lekin har bir dinda ko'p narsalar o'ziniki va o'zganiki deb farq qilinadi, bir dindagi qadriyatlar bilan boshqa dindagi qadriyatlar boshqa-boshqa, qaynatilsa qoni qo'shilmas hisoblanadi. Haqiqatga yetishish uchun o'z mavqelarini mustahkamlashda turli diniy ta'limotlarning g'arazgo'yligi, nafsoniyatga berilganligi, xudbinligi ana shundan, bu esa dunyodagi ruhoniylar orasida qarama-qarshiliklar tug'diradi, o'z navbatida, dindor ommaning begonalashib, bir-birini tushunmay qolishiga olib keladi. Balki xuddi shuning uchun ham har bir dinda, faraz qildi Robert Bork, har qanday holatda ham Filofeyning kashfiyotini albatta o'z foydasiga burish uchun harakat qiladigan muayyan kuchlar topiladi, ular yoki o'zini samoviy rohibni bilib bilmaganga solib qo'ya qoladi va shunday yo'l bilan siyosiy kapital jamg'aradi yoki dinni avj oldirish va dinchilarga o'z ta'sirini kuchaytirish maqsadida Cassandra tamg'asi kashfiyotini o'z ta'limotlariga bo'ysundiradi.

U dastlab yo'lakayiga, keyinroq esa tobora kuchliroq miyasiga quyilib kelgan fikrlar — turli mamlakatlar bo'ylab qilgan safarlarida, xilma-xil xalqaro ilmiy konferentsiyalarda xuruj qilgan

mulohazalar haqida yana o'ylab ketdi, biroq bu fikrlarni oshkor aytishga jur'at etmas edi. Bordi-yu Yer kurrasidagi har bir odam barcha dinlarga bir xil darajada e'tiqod qilganda, bordi-yu insonga hamma denga teng daxldorlik huquqi berilgan bo'lganda — agar u Xudoga ishonar ekan — barcha mavjud dinlarga bab-baravar va bir xil maqomda e'tiqod qiladigan bo'lsa, boshqa din-e'tiqodlarni inkor etadigan qandaydir ayrim cherkov yoki mazhabning muxlisi emas, balki dunyo dinlari uyushmasining a'zosi bo'la olsa va barcha dinlar tomonidan hech so'zsiz tan olinsa, o'zini ayni vaqtida ham xristian, ham muslimmon, ham buddoyi, ham yahудoi deb va shu kabi boshqa dinlar muxlisi deb hisoblasa, u har bir dinni sevs va hurmat qilsa, uni ham barcha dinlar tan olsa, u ularning mazhabiy, tarqoq g'oyalari va normalarini emas, balki umumdiniy g'oya va aqidalarini bemalol qabul qilgan bo'lsa, odamlarning, har bir shaxsning hayoti qanchalik qayta qurilgan bo'lur edi? O'shanda ulkan shaharlarda va aholi zinch yashaydigan mamlakatlardagi xil-ma-xil va mazhab-tariqatlar aralash bo'lgan jamiyatlarda odamlar orasida uchraydigan yashirin va oshkor diniy g'ov-lar barham topgan bo'lur edi. Agar shunday bo'lganda in-son hayoti ancha yengillashgan, uyg'unlashgan bo'larmidi? Odam-zod istiqboliga barcha dinlar yakka-yakka holda va bir-bi-rini turtib emas, balki birgalikda chiqadigan vaqt, shun-day tarixiy davr kelmadimikin? O'tmish avlodlardan farq-li o'lar oq yigirmanchi asr oxirlarida yashayotgan odam — barcha dinlar meniki va men barcha dinlarning muxlisiman, men barcha dinlarning barcha ibodatxonalariga kirib turaman, va barcha ibodatxonalarda aziz ziyoratchiman deya olsin... Men xristianlardan tavvallud topganman, meni cho'qintirishgan, meni Qur'on tilovat qilib ko'mishadi, bugun pravoslavlар orasida pravoslav edim, kecha muslimmonlar orasida muslimon edim, Yaponiyada Buddaga ibodat qildim, Shvetsiyada Lyuter qasidalariga jo'r bo'ldim... O'zimning Xudoga e'tiqodimda men hech kimga yot emasman, bizning yaratgan Tangriga barcha tillarda va shevalarda qilingan ibodatlarda men uchun yot ibodatlar yo'q. Hammamizga baravar e'tibor bilan qaraydigan, bizning yovuzliklarimizdan bir xilda qiynaladigan va bizning aql-idrokimiz va ezgu ishlarimizga qarab hammamizga baravar koinot eshigini ochib qo'yadigan Tangriga ibodat...

Dinlar uyushmalarga birlashishsa mavjud dinlarning birontasida ham Xudo g'oyasi zaiflashmagan bo'lur edi, aksincha, dinlar ko'pqirrali, oshkor va ustuvor xususiyatga ega bo'lar, eng muhimi — ajoyib nazariyalardagina emas, balki xatti-harakatlarda ham dinlarning tub mohiyati insonparvarlik negiziga qurilgan bo'lur edi.

Bork so'zsiz bilar ediki, bu g'alati g'oya, balkim, kelishmagan g'oyadir, bu g'oyaning amalga oshishi ehtimoldan uzoqdir, u haqda faqat o'zi uchun va ichida o'ylash mumkin, taqvodor dindorlarning izzatnafsi og'ritmaslik, ularning hayotiy diniy tarziga til tegizmaslik uchun, bunday g'oya odamlarni ruhiy hayajonga solish mumkinligini bilib, ana shunday umumbashariy miqyosdagи fikr-mulohazalarda juda ehtiyyotkor bo'lmoq kerak.

Xuddi ana shu mulohaza futurolog Borkni o'z ichida saqlagan g'oyani e'lon qilish shahdidan qaytarar edi. Hatto tilining uchiga kelib turganda ham, diniy kosmopolitizmning dolzarbli haqiqatning o'ziday, odamlar va dinlarning yangi ruhiy muloqotining mutlaqo zaruriy modeliday ko'rinish turganida ham og'iz ochmagan. Bu boshqalarga nisbatan ko'proq muvaffaqiyat qozonish uchun bir-biri bilan raqobat qilayotgan dinlarning o'z-o'zicha urinishlari emas, balki Xudoga yetishish yo'llidagi umumiyl qadam bo'lmoq'i kerak edi.

Ko'plab dinlar-mazhablarni bir butun diniy uyushmaga birlashtirish g'oyasi diniy tashkilotlarning qattiq g'azabiga uchrashini, qanday shovqin-suron ko'tarilishini, o'zini sho'rlik boshiga qanday toshlar yog'ilishini, uni azim gunohlar qilganlikda, ashaddiy kufrikda, mislsiz dunyoviy bid'atda ayblashtalarini u yaxshi tasavvur qilardi. Agar xudbinlik va ta'magirlilik inson tabiatining azaliy va deyarli biologik xususiyatlari ekan, bunday amallar, albatta yuz ko'rsatishiga shubhalanmasa ham bo'lardi. O'zlarining buyuk payg'ambari uchun o'ta haqoratlangan muslimon muftilari tomonidan o'lim jazosiga hukm qilingan sho'rpeshona Salmon Rushdining qismati ham (boshqa dinlar bunday holatga befarq qaraydigan bir paytda) holva bo'lib qolardi: har holda Salmon Rushdi o'ziga boshpana ola oldi, shunday bo'lishi ham ehtimolki, xilma-xil din-mazhablarni qo'shish uchun jonbozlik qilgan kishida

bunday imkoniyat bo'lmasligi ham mumkin, hamma joyda tahqirlangan va g'azabga mingan barcha dinlar tomonidan hamma yerdan haydalgan bid'atchiga sho'rlik boshini tiqish uchun yer kurrasida joy topilmay qolsa kerak, unga hech yerdan hech qachon panoh bo'lmasa kerak? "Ana shunday vaziyatda sening kosmosga, Filofeyning yoniga ketishdan boshqa ilojing qolmagan bo'lurdi, — o'yladi Bork o'z ustidan kinoya bilan kular ekan va birdan miyasiga fikr quyildi: — rostdan ham yetib bo'lmas yuksaklikdan turib Yerdag'i odamlarga haqiqatni aytib berish uchun taqdir Filofeyni kosmik orbitaga quvgan bo'lsa-chi?"

Yopirilib kelayotgan fikrlar og'ushiga g'arq bo'lgan Bork saylovoldi uchrashuvi translyatsiyasining boshlanishini unutib qo'yayozdi. Soatga qaradi — soat olti bo'lib qopti. U o'zini televizor turgan mehmonxonaga urdi. Naq ustidan chiqdi! Ko'rsatuvni olib boruvchi teletomoshabinlarni ekranga, saylovchilarning prezidentlikka mustaqil nomzod Oliver Ordok bilan uchrashuvi haqida "Alfa-Beysbol" sportzalidan olib boriladigan teleko'rsatuvga taklif qilar edi.

Sportzalning gumbazlari osti liq to'la odam. Odam shu qadar ko'pki, ko'zing tinib ketadi. Havo mavjlarida asalari uyasidan kelayotganday g'ovullagan tovush eshitilar edi. Son-sanoqsiz odamlarning yuz-ko'zlari, rang-barang basharalari Borkning ko'z oldidan o'tdi. Zal ichining bezaklari nomzodning qo'mondasi yomon ishlamaganligini ko'rsatar edi. Sportzal gumbazi tagida kulib turgan Ordokning surati solingen katta havo shari osig'lik turibdi. U yer-bu yerdan har xil shiorlar ko'zga tashlanadi: "U quyi ijtimoiy tabaqalarni yaxshi biladi", "Ordok — bo'lajak president", "Ordok yangi ekologik dasturni olg'a surmoqda", "Ishsizlar Ordokka ishonishadi!", "Feministkalar birinchilikni xohlaydilar!", "O'zimizning Ordok uchun ovoz beraylik!" va hokazo. Operatorlar ustalik bilan shiorlarni yirik qilib ko'rsatishar edi.

Voqealar rivoji ana shunday katta uchrashuvlarga mos edi. Shovqin-suron, estrada musiqasi, sharhlovchilarning dadil ovozları, tartib-intizomni miq etmay kuzatib turgan politsiyachilar. Oliverning o'zi ham tantanaga yarashib turar edi. U shaxdam harakat qilar, bo'yi o'rtadan pastroq bo'lganidan tomirlari bo'rtib chiqqan bo'ynini cho'zib kallasini baland ko'tarib turar edi. Kulganda quruqshagan lablari jonlanib ketar, o'sha kulgi ortidagi sergakligi va hozirjavobligini ko'zidan bilib bo'lmas edi. U o'zining pakanaligini tetiklik, harakatchanlik, ovozining jarangdorligi bilan xaspo'shlaydigan konferansega juda-juda o'xshar edi. Ordok minbarga o'tayotganda zalda gulduros qarsaklar yangradi, uni ikki tomonдан maslahatchilari va yordamchilari kuzatib bordi. Prezidentlikka nomzod paydo bo'lishi bilan gurra-gurra fotoreportyorlar ko'z ochib yumguncha nishonga olishdi. Bir daqiqa chamasi ana shu efir vaqtida xalq bilan uchrashuv muhiti miting boshlanishidan oldin xuddi ana shunday bo'limg'i kerak edi, bu esa amerikacha demokratiyaning amalda ekanligini, saylovoldi kampaniyasi uchun mas'ullarning ishchanligini yana bir marta namoyish qilar edi.

Nima uchundir kun bo'yi tashvish tortgan va kutaverib charchagan Bork namoyishning oddiyligini ko'rib yengil tortdi va o'zining kerak-nokerak asabiylashganidan o'ksindi.

Chindan ham faqat bir shaxsga — Oliver Ordokka tikilib qolgan olomonda me'yor doirasidan chiqadigan biron harakatni topish qiyin edi. Ordokning ovozini kuchaytirish uchun mikrofonlar o'rnatilgan, luqma va xitoblarga ko'milib ketgan nomzodning nutqidan ulkan zal gumbirlar edi. Ordok ustalik bilan so'zladi, dolzarb masalalarga urg'u berdi. Nomzodning so'zi nishonga tekkanda, eng muhim masalalarni ko'targanda bir necha bor olqishlar yangradi. Prezidentlikka nomzod o'ziga siyosiy ishonch jamg'arish, olomonni o'ziga qaratish, rom qilish uchun bor kuchini sarfladi. Buning uchun u ketayotgan prezidentning po'stagini qoqdi, kongressni, ommaviy axborot vositalarini, senatorlarni qattiq tanqid qildi, qandaydir korporatsiyalar va kompaniyalarni, moliya tuzilmalarini har biri ayrim holda va birgalikda nimalarnidir qilolmagan, nimalarnidir bera olmagan, daromadlarini yashirgan, kishilarning farovonligiga putur yetkazgan deb tanqid ostiga oldi, bularni o'rniga qo'yishga va undan bir necha bor yaxshilashga va'da berdi. Nutqining ana shu qismi juda ko'ngildagiday chiqdi, butun zal hayajonga tushdi, shunda u o'z nazarida va yig'ilganlar ko'z o'ngida semirganday bo'ldi. Buni muvaffaqiyat deydilar.

Robert Bork kecha telefon orqali qilgan suhbatlari haqida Ordok nima der ekan deb uni diqqat

bilan kuzatib turdi: samoviy rohibning maktubi haqida Ordok hozircha og'iz ochgani yo'q. Bu, ehtimol, yaxshidir, ehtimol, ana shunday siyosiy yig'inda haligiday narsani tilga olishning hojati yo'qdir? Balki olomonni avrash, chalg'itish va kundalik hayotning chakalakzoriga boshlab borish bilan ajratilgan vaqtini tugatishni maqsad qilib qo'ygandir.

Lekin nima bo'lganda ham Ordok olomonni chalg'itishning, Filofey fenomeniga chap berishning uddasidan chiqmadi. Zalda mikrofondan berilgan birinchi savoloq ana shu haqda edi:

— Mister Ordok, — jarangladi bir ayolning ovozi, — Men Anna Smitman, maktab o'qituvchisiman, — kosmosdagi rohib Filofeyning "Tribyun" gazetasida bosilgan maktubi haqida nima deya olardingiz? — dedi yo'lakdag'i mikrofon oldida qaqqayib turgan ayol hayajon bilan.

Zaldagi olomon birdan qaysar to'lqining urilgan kema sahnida turganday chayqalib tushdi. Guvillagan ovozlar yoyilib, javob kutib jimiib qoldi. Buni burilish lahzasi desa bo'lardi.

— Ha, hurmatli Anna Smit, — bir oz jim turgandan so'ng so'z boshladidi Oliver Ordok, junjikkanday yuzi o'zgarib, — bu hujjatni o'qidim va u haqda juda ko'p o'yladim. Yashirmayman, uchrashuvimizda ham shu haqda savol berishsa kerak deb o'ylagan edim, garchi buning aslini olganda saylovoldi kampaniyasiga bevosita aloqasi bo'lmasa ham. Lekin sizni qiziqtiradigan narsa, hurmatli saylovchilar, meni ham qiziqtiradi. Shu munosabat bilan men nima demoqchi edim, — davom etdi Ordok. — Albatta, siyosatdan uzoq bunday muammolarga mening fikr bildirishim amri mahol. Lekin o'ylaymanki, rohibning to'g'rirog'i zamonaviy katta olim Filofeyning kashfiyoti shuni ko'rsatadiki, insoniyat uchun intiqom payti yaqinlashib kelayotir. Afsus, bizlar o'zlarimizga yuqori baho bergen ekanmiz. Hammangiz gazetani o'qigansiz, gap nima haqda borishini yaxshi bilasiz. Filofeyning signallarini yaqinlashib kelayotgan falokatdan ogohlantirish deb tushunmoq kerak. Shunday bo'lib chiqyapti!

Shu paytda teleob'ektivlar zalda o'rmalashar ekan, ko'zlarida bezovta umid yolqini o'ynagan odamlarni boshqalardan yiroqroq qilib ko'rsatar edi. Robert Bork ekran oldida qotib turar ekan, shu paytda zalda emasligidan juda o'kindi. Ordok boshqalarni o'z gapiga ishontira olarmikin?

— Nima qilish kerak? — cho'kkani jimlikni buzib qayta so'radi o'qituvchi ayol. Ayolning najotsizlikdan samimiy savol berayotgani bilinib turar edi.

— Mening fikrimcha, — bunga javoban dedi Oliver Ordok, — nima qilishni har bir kishi o'zi o'ylasin. — Zalda xitoblar guvilladi. — Lekin jiddiy talab nuqtai nazaridan qaraganda, — fikr yurgiza boshladidi u zaldagi ola-g'ovurni bosish uchun, — albatta, yaqinlashib kelayotgan halokatning, ya'ni Filofey aytganday ijtimoiy halokatning, yo bo'lmasa biologik halokatning oldini olishning tegishlichcha dasturini ishlab chiqmoq, cassandra-embriionlarning oxirzamonni sezish xususiyatiga, ya'ni hayotdan voz kechish uchun intilishiga sabab bo'ladijan hodisalarga qarshi kurash choralarini ko'rmoq zarur!

— Menga so'z bering! — yana bir ayolning ovozi eshitildi. U mulatkalarga o'xshash qorachadan kelgan, yaltiroq metall sirg'alar taqib, yoqasi ochiq sariq bluzka kiyib olgan edi. Ayol qatorlar orasidagi yo'laklardan biridagi mikrofon oldida paydo bo'lib qoldi. — Men jim tura olmayman va bizlar jim turmasligimiz kerak! — dedi u gir atrofga qarab qo'yari ekan. — Ha, bizning kvartallarda yashash oson emas. Lekin biz hammavaqt bola deb yashab kelganmiz, bola uchun jonimizni ham ayamaymiz. Bu ishga hech kim aralashmasin. O'sha samoviy rohibga yo'l bo'lsin! Nega endi u meni ta'qib qilar ekan? Nechun mening shaxsiy ishimga aralashar ekan? Men qat'iy norozilik bildiraman!

Zal yana guvillab ketdi, ko'plar "to'g'ri" deganday boshlarini qimillatib qo'yishdi, ba'zilar o'rinalidan turib ma'qullaganday qo'llarini silkitishdi.

Ordok mulat ayolga taskin berishga urindi:

— Ha, men sizni tushunib turibman, xonim, lekin Cassandra tamg'asining paydo bo'lishi bizga bog'liq emas. Biz buning bor narsa ekanligini tushunib olishimiz kerak xolos.

— Bo'lajak prezidentlik minbaridan turib samoviy rohibning yoni olinayotgan bo'lsa boshqa gap. O'sha kishi bu yoqqa kelsin, osmoni falakka chiqib olib, biz ayollarni butun dunyoga sharmandayu sharimsor qilayotgan rohib bizning nechuk xudoning g'azabiga uchraganimizni aytib bersin! — dedi hovurdan tushmasdan yaltiroq zirak taqqan o'sha ayol, atrofdagi hamfikrlarning norozilik yalqiniga

olov tashlab. Ehtimol balkim uning uyi ham, eri ham yo'qdir. "Qanday baxtsizlik, — pichirladi Robert Bork, — qanday fojeali yanglilish. Uning joni qiyonoqda, uni tushunish mumkin".

Ayol esa besh battar tutaqib, so'zini davom ettirdi:

— Sizlar uni genial olim deb atashingiz, u bizning ko'zimizni ochdi-ku, deyishingiz mumkin. Orbitadagi o'sha nusxa men uchun — ablah, yaramas! — deb qichqirdi nihoyat ayol g'azab bilan.

Ana shu so'zlar yangragandan so'ng guvillagan zal tildan qolganday bir lahza jim-jit bo'lib qoldi. Hech kim ayolning pishagini pisht demadi, hech kim uni tartibga chaqirmadi. Oliver ham o'zini noqulay sezib, ayolga g'ing deya olmadi. Shundan so'ng Amerikada xuddi shu paytda televizor oldida o'tirganlarning ko'plarini larzaga solgan sahna boshlandi.

— Mana, qaranglar, xudodan yashirmaganni qanday bandadan yashiray, qaranglar, men nima qilay! — deb baqirib yubordi bir ayol, asabiy nafas olar ekan, barmog'ini peshonasiga qadab. — Mana bir necha kundir-ki, peshonamda o'sha ofat, o'sha dog', yaramas samoviy iblis tili bilan aytganda Cassandra tamg'asi! — uning yuzi teleekranda yirik ko'rsatildi va ayolning peshonasidagi o'sha mash'um qizil dog' milt-milt etib turar edi.

— Krem ham, upa-elik ham surib ko'rdim, — dedi u bilinar-bilinmas uchib turgan lablarini kafti bilan yopar ekan. — Yordam bermaydi. Yo'qolmaydi. Kechami, kunduzmi farqi yo'q! Bundan chiqdi, men osmondag'i badkirdorning nazorati ostida ekanmanda! Bundan chiqdi, u mening ko'zimga barmog'ni tiqib: qarab qo'y, sening bolang — o'zingga qarshi, onasiga qarshi, hayotga qarshi chiqayotir, o'zini o'ldirishlarini so'rav signal jo'natmoqda! Binobarin u tug'ilishni xohlamaydi, u hayotdan qo'rqadi, der ekan-da! To'g'rimi? Uni hayotga nafrat bilan qarashga kim o'rgatmoqda? hali tug'ilib ulgurmagan o'sha homilani kim o'limga mahkum etmoqda, yorug' dunyodan voz kechishga kim majbur qilmoqda? Fazodan turib meni qandaydir dahshatli zondaj-nurlar bilan nurlantirishga kimning haqi bor? Biz bu yerda o'tiribmiz. Bizni ishontirmoqchi bo'lishgan o'sha daho Filofey osmondan turib o'z nurlari bilan xotinlardagi cassandra-embriyonlarni timirskilaydi. Bizlarni nazorat qilib turadi! Bizlarni bu qadar ahmoq deb barmog'ini ko'zimizga tiqadi. Xo'sh, nima qilmoq kerak? Siz faqat meni shunday deb o'ylaysizmi? ha, mana shu zalning o'zida ham menga o'xshaganlar bordir, bu ayollar o'zlarida Cassandra tamg'asi nish urganini ehtimol hali bilishmas? Nima qilish kerakligini aytib beringlar, insonlar! Men nima qilishim kerak? Men bolamni hayotdan qo'rqqani uchun tug'ilmasdan o'ldiraymi? Demak, men, mening taqdirim, mening hayotim uni qanoatlantirmas ekanmizda? Yoki men unga yerda jannat qurib berishim kerakmidi? Qanday qilib? Shunday qilganimda o'zim ham xursand bo'lardim! Lekin men dunyoni qanday tuzata olaman? Yoki men o'zimni osishim kerakmi? — shunday deb ayol ho'ngrab yig'lab yubordi. Yaqindagi qatorlardan qandaydir odamlar yugurib kelib uni ikki qo'lidan ushlab olib chiqib ketishdi.

Zalda yana jimlik boshlandi. Ming-minglab odamlar yerga qarab miq etmay o'tirishdi. Hamma bu yerga Oliver Ordokni deb kelishgan bo'lsa ham hozir uni butunlay unutib qo'yishgan edi. Telekameralar minbardagi Ordokni chetlab o'tar ekan, goho o'tirganlarning yuzlarini ko'rsatsa, goh umumiyo manzarani namoyish etar edi.

Ekranda Ordok paydo bo'lib, ovozini chiqardi:

— Men bu yerda hamma savollarga javob bera olamiz deb o'ylamayman. Ehtimol, maxsus... — deb so'z boshlab edi, lekin zaldan chiqqan ovoz uning gapini yana bo'ldi:

— Kechirasiz, mister Ordok, — narigi burchakdan mikrofonga qarab murojaat qildi erkak kishi, — aytmoqchi bo'lganim xayolingizga yomon gap kelmasin. Biz siz tomondamiz, lekin ko'rib turibsizki, hamma tashvishda. Men o'zim vrachman va hayajondaman, men bu ayolni tushunib turibman, u qattiq hayajonlanmoqda, yana qancha ayol shu ahvolga tushib qolishi mumkin! Kim bo'lishidan qat'iy nazar, qandaydir bir kimsa, kosmosdan chiqqan bir qallobning hayotimizga tumshuq suqishiga nima haqqi bor?! Birinchidan, buni konstitutsiyamizni buzish deydilar. Savol tug'iladi: biz demokratik mamlakatda yashayapmizmi yoki yo'qmi? Biz o'zimizga xo'jayinmizmi yo yo'qmi? Inson huquqlarini himoya qilish degani qani? Shaxsning huquqlarini oyoqosti qilishga kimning haqi bor? Qandaydir nazariyaga, hatto ilmiy kontseptsiyaga muvofiq yashash va ish ko'rishga bizni kim majbur qila oladi.

Agar men o'sha kontseptsiyani qabul qilmasam, u mening manfaatlarimga mos tushmasa, hech kim laboratoriya tajribalari orqali menga boshqa bir turmush tarzini majbur qilish huquqiga ega emas. Men Filofeyning maktubini diqqat bilan o'rgandim. Ko'p o'yladim. Sizni har qancha hurmat qilishimdan qat'iy nazar, mister Ordok, bu masalada, men sizning fikringizga qo'shila olmayman. Filofeyning tavsiyalariga ergashib bo'lmaydi deb bilaman. Ehtimol, ilmiy nuqtai nazardan u haq bo'lsa bordir, lekin amalda esa – yo'q, u haq emas. Biz tajriba qilinadigan kalamushlar emasmiz-ku!

– To'g'ri! Ofarin! haq gapni aytayotir! — degan ovozlar yangrab, zal to'lqinlanib ketdi.

Telekameralar zal bo'y lab o'rmalar ekan, baqirib-chaqirayotganlarni birma-bir yirik qilib ko'rsata boshladи. Teleoperator bir zumda Ordokning o'zini ham yaqqol ko'rsatib o'tdi. U ayanchli bir ahvolga tushib, shumshayib qolgan edi. Minbar oldida butunlay sarosimaga tushgan, nima qilishini bilmay, zaldagi bebosh ehtiroslarni qanday bosish yo'lini topolmay najotsiz turar edi. Xuddi shu onda Bork Ordokning yuzida yana paydo bo'lgan dog'larni sezdi. Ana, sho'rva yuzidagiday qizg'ish ko'kimtir dog'lar uzoqdan ekranda issiq va namday tuyuldi. Butun koru holni ko'rib turar ekan, Bork Yerdagi yovuzliklarning manbai odamlarning o'zlarida ekanligini tan olishni xohlamaganliklaridan g'alati bo'lib ketdi. Ha, ular Filofeyni tushunishni hech ham xohlashmaydi. Bork Ordokka achindi. Ordok esa haqoratlangan edi. "Ishi yurishmadi, yurishmadi-da, — dedi o'zining eski do'sti uchun joni kuyib Bork. — Eng muhim, u ruhiy tushkunlikka uchramasin-da! U zalni qayta ishontira olsa, o'z nuqtai nazarini himoya qila bilsa, oldingi mavqeini egallaydi. Qo'lidan kelarmikin? Voy xudoymey, qanday bema'nigarchilik! Biz barbod bo'ldik, biz aybdor emasmiz, lekin ish bizning o'zimizga kelganda go'yo ko'r bo'lamic qolamiz. Sho'rlik Filofey, hozir shu zalda bo'lsa edi!"

– Men sizdan iltimos qilaman, mister Ordok, o'z nomimdan, agar menga qo'shilishsa, saylovchilar nomidan so'rayman. Buni shunday qoldirib bo'lmaydi! — o'zini vrachman deb tanitgan kishi shovqinni bardosh bilan yengib, mikrofon oldida baqirib-chaqira boshladи. — Amerika fuqarolari ustidan qandaydir eksperimentlar o'tkazishga hech kimning haqi yo'q! O'sha samoviy rohib butun insoniyatni qandaydir to'da, olomon deb biladi, bu uning ishi, bizning ishimiz emas. Biz esa amerikaliklarmiz. Biz – mustaqil shaxslarmiz! Qo'shma Shtatlar hududida g'alamislik bilan nurlantirishlar o'tkazishni man etish zarur! Endi Kongress o'z so'zini aysin, bizning federal organlarimiz o'z so'zini aysin!

– To'g'ri, rost! Taqiqlash kerak! – Hamma yoqdan ovozlar eshitildi.

– Taqiqlansin!

– Tinchlaning, janoblar! Iltimos qilaman, xonimlar! – sahnadagi mikrofon oldida turib tartibga chaqirishga harakat qildi saylovoldi uchrashuvini boshqarayotgan suxandon. U qimmatbaho qalin ko'zoynak taqib, bashang kiyangan va sochini ikki bo'lib farq ochib olgan basavlat kishi edi. Aftidan, ahvolning bunday tus olishini kutmagan ko'rindi. U hayajonda edi. – Mikrofonda navbat bilan gapirishlaringizni so'rayman! – da'vat qilar edi. – Men sizga so'z beraman, faqat navbat bilan, iltimos qilaman, bemalol, faqat navbat bilan gapiringlar.

Lekin endi kech edi. Yo'laklardagi mikrofonlar yonida shu zahoti yuragidagini aytib olish, bundan oldin gapirgan notiqlarning so'zlariga javoban fikr bildirish uchun odamlar to'planib qolgan edi.

Majlisni boshqaruvchi mikrofonlarda gapiruvchilarga navbat-naibat so'z berib turishdan boshqa iloj topmadi:

– Birinchi mikrofon! So'z ikkinchiga! Bemalol! Uchinchi mikrofon! Beshinchi, yettinchi, o'ninchi...

Mikrofonlarda navbat kutganlar va gapirayotganlar soni ko'paygandan ko'payib bordi. So'zga chiqqanlarning ko'pchiligi Filofeyning kashfiyotlarini va g'oyalarini keskin qoralashga, kosmosda paydo bo'lgan o'sha g'alamisni, ashaddiy buzg'inchini orbitadan haydab chiqarishga chaqirar edi; bir nusxa, rus muhojirlaridan bo'lsa kerak, Filofeyni KGB chaqimchilariga o'xshatib, homilador ayollar ustidan material to'playdigan, kosmik ayg'oqchi deb atadi. Ikkinchi bir nusxa Filofey Rossiyaning kosmosga chiqargan agenti, unga Amerikani ichdan yemirish, jamiyatda genetik bomba portlatish vazifasi topshirilgan degan farazni o'rtaga tashladi; yana bittasi buni hozirgi jamiyatni nazorat qilib turishni niyat qilgan xalqaro mafiyaning ishi deb taxmin qildi. Tag'in qandaydir dahshatli taxminlar va farazlar o'rtaga tashlandi. Fikrlarning bellashishi avj olgandan avj olib bordi, yovuzlik va makkorlikning azaliy

ma'no va mazmun tovlanishlari yangilari bilan boyidi – kosmik shayton, fazoviylar iblis, kosmik anarchist va hatto – samoviy Faust va boshqalar.

Lekin ko'pchilik, har holda astoydil, tashvishlanib Filofeyga qarshi bo'lsalar ham uning ijtimoiy-biologik kashfiyotlaridan kelib chiqadigan qo'rqinchli oqibatlarni har qanday qilib bo'lsa ham miyadan chiqarib tashlash istagini bildirishdi, bunda eng avvalo asrdan asrga unib-o'sib, hech qanday "kassandra tamg'alari" tushiga ham kirmsandan rivoj topib borgan insoniyat tarixiga murojaat qilishdi; bularning hammasi, ayniqsa ayollar ko'zlariga yosh olib o'zlarini qutqarishlarini, shaxsiy hayotlarini zondaj-nurlardan himoya qilishlarini iltijo qilganlari chindan ham kuchli taassurot qoldirdi. Nihoyat so'zga chiqish jarayonida samoviy rohib bilan BMTning o'zi shug'ullanishi kerakligi aytildi, insoniyatni himoya qilish choralarini ko'rish uchun masalani BMTga qo'yish talab qilindi.

Ana shu sahnalarini kuzatish Robert Borkka og'ir bo'ldi. U alam bilan shunga ishonch hosil qildiki, yaqinlashib kelayotgan oxirzamonning haqiqiy mohiyatini ochib berish uchun Filofeyning qilgan harakatini ko'pchilik tushunmayotir, oxirzamon tashqi dunyoning yaratilgandan buyon ro'y berishi mumkin bo'lган halokati orqasida emas, balki borgan sari urug'lab ketayotgan shafqatsizliklar va rango-rang yovuzliklar mahsuli bo'l mish irsiyat qa'ridagi o'pirilish natijasida kelib chiqadi. Inson tabiatidagi qo'rqinch – gunohi azimlar uchun, Xudo bergen hayot oldida abadiylikka qilingan gunohlari uchun instinctiv qo'rqish ham o'z ishini qildi. Hayot har bir kishiga uzoq muddatga bir bor ato qilingan, lekin bu hayot abadiylikka berilgan emas, balki Fazo va Vaqt bilan azaldan me'yorlab va cheklab qo'yilgan.

Oliver Ordokning ahvoli achinarli edi. Bork Ordokning mag'lub bo'layotganini tasavvur qildi va voqealarning shunday tus olishini oldindan ko'ra bilmagani uchun o'zini aybdor deb hisobladi, biroq Ordokka bu haqda o'z bilganicha shipshitib ham qo'ygan edi.

Ordok kulgili holga tushib qolgan edi. Go'yo bu uchrashuvning Ordokka hech qanday aloqasi yo'qday uni unutishgan va minbar oldiga tashlab ketishgan edi. Barcha nutqlaru luqmalar faqat Filofeyga qaratilgan edi, mitingni uyushtirgan Ordok, lekin hammaning diqqat markazida samoda Filofey – osmonning bir kunjagida olam kezayotgan o'sha samoviy rohib edi. Yo'laklardagi mikrofonlarni o'rab-qurshab olgan odamlar o'z dardlarini prezidentlikka nomzodga emas, balki rohib Filofeyga aytib olishga shoshilardilar. Ordok esa nima uchundir minbarda qaqqayib turaverdi. Uning nazarida hamma narsa bozorga aylangan edi. Ordokning o'z vazifasining muhimligini saylovchilar va teletomoshabinlarga yetkazish uchun tayyorlangan nutqi va ko'zlangan maqsadlari – barchasi puch bo'lib chiqdi. Sportzal gumbazi tagida kulib turgan Ordokning rasmii osilgan havo shari endi qandaydir kulgili,sovun ko'pigiga o'xshar edi. Holdan toygan, haqoratlangan Ordokning o'zi esa butunlay dovdirab qolgan edi. Uning yoniga maslahatchilari va yordamchilari yugurib kelishib, nimalarnidir pichirlashardi, lekin u mikrofon oldida so'ljayib turaverdi. Uning ko'zlarini g'azabga to'la edi, yuzidagi dog'lar oldingidan ham aniqroq ko'rina boshladi. Bu uning muvaffaqiyatsizligi, butun mamlakat ko'z oldida rejalarining barbod bo'lishi edi.

Miting daryosi boshqa yo'naliш oldi. Cho'kib ketayotgan kishiga nogohon somon cho'pi tashlanmaganida, hammasining nima bilan tugashini Xudo bilardi. Birdan yon tomondan sahnaga sportchiga o'xshagan bir yigit yugurib chiqdi; galstugini tortqilayotgan va navbat bilan gapirtirishlarga behuda urinayotgan boshqaruvchiga yaqin kelib, qulog'iga nimalarnidir pichirladi va uning qo'lidan mikrofonni yulib oldi. Keyin zalga qarab, bor ovozi bilan gapira ketdi:

- To'satdan oraga suqulganim uchun uzr. Bir gapim bor! Muhim gap!
- Shovqin bosildi. Zalga bir zum tinchlik cho'kdi. Endi bir lahzani ham qo'ldan boy bermaslik kerak edi.

– Mening otim Entoni Yunger, — deb o'zini tanishtirdi nogohon sahnada paydo bo'lgan yigit.

"ha, Entoni Yungeri shu ekan-da, kelishgan yigitcha ekan", — o'yladi Robert Bork.

— Mashhur odam emasligimni ismimdan ham bilsa bo'ladi, — dedi Yunger. — Lekin men ham sizlarga o'xshash, okrugimizning saylovchisiman. So'zga chiqish huquqimdan foydalanmoqchiman. Buning ustiga mister Ordokning qo'mondasidanman, uning maslahatchilaridan biriman. Qulq soling.

Bizning mitingimiz kosmosdan bizga tashlangan muommolar munozarasiga emas, balki prezidentlikka nomzod bilan uchrashuvga bag'ishlangan. Shuning uchun saylovoldi muhokamamizni davom ettirish maqbul bo'lur edi. Filofey bilan esa keyingi safar shug'ullansak, chunki bu noyob yangilik haqida hali ko'p o'ylash va mulohaza qilishga to'g'ri keladi. Shuning uchun reglamentga qarab ish qilsak, Mister Ordokdan Filofey muammolarini qo'yib o'z saylovoldi dasturini aytib berishini so'raymiz.

Bu ayni muddao bo'ldi. Janjal bostirildi. Bork Entoni Yungerning kelganidan mammun edi. U Yungerni taxminan xuddi shunday bo'lsa kerak, deb tasavvur qilar edi. Shundan so'ng ham hech kimning, hatto Borkning ham tushiga kirmagan voqeа ro'y berdi.

Ordok o'zini o'nglab oldi – u endi tashabbusni qo'liga olgan edi:

— Ha, men o'z nutqimni davom ettiraman, — tayyorlanib so'z boshladi va ko'zlar yonishidan, chehrasidan unda qandaydir o'zgarish ro'y bergani sezilardi. Unda jasorat paydo bo'ldi. — Ha, hurmatli saylovchilar, hozir Entoni Yunger aytganday, men bu yerda o'z nutqimni davom ettirish uchun turibman. Lekin kichkinagina qo'shimcha bor. — U ozgina jim turib, o'tirganlarga sinovchan nazar tashladi-da, tushuntirdi: — Men xuddi ana shu Filofey, ha Filofey haqida gapiraman, — ta'kidladi u. — Men bu yerda mikrofonda gapirganlarga qo'shimcha qilaman, kosmosdan bizga qilingan hujum bilan bog'liq fikrlarni rivojlantirmoqchiman, bizning genetik vaziyatimizni qattiq tanqid ostiga olaman. Birinchi galda ana shu haqda gapiraman, chunki men saylovchilar bilan, xalq fikri bilan yashayman. Bu yerda hammamiz hamjihatmiz, men uchun eng muhimi shu. Mikrofonlardan eshitilgan nutqlar menikiga o'xshab ketadi. Men ham shu haqda, amerikaliklar uchun oliy qadriyat hisoblangan huquqlarimizga kosmosdan bo'lgan mislsiz tajovuz to'g'risida taxminan xuddi shunday xayollarga bordim. Bu yerda qayd qilinganidek, Filofey osmonda turib bizga choh qaziyapti, men ham shu fikrdaman. Men yana qo'shib qo'ygan bo'lur edimki, nihoyat, u bilib turibmi, bilmasdanmi, oxir oqibatda bizning demokratiyamizga ham choh qaziyapti. Bu aqli salimga to'g'ri kelmaydigan fikrga o'xshaydi, lekin aslida shunday. Bu choh yovuz niyat bilan, insonga qarshi qazilyapti. Iblis makkorligining chek-chegarasi yo'qligiga biz siz bilan yana bir bor ishonch hosil qilayotirmiz. Men ana shu haqda gapirmoqchi edim, lekin bundan avval men hamsuhbat bo'lgan ba'zi bir bilag'onlarning fikrlarini aytib o'tmoqchiman. Biroq so'zimning ikkinchi qismiga – Filofey maktubiga o'z munosabatimni bildirishga, ko'rib turganingizdek, haqiqatdan ham ulgurmadi. Mikrofonlardan aytilan gaplar mening fikrim bilan bir joydan chiqdi. Bu juda soz, mening obro'yimga obro' qo'shami. Hozir jamiyat ustida qo'qqisdan mislsiz xavf paydo bo'ldi degan mulohazaga to'la qo'shilaman. O'zini rohib Filofey deb tanishtirgan odamning kori-amali genetik tadqiqotlarga daxldorga o'xshab ko'rindi, aslida esa bu tajovuz, bizning ruhiyatimizni, o'zimizga, tsivilizatsiyamizga bo'lgan tarixiy ishonchimizni kunpayakun qilishdir. E'tibor bering, bu tajovuz osmondagina olib borilmayotir, Filofey Yerdan ham o'ziga hamfikrlar topdi – bizda fan va ijtimoiy hayotda katta e'tibor qozongan shaxslarni o'ziga sherik qilib oldi. Mana sizga ahvol? O'zlarining kosmik ilhomchilarini darhol ko'klarga ko'tarishga tayyor turgan ana shu zotlar Filofey bilan bir bo'lib olib uning nomidan yerda g'alayoni azim ko'tarish, bizning mavqemizni shubha ostiga olish va eng muhimi, — ayollarimizga qandaydir iblisona nishon — Cassandra tamg'asi taqib badnom qilish uchun vaqt-soat kutishmoqda. Falokatlar va baxtsizliklarning bashoratchisi bo'lgan Cassandra nomi bilan atalgan tamg'aning o'zi dillarga g'ulg'ula soladi. Nomi ham tasodifiy qo'yilgan emas. Qandaydir makkaroni niyat bor bunda! Sergak bo'laylik! Butun millat sergak tortaylik. Filofeyning akademik libosidagi hamfikrlari odamlarga ommaviy axborot vositalari orqali ta'sir etishga, kosmosdan kelgan soxta bashoratlarga ishontirishga majbur qilish uchun shay turishipti. Bu hech ham mubolag'a emas, ishoning, bu insoniyatga qarshi fitnadir. Xuddi shunday! Mening tashvish tortayotganimning boisi ana shunda, hurmatli saylovchilar!...

Zal xuddi shuni kutib turgan ekan. Odamlar prezidentlikka nomzodning nutqiga mahliyo bo'lib, undan sehrli nigohlarini uzmay qo'yishdi. Hozir Oliver Ordokning og'zidan chiqqan so'zlar ularning dillarida hamdardlik va xayrixohlik topdi. Odamlar "Alfa-Beysbol" sportzali gumbazlari tagida birgalikda nafas olishar, Oliver Ordokning da'vatkorona so'zlariga butun vujudlari bilan quloq tutishar edi. Shak-shubhasiz bu g'alaba edi. Ordokning xalq oldidagi mag'lubiyatidan keyingi yorqin zafari edi.

U g'abalaga yo'l topdi, u topganda ham ustalik bilan topdi, u strategiyasini bexato o'zgartirdi, ana endi samarasini totib turipti.

Ordokning o'zi ham o'zgarib ketdi. Endi minbarda butunlay boshqa odam turganday edi. Uning so'zlari zaldagilarga qanday kuchli ta'sir etganini ko'rib, gapirgan sayin ruhan parvoz qila boshladi. Bu o'z-o'zidan mammun bo'lism, muvaffaqiyatdan lazzatlanish, o'z so'zidan qanoatlanish va rohatlanish lahzasi edi; bunaqasi har doim ham bo'lavermaydi; unga shunday tuyuldiki, uning so'zlari qaynab chiqib, tevarak-atrofdagilar dilidan, birinchi galda tahsinlar aytib turgan ayollar dilidan o'rinn olayotir, barcha odamlar – erkaklar ham, ayollar ham o'zlarini unga yaqin tutishar va har bir kishi unga jon deb quloq osar edi. Ordok qattiq pishqirib uyurdagi biyalarga shitob bilan hujum qilgan ayg'irga o'xshash shu holatdan kuch olardi, har bir so'zi o'ziga kuch bag'ishlar va o'ta ardoqli, lekin hali qo'lga kiritilmagan hokimiyat bilan qovushib ketish onining yaqinligini oldindan sezish hissini uyg'otar edi. Ordok o'zida boshqalarga tinimsiz amri-farmon berish istagi nish urganday sezdi, bu da'vat boshqalarga hokim bo'lism, buyruq berish, bo'rilik qilish hissi odamlar qonida hali ular o'rmonlarda yarim vahshiy holda yashab yurgan chog'lardan buyon yashab keladi. Lekin hokimiyat lazzatiga yo'l nutqlar oqimi orqali o'tar edi — bunda so'zlar zinch qatorlar hosil qilib, qal'an, bu o'rinda Filofeyning g'oyalarini va uning hali mag'lub bo'limgan hamfikrlarining g'oyalarini zabit etish uchun ishga solingan edi, u Filofey fikrlariga qarshi kurashish uchun hamfikrlarini o'z tevaragida jipslashishga va buyruq berish bilan kurashga otlanishga undardi.

ha, bu Oliver Ordokning oshig'i olchi turgan payt ekanidan nishona edi. Hamma unga tahsin o'qirdi. Hozir bo'lganlar ichida faqat bir kishi — minbar yaqinida ekranda lip-lip ko'zga tashlangan yigit bu fikrga qo'shilmas edi. Entoni Yunger sahnaning bir chekkasida yakkakift bo'lib, go'yo unga tosh otishganday ikki qo'l bilan boshini changallab o'tirar edi; uning qo'l tomirlari bo'rtib chiqqan, hayajonda edi.

Endi Oliver Ordok hujumni avj oldirdi. U o'z nutqini zalda va undan tashqarida hamfikrlariga so'zini o'tkazadigan va muvaffaqiyatni mustahkamlaydigan qilib tuzgan edi. Bu uning uchun favqulodda qulay payt edi.

— Men siz bilan bizning hushyorligimiz zarurligi haqida gapirar ekanman. — "Alfa-Beysbol" zalida o'tirganlarga sidqidildan murojaat qilar ekan, eslatib qo'ydi u, — biz siz bilan mislsiz kosmik avanturya qurbonlari bo'lib qolmasligimiz uchun jamiyat manfaatlarini ko'zda tutayotirman. Axir, masala umumjahoniy miqyos kasb etadi, ayni vaqtida bu har bir kishiga, jumladan, bu yerda hozir bo'lganlarning hammasiga daxldordir, saylovoldi uchrashuvida esa Filofeyning inson genofondini buzishga qaratilgan sayyoraviy eksperimentlaridan, jamiyatda sarosima uyg'otadigan, o'zlarimizda hayotga intilish hissini yo'qotadigan tajribalaridan o'zimizni qanday himoya qilish haqida so'z bormog'i kerak.

— hecham bunday bo'lmaydi! — zalda darg'azab ovozlar yangradi. — Bunga yo'l qo'yamaymiz!

— Men ham shunday deb o'ylayman, — davom etdi Oliver Ordok. — Buning uchun bor kuchimni sarf qilaman. Meni hech narsa to'xtata olmaydi. Lekin paydo bo'lgan kosmik xavfni va yerda turib yelkasini Filofeyga tutadigan, vaziyatni buzadigan, sodda qilib aytadigan bo'lsak — suvni loyqalatadigan kishilarni qanday qilib, qaysi yo'l bilan daf qilish mumkin bo'larkin? Odamlarning va xalqlarning taqdiri haqida so'z borayotgan ekan, men o'zimni umumiyl gaplar bilan cheklanib qoladigan qandaydir oliyhimmat jentelmen qilib ko'rsatmoqchi emasman. Filofeychilar bilib qo'yishlari kerak — biz ular bilan kelisha olmaymiz va ular har qanday ilmiy dalil-isbotlar keltirishmasin, biz ularning orqasidan ergashib genetik qopqonga bormaymiz! Jumladan, men bir futurolog bilan, ilmiy doiralarda ma'lum va mashhur bo'lgan, dunyo taniydigan, amalda esa samoviy rohibning bosh tarafdoi va hatto mafkuraviy xizmatchisi bo'lgan kishi bilan uzoq gaplashdim. Sobiq Sovet Ittifoqida jon-dili bilan dohiyga xizmat qilgan va uning uchun jonini fido qilishga tayyor yigit-qizlarni, xato qilmasam, komsomol faollari deyishadi. Filofeyning dastyori ancha yoshga kirib qolgan bo'lsa ham, ana o'shalarga o'xshab ketadi, u bizning dorilfununimizda ishlaydi va o'zi shahrimizning yaqinida yashaydi, — o'sha kishining oti Robert Bork.

Zal jimb qoldi, o'tirganlarning nafasi ichiga tushib ketdi va birozdan so'ng boshlangan pichir-pichir borgan sari avjga mindi: "Robert Bork! Robert Bork! Robert Bork! Qandaydir Robert Bork!"

— Ana shunaqa, muhtaram saylovchilar. Robert Borkning ilmiy dalil-isbotlariga har qancha hurmat bilan qulq solmay, uning diqqatini tirik odamlarning taqdirlarini inkor etishga hech kimning haqi yo'qligiga, Filofey qanday ilmiy maqsadlarni ko'zda tutishidan qat'iy nazar, turmushimizga burun suqib, buzg'unchilik qilayotganiga qaratdim, endi esa bu odamning Filofeydan ham o'tib tushajagiga ishonch hosil qildim. Xuddi ana shunday odamlarda olimlik niqobi ostida dunyoviy yovuzlik yashirinib yotadi. Robert Bork uchun uning falsafiy safsatalari, suhbatdosh va raqibning boshini gangitadigan jahoniy g'oyalari yon-verida yashayotgan oddiy kishining taqdiriga nisbatan muhimroqdir. Robert Bork har xil ilmiy mulohazalarni pesh qilib bo'lsa ham ana shu oddiy kishini, uning barcha muammolari va kulfatlarini inkor etadi, uni insoniyatning unib-o'sib turishiga putur yetkazadigan, bizni istiqboldan mahrum etadigan Filofey ta'lilotiga qurban qiladi. Robert Bork o'ta mutaassib, u bor vujudi bilan Filofeyni himoya qiladi, unga shaytoni layinga xizmat qilganday xizmat qilishga tayyor.

— Lekin afv etasiz, mister Oliver! Bu yakkama-yakka suhbatdagi gaplar-ku! — Ordokning so'zlari chiday olmay, mikrofon oldiga chopib keldi Entoni Yunger. Uning afti qizarib-bo'zarib o'zgarib ketgan edi. — Oralaringizda bo'lgan suhbatni hammaga oshkor qilish insofdanmi?!

— Men Bork bilan bo'lgan suhbatimizni sir saqlamoqchi emasman, — pinagini buzmay gap qaytardi Ordok. — Agar yakkama-yakka suhbat butun insoniyat taqdiriga daxldor bo'lsa, agar Robert Borkka o'xshagan odamlar Filofeyning qo'ltig'iga suv purkab qilmishlarini ma'qullashayotgan, manzur ko'rishayotgan bo'lsa va odamlar ongida uning nazariyalariga keng yo'l ochib berishayotgan bo'lsa, uning butun dunyo ustidan nazorat qila olishi uchun sharoit hozirlashayotgan bo'lsa, nega endi men u bilan adi-badi aytib o'tirishim kerak ekan?

Gulduros qarsaklar "Alfa-Beysbol" tomini teshguday bo'ldi. Teleoperatorlar zalda u yoqdan bu yoqqa yo'rg'alab, Oliver Ordokning yana bir ulkan yutug'i sahnasini namoyish qilish uchun odamlarning basharalarini yirik qilib ko'rsatib turdi.

Entoni Yunger og'iz juftladi:

— Mister Ordok, bunday qilishga sizning haqingiz yo'q...

Lekin zal Entonining og'zini ochirmadi. Hamma uning ovozini o'chirish, turgan joyida yer bilan yakson qilish uchun gumburlatib qarsak chalaverdi.

Yunger bo'lsa nimalarnidir gapirar, odamlardan baland kelish uchun ovozi boricha baqirib-chaqirar, qo'llarini paxsa qilib allanarsalar deb oyog'i kuygan tovuqday u yoqdan bu yoqqa chopar edi, lekin bu yonib turgan olovga yog' sepganday bo'ldi va Yungerni mag'lub qilish uchun hamma bir ovozdan "Ordok! Or-dok! Or-dok! Or-dok!" deb salmoq bilan qichqira boshladi.

So'ngra xuddi buyruq berilganday odamlar yoppasiga o'rinalidan qo'zg'alishdi va tik turgan holda kaftlarini kaftlariga urib "Or-dok! Or-dok! Or-dok!" deb jon-jahdi bilan takrorlay boshladi.

Mana Ordokning zafar tantanasi. Uning raqiblaridan birontasi ham siyosiy jabhada bunday muvaffaqiyat to'g'risida o'ylagan ham emas. Ko'rimsiz, so'lg'in, Gebbelsga o'xshab ketadigan Ordok o'zini ko'kka ko'tarib ulug'ilagan shov-shuvdan, sehrli muvaffaqiyatdan yuragi yorilguday bo'lib, boshi gangib qoldiki, shu paytda tap etib yiqilib tushishi hech gap emasdi. Shunga qaramasdan o'zini ushlab oldi. Yig'ilish muvaffaqiyatl tugadi. Endi uni oxiriga yetkazish, g'alabani mustahkamlash kerak edi. Zalda hamon "Or-dok, Or-dok" degan ovozlar yangrardi. U har holda o'zini qo'lga oldi, imoshoralar va ovozlarni bosdi-da, jimlik cho'kkан zahoti so'z boshladi:

— Bu yerda kimdir Robert Borkka achinayotir, nega endi? Aslini olganda hech kim uning ko'kragidan itarayotgani yo'q. Bork bu yerga kelsin, xalqni o'z fikriga ishontirsin, ya'ni o'sha osmondag'i Filofey ikkalasi elu elatni, odamlarni, millatni, bo'lajak avlodlarni deb jonlarini fido qilayotganlarini aytisin. Menga qaqshatqich zarba bersin! Kim yo'q deydi?! Shukronalar bo'lsin, biz dunyodagi eng demokratik davlatning fuqarolarimiz. O'ylaymanki, Bork bir chekkada qo'l qovushtirib qolavermaydi, balki so'zga chiqar. Bordi-yu u es-hushini yig'ib olib, Filofeydan yuz o'girsa, ochig'ini aytisin va o'ylaymanki, qilmishlari uchun tavba-tazarru qiladi. Xullasi kalom, xohlaganiday gapirsin.

Amerikaning barcha gazetalari va jurnallari (faqat Amerikanikigina emas) uning xizmatida emasmi, radio-chi, televidenie-chi? Kuyib-pishib gapiraversin. Biroq men ham chetda qololmayman, sizlarni ishontirib aytamanki, hurmatli saylovchilar, ommaviy axborot vositalaridan menga ham jindakkina o'rin berishsa, bundan maqsadim zamondoshlarni o'zimning futurologik nazariyalarim bilan zaharlash emas, aslo, men har bir inson o't bilan, ya'ni Filofey ta'lomi bilan o'ynashish nomaqbul ekanini, Bork Filofey bilan birgalikda butun dunyoda yong'in chiqarish payida ekanliklarini tushuntirishga harakat qilaman. Borkning o'y-fikrlarining mag'zini chaqqan paytimdan e'tiboran tinchimni yo'qotdim – uning g'oyalari shubhali va qo'rqinchli, u qaerda bo'lmasin yer yuzidagi barcha xotinlarni birma-bir zondaj-nur bilan nurlantirish g'oyasini o'tkazishga, odam bolasining hammasini o'z gunohlari uchun birma-bir tavba-tazarru qildirishni talab etishga shay turibdi. Bularning hammasi an'anaviy dirlarni surib chiqarish, odamlarning dillari ustidan yakka hukmronlik o'rnatish uchun yangi din – Filofey dinini yaratadi. Jalon dirlari ham o'z kelajaklari haqida o'ylab ko'rishsin! Endi mana shular haqida bosh qotirishimiz kerak, men ham mana shular haqida yozaman va gapiraman. Biz ana shu olimlarni – orbitadagi Filofeyni va yerdagi Borkni o'z vaqtida tiyib qo'yish haqida o'ylashimiz kerak. Men bu haqda shu yerda hozir bo'lgan barcha jurnalistlar uchun gapirayotirman. Tiyib qo'yganda ham qonuniy yo'l bilan, albatta qonun asosida ish ko'rish lozim. Odamlar ustida qilinadigan ana shunday eksperimentlarni dunyo bo'yicha man etish yo'li bilan. Bu borada sizlarning madadlaringizga va ishonchlaringizga umid qilaman!

Yana olqishlar, qarsaklar yangrab ketdi, hamma o'rnidan turdi, yana jazavasi qo'zib ketganlar "Ordok, Ordok" deb qichqirishdi. Ordok qandaydir qoniqish hamda xijolat bilan xalqdan hozircha qarsaklarni to'xtatishni so'radi:

— Men yana bir necha daqiqa vaqtingizni olaman va yana qo'shimcha qilmoqchi edim...

Shu on sportzaldan olib borilayotgan ko'rsatuv birdan uzilib qoldi. Ekran o'chdi. Kimdir asabiylashib qo'li bilan televizorni o'chirdi. Bu Jessi edi. Uning qachon qaytib kelganini, uya qanday kirganini, shu paytgacha qaerda turganini, qaerdadir yon tomondan o'tirib hammasini ko'rdimi, ko'rganlardan ruhi cho'kib qimir etmay o'tirib qoldimi yoki hozirgina kirib keldimi — Bork bilmas edi. U ko'z oldida bo'lib o'tgan voqelardan tushkunlikka tushib kursida o'tirar ekan, tevarak-atrofga befarq boqar edi.

— Qachongacha buni ko'rish mumkin?! Qanday chidab o'tiribsan? — eriga keskin gapirdi Jessi. — Yetar! Bo'ldi!

U indamadi.

— Kabinetdagi televizorni ham qo'yma! — dedi jahl bilan. — Hozir hamma telefonlarni uzib qo'yaman! Xudo olsin ularni, hech kimning qo'ng'irog'i kerak emas! Oliver Ordokning nayranglarini ko'rganlarning hammasi telefon qilaveradi! Qanday bema'nilik! Shu qadar ham razillik bo'ladimi!

Bork indamadi.

— Nega sen og'zingga talqon olib o'tiribsan?! — dedi Jessi chorasizlikdan. — Bunaqasini umrimda ko'rgan emasman.

— Sekinroq, mumkin bo'lsa, — iltimos qildi Robert Bork, — sen baqirgan bilan hech narsa o'zgarmaydi.

— Sen jim o'tirganing bilan ham hech narsa o'zgarmaydi!

har ikkalasi ham dili xufton bo'lib jim qolishdi. Tashqarida qorong'i tusha boshladi. Kuzning ajoyib go'zal kunlaridan biri ham tun qo'ynida g'oyib bo'ldi, undan dardu alam, g'amu tashvish qoldi, xolos. Ertangi kun qanday bo'lishini Xudo biladi.

— Ko'zimga, o'zimga ishonmayman, — qaltiragan ovoz bilan jimlikni buzdi Jessi. — Ana shu ulkan muammo tevaragida munozaralar bo'lishini bilardim. Lekin senga shunday razillik va pastkashlik bilan munosabatda bo'lishadi deb o'ylamagan edim... G'arazgo'ylik bilan bir odamni butun dunyoga sharmandayu sharimsor qilsa bo'laverar ekan-da?! O'sha ablahnini o'zimgina o'ldirib qo'ya qolsam! Shu odam Amerikaga prezident bo'larmishmi? Xudo bordir, oxir! — Jessi ho'ngrab yig'lab yubordi.

Bork o'rnidan turdi-da suv quyib xotiniga tutdi. Jessi suv ichar ekan, suvni yuziga sepedi va

talvasadan stakan chekkasini g'arch-g'arch tishladi.

— Tinchan, Jessi, endi menga qulq sol, — dedi-da, xotinining boshini silamoqchi bo'ldi.

Jessi o'zini nari oldi.

— hech kimga qulq solmayman, hech kimga, va menga ham hech narsa dema, Xudo haqi! — u yig'idan gapirolmay qoldi.

— Bo'pti, meni kechir. Birpas yoningda turay. Kechir.

Xotini kursida o'tirgancha butun vujudi to'lqinlanib, o'zini to'xtatolmay yig'layverdi. Bork xotinining sochlari oqarib keksayib qolganini endi payqadi, bunga ilgarilari ahamiyat bermagan ekan. Buni hozir, mana shu mash'um daqiqada ko'rib turibdi.

Bork bo'lsa o'zini uyida emas, boshqa joyda turganday his qilib xonada duch kelgan tomonga borib kelar edi. Ko'zi hech narsani ko'rmas, jarlikka qulab tushadiganday — uning uchun to'xtab turish ham, yurish ham qo'rquinchli edi, — zimdan bo'lgan zarbaning kuchi ana shunday dahshatli edi.

Bork ba'zida ringdagi boksyorlarning janglarini televizorda kuzatar ekan, yengilib qolgan yigitga rahmi kelib, bitta zarb bilan nokaut bo'lgan bokschi tevarak-atrofga boshqa sayyoradan kelib qolganday olazarak bo'lib nigoh tashlab turganda uning xayolidan nimalar kechishi haqida o'ylab ketar edi. Buning qanday bo'lishini bilib oldi. Endi u tushundi: atrof olam o'z o'rnida turarkan-u, odamning o'zida, uning ichki dunyosida — kallada, ko'chadagi toshqin yomg'ir suviday g'uwillab oqib yurgan qonlarda, tafakkurning ana shu quturgan sel suvlari yuvib ketadigan qorong'i jarligida bebosh fikrlar tug'yonida barbod bo'larkan.

U ancha vaqtgacha u yoq-bu yoqqa yurib turdi, uzoq va mashaqqatli yo'l bosganday bo'ldi, baloyu ofat iskanjasiga tushgan tafakkur o'sha qorong'i jarlikda, o'tmish vayronalarida bezovtalanar edi, u bundan bir soat oldin ham o'z ixtiyori o'zida edi. Shaxsiyati haqorat qilinmagan edi. Endi esa hammasi Oliver Ordok tomonidan, u yo'ldan ozdirgan olomon tomonidan oyoqosti qilingan, kuydirib-yondirilgan edi. U o'zining shaxsiyati poymol qilinganligini hatto jismonan sezdi. Badanini olov qopladi. Bork odamlar ko'z o'ngida birinchi bor halokatga uchragan edi. Endi buyog'i nima bo'ladi? — degan savol tug'ildi. Hammaning ko'z o'ngida izzat-nafsini oyoq osti qilgan kuchga taslim bo'lib, o'zini peshonasidan otib tashlasinmi yoki kuch to'plab bellashuvga tayyorlansinmi — uchinchi yo'l yo'q edi; hamma zamonlarda odamlar ayniqsa mag'lubiyatga uchragan paytlarida bor kuch-quvvatini ishga solib g'anim bilan bellashganda adolatning, haqiqatning albatta tantana qilishiga ishonishgan. U bir kun kelib o'zim o'zimga "yo hayot — yo mamot" deb qasam ichaman deb hecham xayoliga keltirmagan edi. O'sha daqiqalarda o'zicha yana bir ayanchli kashfiyat qildi: uning fojeasi — Jessi uchun shaxsiy fojeasidan ham dahshatli edi. Shu boisdan uning ko'ngli yanada g'ash bo'la bordi, Jessining dardu alamini yengillata oladigan bironta usul, bironta so'z topilmas edi. U bo'lib o'tgan voqealarning nimalarga olib kelishini juda yaxshi tasavvur qilgan edi.

— Robert, — dedi Jessi xo'rsinib yig'lar ekan.

— Ha, Jessi, bir narsa demoqchimisan?

— Robert, men hozir bir narsa haqida o'ylab ketdim, — deb so'z boshladi-da, jim qoldi. Robert kutib turdi. — Vannadan sochiq olib kelib ber.

Bork sochiq olib keldi. Jessi yuzini artar ekan, yoshini tiyishga harakat qildi.

— Bir narsa demoqchimiding, Jessi?

— Menga bir fikr keldi, Robert, bugun sening boshingga ham kosmosdagi Filofeyning boshiga tushgan falokat tushdi, bu idealizm fojealaridan. Men sening sevikli Suqroting haqida o'ylab ketibman. Xuddi o'sha zamonlarda bo'lgani kabi, ko'p vaqtlar o'tgandan so'ng idealistik utopiya (xayolparastlikka) olomon qarshi chiqdi. Kimdir birovning kallasiga qop kiydiradi va hamma shunga tashlanadi.

— Ehtimol shundaydir, — dedi Robert bosiq ohangda.

— Shundaymi-yo'qmi, yoki taxminan shundaymi. Lekin nima bo'lganini sen o'zing ko'rding-ku, Robert. Men Ordok haqida gapirmayapman, biz uni yaxshi bilmas ekanmiz, sen u bilan suhbat qilmasliging kerak edi. U shunday razil nusxa ekanki, prezidentlik kursisi deb har narsa qilishga — Har

qanday yolg'onga, har qanday tuhmatga va uydirmaga tayyor ekan. Men u haqda gapirmoqchi emasman, ming la'nat unga. Lekin katta sportzalni to'ldirib o'tirganlarning qanday dahshatli olomon ekanligiga qara! Buni quturgan son-sanoqsiz yilqiga o'xshatish mumkinki, bunday uyurlar o'tgan joylarda gullar emas, balki xor-tikanlar bitadi. Hammasini xudo olsin! Oh, Robert, bu olomon, bu darranda! Bu nima, nima o'zi, qanday dahshatli manzara! Yo parvardigor! — Jessi yuzini sochiq bilan yopib olib yana ho'ngrab yubordi.

— Bas qil, Jessi, o'zingni bos, o'tinib so'rayman, sen buni yuragingga juda yaqin olyapsan. Seni tushunib turibman, lekin o'yashib olaylik, masalaga bir oz uzoqdan qaraylik — xotinini yupatmoqchi bo'ldi Bork. Uni yupatar ekan, mantiqqa asoslanishga, g'azab otiga ko'r-ko'rona minmaslikka undadi va o'zi ham ancha tinchlandi. — Sen ko'p jihatdan haqsan, bu to'g'risida gap ham bo'lshi mumkin emas. Shu bilan birga Sugrot aytgan fojia vaqt tanlamaydi, bu ham to'g'ri. O'ylab ko'r. Bu shunday bo'la qolsin. Omma — bu poda, tabiiy ofat yoki sening so'zing bilan aytganda — uyur va shu bilan birga bu — ijtimoiy hayotning suyanchig'i ham. Qochib qutula olmaysan! U insoniy moddiyat, hayot ana shu negizga qurilgan va yana shuning ustida turipti. Turmushning tuzilishida, aytish mumkinki, hayot dialektikasida mantiqqa to'g'ri kelmaydigan bir xususiyat — abadiy fojea yashab keladi: mutafakkir jamiyat qonunlarini kashf etadi, jamiyat bo'lsa xuddi ana shu xizmatlari uchun uni murtad deb e'lon qiladi, keyinchalik esa xuddi ana shu kashfiyotlarni qurol qilib oladi. Inkor orqali ko'z ochiladi.

— Robert, — xotini uning so'zini bo'ldi, ovozi va nigohi bilan ta'na toshini otib. — Sen xohlaganingcha fikr yuritaverishing mumkin, lekin ko'z ochilish borasida menga nimalarnidir uqdiraman deb ovora bo'Ima. Ko'zni ochish uchun odamni oldin oyoqosti qilish kerakmi? Shundaymi? Yo'q, men bunisini qabul qila olmayman. Men bilan sening falsafa sotadigan vaqtimiz emas. Kun kech bo'lyapti. Agar ko'nglingga tugib qo'yaning bo'lsa, ertaga ertalab aytganing durust. O'ylab ko'r.

— Ha, ko'nglimga tugib qo'yanman.

— Robert, buning ma'nosiga aqlim yetib turipti, hamma Ordok tarafda, sen tarafda esa mikrofonga chopib kelgan, oti nimaydi, haligi yigitni hisobga olmaganda — Hech kim yo'q.

— Entoni Yunger.

— Jilla qursa o'shangga rahmat. Endi ravshan bo'ldi, senga qarshi fitna uyuştirilgan, sen bunga javob bera olmasdan tura olmaysan. Qaragin, agar haqiqat sen bilan Filofey tomonida ekaniga imoning komil bo'lsa, qanday bo'lmashin ana shu haqiqatni, — o'zing nuqtai nazaringni oshkora isbotlashga haqlisan.

— Mana bu fikring mutlaqo to'g'ri, Jessi, sen aytganday — oshkora, hammaga eshittirib. "Tribyun" gazetasidagi maqoladan keyin darhol matbuot konferentsiyasi bermoqchiman. Shundan so'ng voqealarning qanday kechishini ko'ramiz. Maqolaning katta qismi tayyor, kompyuterda turipti, lekin mitingda menga ko'p narsa oydinlashdi, ko'p narsalar yangichasiga yuz ko'rsatdi, bu esa, mening bilishimcha, Filofeyning haq ekanini isbotlaydi. Maqolada ba'zi bir o'rirlarni oxiriga yetkazish, to'ldirish, kuchaytirishga to'g'ri keladi. Ko'rib turibsanki, men o'z rolimni o'ynab bo'lmashdan sahnadan ketish niyatim yo'q. Filofey haq va men uni himoya qilaman.

— Shunday ekan, vaqtini boy bermaslik kerak. O'zing tushunib turibsan. Biz aql-hushimizni yig'ishtirib olishimiz lozim. Bu — jang. Men shunday deb bilaman. Haqiqiy jang!

— To'g'ri. Lekin bu jang raqib foydasiga, dushman foydasiga, g'animing o'z ustidan o'zi uzil-kesil g'alaba qilishi uchun olib boriladigan jang. Men sportzalda qarsak chalgalarni nazarda tutayapman. Bu jangning mohiyati ana shunda.

— Tushunib turibman. Lekin bunday degan bilan ko'ngil taskin topmaydi. Buni men xohlama yaman, to'g'rirog'i qabul qila olmayman. Men o'zimni o'zgartira olmayman. Meni kechirasan. Dushman uchun jon kuydirish, shartli aytganda, qotilni qutqarib qolishmi? Yana xristian aqidalarimi?

— Oshiqma. Bu xristianlargagina emas, balki istisnosiz barcha dindorlarga tegishlidir. Afsuski, biz odamlar, aqli maxluqlar doimo buzib aynitib turiladigan hayot uchun javobgarlikdan har qanday qilib bo'lsa ham qochib qutilish maqsadida yugurib-elamiz. Buning uchun talay vaj topamiz, ezgulikni

yovuzlikdan farq qilmaymiz, hech narsadan tap tortmaymiz, aslida esa barcha falokatlar ana shundan kelib chiqadi, buni esa ko'pchilik tushunishni ham xohlamaydi. Faqat shu yo'l bilangina yashash mumkin ekanligiga va boshqacha yashab bo'lmasligiga o'zimizni ishontirmoqchi bo'lamiz. Saylovoldi mitingi shuni ko'rsatmadimi?! Axir yerda bizlarning o'zlarimizdan, odamlardan boshqa yovuzlik sohibi yo'q. Biroq har bir kishi yovuzlik manbaini boshqa birovlarda, o'zidan tashqarida, o'z guruhidan, o'z toifasidan, millatidan, davlatidan tashqarida va undan ham narida — irqidan, dinidan, mafkurasidan yiroqda deb biladi... Hayotda yovuzliklar davom etmoqda. Embriolarning hayotga qarshi chiqishigacha yetib borilayotir. To'xta! Boshqa yo'l yo'q. Undan narida mutatsiya va naslning aynishi! Bularning hammasi halokatga olib keldi va borgan sari avj oladi, biz texnologik jihatdan qudratliroq bo'la borgan sari bizning gumrohliliklarimiz va uyatsizlik hamda boshqalarga nisbatan shavqatsizliklarimiz darajasi qo'rquinchliroq tus ola boradi. Filofey genetik orkestrning buzilgan torlaridan biriga tegib ketd-yu ko'ngilsizlik va qahr-g'azabga sabab bo'ldi!

— hoy, Robert, bas, — dedi Jessi. — Yaxshisi, sen bu fikrlaringni xalq oldida ayt, odamlar eshitsin.

Ikkalasi ham jim qolishdi. Jessi har qancha harakat qilmasin, ko'z yoshlari yana uni bo'g'ib qo'ydi;

— Meni kechirasan, Robert, o'zimga kelolmayapman, sportzalda ko'rganlarimdan shunaqangi xo'rligim kelyaptiki, — dedi Jessi hiqillab. — Olomonning ana shunday vahshiyliklaridan so'ng ko'nglim shunday g'ashki, go'yo ikkimiz yong'indan yoppasiga kuyib kul bo'lgan o'rmonda yurgandaymiz. Tevarak-atrofdagi bariki narsalar — daraxtlarning tanalari-yu shox-shabbalari, o't-o'lanlar — Hamma-hammasi yonib kul bo'lgan-u, azador ayolday qora libosga o'rangan yerdan boshqa hech nima ko'zga tashlanmaydiganday! Nima bo'larkin? Nimadir bo'lishi kerak! — o'z-o'zicha pichirladi Jessi.

Bork xotinini yupatish bilan ovora bo'ldi. U Jessining bunday asabiylashib jazavasi qo'ziganini hech eslay olmaydi. Har doim saramjom-sarishta, hamma ishni o'rniga qo'yadigan ayol, Borkdan ham ko'ra uddaburon. Ordokning yuzsizligidan sanoqli daqiqalarda adoyi tamom bo'ldi u.

Biroq tezlik bilan harakat qilish, vaqt ni boy bermaslik zaruriyati Jessini o'zini qo'lga olishga undadi.

— Men seni tushunib turibman, Robert, — rozi bo'ldi Jessi. — O'zingni zo'rlab bo'lsa ham kabinetingga kir, ishla. Maqolangni tugat. Kofe tayyorlayman, — oshxonada ichamiz, xohlasang olib kelib beraman. Ishlasang bo'ldi. Harakat qil. Men mehmonxonaga boraman. Violonchel chalgim kelyapti. Shostakovichni chalaman. Beshinch simfoniyasini. Sen yoz. Nimalar haqida yozishni bilasan. Hech qayoqqa telefon qila ko'rma, iltimos qilaman. Telefonlarni o'chirib qo'ydim. Uchallasini ham. Bor. Sen pastdan meni eshitmaysan. Eshik-derazalarni yopib olaman.

## Y e t t i n c h i b o b

Musiqaning ovozi mehmonxonadan ikkinchi qavatga elas-elas eshitilib turardi. Violonchelning nolasi o'sha kechasi Borkka bir umr o'z taqdirini uning taqdiri bilan qo'shgan ayol borligini eslatib turdi. Keyinchalik ularning ruhlari ham bir-birini tanib, shu kechadagi tinimsiz musiqani beedad masofalardan eshitilib turishsa ne ajab...

U o'sha kechasi ham kompyuter oldida o'tirib, ertangi gazeta matnining monitordagi elektron satrlarini ko'zdan kechirar ekan, yana ummondagi kitlarning tashvishli ohlarini eshitdi. Ular yana qayon yo'l olishgan? Yer kurrasining qaysi bir go'shasida qandaydir bir hodisa yuz berganmikin? Yana odamlar hammayoqni ag'dar-to'ntar qilishdimikin? To'lqinlar bir-birlarini ustiga tog' qulaganday yopirilib, suv quturib, okeanning kuch-qudratini yamlab yutar, yana kuchiga kuch qo'shar edi, kitlar esa suzishda davom etar edi. Oradan ko'p vaqt o'tmasdan uning o'zi ham kitlarga qo'shilib ketdi. Ummon suvi yuzasi kompyuter ekranida tun qa'rida milt-milt etib o'chib turar edi; kompyuter ekran esa shu onda uzoq koinotni ham, onalar qornidagi homilalarni ham abadiylikning Bork so'zida o'z ifodasini topgan bir butun uzlusiz silsilasida qamrab olganday; u okeanda suzar ekan abadiylikni Dunyoviy ruh siyosida izohlashga harakat qildi, axir Dunyoviy ruh hamma uchun bitta va har bir kishi uchun alohida bo'lib, yerdagi borliqning bir butunligida va uzuq-yuluqligida namoyon-ku... Ekranda satrlar birin-ketin paydo bo'lar ekan, bir butun matnga qovushdi: "Kassandra tamg'asi

o'zlarining siyosiy maqsadlari yo'lida kuyib-pishib yurgan qay bir notiqlar aytganchalik sharmandalik va haqorat nishonasi emas, balki bu — baloyi ofat belgisi, kutilmaganda yuz ko'rsatgan, oldinlari odamlarning tushiga ham kirmagan, dunyo miqyosida ko'zga tashlanmaydigan va insoniyat uchun mash'um ijtimoiy-biologik hodisa o'laroq favqulodda tadbirlar ko'rishni taqozo qiladigan baloyi kabiramizning jimitdek xabaridir. Filofeyning kashfiyoti shundan darak beradiki, bizning o'z-o'zimizni anglashimizga genetik bosqichdayoq shikast yetgan — avloddan avlodga dunyoviy ruh ideallariga zid yashab kelgan odam aybi bilan shikast yetgan. Fojia shundaki, biz cassandra-embriolarning yashash uchun kurashdan bosh tortishga olib kelgan sabablarini tan olmayotirmiz, o'zimizni chetga olamiz, chunonchi, saylovoldi majlisida ana shunday bo'ldi. Yashashga bo'lgan xohishning so'nishi jahon tsivilizatsiyasining so'nishidir. Ana shu oxirzamon demakdir. Boshqacha aytganda, oxirzamon o'zimizda voqedir. Instinkтив sezish qobiliyatiga ega bo'lgan cassandra-embriionlar ana shuni ilg'ab oladi va dunyonи qamrab oladigan kompyuter ekraniga o'xshab, homilador ayollar manglayida nishon beradigan Cassandra tamg'asi orqali hayotdan qo'rqayotgani haqida xabar qiladi. Cassandra tamg'asining o'zidan emas, balki genetika qa'rida ana shu oxir zamon o'pirilishiga olib keladigan sabablardan qo'rqmoq kerak. Biz mislsiz xatoga yo'l qo'yayotirmiz... Filofey ig'vogar emas, u — samoviy payg'ambar..."

Bork shu onda xuddi kitlarning shovqin ko'tarib okeanda suzayotganini, yo'lini to'sgan to'lqinlarni bor vujudi bilan yorib o'tayotganini eshitdi va kitlar yo'lida okean suvi yonganday yog'dulanayotganini kompyuter ekranidan ko'rib turdi...

\* \* \*

Qizil maydonda esa tun yarmidan og'gan shu kezda mashhur Spas minorasidagi soat millari boyqush vaqtiga — kechasi soat uchga yaqinlashmoqda edi. Boyqush Kreml kurantlari dunyoning to'rt tomoniga g'ulg'ula solib uch marta bong uradigan ardoqli paytini kutar edi, shundan so'ng u o'rnidan qo'zg'alib minora tepasidan pastga tik uchib tushadi-yu, chorqirra toshlar terilgan maydon yuzasidan g'iz etib ko'tariladi-da, Kreml devori bo'ylab uchib nariroqqa o'tadi va har galgiday Qizil maydon ustida shovqinsiz charx uradi va maqbara ustidan o'tgach tevarak-atrofga nazar tashlab, yorug' dunyoda nimalar bo'layotganiga ser soladi. Bu safar ham boyqush ikki pakana-xumkalla sharpa bilan uchrashib, ularning o'zaro suhbatlariga qulqoq tutishga umid bog'lar edi. Ularning suhbatlashishlari uchun esa bahona ko'p edi, ko'p bo'lganda qanday? Boisi shundan sal oldin Qizil maydonda qo'rqinchli voqeа ro'y bergen edi. Boyqush shuncha yil yashab bunaqasini ko'rgan emas.

Ikkinci tomondan, sog'lom fikrli odamlarning aqli yetmayotgan narsaga arvoхlar bilan osh-qatiq bo'lib yurgan qush bo'lib qushmas, ins-jins siyoqli bu parrandaning — Spas minorasining tug'di-bitdi boyqushining aqli qanday yetsin.

Buning hammasi kuz kuni peshin paytida hSKni — Harbiy-sanoat kompleksini himoya qilishga bag'ishlangan miting o'tkazish uchun Qizil maydonga xalq oqib kelayotgan kezda boshlandi. Jurnalistlar yozganlaridek, qayta qurish mudofaa sanoatining tomog'iga turib qolgan suyak bo'ldi. HSKni tiklash bilan davlatimizning oldindi qudratini saqlab qolish mumkin, degan zorlanish ayrim doiralarda allaqachondan beri qulqoqqa chalinardi. Darhaqiqat, bunday fikrlar endigina tugay boshlagan o'rmon yong'inining hidi kabi havoda anqib yurar edi. Mana, yong'in yana lovullab alanga oldi, milliy hushyor tortish hissini uyg'otganlar — afkor ommani quroл bilan savdo qilishni yana o'rniga qo'yishga chorlovchi kuchlar va harbiylashtirilgan davlatchilikning asosi hisoblangan va qayta qurish deb atalmish siyosat oqibatida hamda makkorlik bilan ish ko'rgan G'arbnинг manfaatlarini ko'zlagan radikal-demokratlar dastidan vayron bo'lgan hSKni tiklashga chaqiruvchi kuchlar bunga talay yordam berdi.

Qizil maydonda har tomondan kelgan odamlar yig'ildi. Mitingga to'planganlarning ko'pchiligi chetdan — oldinlari "pochta yashiklari" deb atalgan va nomerlab qo'yilgan "yopiq" shaharlardan kelgan kishilar edi. Konversiya jarayonida maxfiy bo'lmay qolgan "yashik"dan Moskvaning barcha

vokzallariga poezdlarda gurra-gurra odamlar kelishdi va avtomagistrallarni to'ldirib kolonna-kolonna bo'lib shahar markaziga tomon yo'l olishdi. Ularga Moskva "mudofaachilar", milliy vatanparvarlar, Stalinni qo'msab qolgan pensionerlar va boshqalar ham qo'shilishdi. Namoyishchilar og'ir kontuziyadan endigina sog'aygan, o'tmishdan qolgan g'alati nusxalarga o'xshashar edi; ular qonxo'r diktatorlarning suratlarini baland ko'tarib borishar edi; holbuki o'sha hokimlarni yaqin-yaqinlarda ham xuddi mana shu ko'chalarda g'azab bilan haqorat qilishgan va la'natlashgan edilar.

Namoyishchilar soni ko'paygandan ko'payib bordi, hSKning sirli qa'rida oldinlari qancha ishga yaroqli kishilar band bo'lganligini shundan ham bilsa bo'lardi. Dunyoning yarmisini qurollantirishdi. Ishning pachavasi chiqqanini birdan sezib qolishdi – ishlab chiqarish qayta qurilmasa konversiya hSKda ishlab kelganlarni ishsizlikka mahkum etgusidir. Shuning uchun ular g'imirlab qolishdi... Bu namoyish hammaning ko'z o'ngida xarsanglarni ham, to'nkalarni ham, tomdan tushgan tunuka-yog'ochlarni ham oqizib ketayotgan toshqin selga o'xshar va bunga hech kim bas kelolmas edi. O'sha kezlarda vahimador chaqiriq va shiorlar ham shahar ko'chalarida o'z "xarsanglari, to'nkalari, to'nkayog'ochlari"ni ag'dar-to'ntar qilib olib ketayotgan edi. Mana ular – "Konversiya to'xtatilsin!", "HKSni barbod qilishga yo'l qo'yaymiz!", "Yashasin shonli HKS", "Eng muhimi – davlat!" "Davlatga qarshi islohotlar yo'qolsin!", "Tank – barqarorlik garovidir!", "Qurol-yarog' sotib valyuta ishlaymiz!", "Qurol savdosida raqobat qilishimizga xalaqit bermang!", "Qurollanish poygasi haqidagi safsataga chek qo'yilsin!". Tushunmaganlarga bema'niday tuyuladigan shiorlar "Pochta yashiklari qayta tiklansin!", "Pochta yashiklarida yashayveramiz va ishlayveramiz!", hatto bundaylari ham bor: "Patsifistlar, bas qiling, vaqt ketmasin!", "Bizni mahv etish uchun sovuq urushlar munosabatidan mahrum qilishdi!", "Tankdan tog'ora yasashlariga yo'l qo'yaymiz!" va, nihoyat, "Kuch va milliy boylik manbai – qurol-yarog' ishlab chiqarish yashasin!", "Ishsizlikka yo'l qo'yaymiz, donishmandlarning ketib qolishiga yo'l bermaymiz!", "Texnikaviy taraqqiyotning negizi – sovuq munosabatlar urushi yashasin!", "Sotqin insonparvarlar yo'qolsin!" va bunga o'xshash yana talay chaqiriq va shiorlar. Yaxshiyamki, har narsalar yozilgani bilan bir parcha qattiq qog'oz baribir qog'ozligicha qolaveradi, lekin bu shunday kuch ediki, gangib qolasan kishi.

Davlatning harbiy jihatdan ustun bo'lishi zarurligi haqida jon kuydirgan, o'zlarini davlatparastlar deb atagan siyosatdonlar xohlashadimi yoki yo'qmi, xalqaro qurol-yarog' yarmarkalarini tashkil etishda ishtirok etganlar xohlashadimi yoki yo'qmi, qurol-yarog'imizning tarixda hecham so'nmag'an shon-shuhuratini madh etish borasida qizg'in kampaniya boshlaganlar xohlashadimi yoki yo'qmi, bulardan birontasi uyg'ongan va junbushga kelgan kuchlarni to'xtatishga qodir emas edi – Hammahammasi endi selda oqib ketayotgan payraxalarni eslatardi; axir xalqaro qurol-yarog' yarmarkalari savdosida birinchilikni olish millat manfaati yo'lida qilingan savob ish hisoblanar edi-da, eng muhimi, milliard-milliard dollar sof foyda berardi, bundan yuragi yorilguday xursand bo'lishardi, chunki o'sha milliard-milliard daromadning uchdan bir qismi bevosita joylardagi qurol-yarog' yaratuvchilarning cho'ntagiga tushar edi-da!

Qizil maydonda odamlarning boshlari dengizday chayqalmoqda edi. Ming-minglab to'planganlar va ularga kelib qo'shilayotganlar HKSni himoya qilib, butun maydonga sig'may ketishdi va hammasi yoppasiga "H-S-K", "Va-lyu-ta", "Kreml – bizniki", "Kreml – bizniki" deb bir ovozdan baqirib-chaqirib, osmonni boshiga ko'tarishar edi.

hammasini vertolyotlarda tasvirga olishdi, lekin tepadan turib butun manzaraning otilgan vulqonday ulug'vorligini ko'rsatib bo'lmas edi! Umumiyligining, so'zlari mavzoleydan radiokarnaylar orqali kuchaytirib berilayotgan notiqlar barobarinda maydonning u yer-bu yerlarida uyuştirilgan kichik-kichik mitinglarning o'z shiorlari, rasmlari va chaqirqlari bor edi. Mashhur Qatlxona tepaligidagi fidelchilar yig'ilishgan edi, ularning dohiylarining rasmlaridan va ko'tarib olgan shiorlaridan ko'rinish turar edi: "Fidel – biz sen bilan!", "Sotsializm yoki o'lim!". Bir-birlarining qo'llaridan ushlab olgan olomon buni ko'rib yanada balandroq ovozda takrorladi: "Sotsializm yoki o'lim". Tarix muzeyi yonidagi yo'lda saddamchilar tiqilishgan. Ana shu o'pqondan chiqqanday darg'azab va qahrli xitob yangrar edi: "Saddam – sen bizning birodarimizsan!", "Sad-dam – sen bizning birodarimizsan!" Mushtumlarini

baland ko'targan bir gala namoyishchilar ovozlari ham ularga jo'r bo'ldi. "Kadda-kada-Kaddafi!", "Kadda-kada-Kaddafi!".

Uzoq yillar davomida ko'plab quroq-yarog'lar olib turgan deyarli barcha mamlakatlardan kelganlar ana shunday baqirib-chaqirib yurishdi, muxlislar Xitoy, Eron, Pokiston, hindiston, Shimoliy Koreya va ayniqsa arab mamlakatlari va Afrika mamlakatlaridagi mijozlar sharafiga raqsga tushayotganday qadam tashlab borishdi. Har bir mamlakatning o'z o'rni bor: Xitoy ko'lami va aholisi soniga ko'ra eng ko'p muxlisga ega edi, ular shoir Maoning "Tovus qo'shig'i" she'ridan dohiyona misrani jo'r ovoz bilan dona-dona qilib takrorlab qadam tashlab borishar edi: "Miltiq hokimiyatni keltirib chiqaradi!" Stalinchilar ular bilan apoq-chapoq bo'lib ketishdi; ular "Stalinga shon-sharaf bo'lsin!" deb qattiq jo'rovozlik qilishardi hamda generalissimusning bezab-bejalgan rasmlarini baland ko'tarib borishar edi. Ana shu barcha hayqiriqlarda Kalashnikov avtomati hukmronlik qilar edi: "Kalash – Kreml nash!" (Kreml bizniki) degan xitob hamma qiyqiriq-shiorlarni bosib ketdi. Mazkur mavzu doirasida tushuniksiz yangi shiorlar ham paydo bo'lib qoldi: "O'q parvozi – osmon olmosi!" Bu shiorni "Raketa uchsa, tepadan olmos yog'adi", deb tushunish kerakmikin? Qaniydi, qaniydi shunday bo'lsa! Bularning hammasi soxta shod-xurramlik qozonida vaqirlab qaynar va u har bir kishida kuch-qudrat, zo'rlik, yelkadoshlik hissini jo'sh urdirar edi... Mana hozir shunday bir hodisa ro'y beradiki, ehtiroslar mushagi alanga oladi, osmon larzaga keladi va u zot yuz ko'rsatadi. U: orzu-umidlarni ro'yobga chiqaruvchidir. Kim ekan o'zi u. U o'sha-da! Vassalom! ha! O'sha!

Lekin mavzoley minbaridan turib jar solgan bosh notiqlarning so'zları o'z holicha oqilona va ishonchli edi. Quroq ishlab chiqarishning qisqartirilishi iqtisodiyotda hech bir yaxshilikka olib kelmaydi va dunyo bozorini mil-mil boy Amerikaning qo'liga topshirib qo'yadi, xolos. Amerika bo'lsa bo'sh kelmaydi – yil bo'yi kechani kecha, kunduzni kunduz demasdan shaqillatib quroq ishlab chiqaraveradi, hammani tish-tirnog'igacha qurollantiradi va hammaga aytganini qildiradi. Xo'sh, biz kimdan kammiz? Keyin yana bir vaj topishadi – konversiya boshlab bergan ishsizlik qaqqhatqich ijtimoiy portlashga olib keladi va konversiya mamlakatning qudratli intellektual potentsialini tag-tomiri bilan xonavayron qiladi deyishadi. Yana qancha-qancha dalil-isbotlar ko'zlangan mo'ljalga tegadi. Keltirilgan ana shunday vaj ommaning g'azabini uyg'otadi.

Lekin bundan boshqa bir kuch ham bor edi. Xuddi shu paytda Manej maydonida, konversiya dushmanlari miting qilayotgan olomondan maxsus xizmat militsionerlari to'sib turgan qor ustida boshqa bir miting ham bo'layotgan, u yerda o'zgacha ehtiroslar qaynayotgan edi.

Bu yerda bo'lak xalq, jamiyatning bo'lak bir qismi – demokratlar, reformistlar, patsifistlar va qayta kurashning boshqa avlodi, qo'yingki – erkparvarlar va har xil liberallar miting qilishayotgan edi. Bular ham oz emas edi, odamning ko'pligidan maydon chayqalib turganday edi, ularning ham o'z komil ishonchlari, qat'iylikda, zarbdorlikda ularnikidan aslo qolishmaydigan o'z chaqiriqlari va shiorlari bor edi. Transparantlaru plakatlar ko'zga tashlanardi: "HKS imtiyoziga barham berilsin!", "Biz HKS quli bo'lib qolmaylik!", «HKS – militarizimga qo'l keladi!», "HKS – byudjet egovidir!", "Stalinning ochofat devi yo'qolsin!" va hokazo va hokazo, hatto shundaylari ham yo'q emasdi: "HKS – ajalning urug'i", "HKS – partokratlarning zanjirband ko'ppagidir!", "HKS xalqni qullikka solajak!".

Bu yerda ham Qizil maydondagi manzara hukmron, faqat ma'no-mazmuni butunlay uning teskarisi edi.

Bu yerda ham namoyishchilar o'zlarining pirlari-yu rahnamolarining rasmlaridan kuch-quvvat topishni unutishmagan. Ular bu rasmlarni odamlar va xudolari ko'rsin deb boshlari uzra baland ko'tarib olishgan. Qo'llaridagi apparatlari bilan bir mitingdan ikkinchi mitingga, Qizil maydondan Manej maydoniga bo'zchining mokisiday qatnagan anvoyi muxbirlar bilan reportyorlar uchun bu voqealar tunganmas ko'rgazmali material edi. Ana shunday bo'lishiga qaramasdan pixi qayrilgan reportyorlar boshqalarga hech ham o'xshamaydigan ikki shiordan ko'z uzmay qolishdi. Ikkita navjuvon – bir yigit bilan bir qiz, ko'rinishlariga qaraganda talaba bo'lsalar kerak, tayoqqa qoqilgan plakatlarni dast ko'tarib borishayotgan edi. Ko'rganlarning keyinchalik hikoya qilib berishlaricha, ikkalasi olomon ichida bo'lsa ham bir-biridan ko'z uzishmas, uzoqlab ketishmas, go'yo o'zi bilan o'zi bo'lib xayolga

cho'mganday, boshqalar bilan bahs-munozaraga kirishmas edi. Yigitning qo'lidagi plakatda qora bo'yoq bilan: "Odam bolasi quroq ishlab chiqarish uchun yorug' dunyoga kelmasligi kerak" degan so'zlar, qiz ushlagan plakatda bo'lsa: "Kreml qurollanish poygasini yana boshlaydigan bo'lsa, men o'zimga o't qo'yaman!" degan g'ayrimantiqiy so'zlar qizil rang bilan bitib qo'yilgan edi.

Ikkalasi olomon ichra dengizda adashgan qayiqchalar yanglig' sang'ishar, kimlardir qarab qo'ysa, boshqalar parvo ham qilmas, kimdir bu xil chaqirqlarning mag'zini chaqsa, boshqasiga bu shiorlar ma'nosi dushvor tuyular edi – buning hech ajablanarli joyi yo'q, axir rangin bayonotlar, shiorlar, e'tirozlar, ogohlantirishlar, qulogni qomatga keltiradigan jo'shqin nutqlar, chiqishlar har ikki tomonda – Qizil maydonda ham, Manej maydonida ham mitingchilarning boshiga yomg'irday yog'ar edi-da!

Endi bo'lar ish bo'ldi, bo'yog'i singdi. Odatda shunday bo'ladiki, odamlar aql-hushini yig'ib olishguncha kech bo'ladi. Har gal jumbushga kirgan olomon boshlab bergan voqeа-hodisalar ko'pincha tasodifiyliги va tahlikasi bilan hayratga soladi.

Quyosh Kreml devorlari ortiga yashirindi, baqirib-chaqirgan olomon uzra ma'sum g'ira-shira cho'ka boshladи, qorli maydonlardagi mitinglar hamon na'ra tortar va quturar, reproduktorlardan jaranglagan otashnafas va tahlikali nutqlar yig'ilganlarning butun vujudini alangalatib, eng yuqori nuqtaga chiqa boshladи. Ikkala maydondagi olomon o'zicha addolatga da'vat etar, hukumatga va xalqqa murojaat qilar, faqat o'zining haqligini, faqat o'z nuqtai nazarini isbotlar, butun jahonga faqat o'zining dalillari va xulosalarini oshkor etar, kuyib-yonar, zudlik bilan harakatga kelishga ishtiyоq sezib o'zidagi kuch-quvvatni ishga solish uchun junbushga kirgan edi. Har ikki tomon bir vaqtда ehtirosga mingan edi; tomonlar radio karnaylari orqali bir-birlariga ayb qo'yishar, bir tomon o'zi yomon ko'rgan ikinchi tomonni vatan dushmanlarining jirkanch yig'ini deb atar edi. Ana dastlabki mushtlashish ham boshlanib ketdi. "Militaristlar" va "antimilitaristlar" omonchilar qatorlarini yorib o'tib bir-birlarini shiorlar va rasmlar qoqilgan tayoqlar bilan ura boshlashdi. Xotin-qizlar dod solib chiyillashsa, erkaklar bo'kirib so'kina ketishdi. Odamlar bir-birlarini mushtlab tepkilashardi. Omonchilarning olomon siquvini to'xtatish, urishayotganlarni tarqatib yuborish uchun qilgan harakatlari ularni battar g'azab otiga mindirdi. Oradan ko'p o'tmasdan, ikki tomon mushtlashib aralashib ketdi. Go'yo odamlar shuni kutib turishganday, xuddi shuning uchun maydonga yig'ilishganday edi. Ana shunda qimmatli rasmlar va ta'sirchan shiorlar juda ish berdi – qurollar bilan odamlar bir-birlarining kallalariga tushirishardi. Oqayotgan qonlar, ko'z yoshlari, ingragan tovushlar, yuzlab erkaklaru ayollarning, keksalaru yoshlarning yoqalashish manzaralari – orqa va old tomondan, yon tomondan, tepadan vertolyotlardan va yerdagi past-balанд nuqtalardan ikir-chikirlarigacha olingan tasvirlar – qo'yingki hamma-hammasi jahon teleekranlarida namoyish qilindi.

Ana shu paytda o'sha ikki yosh – yigit va qiz voqealar markazida bo'lib qolishdi. Ularning o'z shiorlarini avaylab-asraganlari boshlariga balo bo'ldi. Qizil maydonda turgan HKSchilar o'z shiorini baland ko'tarib, g'azabga mingan vatanparvarlarning burniga tiqib olguday bo'lgan yigitni ko'rib qolishgach konversiyachilarni savalay ketishdi.

— Sen, ablah, kimning burniga tiqib olmoqchisan, kimni ahmoq qilyapsan?! – qichqirdi ulardan biri.  
— Demak, seningcha biz tug'ilmasligimiz kerakmidi?! Ah yaramas! — Ular shunday deya yigitni do'pposlav boshlashdi, shiorini yirtib-yirtib oyoqlari bilan ezib tashlashdi. Ana shu paytda odam bolasini xijolatga soladigan va g'ashiga tegadigan transparant ko'tarib, agar Kreml qurollanish poygasini yana boshlaydigan bo'lsa, men o'zimga o't qo'yaman deb qasam ichgan qiz yordamga keldi.

Bu qizning mitingga ana shunday dag'dag'a bilan kelishi to'g'rimidi?! Uni nima majbur qildi bunga? Nega bunday qildi – yoshlik g'ururimi, nodonligimi yoki aksincha, uni komil ishonch va chorasizlik shu yo'nga boshladimi? Va, nihoyat, nega u o'sha mash'um shiorni tiqilinchda, mudofaachi – HKSchilar yigitni kaltaklayotgan davraga kirmasdan oldin tashlab yubormadi?! Shu paytda haligi qiz qo'liga boshqa shior oldi-da, yigitga tashlanib qichqirdi:

— Nima qilyapsizlar? Tegmanglar unga! Sizlarga kim huquq berdi? Qo'llaringga erk bermanglar! Bas qilinglar!

Nafi bo'lmadi. Yigitni chamasi besh kishi tinimsiz do'pposlardi. Uni kaltaklab hammayog'ini

momataloq qilib qo'yib yuborishsa ham mayliydi. Lekin bu to'qnashuvning nima bilan tugashini, o'ziga kuchi yetmagan, aqdan ozgan olomonning nimaga qodir ekanini kim bilibdi deysiz?

Quturgan HKSchilar qizni bo'ralab so'kib kutib olishdi:

— Sen, qanjqiq, tuyog'ingni shiqillatib qol, bo'lmasa sen ham nasibangni olasan!

Xuddi shu onda og'zidan bodi kirib shodi chiqayotgan bir xotin nishonga urdi:

— Ha, ig'vegar! hali senmiding o'zingga o't qo'yadigan! hoy, odamlar, meni ushlanglar, qo'rqaman, hozir mana bu ig'vegar qanjqiq yonib ketadi. Keyin ko'z o'ngimizda Kremlimiz ag'anab tushadi! Basharasiga tushuringlar uning, uyini topolmay qolsin!

Qizga hamla qilishib, kamzulini yirtib tashlashdi. Uning yuzidan qon oqa boshladi.

— Tegmanglar! Gazandalar! — baqirar edi u qo'rqa-pisa yuzidagi qonni artar ekan.

Uning ham shiorini bir zumda parcha-parcha qilib tashlashdi.

— Xo'sh, qalaysan endi? Lovillab yonasanmi yo tutabmi? Bunaqangi tuturiqsiz gaplarni yozishdan oldin o'ylab ko'rish kerak edi! Nega yonmayapsan?

Bundan keyingi voqealar bir zumda bo'lib o'tdi.

— Sen menga gugurt chaqib tashla! — beixtiyor baland ovozda dedi qiz zaharxandalik bilan, kulib o'ziga qarab turganlarga.

Shunda kimdir gugurt qutisini qo'liga olib chaqmoqchi bo'ldi...

— Kimda zajigalka bor? Xa-xa-xa! Yaxshisi sen unga zajigalkangni tegiz! — deb taklif qildi kimdir.

— To'xta! Yoqma! — deb baqirdi qizning sherigi haligi yigit — kaltaklayotgan odamning changalidan chiqar ekan. Lekin ulgurmay qoldi. Yonib turgan gugurt donasi qizning yelkasidagi sintetik kurtkasiga tushdi-yu u olov ola boshladi.

hamma anqayib qoldi, keyin orqaga tisarilib, chor atrofga qochib qolishdi.

Butun badani alanga olgan qiz qochib qutuladiganday u yoq bu yoqqa chopib, dahshat bilan ayyuhannos sola boshladi. Qizil maydonda hamma-hammasi ag'dar-to'ntar bo'lib ketdi. Olomon sarosimaga tushib qoldi.

Nariroqda kimdir tashlab ketgan bomba portlabdi, kimdir o'ziga tiriklayin o't qo'yibdi, yoki undan ham dahshatlisi – lovullab yonayotgan littasi mitingda qatnashganlar orasida jonsarak chopib yuribdi degan ovoza yashin tezligida tarqalishi bilan odamlar hammasini unutib shosha-pisha o'sha tomoniga chopa ketishdi. Olomon katta-kichik ko'chalarda bir-birlarini bosib, yiqitib, dod-faryod solib qichqirishar, o'zlarini uchun mo'tabar bo'lgan rasmlarni va alangali chaqiriqlarni hech keraksiz narsalarday oyoq osti qilib borar edi. Odamlar aqdan ozganday o'lguday qo'rqib chopishar, o'zligidan qochishar edi.

Nega bunday bo'ldi, Kreml biqinida bo'lib o'tgan to'polonning sababi nima – hech kim javob bera olmas edi. O'zimga o'zim o't qo'yaman deb po'pisa qilgan qiz yonib ketgandan buyon umum qabul qilingan qonun-qoidalarni buzibmi yoki hazillashibmi, yoki jiddiyimi – xullas vaqtning yangi hisobi boshlandi. Yongan qizning baqirib-chaqirib u yoqdan bu yoqqa chopib yurganini hamma ko'rdi. Qiz yerga yiqildi. Uni haligi yigit va u bilan birga bo'lgan bir necha omonchilar quvib yetishdi. Ular qizning kiyimlarini shosha-pisha o'chirishga urinishdi. Lekin endi kech edi. Yigit tiz cho'kib nima qilarini bilmay boshini changallab qoldi. Xuddi shu daqiqada, bo'shab qolgan maydonga vertolyot kelib qo'ndi, u bungacha televidenie uchun tasvirga olib yurgan bo'lsa kerak. Vertolyotning quloqni batang qilib aylanayotgan parragi tagida shamol va shovqinni nazar-pisand qilmay odamlar chopib chiqishdi, qizning jasadini ko'tarib olishdi, o'sha yigit bilan ikki omonchini olib vertolet havoga ko'tarildi. Lekin kimdir buning hammasini tasvirga tushurishga ulgurgan edi.

Vertolyot parvoz qilib, Qizil maydon ustidan o'tdi. Spas minorasining bo'yli baravarli ko'tarilgach, yo'lini davom ettirdi-da, Toshko'prik ustidan o'tgandan keyin Moskva daryosining sohili bo'ylab uchib ko'zdan g'oyib bo'ldi...

O'z g'oyalari yo'lida jon-jahdi bilan, orqa-oldiga qaramasdan, o'zlarini qahramonlarcha qurbon qilgan ikki navjuvon talaba fojiasi ham o'rmonda yo'qolgan qushday shahar binolari chakalakzorlari orasida vertolyot bilan birga g'oyib bo'ldi. O, yoshlik, xom xayollarning, halokatga mahkum

orzularning mangulik hamrohidirsan, sen!

O'sha kecha shahar markazi uzoq vaqtgacha tinchlanmadi, kunduzgi voqealarning aks-sadosi bosilmadi. Iztirob ko'plarni ko'chalarga haydadi, odamlarning basharalarida, ovozlarida, yurish-turishlarida asabiylik iz qoldirgan edi. Odamlar to'p-to'p bo'lib bahslashar, nimalarnidir taxmin qilishar edi, lekin bir narsaga hech kimning aqli yetmasdi – bor-yo'g'i bir gugurt donasi chaqib tashlansa-da o'chmasa, va qiz bir lahzada alanga olib ketsa? Bu ko'zboyloqchilik emas-ku, tsirk emas-ku, axir! Uning kiyimiga qandaydir alanga oladigan modda singdirilganmikin? O'lim bilan o'ynashish nechun? Bunday bo'lmasa-chi?! Bu butunlay boshqa narsa, aql bovar qilmaydigan metafizik hodisa – odam o'z ichida o'ta yuksak kuchlanishdan o'zi yonib ketgan bo'lsa-chi? Kechasi fosforga o'xshash yorug'lik chiqaradigan odamlar bo'ladi deyishadi. Kim biladi deysiz, vallohi a'lam!

hash-pash deguncha tun ham chodirini yoydi. Ko'chalarda odam kamaydi. Boyqushga o'xshab kechasi uyqu bilmaydiganlar g'imirlab qolishdi, mashinalarda shahar kezar ekan, ko'cha qorovullari va reketchilar haqini ham unutishmas edi. Tungi maishatxonalar eshiklarini ochdi. Shahvat hissini uyg'otadigan xira chiroqlar yondi, elektromusiqa ishga tushdi, ko'kraklar yalang'ochlandi, kulgilar avjiga chiqdi... Hammasini unutish, hech narsani esda qoldirmaslik, o'zlikdan qochish, xudoga chap berib ketish uchun...

Qizil maydonda o'sha kechasi sukunat hukm surar edi. Odam bolasi ko'rinxmaydi. Bironta zot yo'q. Kunduzi dah-shatl ehtiroslar, ahmoqlik, ayovsiz kaltakbozlik quturgan joyda hech kimning turgisi kelmasdi. Chiroqlar xira miltil-lar edi. Namoyishchilar kaltaklashayotganda yoki chopib ketayotganda oyoqosti qilingan portretlar, shiorlar, plakatlar jang maydonida tashlab ketilganday hammayoqda ivirsib yotardi.

Bular bilan bandai xudoning ishi yo'q edi.

Oy Kreml tepasida yuksalib turardi. Boyqush o'z soatida yetib keldi. — U katta qanotlarini sassiz qoqib, havoda suzib yurar ekan, soya yanglig' bir u yerda, bir bu yerda paydo bo'lar, tik boqadigan sehrli dumaloq ko'zlarini yaltiratib, ulkan yapaloq boshini ilg'ab bo'lmas darajada qimillatib borar edi. U dahshat va qo'rqinch og'ushida edi. Boyqush mavzoley ustidan ohista aylanib o'tdi va maqbaraning eshigi oldida tosh haykalday qotib turgan soqchilar yaqinidan zuvillab uchib, pakana-xumkalla sharpalarni qidira ketdi. Va ularni qorong'i joyda, Kremlning g'ishtin devori tagidan topdi. Yo'q, bu safar ham ularda hech qanday yangilik yo'q edi. Ularning chehrasi bu gal ham ma'nisiz va ifodasiz, lekin sehrlab qo'yilganday edi. Xumkalla-pakana sharpalar bir-biriga qo'l berishib, turgan joyida raqsga tushib, mitingda eshitgan chaqiriqlaridan ayrimlarini bir ohangda takrorlab-takrorlab qo'yishar edi: "Sotsializm – yoki o'lim!" Ular "Sotsializm – yoki o'lim" shiorini charchoq bilmay, ohista, bir xil ohangda tinimsiz takrorlashdi.

Kubaliklar musiqasiga o'xshash bunday bir tekis ohang tezda boyqushning joniga tegdi. Bu yerdan uchib Spas darvozasi qarshisida bir tirik jonga – qaerdandir kelib qolgan mast-alast ayolga duch keldi.

Qizil maydonda tentirab yurgan juldur kiyimli bu mast ayol o'zining qandaydir ayanchli ashulasini cho'zib-cho'zib xirgoyi qilar edi:

*Voy alam-ey, nega ham\**

*Tug'ildim ekan?*

*Voy enam-ey, nega ham*

*Tug'ding ekan?*

*Voy alam-ey, nega ham*

*Homil bo'lding.*

*Tug'ding meni, enajon,*

*G'amdan o'ldim.*

*Voy alam-ey, nega ham*

*Tug'ildim ekan?*

*Istamasdim, enajon,*

*Sen tug'ding bekor.  
Voy alam-ey, nega ham  
Tug'ildim ekan?  
Enajon-ey, nega ham  
Tug'ding ekan?*

U maydonni qiyasiga kesib o'tar ekan, gandiraklab, yiqilib-surinib borardi. Ko'p o'tmay u GUMning savdo rastalari yaqinida ko'zdan g'oyib bo'ldi. Uning g'amgin ashulasi bir oz vaqtgacha qulqoqqa chalinib turdi, nihoyat jimib qoldi.

Boyqush esa Kreml devorlari ustida shuv etib ko'tarildi-da o'zini dov-daraxtlar ichiga urdi, u yo'q-bu yo'q haligi ayolga o'xshab ho'ngrab yig'lab yubordi va zor-zor yig'lar ekan, og'ir uh tortib qo'yari edi.

Oy yulduzlar orasida yuksalib turar ekan, Kreml tepaligidagi gumbazlarga, minora nayzalariga, tomlariga o'zining abadiy kumush nurini sochar edi, boyqush esa uzoq-uzoqlardan okeanda suzib yurgan kitlarning nafas olganini sezganday bo'ldi. Ular qayoqqa va nima uchun oshiqishyapti ekan? Nega ular tinim bilishmaydi. To'lqinlar ham tinim bilmaydi.

## S a k k i z i n c h i b o b

"Tribyun" gazetasiga mo'ljallangan maqolaning katta qismi tayyor bo'ldi. Endi xotima qismini yozish qolgan edi. Ish yakuni yaqinlashgan sari Bork ko'proq xavotirlana boshladi: Cassandra tamg'asi fenomenini ilmiy izohlab berishga keragidan ortiqcha berilib ketmadimikin, holbuki ko'pchilik, ehtimol mutlaq ko'pchilik uchun eng muhimi Filofeyning kosmosdagi "g'alamislik" harakatlardan nima qilib bo'lsa ham xalos bo'lish edi. Ko'rmasin ham, kuymasin ham, cassandra-embriolarning signallarini unutsa bas. Uchiga chiqqan siyosatdon Oliver Ordok xuddi ana shuni sezib qoldi va shunga qarab mo'ljal oldi hamda muvaffaqiyat qozondi. So'z yo'q, u siyosiy g'alaba qildi. Asli uning g'alabasi g'irromlik bilan qo'lga kiritilgan edi. Xaloyiqning o'zini o'zi aldab qo'yanini qanday qilib tushuntirsa bo'larkin?

Bork shuni tushundiki, Ordokka nisbatan unda siyosiy mahorat, siyosiy tajriba yetishmas ekan. Ha, endi ular kutilmaganda umrbod bir-birlariga dushman bo'lib qolishdi. U, Bork, xohlaydimi, yo'qmi, ularni kurash, kurash bo'lganda ham ayovsiz kurash kutar edi. Xuddi ana shu narsa — prezidentlikka olib boradigan yo'ldagi musobaqa Ordok uchun ayni muddao edi. Shu ma'noda taqdir unga fazoda Filofeyni, yerda Borkni bebaho sovg'a sifatida taqdim qilgan edi.

Robert Bork shu haqda fikr yuritar ekan, hash-pash deguncha siyqasi chiqqan siyosiy kurashga o'ralashib qolish, qarshilik ko'rsatish hissiyotiga berilib ketish hech gap emas ekan, deb o'ylab qoldi. Unda Ordok bilan yuzma-yuz uchrashish istagi paydo bo'ldi. Unga yaqin borib ko'ziga tik qarab yuragiga nashtarday sanchiladigan qilib sekingina "Sen borib turgan ablah ekansan!" degisi keldi. Va shundan so'ng hammaga Ordok ablah deb aytadi va bunday nuxani hokimiyatga yaqinlashtirib bo'lmaydi, bu hokimiyatga iblis keldi degan so'z, xavfisi shundaki, uning iblis ekanligini hech kim bilmaydi, deydi. "Yo'q, yo'q, bunday deb bo'lmaydi, bunday deyish mumkin emas, — o'yladi Bork miyasiga kelgan fikrdan o'zi qoniqish hosil qilmay. — Prezident bo'ladimi, boshqa amaldor bo'ladimi, bo'lavermaydimi, faqat mensiz bo'lsa bas! Yo'q, yo'q, mening ishim — siyosiy kurash emas; odamlar Cassandra tamg'alarini to'g'risidagi haqiqatdan o'zlarini chetga olar ekanlar, ular irodasizlik qilgan bo'ladilar, muammoni yanada chuqurlashtirgan, o'z boshlariiga tushgan falokatni battar avj oldirgan — mening vazifam odamlarga ana shu haqiqatning yetkazishdir. Lekin haqiqatning dahshatli ekanligiga, biroq ko'rib o'zini ko'rmaslikka olish mumkin emasligiga, yo'l topish zarurligiga odamlarni qanday qilib ishontirish mumkin?!

Bork toza havodan nafas olish uchun ayvonga chiqqan edi, tun sovuq, kuz, hammayoq xazonrezgilik — qorong'ida barglar shamoldan shitirlaydi, uni titroq bosdi. Oy ufqdan salgina ko'tarilib, katta yo'l chetidagi or'monzor tepalikka tegay-tegay deb turganday. Or'mon ortida dengiz

bo'yidagi qum tepaliklariga o'xshab ketadigan do'ngliklardi golf o'ynaladigan maydonlarni ko'z oldiga keltirdi, yoshlida bu yerga u to'p tepish uchun kelib yurardi.

Qiziq, uning ko'rgan tushlaridan biri esiga keldi. Ba'zan odamlar tushida ko'rganini o'ngida ko'radi deyishadi. Bu tushni ko'rganiga ko'p vaqt o'tgani yo'q — tushida hammayoq golf maydonlari emish, kechasi oy nur sochib turganmish, hamma shodu xurram va erkin his qilarmish o'zini, lekin ko'ngilsizlik ro'y bergan emish: chuchurchaga tushgan koptokni tayoq bilan urib chiqarib bo'lmas emish — koptok o'rnidan qo'zg'almasmish, Bork qanchalik harakat qilmasin, koptok qimirlamay turavergan emish. Shu on qayoqdandir tepe tarafdan kafedrada birga ishlashgan hamkasabasi marhum professor Maks Frayd kelib qolganmish. U Borkka qarab: "Oyga uchib ketaylik, u yerda xuddi shunday maydonlar bor, golf o'ynaymiz, der emish. Bork Maksning so'zlariga ishonib, uning orqasidan ergashib dalalar ustidan uchib ketarmish. Xotini Jessi bo'lsa, ortidan chopib, "orqaga qayt" deb chaqirarmish. Va nima uchundir u yig'larmish. Bu tushning ta'biri nimaykin? Bunisi qiziq bo'ldi-ku! Lekin o'ylab ko'rilsa, ajablanarli joyi ham yo'q. Maks uning dilkash do'sti edi, har xil bo'lar bo'lmas narsalarga, hatto ilmi nujumga ham qiziqib yurardi. Masalan, golf o'ynaganda qanday hisob bilan yutishini yoki yutqizishini yulduzlarga qarab aniqlashga urinar edi. Aytganlari ba'zan to'g'ri chiqar, lekin ko'p hollarda bashoratlari to'g'ri chiqmas edi. Ehtimol Maksning arvohi u dunyoda biron narsani oldindan sezgandir va qandaydir ko'ngilsiz samoviy hodisaning yaqinlashayotganini payqagandir va shuning uchun do'stini falokatdan qutqarib qolish uchun Oyga uchib chorlayotgandir. Shuning uchun ham tushiga kirib ogohlantirayotgandir.

ha, Maks hayot bo'lganda mitingda bo'lib o'tgan voqeadan so'ng yarim kechada bo'lsayam Nyuberiga chopib kelgan bo'lur edi. Ehtimol, buning nafi bo'lmas, lekin mana shuning o'ziyoq Maksning tinib-tinchimas va o'ta darajada sadoqatli do'st ekanligini isbotlaydi. Ahyon-ahyonda Jessi royalda u qadar murakkab bo'Imagan kuylarni binoyiday chalar edi. U ba'zan masxaromuz hazillardan ham qaytmas edi: "Sening barcha do'stlaring, Bob, Maksga o'xshagan o'Iguday g'alati ziyorolar-da. Aslida senlar rohiblar uyushmasini ochib olishlaring, sen jamoaning boshlig'i, quling o'rgilsin qattiqqo'l murabbiysi bo'lib olishing, suxsunday Maks esa sening o'ng qo'ling bo'lishi kerak ekan, ana o'shanda u hamma-hammasiga ulgurgan bo'lur edi. Ana o'shanda senlar fanlardagina emas, yana boshqa sohalarda ham bor hunarlarining namoyon qilgan bo'lurmisdilaring?" Bechora Maks, axir uning Jessiga ko'ngli bor edi va o'qtin-o'qtin buni hazil-mutoyiba bilan shipshitib ham qo'yardi. U shirakayf paytlarida yuragidagini aytib ham olardi: "Robert, eshit, senga rostini aytsam, mening turmushimga rosa to'g'anoq bo'lgansan".

"Rostdan-a?"

"Sen bo'Imaganingda, Jessiga muhabbat izhor qilgan bo'lur edim".

"Ehtimol, hozir ham kech emasdир".

"Yo'q, sen umuman yorug' dunyoga kelmaganingda, ana o'shandagina men Jessiga nima deyishimni o'zim bilardim".

"Unday bo'lsa, qo'lingdan hech narsa kelmas ekan. Ko'rib turibsan — men yorug' dunyoda yashayapman".

"Ana ko'rdingmi, mening hayotimga rosa xalaqit bergenningni endi tushungandirsan".

"Maks, do'stginam, sen yashashning juda oson yo'llini tanlagan ekansan. Men yashayotgan dunyoda baxtingni sinab ko'r, mensiz badastir sharoitda yashashingning qizig'i yo'q".

"Yo'q, sen bor joyda yayray olmayman. Hecham".

"Nega edi. Xotin zoti seni desa jonini beradi — savlat desa ot hurkadi, husn desa birovdan qarz olgudek joying yo'q, mototsiklda uchib yurgan kezlarining hammaning ko'zi senda bo'lardi. Qolaversa, menden yoshroqsan".

"Men mototsikl shaydosiman, sen bo'lsang dunyoga mashhur olimsan, mening ko'rgan-bilganim mototsikl, sen esa badavlatsan, kitoblarining uchun katta-katta haq olasan, boylar turadigan Nyuberida dang'illama hovli-joying bor, xotining Bax, Betxoven deganlarning kuylarini senga violenchelda chalib beradi, men mototsiklda uchaman, sen bo'lsang hamma orzu qilgan Nyuberi-golfda koptok

o'ynaysan, men mototsiklda uchsam, sen Kremlar, Oq uylarda ma'ruza qilib turasan, men hamon mototsikldaman..."

"Shoshma, shoshma, Maks, o'zingni qo'y og'zidan cho'p olmagan qilib ko'rsataverma. Sen ilgarilari faqat mototsiklchigina emas eding, hozir ham shunday. O'z fanningda — siyosiy jo'g'rofiya sohasida ma'lum va mashhursan, butun sayyora sening qo'lingda. Gap sayyoradami, sayyora nima bo'pti? Sekinroq gapir, seni erim deb yurgan o'sha ofati jon polyak ayoli Anna bu gapingni eshitib qolsa boshingda yong'oq chaqadi. Unda mototsikling ham yordam bermay qoladi! Xotining xom xayollar og'ushida mast bo'lib yuripti-ya!"

"Ha, Robert, nozik joydan olding. Anna haqidagi gaplaring to'g'ri, lekin sayyora haqidagi fikringga to'la qo'shila olmayman. Siyosiy jo'g'rofiyada hamma narsani bilish kerak yoki bu fanning yoniga umuman yo'lamaslik lozim. Bu alohida, yuho fan. Bu ma'lumot-axborotlar omborxonasi, banki desa ham bo'ladi. Ha, shu ma'noda meni dunyo bankiri deyish mumkin. Men yigirmanchi asning Rotshildiman. Hamma narsani bilaman, hammasidan xabardorman, xo'sh, bundan ne naf? Aytadilar-ku, Ollo taolo arshi a'loda hamma narsani ko'radi, hamma narsani biladi, hammasini nazorat qiladi, lekin qo'lidan hech narsa kelmaydi..."

O'sha odam endi yo'q. Avtomobil halokatida vafot etdi, mashinada o'qday uchishni yaxshi ko'rardi. Anna tezda qarib qoldi. O'g'illari uylangan, alohida yashashadi. Jessi Anna bilan telefonda gaplashib ba'zan ko'rishib ham turardi. Oxirgi marta Anna shu yozda kelgan edi. Hammasi birgalashib dam olish, tomosha qilish, o'zin ko'rish uchun golf-maydonga borishdi. Kun bo'yи yaxshi dam olishdi, golf-klubning restoranida tushlik qilishdi. Nogahon o'tmishni esga olishdi, Maksni ko'p xotiralashdi... U bu yerlarni juda-juda yaxshi ko'rardi. Qaerda bo'lsa ham yetib kelishga har doim tayyor edi...

Mening sho'rlik do'stim Maks Frayd! Odamlarning aql-idroklli-yu dillarida hamma narsa aralash-quralash bo'lib ketgan hozirgi paytda sen bo'lganingda nima degan bo'lar eding. Pinhoniy genetik dovul hammasini ag'dar-to'ntar qilib tashladi. Endi nima qilish kerak: ko'plarga o'xshab hammasi daf bo'lsin deb tuyaqush singari kallani qumga tiqib turavergan ma'qulmi yoki Xudoning bandalarni ogoh qilishini kutib, Yaratganning ko'ziga boqib turaverish durustmi — Tangri qullarini faqat ogoh qiladi, hammasini bari bir inson o'zi hal etadi. Bu borada Maks Frayd haq edi. Borkning tushiga kirishi bejiz emas. Demak, Maks xavotir olgan, hodisani oldindan sezgan. Falokatdan qutqarib qolish uchun chaqirgan, oydag'i golf-maydonga taklif qilgan...

Endi buyog'i nima bo'ladi, axir Ordok aslini olganda bir muammo o'rniga boshqa bir muammoni o'rta ga tashladi, jamoatchilikka firib berib, diqqatni boshqa tomonga burib yubordi, o'zini qahramon qilib ko'rsatish uchun esa Borkni siyosiy duelga chaqirdi. Bork bo'lsa tayyorlanishi, bu da'vatni qabul qilishi, Cassandra tamg'asi haqida o'z fikrini bildirishi, Filofeyni safsatabozlikdan va siyosiy chayqovchilikdan himoya qilishi lozim. Ordokning xatti-harakatini boshqacha yana qanday baholash mumkin?! O'h-ho', kechasi soat birdan oshibdi, dedi Bork esini yig'ib olib, o'tirib ishlash kerak. Hayallamasdan ishga kirishishga to'g'ri keladi. Endi orqaga chekinish yo'q.

Kabinetiga qaytayotib, oynaga qarab to'xtab qoldi. Uyqusizlikdan ko'zlari qizargan. Bu ko'zlarda qanchadan qancha dardi alam, tashvish jo bo'lgan. Sochlari oqarib ketgan. Yaxshiyamki, boshqalarnikiga o'xshab to'kilib ketmagan. O'zi Reyn sohilidagi qoyalar kabi keksaygan — yaqindagina nemislar, to'polonchi jurnalistlar ana shu qoyalar yonidan suzib o'tganda Bork bergen intervyuni ular "Keksa qoya bilan suhbat" deb atashgan edi. O'shanda tez orada Bork okean ustidan, Atlantika tepasidan uchib o'tar ekan, rohib Filofeyning yashinday chaqnab shiddat bilan yer yuziga urilishini, momoqaldiroq yanglig' guldirashini va dunyonи ostin-ustin qilib hammani sarosimaga solishini, o'sha shaytonnusxa — Oliver Ordokning ko'zni shamg'alat qilib sahnada paydo bo'lib qolishini xayoliga ham keltirmagan edi. Nima ham qilsin, solishishga to'g'ri keladi...

Bork kompyuter yoniga o'tirmoqchi bo'lgan ediym, qadam sharpasi eshitildi. Pastdan Jessi chiqib kelayotgan ekan.

— Xo'sh, ahvoling qalay? — so'radi Jessi ostonada turib.

— Bir navi, qimillab turibman, — javob berdi Bork va to'satdan esiga kelib qolgan tushini Jessiga

aytib bermoqchi bo'ldi-yu, lekin o'zini tutdi. Jessi charchagan edi va shunday bo'lsa ham uning nigohida qandaydir xushxabar soyasi jilvalanar edi.

- Bob, senga xalaqt bermay devdim, lekin men seni bir hayratda qoldirgim keldi.
- Meni nima bilan hayratda qoldirmoqchisan?
- Bir to'p qog'oz olib keldim. Bularning senga foydasi tegib qolar.
- Nima ekan?
- Fakslar. Kimdan kelibdi deysanmi? Entoni Yungerdan.
- Entoni Yungerdan? — qayta so'radi u. — Xo'sh, nima depti. Nimalarni yozibdi?
- Senga hamma telefonlarni uzib qo'yaman deb edim-ku, uning bizga telefon qilish uchun qanchalar uringanini tasavvur etish mumkin. Kim bilibdi deysan? Xolldagi faksni o'chirish xayolimga kelmabdi. Birdan qulog'imga shik-shiq qilgan shovqin eshitilib qoldi, borib qarasam bir to'p qog'oz yotibdi. Mana, o'zing o'qib ko'r. Har bir betning tepasida "Xudo haqqi, faksni o'chira ko'rmanglar!" deb yozib qo'yilgan. Uning fakslari ketma-ket kelayotir. Unga nima bo'ldiykin? Bechora bola. O'qi, yana olib kelaman.

Kutilmagan hodisa. Kechasi soat ikki. Kimdir uxlamasdan ketma-ket faks jo'natayotir. Bork bilan telefonda bor-yo'g'i bir marta gaplashgan salgina tanish Entoni Yunger yozayotir. U saylovoldi mitingida Ordokni og'zi ko'pirib safsatabozlik qilayotganda tiyib qo'yish uchun muvaffaqiyatsiz bo'lsa-da yurak yutib urindi va o'zi Ordokning to'dasidan bo'la turib hammaning ko'z oldida boshlig'idan aloqani uzib uning siyosiy qurboni bo'lgan kishi tomoniga o'tdi. Miting tugagandan keyin Yungerning boshiga qanday dashnomlar yog'ilganini tasavvur qilish ham qiyin. Ordokning o'zi va sodiq do'stlari Yungerni xoin deb la'natladilar. Ordokning qanoti ostida endi durustroq mavqe-amal haqida gap bo'lishi ham mumkin emas edi. Tanish-bilishlari "bunaqasi hali bo'lgan emas — o'zining yo'lini kesib qo'ydi" deb kulishayotgan bo'lsalar kerak. Shundan keyin ham bu birovga yordam qo'lini cho'zishga — Ordok badnom qilib tashlagan, ommaviy mitingda la'nat yog'dirilgan odamga ko'maklashishga jur'at eta oldi. Bork Entoni Yunger oldida o'zini noqulay sezsa ham yuragiga iliqlik yugurdi. Shu vaqtgacha hech kim rahmi kelib unga g'amxo'rlik qilmagan, chunki u har doim mustaqil va o'ziga ishongan edi. Endi bo'lsa zo'rlik bilan kurash maydoniga tortildi, u yerdan yengilib, hatto deyish mumkinki, basharasi majag'lanib xalq oldida kalaka-masxara bo'lib sudralib chiqdi. Endi bo'lsa o'z xohishi bilan tavakkal qilib jangga kirish uchun tishni tishga qo'yib yana oyoqqa turish maqsadida hozircha tashqi dunyodan yashirinib yotibdi. Ana shuning uchun ham Yunger hammasiga aqli yetganidan faksning har bir betida "Xudo haqqi, faksni o'chira ko'rmanglar" deb yalinib-yolvorgan edi.

"Mister Bork, Sizning uy telefonlaringiz nega o'chirib qo'yilganini yaxshi bilaman, — deb yozgan edi Yunger. — Men hech qachon jonlaringizga tegmoqchi emasdim, lekin ahvolimni tushunishlaringizni so'rayman. Sizning oldingizda tiz cho'kib turib aytishim zarur bo'lgan fikrimni yo'q deganda faks orqali hozir bayon etolmasligim men uchun o'lim bilan baravar. Saylov oldi mitingida ro'y bergen voqeadan so'ng o'zimni qo'yishga joy topa olmayman, men hamma-hamasiga, kerak bo'lsa hatto qotillikka ham tayyorman. Meni bu qadar mudhish qadamlarga tayyor bo'lganligim uchun kechirasizlar. Men Ordok bilan bo'lgan xunuk voqeа domiga sizni tortganday, o'sha axloqsiz siyosiy merganning mo'ljalga naqadar aniq urishini namoyish qilish uchun Sizni go'yo nishon qilib qo'yganday bo'lib qoldim. Sizga hasrat qilmoqchi emasman, kechirasiz, biroq qilgan ishiman: men kimga xizmat qilganman, kimga tosh tashlaganman — endi bildim, ko'rligim va o'taketgan laqmalagim uchun menga bu jazo ham oz! Lekin bu o'rinda so'z mening haqimda ketmayotir, Xudo haqqi, kechiring. Endi gap nima qilish kerakligida. Cassandra tamg'asi nima bo'ladi?! Xohlar edimki..."

Sahifa shu bilan tugaydi, keyingi sahifa yana o'sha o'tinchdan boshlanadi: "Xudo haqqi, faksni o'chirib qo'y manglar!"

"Shunday qilib, mister Bork, endi nima qilish kerak?

Bu sohada mening rolim bema'ni bo'lsa ham ba'zi bir mulohazalar bildirishga ruxsat etgaysiz.

Ehtimol, buning foydasi tegib qolar.

Mister Bork, gapirish og'ir, lekin aytishga majburman. Men shunday taklif etishga jur'at qilganim uchun oldindan uzr so'rayman. Lekin men hech narsa yo'qotmayman. Sizning oldingizda shunchalik gunohkormanki, endi menga bari bir.

Men shuni nazarda tutayotirmanki, Ordokni yolg'onchilikda ayblast mumkin, chunki u Siz bilan bo'lgan shaxsiy suhbatni ro'kach qiladi. Bu suhbatning hech qanday guvohlari bo'limgan va bo'lishi ham mumkin emas. Siz u bilan telefon orqali gaplashgansiz. Ehtimol bu haqda gapirgandirsiz, gapirsangiz ham boshqa narsalar to'grisida gapirgandirsiz. Bu o'sha Ordokning usuli: Sharmanda qilganni sharmanda qil. Telefon orqali suhbat hech qaerda yozilgan emas. Men buni aniq bilaman. Bunga kafilman. Buyog'ini o'zingiz hal qiling. Agar Siz shu yo'lni ma'qul topsangiz, men sensatsiya bo'ladigan raddiya uyushtiraman. Bunday xabarlar desa ommaviy axborot vositalari o'zini tomdan tashlaydi.

Shu bilan bir qatorda kurashning butunlay boshqa yo'li ham bor. Agar Siz mister Bork, Filofeyning haq ekanligiga ishonsangiz va haqiqat yo'lida o'z fikringizda qattiq turadigan bo'lsangiz, men, garchand Sizga yordamchi bo'lsam-da Siz bilan to oxirgi janggacha borishga tayyorman. Men Sizning qurolbardoringiz bo'lismumkin. Siz jang oldida turibsiz. Bosh tortmasangiz bas, bu haqda so'z bo'lishi mumkin emas.

Vaziyat shundayki, hozirgi paytda maydonda yakka o'zingiz jangchisiz, ehtimol butun yer yuzida samoviy rohibning tomoniga o'tgan, uning oxirzamon haqidagi kontseptsiyasini himoya ostiga olgan yakkayu yagona kishidirsiz. Saylov oldi mitingida bo'lib o'tgan voqeordan so'ng, bir yoqadan bosh, bir yengdan qo'l chiqarib Ordokni qo'llab-quvvatlagan "bir butun xalq fronti"dan so'ng, Filofey kashfiyotlarini himoya qilmoqchi bo'lgan kichik bir guruh kishilar ham betaraf bo'lib, g'ing demay qolishadi. Asosiy omma esa..."

"Xudo haqqi faksni o'chira ko'rman! Shunday qilib, mister Bork, mitingda saylovchilarning aks sadolariga qaraganda, aholining asosiy qismi, hatto aytish mumkinki, baxtga qarshi, ehtimol, mamlakatning butun aholisi Cassandra tamg'asini aniqlash bo'yicha kosmik eksperimentlarga qarshidir. Odamlar Cassandra-embriyonlar haqida eshitishni ham, bilishni ham xohlamaydi, xotinlar zondaj-nurlar tarafidan nazorat ostiga olinishni istamaydilar. "Alfa-Beysbol"dagi mitingda bo'lib o'tgan voqealar haqida barcha axborot agentliklari eshittirish berishdi. Ana shundan keyin Ordokning obro'si barcha shtatlarda keskin ko'tarildi. Hozir u iz bosilmasdan bayonot berib aytadiki, inson huquqlarini og'ishmay himoya qiladi, ayol-onaning azaliy muqaddasligini so'zsiz qo'riqlaydi va qaerda bo'lmasin — Yerda bo'ladimi yoki kosmosda bo'ladimi — barcha toifalardagi filofeychilarning ig'vagarlik kirdikorlariga qarshi kurashadi. Sizning rasmingiz, mister Bork, ayni soatlarda teleekranlarda uzlusiz ko'rsatilib tegishli izohlar berilmoqda. Moskvada Filofeyning fotosuratlari topilib namoyish qilinmoqda.

Siz telefonlarnigina emas, televizorni ham o'chirib qo'ygan bo'lsangiz kerak deb o'ylab yuqoridagi so'zlarni aytdim. Mitingning oqibatlari haqida, keyingi voqealar qanday kechayotgani to'grisida tasavvurga ega bo'lisingiz kerak. Bu jarayon avj oldi va uni nazorat ostiga olib bo'lmay qoladi deb qo'rqaman..."

"Xudo haqqi, faksni o'chira ko'rman!!!

Shunday qilib mister Bork, bu jarayonni nazorat qilib bo'lmaydi, va shuning uchun Siz, nazarimda, eng avval, ana shu sharoitda o'z mavqeингизни, harakat yo'lingizni aniqlab olishingiz lozim. Axir, "genofondni nazorat ostiga olish"ga qarshi ommaviy noroziliklar boshlanib ketishi hech gap emas. Agar Siz "Tribyun" gazetasi uchun maqola tayyorlagan bo'lsangiz, redaktsiyaga borishingiz kerakmiyo'qmi ekanligi haqida yoki materialni faks, teleks bilan jo'natish yoki birov orqali berib yuborishni o'ylab ko'ring, chunki eshitishimga qaraganda, redaktsiya eshiklari oldida bir guruh odam to'planib olib, qo'llarida shiorlari bilan baqirib-chaqirib o'z talablarini aytishmoqda va tahdid ham solishmoqda. Ular gazeta binosini kechayu-kunduz qamal qilib turishlarini e'lon qilishibdi. Bunday hollarda jo'shga kelgan olomonni ushlab turishga politsiya hammavaqt ham qodir emas. Bunday sovuq xabarlar uchun kechirasiz.

Yana takrorlayman: Siz maydonda yolg'iz jangchisiz. Filofey fazoda, u dushmanlardan yiroqda, ayni vaqtida ittifoqchilari bilan bog'lanish imkoniyatlardan mahrum. Siz qanday yo'l tanlashingizni o'zingiz hal qiling.

Keljakka befarq qaraydigan va o'zini bu dunyoda omonat yashayotganday sezadigan kishilar chuqur o'ylamaganligi uchun tushunmayotgan yoki tushunishni xohlamayotgan narsani siz tushundingiz va qo'llab-quvvatladingiz. Siz bir kishisiz, va bu aslida bir kishini ishi. Buyuk amaliyot — ko'pincha bir kishining sa'y-harakatidan bo'ladi. Nega shunday, bilmadim. Har qanday sharoitda ham men Siz bilan birgaman, Sizga yordamlashishga hozirman, kuchim yetgan hamma narsani qilishga tayyorman, men Sizning oldingizda o'zimni aybdor deb sezayotganim uchun, ya'ni Ordokka Filofeyning kashfiyoti to'g'risida faqat Siz bilan suhbatlashish kerak deb maslahat berib Sizni malomatga qoldirganim uchungina emas, balki, eng muhimi, Filofeyning g'oyalalariga, Filofey bilan Sizning insoniyat istiqboli haqida tashvish tortayotganlaringizga qoyil qolganim uchun ham ana shunday qarorga kelgan edim. Ehtimol, odam bolasi hozirgacha firibgarlik bilan yashab kelgandir, endilikda esa o'zi o'ziga — odam bo'lsang durustroq bo'l, yoki qirilib bitgan mamontlarga o'xshab paleontologik qatlamlar sari yo'l ol, — deydigan vaqt keldi.

Kechirasiz, yana sahifa tugadi!"

"Xudo haqqi, faksni o'chira ko'rmanglar. Men hali hamma gaplarimni aytib bo'lganim yo'q... Mister Bork, kechiring, ish yuzasidan so'z ochay. Mening nazarimda, ertagi kun boshlandi, demak bugungi kun — ko'p narsani aytib beradigan kun. Endi sensatsiya va mish-mishlar tugay boshladи. Ana shu bo'ronda Sizning so'zga chiqishingiz, Sizning fikringiz, mulohazalaringizning ishonchliligi va isbotliligi yangi bir ohangday yangrashi mumkin. Siz qanday harakat qilmoqchisiz? Matbuot konferentsiyasi o'tkazasizmi? O'tkazadigan bo'lsangiz, men uni uyushtirishda ishtirot etishga, Sizga dastyor bo'lishga tayyorman.

Yana Nyuberi shahriga Sizni deb ertalabdan, ehtimol, ogohlantirmasdan reportyorlar bosib kelishar. Siz ular bilan uchrashishni xohlamasangiz, "Men hech kim bilan ko'rishishni xohlamayman, meni xoli qo'yinglar" deb ko'rinarli joyga e'lon osib qo'yishni unutmang.

Men Nyuberida, golf maydonlarida va shahar atrofidagi istirohat bog'larida bo'lganman. Men yashab turgan Ridingdan mashinada o'ttiz daqiqalik yo'l. Xohlasangiz Siz bilan ishlarni muhokama qilish uchun kelishim mumkin. Ana shu maqsadlarda asqatib qolar deb koordinatalarimni yuboryapman.

Mister Bork, kechasi soat uchdan oshdi. Fakslarimni topib olib o'qirmsiz degan umidda tinmasdan yozayotirman. Men Sizga ko'p narsalarni aytib bermoqchiman! Axir, dunyodagi voqealar, hatto har kuni matbuotda xabar berib turiladigan hodisalar ham tsivilizatsiyaning tanazzulga yuz tutayotganidan guvohlik bermoqda. Ana shunday sharoitda go'dakning yorug' dunyoga kelishi minalarga to'la maydonga yo'l olish bilan baravar. Xo'sh, o'sha minalarni saqlagan maydon qani, hayotning qaysi jabhalarida yashiringan — odamlarning fikr-xayollarida, sa'y-harakatlaridami, jahon ta'limotlaridami, kundalik amaliyotdami — buni barmoq bilan ko'rsatib bo'lmaydi.

Hozirgina televidenie orqali ko'rsatishdi: "Moskvadagi Qizil maydonda (men bu yerda kezib yurishni xush ko'rardim) dahshatli voqeа sodir bo'ldi. Ikki toifa namoyishchilar: harbiy-sanoat kompleksi tarafdarlari bilan konversiya uchun kurashuvchilar to'qnashdi. Oqibatda bir qiz o'z joniga qasd qildi — Hammaning ko'z oldida o'ziga o't qo'yib yonib ketdi. Bu judayam dahshatli manzara bo'ldi. Sharhlovchilarning gaplariga qaraganda, o'sha yonib ketgan qizning hamrohi — bir talaba mitingga ko'tarib kelgan shior ehtirolarning alanga olishiga sabab bo'lgan. O'sha shiorda... Men hozir gapimni davom ettiraman... varaq tugadi."

"Xudo haqqi, faksni o'chira ko'rmanglar, men Qizil maydonda bo'lib o'tgan voqeа haqida hikoya qilmoqchiman..."

Mister Bork, gap shundaki, o'sha shiorda "Inson qurol ishlab chiqarish uchun yorug' dunyoga kelmasligi kerak!" deb yozib qo'yilgan ekan. Turgan gap, bunday shiorni Rossiyada "Mudofaachilar"

deb nom olgan hamda davlat va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlangan kishilar qahr-g'azab bilan kutib oldilar, chunki gap qo'rg'oshin pitradan tortib ("mudofaachilar" dunyodagi har bir kishiga yuztadan ana shunday o'qchalar g'amlab qo'yishgan edi) tovushdan tez uchadigan samolyotlar, okean qa'rida kechayu kunduz navbatchilik qilib turadigan suv osti atom kemalarigacha va birinchi buyruq berilishi bilan parvozga tayyor turgan qit'alararo raketalargacha bo'lgan qirg'in qurollarni ishlab chiqaradigan harbiy sanoat taqdiri haqida borar edi. Buni behudaga sarflangan mablag' va mehnat, deb hisoblar edi o'sha sog'lom aqilli talaba. Amerikamizning harbiy-sanoat kompleksiga ham xuddi ana shunday munosabatda bo'lmoq kerak. Bu ham odamlarni qiradigan qurollar ishlab chiqarayotir va o'z qilmishini mudofaa manfaatlari bilan oglamoqchi bo'layotir.

Lekin, ikkinchi tomondan o'ldirilishi kerak bo'lganlar ham farishta emas, ular ham tish-tirnog'igacha qurollangan va ular ham o'zlarining o'ta qimmatli g'oyalari yo'lida (endi eng ta'sirchan shiorlar millatchilik shiorlaridir), adolat yo'lida va o'zlarining iqtisodiy manfaatlari yo'lida o'ldirish-qirishga chanqoqdirlar.

Noiloj qolganda, pichoq etdan o'tib suyakka qadalgandan keyin odam bolasi o'zini o'tga ham, suvgaga ham uradi. Bechora talaba ayyuhannos solmay nima qilsin, ehtimol, odamlarning bir-birlari bilan so'zlashish qobiliyatiga ega bo'lgan zamondan buyon o'ylab kelganlarini, urush bilan quroq aql ustidan tantana qilgan davrdan e'tiboran inson bolasi diliqa jo qilgan so'zlarni plakatga o'z qo'li bilan yozmay nima qilsin?! Saxarov Rossiyada vodorod bombasini yaratgandan keyin xuddi ana shu narsani tushunib yetdi va shu yerda to'xtab, o'z taqdiriga qarshi bordi.

Yerda quroq ko'paygandan ko'payib borayotir, qaerda bo'lmasin hamma qurollanishni xohlaydi. Dunyoda har bir tug'ilayotgan insonga kamida yuzta portlovchi o'q g'amlab qo'yilgan bo'lsa, peshonasiga birovlarni o'ldirasan yoki seni o'ldirishadi deb yozilgan bo'lsa, homilador ayollarning peshonasidagi Cassandra tamg'asi ana shundan ogoh qilmayaptimikan, cassandra-embryonlar ona qornida turib sassiz ayyuhannos solmayaptimikan? Shunday bo'lgach haligi talaba bu haqda jar solmay tura olarmidi?! Qizil maydonda o'ziga o't qo'ygan qizda homiladorlik paytida nishona bergen bo'lsa ham, hech kim sezmagan Cassandra tamg'asi endi o'zini namoyon qilmadimikan? Oxirzamonning yaqinlashib kelayotganidan tashvishga tushgan homilaning bergen xabariga kim e'tibor beribdi deysiz?!

Idealistik nuqtai nazardan kurakda turmaydigan bo'lsa ham shunday bir fikr keladi miyaga: agar insoniyat quroq ixtiro qilmasdan va urush nima ekanini bilmasdan rivojlansa nima bo'lardi? O'shanda odam hozirgiday mavjudod bo'larmidi, tsivilizatsiyamiz hozirgiday ahvolda yasharmidi yoki yerda butunlay boshqa bir jamiyat hukm surarmidi va inson sifat jihatdan butunlay o'zgacha bo'larmidi? Nahotki taraqqiyotning shunday yo'li azaldan yopiq bo'lsa? Agar chindan ham yopiq bo'lsa, buning tub sababi nimada? Buning ustiga odamda aql — ilohiy xilqat bo'lsa-chi, aql — biologik hodisa emas, yuksakroq hodisa bo'lsa-chi?

Mana Filofey fazoga chiqib olib, dunyo pardasini qiya ochib edi, qandaydir la'nati sir yuz ko'rsatdi, lekin odamlar uni ko'rishni ham, bilishni ham istashmayapti.

Mister Bork, Filofeyning kashfiyotlari nuqul norozilik tug'dirsa ham o'sha kashfiyotlarga ishonganim bo'lsin. Zamon oxir bo'lishidan ruhning qynoqqa tushishining sababini ana shu kashfiyotlarda ko'rayotirman (odamlarning haddan ortiq axloqiy buzuqligi dastidan ruhiy qynoq battar chuqurlashayotir).

Xudo bandasini nega yaratdi ekan, deb o'ylab qolasan kishi bu bedodliklarni ko'rib. Qarang, Qorabog'da armanlar bilan ozarbayjonlar o'rtasida ko'p yillardan beri olib borilayotgan jinoyatkorona urushda dala komandirlari o'lganlarning jasadlari bilan savdo qilishar ekan. Jangda o'ldirilgan kishining ota-onalari va qarindosh-urug'lari uning jasadini dafn qilish uchun sotib olishar ekan. Shu yo'l bilan katta pul ishlashar ekan. Shunday hollar ham bo'lar ekan-ki, o'z askarini orqasidan o'zi otib tashlab shu yo'l bilan aqcha topishar ekan. Gazetada bu xabarni o'qib g'alati bo'p ketdim. Ana shu kabi jinoiy harakatlar odamlarning joni-tanlarida aks etmasligi, irlsiyatni asta-sekin o'zgartirmasligi, avlodlarda iz qoldirmasligi mumkinmi?

Tasavvur qilib bo'lmaydigan shavqatsizlikka yana bir misol. Turkiyaning bir shahrida adiblarning Salmon Rushdini qo'llab-quvvatlashga bag'ishlangan konferentsiyasi bo'lib o'tayotgan mehmonxonada yondirib yuborildi. O'shanda konferentsiya qatnashchilarigina emas, balki mehmonxonada vaqtincha yashab turgan kishilar ham yonib ketishdi. Bularning hammasini telereportyorlar tasvirga tushirishgan: bino lovillab yonayotir, tiriklayin yonayotgan kishilar, baholiqdrat harakat qilayotgan o't o'chiruvchilar, shuning yonginasidagi maydonda mammunlikdan o'zida yo'q xursand bir gala fundamentalist yoshlar. Ana shular yong'in chiqarganlarga madh aytmoqdalar, shodlikdan sakramoqdalar, raqsga tushmoqdalar, qo'llarini ko'tarib mushtumlarini silkitmoqdalar, qah-qah otib kulmoqdalar, ana shu dahshatli manzaradan go'yo shahvoniy lazzat olmoqdalar. Yoshlarning hayajonli va qasoskor qiyofalariga ajal yolqinining so'lg'in nuri tushib turibdi. Va televideniega tasvirga olishayapti. Axir, bu badiiy film emas edi-ku!

Bizlar qaerdamiz, bizlarga nima bo'lgan? Bizlar ana shularning va Germaniyada turk oilalarining tiriklayin yondirib yuborilish sabablarini o'zimizdan so'rashimiz kerak emasmikin? Siz bularni gazetalardan o'qigandirsiz?..

Bunday vahshiylıklarni yana ko'plab keltirish mumkin va ularning biri ikkinchidan dahshatli, bunda aniq qonuniyat ko'zga tashlanadi: turli mamlakatlarda jinoiy harakatlar tobora mudhishroq tus olayotir. Filofey ana shularning hammasi to'planib genlarda o'z aksini topishini isbot qildi.

Ilgarilari aqlni Koinotning oliy ne'mati deb ishonar edim, aslida aql Yovuzlikning abadiy quliga aylangan ekan. Aql qachonlardir qullikdan qutularmikin? Cassandra tamg'asi xuddi ana shu haqida jar solmayotirmikin, bizlarni shunga da'vat qilmayotirmikin?

Kechirasiz, mister Bork, faks xatcho'pini shoshilinch almashtirish kerak..."

"Mister Bork, jahlingiz chiqmasin, mening mulohazalarim uzundan uzoq va Siz uchun u qadar qiziq emas deb qo'rqaman. Lekin shu bugun kechasi dilimning tambasi ochildi. Men Sizning boshingizdan nimalar kechayotganini tushunaman. Siz uchun xavotir olayotirman va jasoratingizga ishonaman.

Mavjud vaziyat haqida bosh qotirar ekanman, shunday fikrga keldim: Filofey orbitada bo'lsa ham Yerda ro'y berayotgan voqealardan chetda qola olmaydi. Agar Siz qarshi bo'lmastangiz shoshilinch suratda u bilan aloqa bog'lash usulini topish lozim; texnikaviy jihatdan bu favqulodda murakkab, lekin men telekompaniyalardagi do'stlarim orqali bu ishni amalga oshirishga urinib ko'rgan bo'lur edim. Bunga Siz nima deysiz? Bordiyu rozi bo'lmastangiz meni ogoh qiling va bunday urinishning amalga oshishi qanchalik mumkin ekanligini Sizga xabar qilaman.

Nihoyat, mening nuqtai nazarimda eng muhimi mana shu. Filofey bilan aloqa bog'lashning nima keragi bor, uni ekranda ko'rib tabriklash uchungina emas-ku? Menimcha, u javob qaytarishi kerak, shubham yo'q, uning javobi tayyor — u Cassandra tamg'asini qanday qilib aniqladi, bu holning embrionning kelajak hayotga salbiy munosabatidan boshqa narsa emasligiga qanay dalillar borligini aytib berishi lozim. Uning Rim papasiga yo'llagan maktubidan buni aniq tushunish qiyin. Ana shu ma'noda chala jihatlarni Siz ham payqagandirsiz. O'ylaymanki, boshqalar ham, xususan, biolog olimlar unga shunday savol berishlari mumkin. Filofeyning noaniq qolgan narsalarni tushuntirib berishi, savollarga javob qaytarishi muhimdir.

Menga Filofey bilan aloqa bog'lashni uyuştirishga imkon bering. Men Sizga o'rgatmoqchi emasman, zudlik bilan zaruriy falsafiy dalillar tayyorlang.

Oliver Ordok olomonning ongiga qilgan ta'sirining oqibatlari bilan to'qnashishimizga to'g'ri keladi. Na iloj, buni taqdir deydilar. Va biz g'alaba qilishimiz kerak. O'sha olomon hurmati!

Sizga hurmat bilan Entoni Yunger.

R. S. Bordiyu mening koordinatalarim — uy faksining, telefonimning nomerlari — adresim zarur bo'lib qolsa, shu varaqlardan topasiz. Xizmat koordinatalarim endi Sizga kerak bo'lmaydi — men u yerga boshqa bormayman..."

## To'qqizinchibob

Ertalab soat to'rt yarimlar. Robert Bork yozuv stolida yotgan fakslarga qarab jim o'tirardi. Jessi ham shu yerda. U ham fakslarni o'qib chiqdi.

- Tavba, nima bo'lyapti, nima bo'lyapti o'zi! — deb bir necha bor takrorladi Jessi.
- Sen yotib tin olsang bo'lar edi, — maslahat berdi eri.
- Agar o'zing yolg'iz qolishni xohlayotgan bo'lsang, hozir ketaman. Baribir uxmlay olmasam kerak. Men o'zimni g'alati sezyapman. Bularning juda jiddiy ekanligini tushunar edim, lekin hammasining shu darajada murakkablashib ketishini tasavvur ham qilmovdim. Nima deyishimni ham bilmayman.

— Ha, Jessi. Entoni Yunger haq. Mutlaqo haq, — xayol surib javob berdi Bork. — Uni bizga Xudoning o'zi yetkazdi. Uning tutgan yo'li — yangi avlodning yo'li. Dunyoni idrok etishi butunlay o'zgacha. Sa'y-harakatlari ham. Darrov seziladi-da. Mening esa maqoladan boshqa biron ish qilishim dargumon edi (maqola juda katta bo'lib ketibdi, gazetaning bir betini oladi-yov!) Biz ikkalamiz bo'lsa uyda qamalib oldik. Bo'layotgan voqealardan butunlay ajralib bo'lmaydi. Buning ustiga Ordokning g'alamisliklari...

- Yaxshisi — zanjirdan bo'shatib yuborilgan narsa degin!
- Ha, zanjirdan qo'yib yuborilgan kuch. Bu nihoyatda dahshatli kuch. Ordok bila turib ommani Filofeyga va menga gijgijlamoqda.

— Yakka o'zing senga qarshi kayfiyatda bo'lgan shuncha odamning fikrini o'zgartirib o'zingga qarata olishingga ishonasanmi?

— Endi orqaga qaytish yo'q, fikrimni isbotlashga urinaman. Lekin voqeа qanday kechadi — bir narsa deyish qiyin. Cassandra-embriон fenomenining kashf qilinishi mayjud tasavvurlarga, turmush tarziga, qolipa tushib qolgan tafakkur taxlitiga qaqshatqich zarba berajak. Cassandra-embriонlarning oxirzamondan xabar berishiga boshdan oyoq hamma narsaga, birinchi galda siyosiy, ijtimoiy tuzumlarga, axloqiy negizlarga shubha ko'zi bilan qarash demakdir. O'z-o'zidan ma'lumki, tarkib topgan barcha andozalarning vayron qilinishi homilador ayoldan tortib Ordok singari nusxalargacha hech kimga yoqmaydi. Ana shuning uchun ham qarshilik ko'rsatishmoqda, hatto tajovuz qilishgacha yetib borishmoqda.

- Axir ular Filofeyning o'zini tajovuzkor deb bilishadi-ku!

— Ha, ular uni tajovuzkor deb biladilar. Men uchun u payg'ambarday gap, boshqalar uchun — shayton. Odamzot ikki yo'ldan bittasini tanlab olishi lozim: yoki biz, hammamiz aldanib, odatdagiday yashayveramiz, yoki cassandra-embriонlar sonining ko'payib borish sabablarini tushunib olib, oxirzamon halokatidan kishilarni ogoh qilamiz. Insoniyat uchun boshqacha yo'l yo'q.

— Filofeyning o'zi kashfiyotini odam uchun osmonda ikki quyosh chiqqani kabi kutilmagan voqeadir, deb aytgan edi. Ana shu ikkinchi quyosh insoniyatning asrlar bo'yi tarkib topgan turmush tarzini chilparchin qilishi mumkin! Buning ustiga raqiblarimiz Filofeyni uning eksperimentlari inson huquqlarini poymol qiladi deb ham ayblamoqdalar. Bundan ham kattaroq tuhmat bo'lishi mumkinmi? Bunga sen nima deysan?

— Yo'q, bu inson huquqlarini poymol qilish emas! Mening nazarimda bunday emas. Men ana shu haqda yozyapman, o'qib ko'rishing mumkin. Cassandra tamg'asining sirlarini bilib olish — bizning burchimiz, jamiyatning burchi, har bir shaxsning, birinchi galda homilador ayolning burchidir, bunday ayol o'z qornidagi pushti oxirzamondan darak beryaptimi — yo'qmi ekanligini bilishdan manfaatdor bo'lmog'i, hatto buni tekshirib ko'rmog'i lozim. Cassandra-embriонlar haqidagi statistik ma'lumotlar vaqt kelib eng muhim sotsiologik ko'rsatkichlardan biri bo'lib qolajak — jamiyatning holati va taraqqiyot darajasini ana shunday ma'lumotlarga qarab bilib oladigan bo'ladilar.

— Men sening fikringga qo'shildim ham deyaylik, Robert. Boshqalar bularning hammasini qabul qilishmasa-chi? Sen hech kimni ishontira olmasang-chi?

— Ko'p narsa sharoitga, umumiyl vaziyatga bog'liq. Entoni Yunger to'la haq, ha, bu ishga Filofeyning o'zini jalb qilish kerak. Uning eng muhim dastagi ilmiy kuzatishlaridan olgan ma'lumotlaridir, u cassandra-embriонlardan chiqadigan signallarning zamon oxir bo'lismidan darak berishini ana shu

ma'lumotlar asosida aniqladi. U ana shu ma'lumotlarni xalqqa yetkazishi kerak. Bu ma'lumotlardagi biologik omillardan tortib falsafiy xulosalargacha barcha materiallarni, aytaylik, matbuot konferentsiyasi o'tkazib yana bir marta xalq oldida bayon etishi lozim. Efirda Filofeyning bevosita o'zi bo'lishi shart! Yunger o'z g'oyasini amalgalash oshira olsa, zo'r bo'lardi. Men uni to'laligicha quvvatlayman. Hozir unga men faks orqali o'z fikrlarimni jo'nataman, uyog'ini ko'ramiz, o'limgan bandasi ko'raveradi.

Ular ikkalasi ham jim bo'lib qolishdi, har ikkalasining ustida xalat, bir kechada ularni tanib bo'lmay qoldi. Ko'zlari kirtaygan, sochlari hurpaygan. Er-xotin kundalik turmush tashvishlari ustiga qanday dahshatli falokat yaqinlashib kelayotganini sezishganday umrlarida birinchi bor kechani so'ngsiz xavotirlikda o'tkazishdi. Qarang: kishilarning dardu alamlari va azob-uqubatlari hisobiga Koinot kengaya borar emish.

Tashqari yorishib tong otdi.

havo kechagiga o'xshab ochiq, kuz bo'lganidan kunduzi qisqa, lekin yorug' keladgan ko'rindi. Uzoq-uzoqlardan qushlarning chug'urlagan ovozi eshtiladi — kelgindi qushlar issiq o'lkalarga qaytib ketish uchun yana sahardan to'planishgan. Robert Bork qushlarning avval tog' o'rmonlariga yetar-etmas, golf maydonlari ustida yer bag'irlab aylanib uchishini, so'ngra uzoq safarga yo'l olishini, okean sohili bo'ylab pastda okeanning oqarib ko'ringan qirg'oq to'lqinlari ustidan o'tishini ko'z oldiga keltirdi, uning qushlarga qo'shilib uchib ketgisi keldi, lekin uning oldida hayotda qo'qqisdan yuz ko'rsatgan mushkulotni hal qilish zarurati ko'ndalang turar edi.

Dunyo ishi ularni xotirjam qo'ymasligi, unutmagan va unutmoqchi ham emasligi ertalabdanoq ma'lum bo'lib qoldi. Hammasiga Chikagodagi qizidan kelgan faks sabab bo'ldi. Erika nima ekaniga tushunmay tashvishlanib yozgan edi: "Tun bo'yи telefon qilolmadim. Telefonlaringiz uzib qo'yilgan, faks band. Dada, nima gap? Nima qilib qo'ydingiz? Butun Chikago oyoqqa qalqigan. Hamma Sizga qarshi. Biz Jon ikkalamiz jinni bo'lib qolay deyapmiz. O'tinaman: hamma ishingizni chetga surib qo'ying. Oyi, siz qayoqqa qarayapsiz?!"

Jessining diqqati oshdi:

— Nima qilamiz, Robert? Sen — otasan. Qizimiz iztirobda, uning og'iroyoq ekanini bilasan. Kuyovimiz ham xursand bo'lmasa kerak. Men Jonning ahvoliga tushunaman: U direktorlar kengashining a'zosи, uning yurish-turishi boshqalarga namuna bo'lishi kerak. Biz bu haqda o'yamaslikka haqqimiz yo'q.

— To'g'ri, hammasi to'g'ri, — Jessining so'zini ma'qulladi Bork. — Lekin shu topda nima deyishimiz mumkin? Bu ish oila bilangina chegaralanmaydi. Koshki edi shunday bo'lsa!... O'zingni tut, Jessi. Men Erikaga xat yozaman, qo'ng'iroq qilaman, tushuntirishga, taskin berishga urinaman. Lekin yoshlar ham o'z kallalari bilan o'ylashlari kerak. Ular uchun, ayniqsa, Jon uchun eng kerakli kompaniya ishining o'ngidan kelishidir. Avtokompaniyadan tashqarida ham hayot bor-ku va bu hayot muammolari hamma uchun va har bir kishi uchun kam ahamiyatga ega emas. To'g'ri, ular bir-birini sevishadi, baxtli oila. O'zing tushunasan-ku, ijtimoiy xudbinlik ham evi bilan-da!

— Hoy, Robert, seni lektsiya o'qishga qo'yib bersa. Xo'p, qo'ling bo'shasa Erikaga faks jo'natishni unutma, — Jessi shunday deb yelkasiga jun koftasini tashladi-da, yo'lga tushdi. U Yungerning maslahatiga binoan barvaqtroq turib e'lon osib qo'yishga qaror qilgan edi — e'londa keluvchilarga murojaat qilib bezovta qilmasliklari so'ralgan edi. Jessi baroq mushugini ko'tarib olib yo'lga chiqdi, mushukni uyda it-mushuk deyishar edi, bu uy hayvoni mushuk bo'lsa ham xuddi itga o'xshab ketar edi. Har holda uy egalari shunday deb hisoblashar edi.

Jessi uydan chiqar ekan, yo'l-yo'lakay sochini tarar va sherik bo'lib yonida ketayotgan mushukka nimalardir deb borar edi; xotini ketishi bilan Robert Bork kechasi yozib tugatgan maqolani "Tribyun" gazetasiga jo'natish uchun faksga o'tirdi — bunda u tahririya xodimlarining kelishlariga maqolaning stol ustida bo'lishiiga va o'sha zahoti bosmaga tushirilishiha umid bog'lagan edi. Maqolasining tezlik bilan chop etilishiha u shubha qilmas edi. Bork maqola matni muallif taqdim etgan shaklda hech qanday o'zgarishsiz bosilishi kerak deb qo'shib qo'ygan edi. Maqolaning bosilishiha shuning uchun

ham ishonchi komil ediki, "Tribyun" redaktsiyasining boshqa yo'li yo'q edi. Gazeta Filofeyning kosmosdan yuborgan maktubini bosishga jur'at etgandan keyin o'z mavqeidan voz kecha olmas edi — boshqasini qo'yavering, eng muhimi gazeta o'z obro'sini, qiyofasini saqlab qolishi kerak edi. Bu shunday bir mislsiz hodisa ediki, gazetaning "yo hayot, yo mamot" deb ish ko'rishdan boshqa iloji qolmagan edi...

Bundan keyin qanday hodisalar ro'y berishi ayon bo'lib qoldi. Gazeta tevaragida, Filofey tevaragida, endi bo'lsa uning, ya'ni Borkning nomi atrofida bo'ladigan jang tong sahardanoq shafqatsiz va ayovsiz bo'lajagi bilinib qoldi. Rostini aytganda hayot-mamot uchun kurash kutilmoqda edi...

Telefaks berilgan matnni sahifama-sahifa yamlab yutmoqda edi. Yaxshiyamki, varaqlarni o'tkazib ulgurdi. Oradan bir daqqa o'tar-o'tmas Robert Bork ko'chada allambalo hodisa ro'y berayotganini payqadi: o'zlarining mushugi hovlida o'liday o'zi yomon ko'radigan ko'ppak bilan betlashib qolgan shekilli junini hurpaytirgancha yugurib kirib keldi. Hash-pash deguncha Bork oynadan qo'lida bir to'p qog'oz bilan karton ushlagancha Jessining uyga asabiy holda chopib kelayotganini ko'rib qoldi. Uning rangida rang qolmagan, halloslar, go'yo ko'chada birovlar tutib olib bo'g'ishganu u qo'ldan chiqib qochganday.

— Nima gap, senga nima bo'ldi? — xotiniga qarab beixtiyor qichqirib yubordi Bork.

— Robert, bu dahshat, bu vahima! Ko'rib ko'zimga ishonmayman — qandaydir yaramaslar hu anavi yerda, muyulishda mashinalarining oldida g'o'dayib turishibdi... qaragin, bir nimalarni yopishtirib tashlashgan.

Jessi gazetalar bilan birga devordan ko'chirib olgan qog'ozlarni stolga tashladi; bu qog'ozlarga haqoratomuz, beandisha so'zlar har xil buyoqlar bilan yozib tashlangan. Bork bularni ko'rib serrayanicha qotib qoldi. "Bork ko'chamizda turadi — bu biz uchun isnod!" — bu so'zlarni qo'shnilaridan biri yozgan bo'lsa kerak. Yana: "Xotinbezor, nafs bandasi Bork, bizning Nyuberidan yo'qolsin!", "Nyuberi feminist ayollar Borkdan hazar qiladi!" Boshqalari bundan ham oshib tushadi: "Bork — razil", "Bork — KGB agenti", "Bork manglayidan otilsin!", "Ko'chada ko'rirma, naq bo'g'ib o'ldiraman! — Kassandraviy familiyali embrion".

— Erta sahardan boshlashibdi-da! — po'ng'illadi sarosimaga tushgan Bork.

— Sahardan! ha, shunday! Buyog'i qanday bo'ladi, Robert?! Nimalar bo'ladi? Odamning aqli bovar qilmaydi!

Robert Bork asabiylashib xonada u yoqdan bu yoqqa yura boshladi.

— Biz hamma narsaga tayyor bo'lishimiz kerak, — qichqirib yuborishdan o'zini tiyib dedi Bork xotiniga. Qon qaynaganda o'zini ushslash juda qiyin bo'ladi. — Boshlanishi shunday bo'lsa, buyog'iga undan battarini kutish mumkin. Agar kechagi miting bo'lmaganda, bular bari silliq o'tishi mumkin edi. Ordok endi hodisalarning jilovini qo'yib yubordi, jin urgur.

— O'zing ko'rganingda bormi! — dedi Jessi ko'cha tomonga boshini irg'ar ekan. — Muyulishda turgalarning basharalarini ko'rib qo'rqib ketasan kishi. Qandaydir sovuq nusxalar. Mashinalarining yonida chekkan kishi bo'lib g'o'dayib turishibdi. Haligi yozuvlarni devordan qo'porib olayotsam menqa qarab hushtak chalishdi, xaxolab kulishdi.

— Ko'rinishlari qanday? Shu yerliklarga o'xshaydimi?

— Qaydam. Odatdagiday jinsi, kurtka kiyib olishgan. Menimcha ularning orasida ayollar ham bor.

— Ha, tushunarli, — g'uldiradi Bork hech narsani tushunmasa ham.

— Politsiyaga murojaat qilish kerak, Robert. Politsiyaga telefon qil. Chorasini ko'rishsin.

— Shoshmay tur, telefon qilish qochmaydi. Ozgina sabr qilaylik. Biron nima chiqarishadigan bo'lsa, albatta qo'ng'iroq qilamiz.

— Ha, bu uchiga chiqqan razillik, aqlga sig'maydi. Sen bo'lsang, sabr qilaylik deysan, — Jessi stolga suyanib ho'ngrab yubordi.

— Jessi, jonim, qo'y, nega yig'laysan o'zingni tutsang-chi! — nima qilarini bilmay g'uldiradi Bork, xotinini yupatib. Jessi esa gapira olmay piq-piq yig'larkan:

— Sen bilganingda, o'z ko'zing bilan ko'rganingda edi!

— hozir senga tinchlantiradigan dori beraman. Men hozir, Jessi, bas qil. Men hozir!

Bork xotiniga tomchi dori olib kelib berish uchun yotoqxonaga tomon shoshilarkan, turtinib eshikka urilib ketdi, shu on burchakda g'ijimlanib tashlangan bir qog'ozga ko'zi tushdi, uni Jessi tashlab yuborganini bildi. O'zi aqldan ozay deb qolgan bo'lsa ham erim o'qib qo'ymasin deb tashlab yuborgan qog'oz nima ekan? Bork olib o'qib g'alati bo'p ketdi. "Bork, orqangni Filofeyga tut, kosmosda uning xotini yo'qligini bilasan-ku!" Shunga mos surat ham chizilgan. Tagida "Salom, cassandra-embrion"deb yozib qo'yilgan.

U qanday qilib ichki hovliga, o'zining toshlar bog'iga kelib qolganini sezmadni. U hayotda do'q-pisa bilan qo'rqtitib ish ko'radiganlarning fikrlariga uchmaslikka harakat qilsa ham, ko'r-ko'rona va kaltabinligi bilan bir qilg'ilikni qilib qo'yan g'ofil kishilarni kechirish kerak degan aqidaga amal qilsa ham, o'zini ana shunday tubanliklardan yuqori turishiga ishontirib kelgan bo'lsa ham baribir shu topda ko'ngli xira tortib ketdi. Mana bo'lari bo'ldi; miyasida nogahoni yuksak fikr-g'oyalari g'uujg'on o'ynaydigan, abadiylikning so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan botiniy qiyofalari ko'z o'ngida namoyon bo'ladigan xotinining piching aralash kulgilariga qaramasdan qum ustida sirli belgilar ila qandaydir tasvirlar chizib ko'rsatib turadigan joyda endi hayvon qatori tahqirlangan va haqoratlangan bir qiyofada o'tiribdi. Bu uning aslzodaligi va keksaygandagi oliyjanobligi evaziga taqdirning kinoyasi va tahqiri emasmikin? U tajribasiz ekan, dunyoning naqadar zolim va qasoskor ekanini yaxshi bilmas ekan. Yoshi bir yerga borganda hayosizlikning mevasini totdi.

Ufqdan bosh ko'targan quyosh ham ahamiyatsiz va keraksizday tuyuldi unga, shu topda hech narsa ko'rgisi ham, eshitgisi ham kelmasdi uning.

U uydan chiqqanda qo'lida ushlab kelgan gazetani bexosdan ochib qaradi. Bu Nyuberi shahri gazetasining shoshilinch soni edi. Gazetani ko'rdi-yu, o'zining qurshovda qolgan bo'ri ahvoliga tushishini payqadi. Gazetaning birinchi betida Oliver Ordok saylov oldi mitingi tugagandan so'ng o'tkazgan matbuot konferentsiyasi haqidagi hisobot katta sarlavha ostida bosilgan edi. Material Assoshieyted Press agentligidan olingen edi. Ordokning bir necha rasmi katta qilib bosilgan. Uning minbarda darg'azab bo'lib gapirayotgani rasmdagi imo-ishoralardan ko'rinish turibdi. Ordokning "Bolsheviklarning genofondni tozalash yo'lidagi urinishlariga yo'l qo'yaymiz!" degan so'zlari yirik harflarda sahifaning u chetidan bu chetiga yetadigan qilib terilgan.

Qarang, nishonni uzoq olganiga! Filofey rus ekan — demak, u bolshevik. Bema'nilik, lekin foydali bema'nilik! Varaqlardan birida Borkning KGB agenti deb ataganlarining sababi endi tushunarli bo'lib qoldi. Buning hammasi bir iflos manbadan chiqqan. U bu haqida gapirishni ham, o'ylashni ham xohlamas edi. Dil qiyognog'i — jon azobi.

U yonginasida xotinining ovozini eshitib o'girildi. Yig'layverib ko'zlari shishib ketgan Jessi o'zini tutib olishga urindi.

— Hozirgina Entonidan shoshilinch faks keldi, — dedi u erining yoniga o'tirar ekan.

"Mister Bork, — deb yozgan edi Entoni Yunger. — Biz tezlik bilan telefon orqali gaplashishimiz kerak. Iltimos, telefonlarni ishlatib qo'yinglar, javob qaytaringlar. Kosmik telealoqani nazarda tutyapman. Agar telealoqa o'rnata olsak odamlarning ko'zini ochardik. Biz sizning uyingizda texnika o'rnatish masalasini muhokama qilishimiz kerak. Mister Bork, gir atrofdan Sizga hujum qilishmoqda, lekin umidsiz bo'limgan. Men 10 daqiqadan so'ng qo'ng'iroq qilaman. Sizga hurmat bilan Entoni Yunger".

— Mana bu endi boshqa gap. Entoni ishga kirishibdi, — jonlandi Bork. — Endi telefonlarni muttasil ishlatib qo'yish kerak, Jessi. Qo'ng'iroq qilaverishsin, biz telefon qo'ng'iroqlaridan hech qayoqqa qochib qutulmaymiz. Dunyoda bo'layotgan hodisalardan ajralib o'tira olmaymiz-ku, axir!

— Sen haqsan. Yana bir maktub keldi, — dedi Jessi. U dorilfunun rektoridan kelgan faks edi. "Mister Bork, Sizning manfaatingizni ko'zlab gapirayotirman, o'tinib so'rayman lektsiya o'qish uchun hozircha dorilfununga kela ko'r mang", deyilardi faksda.

— Hammasi tushunarli — dedi Bork. — Telefonning oldiga boraylik. Entoni Yungerning qo'ng'irog'i shu mudhish tongda yorug' bir nur kabi taraldi.

– Mister Bork, Sizni eshitganidan xursandman. Faks yaxshi lekin tirik odamning ovozini eshitish undan ham yaxshi.

– Bo'limasam-chi! Albatta-da! — deb javob qaytardi Bork o'ziga ishonch bilan. — Mening rafiqam Jessi ham seni qutlayotir, Entoni.

– Juda soz. Jessiga rahmat. Hammamiz bugun ko'rishamiz deb o'yayman, bu judayam zarur.

– Ixtiyorin, Entoni, uchrashuv joyini tayinla. Sening tungi fakslaring bizni fil suyagidan yasalgan minora qamog'idan xalos qildi. Jilla qursa o'z ustimdan o'zim kulib olay. Xo'sh, bu yog'i qanday bo'ladi? Biron nimadan umid bor shekilli, a?

– Qilinadigan ishlarning butun bir ro'yxati bor. Eng avvalo ma'lumotingiz uchun aytib qo'yishim kerak, mister Bork, tahririya kelgan maqolangiz, ehtimol, hozirdayoq kosmosga — Filofeyga jo'natilayotgan bo'lsa kerak, buni men bir necha daqiqadan so'ng bilib olaman. Bu tadbir Filofeyga uning yerdagi birinchi hamfikri — kosmogenetika bo'yicha sherigi ya'ni Siz bilan tanishtirish uchungina qilinayotgani yo'q. Demak, Filofey shu tobda Sizning matningiz bilan tanishayotgan bo'lsa ajab emas. Biz telealoqa o'rnatmoqchimiz va matbuot konferentsiyasi o'tkazmoqchimiz, bu konferentsiyaga Filofey bilan Siz ishtirot etasizlar.

– Entoni, azizim bu qiziqarli fikr. Lekin buning hammasini qanday amalga oshirish kerakligini tasavvur qilolmayotirman. Buning ustiga vaqt ziq.

– Havotir olmang, mister Bork! Men yolg'iz emasman. Sodiq do'stlarim, homiyalarim bor, "Tribyun" butunlay biz tomonda va redaktsiya o'z obro'sini saqlab qolish uchun kuyib-pishmoqda. Eng muhimi — telealoqaning barcha retranslyatorlari butun dunyoni og'ziga qaratgan ana shu tadbirdan manfaatdordir, bundan tashqari ular muz ustida bo'ladigan janglarni butun dunyoga ko'rsatishdan oladigan mo'may foydalarini hozirdanoq hisob-kitob qilishmoqda. Shuning uchun ham jonlarini jabborga berib ishlashmoqda.

– Aniqrog'i? Kim muzda uchar ekan?

– Kechirasiz. Ahmoqona o'xshatish bo'ldi shekilli. Ha, biz sirg'anchiq muz ustidamiz. Lekin hozir bu haqda gapirmaylik. Men gapimni to'xtatdim. Vaqt oz. So'zimni mashinada davom ettiraman. Biz Nyuberiga, uyingizga borayotirmiz. To'rt kishimiz. Menden boshqa uch yigit bor, ular NASAning kosmik aloqani o'rnatadigan eng zo'r sozlovchi mutaxassislari. Shunday qilib to'rt kishi ikki mashinadamiz. Qolgan gaplarni yo'lida izohlab beramiz. Biz qirq daqiqalardan keyin, ehtimol undan ham oldinroq uyingizda bo'lsak kerak deb mo'ljallab turibmiz. Xaritadan aniqlashimcha, uyingiz "Konferans" supermarketidan chamasi yarim mil narida bo'lsa kerak, shundaymi?

– Ha, to'g'ri, uch kvartal narida.

– O'key! Shunday qilib, biz yo'lga chiqyapmiz. Demak, faqat kulmang, men — operatsiya shtabining boshlig'iman, Filofey — kosmos marshali, siz esa...

– Men Jessi huzuridagi kenja polkovnikman, — Hozirjavoblik qildi Bork. — Shoshmay tur, Entoni. Tushunaman, vaqt ziq, sen yoshsan, keyin, keyin bilib qo'y, mening uyim bilan kosmik aloqa o'rnatish xarajatlarini o'z bo'ynimga olaman.

– Kechikdingiz, mister Bork. Manfaatdor telekompaniyalar hammasini o'zları mablag' bilan ta'minlaydi. Ularning ham o'z fikrlari bor. Bu yog'idan tashvish tortmang. Undoq desangiz mening ham qo'limdan ba'zi ishlar keladi. Otam mashhur advokat o'tgan, shuning uchun... Ishning u yog'ini o'ylamang. Cassandra-embrionlaru, Filofey haqida o'yayvering.

– Ordok haqida ham, — qo'shib qo'ydi Bork.

– Bu-ku birinchi galda-ya. U ham jangovar harakatlar qilib yuribdi. Bu haqda — mashinadan eshitasiz. Ha, mister Bork, uzr, sizning ham, xotiningizning ham uydan tashqariga chiqishingizni maslahat ko'rmayman. Hatto supermarketga borishni ham. Chiqmanglar. Buguncha. Biz hamma narsani o'zimiz olib boramiz. Yo'lga chiqayotirmiz.

Oradan sal o'tmasdan yana telefon jiringladi. Yana Entoni edi. Oradan o'tgan qisqa vaqt eru xotinga yilday tuyulib ketdi. Ular endi hayotlarining boshqacha sur'at bilan rivojlanishini — vaqt daqiqalar bilan o'lchanajagini, taqdirlarida hal qiluvchi payt yaqinlashib kelayotganini tushinib

yetishdi. Bu sirli, noaniq qismat emas, balki Borklarga yaqinlashib kelgan dushman kuchlarning xohish-istiklariyu sa'y-harakatlari oqibati edi.

— Biz katta yo'lga ketayotirmiz, — xabar berdi Entoni Yunger. — Ko'chada qatnov ko'ngildagidek tiqilinchmas, o'z vaqtida yetib borsak kerak, hozircha ishdan gaplashaylik.

— Eshityapman, Entoni, nimalar bo'layotganini bilgim kelayotir. Biz Jessi ikkalamiz boshqalardan ma'lum ma'noda ajralib qolganmiz, bilasan-ku, hatto televizor bilan radioni ham o'chirib qo'yganmiz.

— Mister Bork, ahvol juda jiddiy. Siz bilib qo'yishingiz kerak — Hamma yerda, barcha mamlakatlarda manzara birday — Hamma inkor qilyapti.

— Ha-ha, shunday, ming'lladi Bork. — Entoni, mening tushunishimcha, odamlar Cassandra-embriyonlarning bor narsa ekanligini idrok eta olmayotirlar. Ha, albatta, bu og'ir ruhiy zarba, barcha hayotiy negizlarni qayta ko'rish zaruriyati tug'iladi. Yaxshisi inkor etish, har qanday shubha ilonining boshini yanchish kerak...

— Xuddi shunday, — javob qaytardi Entoni. — Men buni bir narsaga o'xshatgim keladi: San-Frantsiskodagi qo'litiq ustiga tushgan ko'priking qurilishida nuqsonlar borligi aniqlanganu, lekin shunga qaramay undan foydalansa bo'laveradi deganday gap. Bu haqda o'ylab o'tirishning nima hojati bor? Ko'prikdan iloji boricha ko'proq va tezroq yuklarni olib o'tib qolish kerak, ko'priking nima bo'lishi haqida boshqalar keyin o'layverishsin. Lekin, mister Bork yo'lda hali ozgina vaqtimiz bor — operatorlardan biri rulda, men Siz bilan bemalol gaplashishim mumkin, sizning diqqatingizni o'sha qiziqarli narsalarga qaratmoqchi edim, xulosalarni esa siz chiqarasiz. Men gazetalarni o'qib, radio, televideneni eshitib, Filofey kashfiyotiga nisbatan ikki xil salbiy-jangari yo'nalishni tuydim. O'ta millatchilik ruhida fikr yurituvchilarga juda qattiq tekkan. Masalan, Isroilda bu kashfiyot shu yo'l bilan isroilliklar genofondini qiyratishga urinish deb baholandi. Zondaj-nurlardan saqlanish usulini topish, Filofey nurlanishini neytrallashtiradigan asbob ixtiro qilish chaqirig'i e'lon qilingan. Rossiyada norozilik harakati kuchayib namoyishga aylanib ketdi va Filofeyni zudlik bilan kosmosdan tushirishni talab qilishmoqda, u hech qanday rohib emas, eng muhimi — bizga bir qayta qurishning o'zi yetadi. Gaydar reformalari bas qilinsin, rus xalqini genetik jihatdan qayta qurishga yo'l qo'yaymiz. Filofey kosmosdagi Gorbachev! U Amerikaga xizmat qiladi! U Rossiyani tiz cho'ktirmoqchi! — kabi ehtirosli shiorlar tashlanmoqda.

— Albatta, bu o'ta achinarli hol, eshitish juda og'ir, mening ichim achib ketdi. Endi nima qilish kerak? — xavotirga tusha boshladni Robert Bork.

— Bu yog'ini eshititing. Xitoya xavf tamomila boshqa sohada deb bilmoxdalar — bu xitoyliklarning demografik jihatdan ustunligi ahamiyatiga putur yetkazadigan usul emish. Bu mamlakat shiori: demokratik kultivatsiyaga yo'l qo'yaymiz! hindistonda bo'lsa Cassandra tamg'asi ustidan diniy marosimdagiday bo'yoq surkab qo'yish chaqirig'i e'lon qilingan.

— Voy-vuy, — dedi hayratda qolib Bork, — nima bo'lyapti o'zi Entoni!

— Lekin meni ko'proq boshqa narsa lol qoldirmoqda, mister Bork, siz bunga nima deysiz? Gamburda fohishalar va ularning hisobiga yashaydigan dayuslar jazavaga tushib norozilik bildirishgan. Sitsiliyada mafiyachilar Palermo shahrining dengiz sohilida, aytish mumkinki, umumxalq yurishi uyuştirishgan. Lotin Amerikasida, ayniqsa narkotik moddalar beradigan ekinlarni yashirin yetishtiradigan rayonlarda o'z-o'zidan ko'plab kishilarni norozilik shiorlari bilan chiqishlari bo'lib o'tgan. Hatto pornografiya sanoati ham chetda qolmasdan norozilik bildirmoqda. Ha, terrorchi tashkilotlari, xilma-xil inqilobchilar — ular ham tish-tirnog'i bilan qarshi. Filofey qo'l yetadigan joyda bo'lsa edi, ular uni... Aytgancha, turli mamlakatlarda harbiy doiralar ham o'ta norozi. Kinojangarilarining prodyusserlari nima sababdan ovozini ko'tarishdi — bunisi judayam tushunarli emas.

— Bilasanmi, Entoni, — javob berdi Robert Bork, — men bu yerda turli kasb egalarining birlashmalarga uyushishi o'zini ko'rsatgan bo'lsa kerak deb o'layman. Har bir to'da yashashni va urchishni xohlaydi. Men shunday degan bo'lur edim. Cassandra tamg'asi esa ularning yo'lida katta g'ov, keljakda ular keraksiz bo'lib qolishi mumkin — jamiyatda ana shu guruhlarning ko'plariga ehtiyoj qolmaydi. Ana shuning uchun o'z jonini saqlashga intilish instincti ishga tushadi, chunki to'da

noqulay vaziyatni sezib qolayotir. Men ularni tushunaman. Allo, allo, Entoni, yomon eshitila boshladi.

– Men sizni juda yaxshi eshitayapman gapiravering, bu juda qiziqarli fikr.

– Ana shunday gaplar. Ha, endi yaxshi eshitayapman. Demak, gapimni davom ettiraman. Agar Filofey kashfiyotlari ta'sirida insoniyat mentaliteti o'zgaradigan bo'lsa, agar odam zoti o'ziga boshqa nuqtai nazar bilan qarab, embrionlarning signallariga doimiy qulq solib tursa individning o'zini o'zi salbiy sohalarda namoyon qilishga bo'lgan moyilligi keskin darajada kamayadi. Ana o'shanda kimningdir dayuslik bilan shug'ullanishi amru mahol bo'lib qoladi — jamiyatda ehtiyoj bo'limgach fohishalar, jumladan Gamburg fohishalari soni kamayadi. Mafiya sohasida ham shunday deyish mumkin, banditizim, jinoyatchilik — Hammasi bir-birlari bilan bog'liq. Cassandra tamg'asini isnod emas, balki ogohlantirish deb qaraydigan, eng muhimi — odamlarning o'zini o'zi doimiy takomillashtirish omili deb biladigan avlodlarning ogohlantiruvchi tadbirleri oqibatda individning o'zini o'zi salbiy sohalarda namoyon qilishga bo'lgan genetik moyilligi yo'qoladigan bo'lsa, hozirgi tanglikka chidasa bo'ladi. Beixtiyor savol tug'iladi...

– Mister Bork, kosmik telealoqa paytda shu fikrlaringizni yana takrorlagan bo'lurmidingiz?

– Nega takrorlamas ekanman? Masala bunda emas: mening gapimni eshitisharmikan, uqib olisharmikan? Sen tilga olgan norozi kimsalar mag'lubiyatdan qo'rqaqdarlar, issiq o'rindan ajralib qolishdan cho'chiydlar. Axir kelajakda tafakkurda tub o'zgarishlar ro'y bermog'i kerak, o'shanda turmushdag'i barcha axloqsizliklar, jamiki palidlik inkor etiladiki, Cassandra-embriyonlarning instinktiv qo'rqaqigani ham ana shu falokatlardir. Bunda o'zini o'zi anglashning o'zgarishi ezgu axloqiy xohishistiklar tufayli ro'y bermaydi, bu omon qolish va taraqqiyotning birdan-bir real sharti bo'lib qoladi. Hozirgi paytda buni hatto tasavvur qilib bo'lmaydi.

– Aytgancha, mister Bork, turli diniy mazhablarning noroziliklari haqida hozirning o'zidayoq talay ma'lumotlar bor.

– Shunday bo'lishi kerak edi. Cassandra tamg'asi o'z tabiatiga ko'ra hammaga va barchaga bir xil darajada taalluqlidir. Shu ma'noda Cassandra-embriyonning aks sadosi ko'p qirralidir. Insoniyatning turli guruhlarga, bloklarga, oqimlarga, o'zimiznikilarga va o'zgalarga bo'linishidan foydalanadigan va ana shu tabaqalanishlar hamda qarama-qarshiliklardan ma'naviy tekinxo'rlik yo'lida manfaat oladigan kuchlarga Cassandra-embriyonlar umuman kerak emas. Cassandra-embriyonlar ular uchun g'ov, fitna va umuman muammo. Bunday kuchlar Filofeyni va uning kashfiyotini barcha tillarda va shevalarda har qanday qilib bo'lsa ham qoralaydi. Bunda mening hayratda qolishimga o'r'in yo'q.

– Bu borada ham men sizning fikringizga qo'shilaman, mister Bork, bu suhbatda men yana ham ko'proq narsani bilib oldim. Kechirasiz, bir daqqaq alahsishga ruxsat berasiz. Meni shoshilich suratda kodli telefonga chaqirib qolishdi. Yo'q, yo'q, telefon dastasini qo'y may turing. Nima gap ekanini so'rab bilaman-da, suhbatimizni davom ettiramiz. (Allo, allo, qanday yangiliklar bor? Shundaymi? O'h-ho! Yaxshi bo'lapti! Xo'p bo'ladi. Tushundim. Birgalikda harakat qilamiz.) Mister Bork, uzr, uzr, ma'lumotlarga qaraganda vaziyat murakkablashmoqda. Men sizdan iltimos qilar edim: mahalliy politsiyaga telefon qilib, supermarket tomonidan bir talay namoyishchilar bizning uyimizga tomon kelayotir deb aytsangiz. Turgan gap ular norozilik bildirishadi, oynamiz yonida baqirib-chaqirib to'polon qilishadi, deysiz.

– Xo'p, Entoni, politsiyaga hozir telefon qilaman. Xotinim ham o'zi anchadan beri qo'ng'iroq qil deb hiqilliardi, men paysalga solib kelardim. Sahardan boshlab devorlarga bizga qarshi turli varaqalar yopishtirib tashlashdi. Politsiyachilarga hozir Jessi o'zi telefon qiladi.

– Ha, mister Bork, o'zini ehtiyyot qilganni xudo ham ehtiyyot qiladi. Yana deng "Tribyun" gazetasining sizning maqolangiz bosilgan shoshilinch soni hozirgina gazetxonlarning qo'liga yetib boribdi.

– Shundaymi?! — xitob qildi Robert Bork asabiyashib. — Demak, gazetchilar fursatni boy berishmapti.

– Shunday. Siz eng yirik futurologsiz, hozir sizning so'zingiz oltin bilan barovar. Endi gazeta atrofidagi shov-shuvlarni ko'ring. Bu qamal qilingan qal'adan otilgan zambarak o'qi. Shu bilan birga

bu Ordokka qarab uzilgan birinchi o'q. Ochig'ini aystsam, bu hol mening dilimni siyoh qilayotir. O'ylaymanki, bizning mavqeimizni ma'qullaydigan odamlar bor, bor bo'lganda ham oz emas. Yangicha fikr yuritadigan zukkolarning cassandra-embrionlar fenomeni haqida o'yamasliklari mumkin emas. Axir bu o'z-o'zimizni tushunishimizda burilish nuqtasi-ku! Bunaqasi tarixda qachon bo'lgan?! Ana shu hodisaning mohiyatiga tushungan har bir jon daraxt tepasida bahor qushi bo'lib sayramog'i lozim edi. Biroq imonim komil — afsuslar bo'lsinkim, zukkolarning aksari qismi oqizib ketadigan toshqin selga qarshi borishga jur'at etolmaydi. Aql-idrokli zukko inson olomonga qarshi chiqadi deysizmi – yo'q, u ovozini chiqarmay, muyulishda buxmalab turaberadi. Shuning uchun ham Ordok qo'liga mash'ala olib chopib chiqdi-da butun dunyo bo'ylab odamlarning ongida va dilida yong'in chiqarib, avomni og'ziga qarata oldi va safarbar qila bildi. Qayoqqa qaramang qiy-chuv. Barcha junbushga kirgan, olomonga qo'shilsam deydi. Fohishalarki uyushib mitingga chiqishibdimi, boshqalarni qo'yavering.

– Entoni, avf etasan, gapingni bo'laman, yoshim katta bo'lganidan foydalanib qistirib qo'yay. Sen hali juda yoshsan, fohishalar deganda sening kulging qistaydi, tushunaman. Men esa og'ir bir xo'rsinaman. To'g'ri, fohishalar qadim zamondan beri o'z burchini imi-jimida bajarib kelishgan, lekin ular hammaning ko'z o'ngida qatorlashib, norozilik mitingiga to'planishsa, meni kechirasan-u, bunaqasini odam bolasi eshitgan emas. Uyat-andishani bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib ish ko'rashga majbur bo'ldilar. Axir Cassandra tamg'asi — genetik gulkosalarda so'lgan ana shunday gullar marsiyasidir.

– Ularni siyosatdon dayuslar yo'ldan ozdirishgan, boshqalarni ham. O'ylaymanki, qumg'onдан chiqarib yuborgan jinni hozir Ordokning o'zi ham eplay olmayotgan bo'lsa kerak. Misol qidirib uzoqqa bormaylik. Yo'lda mashina qatnoviga nazar tashlab keldim. Qarab turib, shuni tuydimki, g'izillab yelayotgan ko'pgina mashinalar bizni ortda qoldirib uyingiz tomonga, Nyuberiga qarab ketayotir. Mashinalarda borayotganlarning aksarisi menga o'xshab ovozi boricha telefonda gaplashib ketyapti. Afti-angorlari sovuq, barcha mashinalarda odam to'la. Menga aytishlaricha hamma supermarketning yonginasida to'planisharmish.

– Ha, Entoni, u yer shunday yig'inlar uchun qulay.

– Koshki edi faqat o'sha yerda to'planishsa! Uzr, meni yana alahsishga majbur qilishmoqda. (Allo, men eshitayapman, ha, men Entoni Yungerman. Eshitaman. Tushunarli. Ha, ha, gapiravering. O'zim ham shunday deb o'ylovdim. Yaxshi, meni har doim xabardor qilib tur. Tushunarli. O'key!) Mister Bork, hozirgina habar qilishdi — Nuu-York ko'chalarida namoyishchilar olomoni. Ayniqsa, BMT binosi oldida xalq ko'pmish. Politsiya zo'rg'a ushlab turganmish. Namoyishchilar Filofeyni kosmosdan yo'qotishga ruxsat berishni talab qilishmoqda ekan. Bu endi xalqaro harakat. Shunisi qiziqli, namoyishchilarining oldindi saflarida keyingi kunlari manglayida Cassandra tamg'asi paydo bo'lgan homilador ayollar borishmoqda. Bu ayollar peshonasiga buyoq ham surib mana bunday shiorlar ko'tarib olishgan: "Qaranglar, bizga Cassandra tamg'asini bosishdi. Bizlarni qutqaringlar!" bularga ko'pgina erkaklar va ayollar hamdardlik bildirib ular ham peshonalariga xoch chizib olishgan. Vaziyat ana shunday.

– Ha, Entoni, har holda yaxshi emas.

– Uchrashganda gaplashamiz. Tez orada yetib boramiz. Eng muhimi, Mister Bork, apparaturani o'rnatish, Filofey bilan aloqa qilish va birgalikda o'ylash kerak.

– Kutaman, Entoni. Uyimizning yonidan qandaydir ovozlar eshitilayotir. Jessi garajni yopish uchun chiqib ketdi. Oynadan ko'rib turibman. Qandaydir nusxalar hovuzga tosh uloqtirib, bezorilik qilishmoqda. Hozir politsiya keladi deb o'yayman. Kutaman. Aytgancha, Entoni, Filofey bilan aloqa o'rnatish uchun qancha vaqt kerak bo'ladi?

– Yigitlarning aytishlaricha bir soat, ehtimol undan sal ko'proqdir. Ana o'shanda Filofey bilan yuzma-yuz gaplashib olasiz. U faks orqali maqolangizning bir nusxasini olganimish. Kelajakda va hozirgi kunda qilinadigan ishlarni, matbuot konferentsiyasi o'tkazish masalasini kelishib olish zarur. Qolganini men borgandan keyin gaplashamiz. Hozir boramiz kutib turinglar!

Ko'chada shovqin avj ola bordi. Mashinadan tushganlar ham, supermarket yonida avtomashinalar to'xtab turadigan joydan piyoda kelganlar ham shoshib-pishib yura boshlashdi. To'planganlar panjara yonida daraxtlar tagida turishib, bir-birlari bilan g'ovur-g'uvur gaplashishar, naridan-beri bo'yoq chaplab yozilgan shiorlar va chaqiriqlarni hammaga ko'rsatib ushlab turishar edi. Hammaning do'q po'pisalari bir kishiga qaritilgan: "Bork — senga shafqat yo'q!", "Soxta ta'limot tarqatgan yalmog'izni yotgan joyida joylaymiz!", "Professorning manglayiga Cassandra tamg'asi kuydirib bosilsin!", "Inson huquqlarini poymol qilgan kishi o'zi hamma huquqlaridan mahrum bo'ladi!", "Biz fan terroristiga bardosh bera olmaymiz!", "Bork — shayton dastyori!", "Filofey bilan Bork bir xariga osilsin!" va hokazo va hokazo.

Bork bo'lsa iztirob bilan o'ylay boshladi: bular kim, o'sha nuxsalar! Ular nimaga va nima maqsadda bir paytda to'planishdi? Ular bir-birlarini hech qachon ko'rishmagan, bilishmagan. Pes pesni qorong'ida topadi deyishadi. Ular og'iz-burun o'pishib favqulodda hodisani kutib ko'chada shang'illashmoqda — oqlar va qoralar, erkaklar va ayollar, yoshlar va keksalar, birovlarning qo'lida radiokarnay, boshqalarinikida fotoapparatura va kinoapparatura, ko'plar qo'llarida radiotelefon orqali boshqa joydagi kishilar bilan gaplashishmoqda. Ular ilgarigilari tarixiy tadqiqotlarda, nazariy maqolalarda hikoya qilingan, shuningdek, turli rangtasvirlarda, teatr sahnalarida o'z aksini topgan, kirdikorlarini oldindan bilib bo'lmaydigan kuchlar ekanligini tushunish qiyin emas edi.

Mana, ular olomon bo'lib to'planishdi. Panjara yonida zinch bo'lib turishibdi, ularning afti-angori derazalardan aniq ko'rinnmoqda. Ular nima qilishmoqchi, nimani istashadi? Oxir-oqibat nimani xohlashadi? Ularning qo'llarida Varfolomey qirg'inidan esdalik bo'lib qolgan mash'ala yonib turganday, oyoqlari Rimda isyon ko'targanlar qoniga bo'yalgan ko'cha toshlariga urilib borayotganday, tepalarida zahar sochishga tayyor arilar o'z uyasi atrofida g'uvillab uchib yurganday. Falokat yoki qandaydir shum qudrat ularni ko'rgilik uchun bu yerga haydab kelgan bo'lsa, bu ularning aymbimidi? Nima qilmoq kerak, ularga nima desa bo'larkin? Axir yaqindagina fyurer paydo bo'ldi deguncha yuz minglarcha ovoz bilan zavq-shavq va sodiqlik ifodasi sifatida maydonlarda osmonni teshguday baqirib-chaqirgan, fyurer qo'lini ko'tarib ishora qilsa bas — tizzadan qon kechishga, g'arbgan ham, sharqqa ham, janubga ham, shimolga ham yelishga tayyor turgan olomonni eslatmaydimi ular? Yaqin yillardagina o'Iguday sevikli dohiysining murdasini bir lahma bo'lsa ham ko'rib qolish uchun Stalin tobuti atrofidagi ajal tiqilinchida bir-birlarini bosib oyoq osti qilib ketgan, ustoz bilan birgalikda narigi dunyoga rixlat qilishdan, qatag'on qurbanlari — otib va osib o'ldirilganlar qit'asi ustidan yuzi qaro arvo bo'lib parvoz qilishdan qaytmagan olomonga nima desa bo'larkin? Kechagina Tehron aerodromida intiqomdan boshini olib qochayotgan Eron shahanshohini ko'tarib parvoz qilmoqchi bo'lgan avialaynerni g'ildiragidan ushlab to'xtatish uchun tun qorong'isida shovqin-suron ko'tarib samolyotga peshvoz yugurgan olomonga nima deyish mumkin? O'shanda savdoi olomon samolyotlar parvoz qiladigan yo'lda talay joygacha chopib bordi, samolyot esa qasoskorlarning ko'zini kuydirib tepada ancha vaqtgacha chiroqlarini lipillatib parvoz qilib ketdi, osmoni falakda bo'lsa inson izmiga bo'ysunmaydigan yulduzlar telbalarni mazax qilganday jimirlab turar, o'ch ololmaganidan alamga to'lgan odamlar battar g'azab otiga minishar, Olloga iltijo qilib o'sha samolyotni zudlik bilan qaytarib keltirishni so'rashar edi.

Endi bu yerda, yangi bir makonda, Bork darvozasi oldida olomon.

U deraza oldida turar edi, yonida Jessi. Ularning suhbati havosiz fazoda suzishga o'xshab ketar edi:

- Eshitayapsammi, Robert, ular hazillashmayapti.
- Ha-ha!
- Nima qilamiz?
- Men chiqishim, ularning oldiga borishim kerak!
- Nima deyapsan, Robert?! Aqling joyidami?!
- Joyida bo'lganda qanday. Ular meni yashirinib oldi deb o'ylashmasin. Ular isyon ko'tarib genetik inqirozni to'xtata olmasligini, aksincha, zo'ravonlik oxirzamonni yaqinlashtirajagini bilib qo'yishsin

deyman. Ularga aytib qo'ymoqchimanki, Kassandra tamg'asi — taqdir taqozosidir. Har bir kassandra-embrion signali barchamizga taalluqlidir. Biz ana shuni tushunsak bo'ldi, yo'l, imkoniyat topildi degan so'z. Oldimizda nima borligini ko'rish uchun ko'zni kattaroq ochish kerak.

— Bu to'g'ri, lekin oldin o'ylab ko'r, Robert, buning hammasini kimga tushuntirib bermoqchisan. Bu dorilfununda o'qiladigan lektsiya emas-ku! Senga kim qulog soladi? Ular gaplaringni eshitish uchun kelishgan emas-ku!

— Mening boshqa imkonim yo'q.

— Bu nima deganing? hozirgina Entoni kosmos bilan aloqa o'rnatadi, men Filofeyni ko'raman va u bilan hamma narsani gaplashib olaman, kechqurun esa Filofey bilan birligalikda matbuot konferentsiyasi o'tkazamiz, muammoni o'z nuqtai nazarimizdan tushuntirib beramiz degan eding-ku! O'ylaymanki, odamlar nihoyat, sizlarning ularga yomonlik ravo ko'rmasdan, yaxshilik qilmoqchi ekanliklaringizni tushunib olishadi.

— Hozircha men sening gaplaringni eshityapman, fikringga qo'shilaman, Jessi, ha, hozircha. Axir, bu yerda to'planganlar matbuot konferentsiyasini kutib o'tirishmaydi-ku! Ular tezda orani ochiq qilishlari kerak. Qaragin, odamlar ustma-ust kelishyapti, odam qancha ko'p to'plansa, shuncha tajovuzkor bo'ladi. Hali vaqt bor, ular bilan ochiqchasiga gaplashib olishim kerak.

— Bilmadim. O'zingni tahlikaga solayapsan.

— Demak, men o'zimni xavfga qo'yyapmanmi? Men ularga Filofey kashfiyoti haqidagi o'z fikrimni aytib bermoqchiman.

— Sen bu fikringni o'z maqolangda aytgansan.

— Bu yetarli emas. Yoki undan qoniqishmagan. Bu odamlar maqola o'qishmaydi.

— Robert, qara-qara, ular nima qilishyapti — sening suratlaringni yondirishyapti!

— Mening suratlarimnimi? Nima bo'pti, men siyosiy yo'boshchimanmi?

— Qara! Bu suratingning kattalashtirilgan nusxalari.

— Nima deya olardim? Esiz, qog'ozlar yonyapti.

— Xo'sh, politsiya qani?

— Politsiyaning nima keragi bor? Politsiya kelgan. Ho' ana, uchtasi tuyulishda turibdi. Sen ularni ko'rmadingmi?

— Atigi uchtami? Nega ular jim turishibdi?

— Ularning qo'lidan nima kelardi? Birovning suratlarini yondirganlari bilan ularning necha pullik ishi bor. Vassalom.

— Bunday holni televizorda ko'p ko'rganman. Mana endi o'z ko'zim bilan ko'rdim. Go'yo hindistonda bo'layotganga o'xshaydi. Xuddi o'zi-ya! Tezroq Entoni kelib qolsa edi! Nima uchun ular kelishmayaptikin?

— Bilmayman. Shu paytda ko'chalar tiqilinch bo'ladi. O'zing bilasan-ku!

Ikkalasi jim bo'lib qolishdi. Shu topda ularning o'tirgilari ham, turgilari ham, gapirgilari ham, biron nima degilari ham kelmayotgan edi.

Xuddi shu on olomon harakatga kelib buyruq berilganday baravar "Bork javob bersin!", "Bork javobgarlikka tortilsin!" deya bo'kira boshlashdi.

Keyin bu baqiriq-chaqiriqlar avj olib g'azabga mina bordi. Endi chidab bo'lmay qoldi. Odamlar Borkning tashqariga chiqishini talab qila boshlashdi. Qayoqdandir manglayini bo'yab olgan bir to'p ayollar paydo bo'lishdi. Ular "Tribyun" gazetasining yangi sonlarini silkitib "Bork razil! Borkka Kassandra tamg'asini kuydirib bosish kerak! Kassandra tamg'asi uchun kaltaklansin! Bork — yaramas!" deb dod sola boshlashdi. Boshqa bir guruham "Ordok haq! Ordok haq!" deb hayqirar edi.

Vaziyat jo'shga kirib, olomon hayajonlana boshladi. Tartib o'rnatmoqchi bo'lgan politsiyachilar butunlay ojizlik qilib qolishdi. Ulardan biri olomondan bir amallab qutulib chiqib mashinasidan qayoqqadir telefon qilib yordam so'raganga o'xshaydi.

Olomon ko'chani to'ldirib Borkning uyi tomon yo'l oldi. Xaloyiq xiyobondagi uzun o'rindiqlar,

fonuslarni uzib sindirib borardi. Kishilar ovozi boricha qiyqirishar, ayollar dod-voy solishar edi.

Erining pidjak kiyayotganini ko'rib Jessi:

— Qayoqqa ketayapsan! Bora ko'rma! — deya qichqirib yubordi.

Lekin u xotinini itarib tashladi. Ana shu lahzadan boshlab dunyo uning bir zumda xiralashgan qorachiqlarida boshqacha aks eta boshladi. Bork bilan Jessi bir-birlarining ko'zlariga boqishar ekan, ularning dillari dard-alamga to'la edi. Va u qandaydir yiroqdan gapirayotganday:

— Meni to'xtatma. Men bu g'am-kulfat to'la kosani sipporishim lozim.

Jessining afti choraszizlikdan burishib ketdi:

— Seni ajal haydab ketyapti!

— Bordiyu shunday bo'lganda ham, — bo'g'iq ovozda dedi Bork, — baribir borishim kerak.

U ilgakdan shlyapasini oldi-da, dadil qadam tashlab uydan chiqa boshladi. Eshikdan chiqishi bilan kutib turgan qaynoq olomon to'lqini uni domiga oldi. Uni ko'rganda portlagan hayqiriqdan osmon larzaga keldi. Transparantlar bilan plakatlar ishga tushdi, odamlarning o'z plakatlarini Borkning burniga tiqib oladigan shashti bor edi. U eshigi oldida turar ekan, sarosimaga tushganidan kular, olomonga qarab tursa ham hech kimning yuzini ko'ra olmas edi. Birdan boshiga shlyapasini kiydi-yu o'z qiyofasiga kirdi. Olomon oldida yirik suyaklari turtib chiqqan, yuzi keng, ko'zlarining atroflarini ajin bosgan, lekin bo'yni hali baquvvat, tishlari butun, oq sochli chol turar edi. U Frankfurt jurnalistlari tili bilan aytganda Keksa qoya edi.

Bir zum jimlik cho'kishi bilan Bork hayajondan qal-tiragan ovozda bir necha kalima so'z talaffuz qila oldi:

— Kassandra-embrionlar — bu bizning musibatimiz hamda jinoyatimizdir. Bu uchun biz javobgarmiz!

Qandaydir bir ayol mushukka o'xshab bir sakrab uning yoniga keldi:

— Mana buni ko'ryapsanmi? — deb peshonasidagi dog'ni ko'rsatdi. — Kosmosdagagi iblisning menga solgan tamg'asini ko'ryapsanmi? Mana, o'qi! Shayton shaytonning tilini tushunadi! — dedi-da Borkning maqolasi bosilgan gazeta bilan uning yuziga savalay boshladi. Gazeta parcha-parcha bo'linib, shlyapa uchib yerga tushdi, shlyapani shu ondayoq ezib tashlashdi, haligi ayol esa shallaqilik qilib qichqirardi. U shunday sharmandalik qilardiki, aftidan o'z uyida ham erining boshida mana shunday yong'oq chaqsa kerak.

— Sening qo'lingdan hech vaqo kelmaydi. Men o'sha kosmosingga yetib boraman. Hali o'sha Filofeyni bo'g'ib o'ldiraman!

— Ur uni! Sol! — o'sha ayolning jazavasiga sherik bo'lganday hayqirishdi tevarakdagilar. — Uni buyoqqa olib kel! Sudrab kel! — qichqirishdi orqada turganlar musht o'qtalib. Hamma unga tashlandi. Uni o'nlarcha zabardast qo'llar yulib-yulqib olomon qilib yuborishdi. Jessi odamlar orasida siqilib qoldi, uning dod-faryodi-yu ko'z yoshiga kim ham e'tibor berardi deysiz.

Olomon ana shu dahshatli manzarani tasvirga tushirmoqchi bo'lgan teleoperatorlar guruhini ezib-qisib tashladi, ularning asboblari oyoq ostida qoldi. Biron iloj qilmoqchi bo'lib uringan bir necha politsiyachining qo'lidan hech narsa kelmay, girdobdag'i payraha holiga tushib qoldi. Robert Borkni esa qayoqqadir surgalab ketishdi, qayoqqa olib ketishganini xudo biladi. Uni birov bo'g'zidan ushlab, birov sochidan tortib, birov lunjiga qo'lini tiqib og'zini yirtgan ediki, birpasda bechora cholning aft-basharasini tanib bo'lmay qoldi. Odamlar bir-birini siqib ezib borar, bu esa olomonning g'azabini battar avj oldirardi. It egasini tanimaydigan ana shu izdihomda bir to'p quturgan kishilar futurologning toshlar bog'iga, hovuz yaqiniga borib qolishdi. Dunyoviy ruhning botin sirlariga kirib borishga yo'l topish uchun Bork qumga qandaydir sirli belgilar chizib yurgan joyda, xuddi ana shu yerda bari nihoyasiga yetdi. Kimdir epchillik qilib gulxonadan sug'urib olgan temir bilan Borkning kallasiga tushirdi. Bork dodlab boshini ushlagan bo'yи chalqanchasiga yiqildi-da, qonga botib tipirchilay boshladi, shundan keyin ham sho'rlikni do'pposlayverishdi.

Shu paytda olomon orasida qandaydir yangi harakat yuz berganday bo'ldi, bir necha baquvvat yigit odamlarni uyoq-buyoqqa surib Borkka tomon yurishdi. Bular Entoni Yunger hamda uning kosmos

bilan aloqa o'rnatadigan yordamchilari edi. Ular bir zumda kaltaklanib jon berayotgan Borkning yoniga yetib kelishdi.

— Buni kim qildi?! Kim?! — baqirdi Entoni Yunger hammani turli tarafga itarar va uloqtirar ekan.

Ko'cha ustida paydo bo'lgan politsiyaning vertolyoti pasaya boshladi. Parrak ovozi baqiriq-chaqiriqlarni bosib, kuchli shamol ko'tarildi. Bu ovozsiz filmdagi sahnani eslatar edi — olomon quturadi-yu, ovozi eshitilmaydi. Vertolyot qo'ndi, undan rezina kaltaklar bilan qurollangan politsiyachilar sakrab tushishdi. Odamlar tum-taraqay qocha boshlashdi. Ko'plar supermarket tomonga, o'z mashinalariga qarab chopa ketishdi. Ko'pchilik quyon bo'lib qolishdi. Yana bir necha daqiqadan so'ng hech kim qolmadi.

Entoni Yunger ikkita yordamchisi bilan Robert Borkning tilka-pora qilingan jasadini ko'tarib ketishdi, yana bittasi es-hushini yo'qotib, yiqilib surilayotgan Jessining qo'lting'idan ushlab vertolyot yoniga obordi.

Ular hammasi politsiyachilar bilan birga vertolyotga o'tirishdi, Yungerning yordamchilari esa vertolyotdan tushib kosmik aloqa jihozлari solingen mashinalarga chiqishdi. Vertolyot uy ustidan tik ko'tarilib uchib ketdi. So'ng hech narsa eshitilmay qoldi.

Atrofda bir jon qolmadi; Borklarning eshik-derazalari urib sindirilgan, uzun o'rindiqlar, fonuslar majaqlangan, futurologning toshlar bog'i oyoq osti qilingan edi. Bu qirg'inbarotdan keyingi manzarani eslatar edi.

Oradan bir daqiqa o'tgach vertolyot golf maydoni ustidan uchib o'ta boshladi, qachonlardir Robert Bork ana shu yerga kelishni xush ko'rар, yorug', yashil va keng ana shu o'tloqlar yaqin-yaqinda ham uning tushlariga kirgan, marhum do'sti Maks Fray esa uni tushida oydagи golf maydonlariga chaqirgan edi.

Vertolyot shahar gospitaliga qarab yo'l oldi...

Entoni Yunger Robert Bork jasadi ustiga engashdi. Qon oqishini to'xtatish uchun ko'ylagini yechib Robertning boshiga o'rab bog'lab qo'ydi. Entoni Robertning boshini tizzasiga qo'yib olib, jonidan nishona bormikan deb uning yuziga termildi. Bir lahma futurologning yuzida hayot alomati sezilganday, qovoqlari uchganday, Yungerga tik boqqanday bo'ldi. Ha, Yunger bilan Borkning ko'zlari to'qnashdi. Ehtimol, Bork Yungerni tanigandir. Ular hayotlarida birinchi bor uchrashishdi-yu shu onda vidolashishdi. Abadiylikka, mangulikka vidolashishdi. Robert Borkning boshi shilq etib tushdi.

Yunger o'kirib yubordi. Jessi erining murdasiga ma'nosiz boqib turardi. Politsiyachilar boshlarini irg'ab unga hamdardlik bildirgan bo'lishdi.

Vertolyot gospital maydoniga kelib qo'ndi, lekin endi vaqt o'tgan edi...

\* \* \*

Hozir okeanda bo'ron o'ynamoqda edi. Meteorologiya xizmati Atlantika sohili bo'ylab kuchli bo'ron bo'lib to'lqinlar quturajagini barcha kompyuter kanallari orqali xabar qilgan. Atlantika okeani ustidan o'tayotgan samolyotlar kuchli chayqalar, havo kemalarining komandirlari yo'lovchilardan kamarni bog'lab olib, o'rinalidan turmasliklarini o'tinar va parvoz mushkulliklari haqida yerdagi xizmat idoralariga xabar berib borar edi. Styuardessalar iljayib boqishga urinar, lekin tabassum qilishning o'rni emas edi – Atlantika okeani hazillashmayotgan edi...

Va faqat kitlar – koinot radarlari – Har doimgidek o'zlarining jamiki kechinmalarini, tuyg'ularini, Koinotning aks sadosini o'zida jamlagan edi. Kitlar ana shunday axborotlarni jo qilib, osmondagи turnalarga o'xshash o'tkir uchburchak shaklida tizilib borar edi. Okean bo'lsa ularning uchburchak shaklidagi safini buzib orqaga qaytarmoqchi bo'lardi. Lekin ular barcha g'ov-to'siqlarga dosh berib olg'a qarab borar, ba'zan bahaybat to'lqinlar qa'rida ko'rinnay ketar, yana yuzaga qalqib chiqar edi.

Ularga oziq bergen va olg'a haydagan kuch qanday qudrat, ular nima uchun va qaerga suzib ketmoqda?

Moskvadagi Qizil maydonda esa yarim kecha. Boyqushning sayr soati yaqinlashmoqda edi. U hali

Spas minorasidagi soat tagida tinchgina mudramoqda edi. Boyqush bugun nimadandir xavotir, yuragi notinch. Dunyoda qandaydir voqealar sodir bo'lgan... Ha, qush buni sezdi. Nimadir ro'y bergan...

## O' n i n c h i b o b

Shoshilinch sur'atda e'lon qilingan "Kosmos-Yer" matbuot konferentsiyasi tayinlangan kuni, belgilangan soatda bo'lib o'tdi va barcha yirik kanallar orqali translyatsiya qilindi.

Lekin bundan oldin telekompaniyalar "efir oldi dovuli"ga duch kelishdi. Futurolog Robert Borkning o'limi haqida xabar tarqalgach, dunyoning turli burchaklaridan qo'ng'iroqlar va savollar yog'ilib ketdi, shov-shuvga sabab bo'ladijan matbuot konferentsiyasini olib ko'rsatishni rejalashtirgan milliy kompaniyalardan, ayniqsa ko'p telefon qilishdi. Hamma fojeaning qanday oqibatlarga sabab bo'lishi, Filofey bilan telealoqa o'rnatish masalasi, u bilan kimning muloqot qilishi va endi matbuot konferentsiyasi umuman bo'ladimi degan masalalar haqida aniq bir ma'lumot olishni istar edi.

Yer hamishalik o'z aylanma yo'lida olam kezmoqda va o'sha soat yaqinlashmoqda edi... Buni hamma kutar edi...

Nihoyat, televizorlarning ekranlarida zoriqib kutilgan titrlar paydo bo'ldi. Ketidan diktor qiz televidenie bundan oldin olim Robertning o'ldirilishi munosabati bilan dunyoda bayon etilgan fikrlar haqida va ommaviy axborot vositalarining sharhlari to'g'risida ma'lumot berishni o'z burchi deb biladi, deb e'lon qildi.

Sharhlarda g'arazgo'qlik sezilib turdi. Sharhlar odatdagiday ta'ziya bildirish, hamhardlik izhor etishdan boshlandi, so'ngra diktor fojiadan xursand bo'lganday bilinar-bilinmas iljayib qo'ydi-da, diagrammani namoyish qildi, ya'ni Cassandra-embriionlar to'g'risida Filofey ta'limotining, diktor iborasi bilan aytganda, maddohi ustidan bo'lib o'tgan olomon yuzasidan o'tkazilgan shoshilinch so'roq "natijalari tashvishli va ayni vaqtida hayratomuz, o'zingiz hukm chiqaring, hurmatli teletomoshabinlar" dedi. Rang-barang ustunchalar shaklidagi diagrammadan aniq ko'rinish turar ediki, so'roq qilinganlarning 83,7 foizi futurolog ustidan bo'lgan jazoni ma'qullagan, shu bilan birga shu guruhdagi respondentlarning ko'pchiligi, ya'ni 76 foizi o'sha yerda, Nyuberida bo'lganimizda, shubhasiz o'zimiz ham fazoviy iblisning ashaddiy sherigi ustidan bo'lgan jazoda albatta shaxsan ishtirot etgan bo'lur edik deb javob berishgan; so'ralganlarning 11 foizi vahshiyona olomonning jinoiy harakatlarini qoralagan va buni jamiyat axloqiy inqirozining mudhish nishonalari deb hisoblagan; respondentlarning qolgan kichik bir qismi ro'y bergen voqealarga butunlay befarq ekanligini bildirgan.

Shundan so'ng teletomoshabinlarga o'sha to's-to'polonlarning sotsiologik tahlili natijalari namoyish qilindi. Bunda mamlakatlar, shaharlar, regionlar, demografik, ijtimoiy va boshqa sohalar tilga olingan edi. Bu ma'lumotlar ham shuni ko'rsatar ediki, butun dunyo, aholining barcha tabaqalari samoviy rohibning Cassandra tamg'asini aniqlash uchun yerga zondaj-nurlarni yuborib turishiga qarshi norozilik bildirgan. Kishilarning kayfiyati va xatti-harakatlarida millatchilik omili muayyan rol o'ynaganligi ko'zga tashlanardi.

Lekin eng dahshatlisi turmalarda bo'lib o'tibdi. Ehtimol bu dastlab Cassandra-embriion hisoblanganu, lekin tug'ilishga majbur bo'lgan homilalarning shuursiz javobi, yashirincha pishib yetilgan va shiddat bilan namoyon bo'lgan isyonidir – endi ularning dunyoga bo'lgan yashirin nafrati Filofey tomonidan oshkor qilingandir. Bo'limasa ana shu vahshiyona sahnalar, soqchilar va yordamchi politsiyachilar bilan bo'lgan janglarni qanday tushunish mumkin: ikki taraf bo'lib – birovlar kaskalar kiyib, qalqonlar va kaltaklar bilan tashlansa, boshqalar qurol-yaroqsiz, lekin bo'riday qahr-g'azab-la kurashib, qirg'inbarotu yong'inlar alangasida to'qnashishar edi. Turli mamlakatlar va shaharlardagi mahbuslar isyonlarining tashqi sababi nima ekanligidan qat'iy nazar, mash'um Cassandra tamg'asi – jazo muddatini o'tayotgan jinoyatchilarning g'ashiga tekkan o'sha mash'um xol asosiy sabab bo'lganligi aniq.

Jurnalistlar o'sha kuni yanada g'aroyib xabarlar keltirishdi, masalan, portlarning birida uyshtirilgan reportajda dengizchilar norozilik bildirib safarga chiqishdan bosh tortishgan. Langar tashlangan

kemalar oyna-derazalari singan kimsasiz uylarga o'xshab qaqqayib turar ekan.

Gapirganlarning hammasi bir narsani – samoviy tajovuzkor Filofeyni raketa bilan uring tushirishni, zondaj-nurlarning manbai bo'l mish orbital stantsiyani yo'qotishni talab qilishar edi.

Televizorlarda sayyoraning turli nuqtalaridagi shu kabi voqealar darhol ko'zdan kechirilgandan keyin nihoyat ekranda matbuot konferentsiyasi o'tkaziladigan zal paydo bo'ldi. Zalda odam liq to'la edi. Odamlar devorlarga suyanib tik turishar, yo'laklarga o'tirib olishgan edi. Hammaning ko'zi tegishli asbob-uskunalar bilan jihozlangan sahnada edi – orbitadagi Filofey ko'rsatilishi kerak bo'lgan katta ekran sahanining yon tomonida zalga qiya turar edi. Har biri talay mikrofonlar qurshovida ikki kishi – Entoni Yunger va teleko'rsatuvlarni olib boruvchi, ma'lum va mashhur Uolter Shermet sahnadagi stol atrofidan o'r'in olishdi. Zaldagilar hammasi hayajonda – buni sokin va umidvor chehralardan, balqib turgan sergak ko'zlardan, cho'zilgan bo'yinlardan ham ko'rsa bo'lardi. Kerak bo'lsa shaytonni ham suratga ola biladigan ko'pni ko'rgan fotoreportyorlar daryodan suzib o'tishga majbur bo'lgan echkilarga o'xshab qo'rqa-pisa ishga kirishishmoqda edi.

Tepakal, bashang kiyinib olgan so'zamol Uolter Shermet kasbi-kori taqozosi ila tabassum qilmoqchi bo'ldi-yu, uddasidan chiqa olmadi. Hozir uning so'zamolligi artistlarga xos beparvoligi ham ish bermadi. Entoni Yunger esa, aksincha, xayolchanlik bilan ish tutdi. Uning musibatdan dili vayron ekanligidan va iroda kuchi ila o'zini dadil tutgani bilan kimning ne ishi bor deysiz, axir u Robert Borkning o'rnini bosishi, million-million teletomoshabinlarning ko'z o'ngida kosmosdagi Filofey bilan muloqotda ishtirok etishi kerak-ku! Buning ustiga kechasi uning qallig'i Ketti onasi bilan Dublin shahridan kelgan, matbuot konferentsiyasi deb ularni aeroportda kutib ololmadi. Bu ham uning dilini g'ash qilar edi. Entoni diqqat-e'tibor bilan ish ko'rар, yonoqlarida g'urralar bo'rtib chiqqanday edi. Entoni tushunar edi: u o'z qo'lida vafot etgan Robert Borkning ishi haq ekanligiga ishongan holda o'z fikrida mudom turishi yoki Ordok qo'mondasidan bo'lgan kechagi og'aynilarning mazaxlariyu ahmoqona harakatlari, ko'chalardagi hushtakbozliklaru otildan toshlar dastidan Bork singari nobud bo'lishi uchun taqdir uni voqealar peshsahnasiga olib chiqqan edi.

Shu asnoda qutqudan o'zini unutgan odamlar orasidagi asabiy vaziyat taranglashib so'nggi nuqtasiga yetdi. Hamma eng muhim paytni – teleefirda Filofeyning paydo bo'lishini kutar, sharhlovchilardan biri aytganidek, uni ko'plashib dunyoviy nafrat oloviga uloqtirish uchun tayyor turar edi. Bu lahza tobora yaqinlashmoqda. Endi portlatish oldidan bo'lgani kabi sekundlar ko'plikdan ozlik sari teskari yo'nalihsda sanalmog'i kerak edi.

Kunduzi kuni gospitalda Robert Borkning o'z ajalidan o'Imaganligi haqida xulosa chiqarilganda Jessi ko'z yoshlarini zo'rg'a tiyib, dedi:

— Entoni, agar seni mening Robertimning qismati kutayotgan bo'lsa, bu yo'ldan qayt. Robert uchun haqiqat hamma narsadan muhim edi, u shu yo'lda halok bo'ldi. Sen o'zing haqingda o'yla. Hali yoshsan. Sening o'n gulingdan bir guling ochilgan emas. Robertga o'xshab joningni tikishing shartmi?

Shu daqiqada suhbatni davom ettirish oson bo'Imaganidan u qisqagina javob qildi:

— Men sizni tushunyapman, Jessi. Lekin Robert Bork o'z qismatiga chap berishni xohlamagan ekan, nega men chap berishim kerak?

Ular gospitalning kutish xonasida katta deraza yonida, kasallar bilan shifokorlardan nariroqda turishar edi. Quyosh oyna orqali xonaga shaffof yog'dusini sochib turar, osmon ham osoyishta va tiniq edi, sal nariroqda zarang daraxtining barglari oftob nurida beozor oltinlanmoqda edi... Futurologning musibatdan ado bo'lgan bevasi birdan keksayib qolgan edi. U daydi darvishga o'xshab qolgandi. Jessi nima qilishini bilmas edi. Alamin yig'idan olar edi. O'zini tutib olish uchun bo'lsa kerak, nimalarnidir o'zicha to'ng'llar, allanimalarnigina o'ylar edi.

— Robert sevgi ikki daryo qo'shilganday gap deb ko'p aytar edi. Men esa kulardim: o'zing ana shu azim daryoda cho'kib ketasan, Bob, der edim. Mana endi tushundim – mening daryom yo'q. Bu daryo to'xtab, qurib qoldi, men esa bo'm-bo'sh qirg'oqqa uloqtirildim...

Shu on Jessining og'zidan qandaydir g'alati, sirli ibora chiqib ketdi:

— O', sho'rlik kitlar, men violenchel chalganimda endi senlarni kim eslaydi?

Bu so'zlardan Entoni hang-mang bo'lib qolib, bu bilan Jessi nima demoqchi bo'lganini so'ramoqchi bo'ldi-yu botina olmadi. Ayrilik ne ko'y larga solmaydi odamni deb o'y lab qoldi.

Shundan keyin ular ertagacha xayrlashishdi. Entoni telealoqaga tayyorlanishi kerak edi. Vaqt juda kam qolgan. Jessi Chikagodan qizi bilan kuyovining kelishini kutib gospitalda qoldi. Entonining omadi chopdi, gospitalga Dublinga telefon qilib, safarga otlanayotgan Ketti bilan gaplashdi, u hayajonda edi – axir Kettilar kelishi bilan to'y masalasini kelishib olish kerak edi-da.

hamma ishlar bir vaqtga to'g'ri kelib qolishini kim bilibdi deysiz. Ehtimol, uchar yulduzlargina Vaqt va Fazo orqali o'tib bir-birlari bilan shunday to'qnashishar.

Ketti bilan suhbatlashishning o'zi bo'lmadi. Ketti En-tonining qo'ng'irog'ini kutib turdi va uning yoqimli ovozi bir zum baxtli onlar bo'lib qulog'iga kirdi. Ketti turgan-bitgani – kiprik qoqishi, nafas olishi-yu qadam tashlashigacha Entoni uchun hech qanday dalil-isbotsiz baxt edi.

— Bormisan, Entoni?! – dedi Ketti. — Telefon qilasan deb rosa kutdim. — Telefondan tanish taft kelganday tuyuldi. — Onam bilan chorak soatdan keyin yo'lga chiqamiz. Qanday, yaxshi yuribsamni, Entoni? Kutyapsanmi?

— Uzr, Ketti. Men ham o'lguday tajang bo'ldim, seni ko'r may qolamanmi deb cho'chidim.

— Hechqisi yo'q, yaqinda diydor ko'rishamiz. Shunchaki sening ovozingni eshitay degan edim.

— Bilasanmi, bir muammo chiqib qoldi. Hozir tushuntirib o'tirishga vaqt yo'q. Keyin hammasini aytib beraman. Mening uchun onangdan kechirim so'ra: men senlarni aeroportda kutib ololmayman. Taksiga o'tiringlar.

— Nima gap o'zi, Entoni? Jiddiy bir voqeа sodir bo'ldimi?

— Ha, bo'lganda qanday. Bu uzoq gap. Qisqacha aytib qo'yay. Men bugun kechqurun halok bo'lgan futurolog Robert Borkning o'rniغا matbuot konferentsiyasida ishtirot etishim kerak.

— Nega endi? Uni darg'azab namoyishchilar o'ldirishdi deb radioda xabar berishdi. Bunga sening nima daxling bor?

— Bilasanmi, men Filofey bilan o'rnatiladigan kosmik telealoqaning me'mori edim.

— Filofey bilan? O'sha, haligi bilan-a?

— Ha. O'sha bilan Robert Bork gaplashishi kerak edi.

— Hech narsa tushunmayapman, Entoni! hech narsa!

— Keyin hammasini aytib beraman. Shunday bo'p qoldiki, Filofey bilan endi men suhbatlashaman, keyin senga va onangga tushuntirib beraman, lekin boshqa iloji yo'q.

Kettining ovozi pasayib qoldi va uning kafti bilan telefon dastasini to'sib turganini sezdi:

— Yaxshi, Entoni. Keyin aytib berasan. Men onamga hozircha hech nima demay turaman. U juda hayajonda, darg'azab – qandaydir esi past kosmosdan turib butun dunyoni alg'ov-dalg'ov qilsa-ya, deydi. Har holda xursand emas.

— Men onangning ham, sening ham holingga tushunib turibman, — javob berdi Entoni. — Lekin o'tinib so'rayman, Ketti, onang bo'lar-bo'lmasha tashvish tortmasin. Keyin hammasini ipidan ignasigacha gapirib beraman. Men seni kutaverib ko'zim teshildi. Seni sevaman. Aeroportda taksiga o'tirib to'g'ri biznikiga boraveringlar. Matbuot konferentsiyasi tugadi deguncha, qo'ng'iroy qilaman va uchrashamiz. Hayallab qolmanglar, samolyotga ulgurish kerak. Hozircha xayr, seni o'pib, sevgiling Entoni.

— Hozircha xayr, Entoni, hozircha... Hamma ishlaring o'ngidan kelsin... Men doimo sen bilan birgaman.

— Men ham... Kutaman...

Entoni Yunger sahnada o'tirarkan Ketti onasi bilan Irlandiyadan uchgan samolyot hozir Atlantika sohiliga yaqinlashgan bo'lsa kerak deb o'yaldi.

Zalda esa shu paytda kosmik telealoqa ishlay boshlashiga sanoqli sekundlar qolgan edi. Butun dunyoda insoniyatning tinchini buzgan Filofey ismli bir shaxs jamoat hukmi oldida javob beradi, dakki yeydi.

Bugun kun bo'yi Entoni Yungerga bir fikr tinchlik bermas edi: "Bordi-yu bizning oilamizda ham shunday baxtsizlik ro'y bersa, ya'ni Kettida Kassandra tamg'asi nishon berib qolsa-chi? Unda nima bo'ladi? O'shanda nima qilamiz? Axir bundan hech kim qochib qutula olmaydi, bironqa ayol ham. Hech kimning o'z genotipida kassandra-embrionlikdan qo'rmasdan iloji yo'q."

Shu paytda butun zal kosmosdan beriladigan ko'rsatuvning boshlanishini hayajon bilan kutmoqda edi, translyatsiya signali ovoz berib, ekran yorisha boshlashi bilan ko'plar seskanib tushishdi. Pashsha uchsa ovozi eshitiladigan jimlik boshlandi. Ko'rsatuvni olib boruvchi diktor shosha-pisha xaloyiqqa murojaat qildi:

— Shunday qilib, o'zini samoviy rohib Filofey deb atagan olimning orbital stantsiyadan turib o'tkazayotgan matbuot konferentsiyasini olib ko'rsatamiz. Hammaga ma'lum bo'lgan faktlarni — Filofeyning Rim papasiga yo'llagan favqulodda murojaatini, shundan so'ng ro'y bergan fojeiy voqealarni eslatib o'tirmaymiz. Hozir diqqat qilishlaringizni so'rayman...

Ekranda tasvirlar dastlab yoyilib xira ko'rindi va bir ozdan so'ng hamma narsa ravshan ko'rina boshladi — ekranda hammaga ma'lum va mashhur kishining afti-angori ko'rindi. Hali hech kim og'iz ochmasdanoq fotoreportyorlar o'rinalidan turib ekrandan Filofeyni suratga ola boshladilar.

Uolter Shermet fotoapparatlarning chaqmoqlariyu sharaq-shuruqlarini yorib o'tib, norozilik bildirishga majbur bo'ldi:

— Tartib saqlashlaringizni iltimos qilaman. Ko'zimizni qamashtirib qo'y manglar. Biz ish boshlaymiz.

Fotoapparatlarning chaqmoqlari bir oz kamayishi bilan Filofeyning yuz-ko'zi yirik ko'rina boshladi, u kosmosdan xuddi shu yerga yaqin kelib qolganday edi. Hamma hayajonda. Odamlarning ko'z o'ngida Filofey butun borlig'i bilan namoyon bo'ldi — bu buyuk payg'ambarmi, aqdan ozgan ulkan olimmi yoki shaytoni lainmi — kim bilsin! Mana, jazava va musibatlarga sabab bo'lgan odam! Mana, osmondan turib xotinlarga zondaj-nurlar yuborib nurlantirgan olim! Mana, Kassandra tamg'asi haqidagi mudhish ta'limotning muallifi!

Ko'rinishiga qaraganda Filofey ellik yoshdan sal oshgan. Yuzi cho'zinchoq, malla sochlari yelkasiga tushgan. To'q sariq siyrak soqoliga oq oralagan. U ekranda yelkasiga yo'lxalta ko'tarib, qo'liga hassa ushlab olgan va mo'ljalga to'g'ri ketayaptimi-yo'qmi ekanligini aniqlash uchun bir lahma to'xtagan yo'lovchiga o'xshar edi. Kech bo'lib qoldi, manzilga yetib olarmikin? Nigohidan tashvish tortgan diqqat-e'tiborli va bir maqsadga intiluvchan odam ko'rindi. Entoni Yunger uni xuddi shunday tasavvur qilar edi va taxmini to'g'ri chiqqanidan xursand ham bo'ldi. Samoviy rohibning antiqa bo'y-basti orbital stantsiyaning ichki bezaklariga yarashib tushgan. Filofey dadil va ishning ko'zini biladigan odam-ov! Yerdan talay uzoqda ekanligi hamda birdan bir ermagiyyu ovunchog'i bo'lib qolgan sevimli ishi tufayli shunday sifat kasb etgandir. Chuqr ajinlar, osilgan qovog'i, tikilib boqadigan ko'k ko'zlari qandaydir jozibador, ayni vaqtida g'amgin tuyulardi.

Ko'rsatuvning dastlabki lahzalarida Entoni Yunger Filofey ingliz tilida yaxshiroq gapira oladimiyo'qmi deb ham bezovtalangan edi: odam chet tilda savodli yoza bilsa ham, ayniqsa ko'pchilik oldida bemalol gapira olmasligi mumkin-ku! Biroq Filofeyning dastlabki iboralarini eshitib oq Entoni xotirjam bo'ldi — rossiyalik samoviy rohib talaffuzini hisobga olmaganda ingliz tilida bemalol gapira olarkan.

Suhbat shitob bilan boshlandi. Uolter Shermet soxta xotirjamlik va jindek mutoyiba bilan dedi:

— Salom, birodarimiz Filofey! Uzr, sizga shunday deb murojaat qilsak bo'larmikan, a labbay?

— Ha, shunday deyavering, — javob berdi samoviy rohib va qo'shib qo'ydi: — Xohlagan kishiga men birodarman.

— Bordi-yu hamma ham birodarlashishni xohlashmasa-chi? — qochiriq qildi Uolter Shermet.

— Unday bo'lsa, har kim o'zi biladi. Hechqisi yo'q. Lekin meni maqbul ko'rmaganlar uchun ham men o'zimni birodar deb bilaveraman.

— Nima uchun siz bu haqda ishonch bilan gapisasiz? Bu bilan o'zingizni bizning gunohkor dunyomizdan ustun qo'ymoqchi emasmisiz?

— Mening vazifam — menga kim qanday munosabatda bo'lmasin har bir kishiga hamdard bo'lishdir.

— Shunday bo'la qolsin. Biroq uchrashuvimizni shu sohada o'zaro munosabatlarni aniqlashdan boshlamaylik, — dedi Uolter Shermet gapga to'n kiydirishni davom ettirib. — Bundan ham jiddiyoq, siz tushunsangiz kerak, bundan ham qo'rquinchliroq narsalar borki, bular bevosita siz bilan, birodar Filofey, Sizning, orbital stantsiyadagi ilmiy faoliyattingiz bilan bog'liqidir. Biz matbuot konferentsiyasiga xuddi ana shuning uchun yig'ilganmiz. Ha, lekin ishni boshlash uchun ishtirokchilarni tanishtirib qo'yay. Zalda — jurnalistlarning eng zo'rlari yig'ilgan. Bevosita teleko'sratuv bo'layotir. Men konferentsiyani boshqaruvchi Uolter Shermetman. Yonimda — Entoni Yunger. U bugun ertalab ommaviy g'alayonlar vaqtida halok bo'lgan futurolog Robert Bork o'rniga telealoqada ishtirok etmoqda. Kechirasiz, narsalarni o'z nomlari bilan aytishga to'g'ri keladi: ana shu fojeiy voqealarga xuddi siz sababchisiz. Hali, Entoni Yunger o'zini o'zi tanishtiradi va o'z fikrini aytadi.

— Rahmat, Uolter Shermet. Men Entoni Yungerni taniyman, — deb uning so'zini bo'ldi Filofey, Yunger tomonga qarar ekan. — Men Entoni Yungerni teletranslyatsiya qilingan saylovoldi mitingidan boshlab taniyman. Men bexosdan sizning so'zingizni bo'ldim, gapirishga ruxsat etasiz, men bu daqiqani, bu uchrashuvni, siz tilga olgan narsalarni gapirib berish imkoniyatini, odamlarning aql-idroklarida va dillarida alanga olgan yong'in yolqinlarining kosmosga qanday yetib borganini hikoya qilib berish paytini kutar edim. Ha, bu yong'inni men alanga oldirdim. Ha, shunday. Lekin men mash'alani bid'atchilarni gulxanda yoqish uchun olib kelgan emasman, men odamlarning dillarini yoritaman deb o'ylagan edim. Bo'ljadi. Hammasi zulmatga aylandi. Endi najot yo'q deb qo'rqaman. Mening yoshimda bunday deyish, ehtimol, soddadillikdir, haqiqat g'alaba qiladi deb o'ylagan edim. Yanglishibman. Dillarning yorishishi o'rniga hamma joyda alg'ov-dalg'ov va g'ulg'ulaga sabab bo'ldim. Bularning hammasini televizorimning ekranida ko'rib turibman. Bugun Nyuberida bo'lib o'tgan hodisani ham ko'rdim. Men Robert Bork bilan televidenie orqali uchrashaman, u bilan so'zlashaman, deb o'ylagan edim, lekin bu odamning o'z hovlisida vahshiyarcha o'ldirilishining guvohi bo'ldim. Ruslar aytganlaridek, be'mani va shafqatsiz isyon ro'y berdi. Bu ham mening aybim bilan bo'ldi! Xudo tomonidan menga yuborilgan hamfikrimning halok qilinishiga kosmosda turib bevosita sababchi bo'ldim. Odamlar, men sizlarning oldilaringizda tiz cho'kaman! Lekin mening endi tavba-tazarru qilishim bir pul. Halok bo'lgan Robert Borkni hech nima bilan tiriltirib bo'lmaydi, agar shunday qilishning iloji bo'lsa edi, men o'zimni hozir qurbon qilishga tayyorman. Qandi endi...

Savollaringizga javob berishdan oldin men yana bunday demoqchi edim. Ehtimol, zalning barcha savollariga javob berib ulgurmasligim mumkin, oldindan kechirim so'rayman. Men ketaman, sizlar yashaysizlar, yashamoq — savollarga javoblarni o'zi topish demakdir. Meni tushuninglar, lozim topsangizlar, kechiringlar. Mening pirovardida birdan-bir aytmoqchi bo'lganim: kashfiyotlarimni hammaning mulkiga aylantirgan ekanman, men buni shon-shuhrat uchun ham, nafsoniyat uchun ham, boshqalardan afzal bo'lish uchun ham qilgan emasman, agar men shunday qilmaganimda, bu kashfiyotlar oqibatsiz qolib ketaverishi va dunyo oldingiday baxtli g'aflatda yashayverishi mumkin edi. Biz doimiy ravishda takomillashib boradigan bilimimiz orqali dunyo sirlarini ocha borish uchun abadiylikning mazmun va mohiyati sifatida yaratilgan emasmikinmiz, aks holda dunyosining nima keragi bor, zaifligimiz va injiqqliklarimiz tufayli qulay payt poylab haqiqatdan yuz o'giraversak, abadiylik bizga keraksiz va sirli qolaveradigan bo'lsa, abadiylikdan na murod? Biz aqli mavjudotlarning maqomini yerga urmayapmizmi — axir bizsiz xudolar xudo emas, bizsiz modda hech nima emas-ku! Agar biz "axborot — taraqqiyot yo'lidir" deydigan bo'lsak, abadiylikning mohiyati yangidan yangi va keng qamrovli uzlusiz axborotlar oqimida emasmikin? Sivilizatsiyaning abadiyligi — bilimlar abadiyligidadir. Lekin biz o'z manfaatimiz yo'lida, ya'ni haqiqatga xilof o'laroq bilimga chap bersak, biz o'ta ardoqli abadiylikka chap bergen bo'lmasmikinmiz?

Men konferentsiyada ishtirok etayotganlardan aslida mutlaq konkret narsalar yuzasidan mavhum mulohaza yuritganim uchun kechirim so'rayman, lekin biz bugun Robert Borkni o'ldirgan ekanmiz, u bilan abadiyligimizning bir qismini ham nobud qildik. Afv etasiz, men xohlar edimki...

— Ruxsat etasiz, ruxsat etasiz, birodarimiz Filofey! — uning gapini bo'ldi Uolter Shermet o'zini zo'rg'a tutib. — Yuksak moddalar haqida mulohaza yuritish durust, albatta, falsafasi maroqli. Lekin biz

tug'ilish mo'jizasiga bosh suqib qoldik, – men homilador ayollarda Kassandra tamg'asining paydo bo'lismiga olib keladigan samoviy eksperimentlaringizni nazarda tutayotirman. Siz bizning o'zligimizga nojoiz tazyiq ko'rsatayotirsiz. Siz bizlarni osmondan turib nazorat ostiga olmoqchisiz. Eslatib qo'yishga jur'at etaman, bunga Yerda deyarli hech kim rozi bo'lmaydi. Ha, yerda, bizning osiy yerimizda, siz osmoni falakda turib fikr yuritmang, siz darg'azab odamlardan yiroqdasiz. Ular g'azab otiga minishga tamomila haqlidirlar. Afv etasiz, men o'z nuqtai nazarimni ayon qilib qo'yyapman. Lekin hozirgi holatda taomil haqida, konferentsiyani boshqaruvchining odob-axloqi to'g'risida so'z bo'lishi mumkin emas. Sizning kirdikorlaringizga qarshi norozilik bildirmasdan ilojim yo'q. Siz har qanday ezgu niyatlarni ko'zlamang, o'zingizning ilmiy kashfiyotlaringiz bilan, aytgan bo'lur edimki, kalondimog'ligingiz yo'lida sayyora ahlini yoppasiga iztirobga solishga sizga kim ruxsat etdi, qanday kuch ilhom berdi?! Bu shakkoklik emasmi, ayniqsa rohib, Rossiya ruhoniyari aytganlaridek, soxta rohib bo'lsangiz. Siz Xudoning qudratiga shak keltirmayapsizmi? Injilda o'zlarindan ko'payinglar, uvali-juvali bo'linglar deyilgan-ku! Bu hech qanday pisandasiz aytilgan. Siz bo'lsangiz hech kim nazorat qila olmaydigan narsani taftish etishga jur'at etdingiz. Siz tug'ilish sirini do'zaxi kuchlarga qurban qilmadingizmi? Menimcha, xuddi shunday qildingiz! Agar bu haqda mister Ordok bir siyosatchi sifatida gapirgan bo'lsa, men ko'p millionli auditoriya fikrini ifodalaydigan jurnalist sifatida gapirayotirman.

Birdan zalda shovqin ko'tarildi. Bu qandaydir g'alati manzarani eslatar edi: jurnalistlar sakrab turib, mikrofonlarga otilar, go'yo Filofey shu sahnada turganday unga qo'llari bilan o'qtalar edilar, Filofey bo'lsa, ekranda lablarini va ko'zlarini qisib, bosiqlik bilan ularning gaplarini bamaylixotir eshitib turar edi.

Uning yuzi asabdan tortishib ketganligi sezildi. Bu uchrashuvni matbuot konferentsiyasi deb atashga tiling bormaydi. Ehtirolarning quturishiga qaraganda konferentsiya mitingdan farq qilmas edi. Kimki bir amallab mikrofonga yetib borgan bo'lsa o'zining ismi-sharifini, gazetasini, axborot agentligini aytib bo'lishi bilanoq samoviy rohibni javobgarlikka tortishni talab qilar edi. Hech qanday falsafaning hojati yo'q, hayot tajribasidan a'lo narsa bormi? Filofeyni og'iz ochishga qo'yishmadni. Uning mazasi qochdi shekilli ekranda ko'rinxaydi qoldi. Zalda qiy-chuv ko'tarildi. Ekrandan tasvir yo'qoldi.

— Qayoqqa ketdingiz? Sizga nima bo'ldi, — qichqirdi Uolter Shermet. Shu paytda u yana paydo bo'ldi, bu safar uning yo'lida kosmonavtlarning skafandri bor edi.

Zalda bir zum ovozlar tindi. Hamma hang-mang bo'lib qoldi. Filofey esa indamasdan skafandrni kiya boshladidi. Entoni Yunger bu jimlik paytidan foydalandi. U o'rnidan turib, zalga murojaat qila boshladidi:

— Mening so'zlarimga quloq solishlaringizni so'rayman, chunki men telealoqani o'rnatuvchilarning biriman. Shu munosabat bilan mening ham o'z burchlarim va huquqlarim bor. Birinchi navbatda Uolter Shermetga aytmoqchimanki, matbuot konferentsiyasini davom ettirishni menga bersangiz. Siz aytadiganingizni aytib oldingiz, Uolter Shermet. Zalda bo'layotgan voqeа, afsuski, jurnalistlarning kasbiy uchrashuvlariga mutlaqo o'xshamaydi. Matbuot konferentsiyasida savol-javob degan narsalar bo'lardi. Hozircha shu kasbga oid savollar quloqqa chalinmadi. Hissiyot mantiqni bosib ketdi. Men matbuot konferentsiyalarida ko'p bo'lganman, lekin bunaqasini ko'rмаганман. Hatto Fors qo'lting'ida yaqinda bo'lgan urush paytida ham xilma-xil savollar turli mavzularni ifoda etgan edi. Hozir esa hamma jo'r bo'lib ashula aytayotganga o'xshaydi. Va hamma bir bo'lib bir hukm chiqarishayotir.

— Ruxsat eting, Entoni Yunger, — bardosh bera olmadi Uolter Shermet, — unday bo'lsa nega endi siz butun zaldagilarga, zaldagilargagina emas, balki butun dunyoga o'z fikringizni o'tkazmoqchi bo'lasiz. Nima uchun ayni vaqtida uchrashuvning boshqa ishtirokchilarini o'z nuqtai nazarini bayon etish huquqidan mahrum qilasiz?!

— Muhtaram Uolter Shermet, men tushunib turibman, hozir vaziyat shundayki, ko'z ochib yunguncha katta bir siyosiy kapital jamg'arish, televidenie orqali xalq ommasiga o'zining sodiq ekanini izhor qilish, jamiyatning himoyachisi bo'lib chiqish mumkin, shunday emasmi? Lekin bu bilan

haqiqat yuzaga chiqmaydi. Vaziyat boshqa. Shuning uchun hali kech emas ekan, siyosatdan, uning vasvasalaridan voz kechishga, agar qo'limizdan kelsa, sevikli siyosatimizdan, uning har qanday shaklidan uzoqroq yurishga chaqiraman, aks holda biz muammoning tub mohiyatiga yetib bora olmaymiz. Haqiqatga yetish jasorat va amaliylikni talab qiladi.

— Xo'sh, sizning haqiqatingiz va jasoratingiz nimada? — zaldan kimdir qichqirdi.

Uolter Shermet qanoat hosil qilganday kallasini qimirlatdi va boshqalarning g'ashiga tegadigan bir tarzda jilmayib qo'ydi. Zal sergak tortib, jimib qoldi.

— Jasoratga kelganda, — dedi Entoni Yunger jimlikdan foydalanib dona-dona so'zlar ekan, — bu haqda men gapirmay, chunki o'zimni jasoratli deb hisoblayman. Ishga kelaylik. Mana bizning ko'z o'ngimizda ekranda buyuk ilmiy kashfiyat, aytgan bo'lur edimki, tarixda mislsiz kashfiyat qilgan kishi turibdi. Bu kashfiyat bizga yoqadimi yo'qmi — bu boshqa masala. Buni fan deydilar. Birodarimiz Filofey — u men uchun ota, ota Filofey — cassandra-embriyonlarning insoniyat uchun ahamiyatini tushunish yo'lida bizning ko'zimizni ochishga harakat qilmoqda. Bugun olomon qo'lidan vafot etgan bizning yana bir mashhur zamondoshimiz futurolog Robert Bork Filofey kashfiyotini Insoniyat ruhiyati tadrijiy taraqqiyotida yangi qadam deb baholagan edi. U bu haqda matbuotda yozdi. Bu esa uning oxirgi so'zi, vasiyati bo'lib qoldi. Men bu haqdagi fikrimni yangi bir baho, yangi bir xulosa deyishdan yiroqman, lekin aytadigan gapim shuki, o'zimizning o'tkinchi manfaatlarimiz yo'lida cassandra-embriyonlar muammosini inkor etishimiz insofdan emas. Gap ana shu haqda borayotir. Hozir ham o'z-o'zimizga va ma'lum sabablarga ko'ra Filofey otaning o'zlariga savol beraylik. Endilikda hamma biladigan o'sha cassandra-embriyonlar shaxsi oldida inson bundan buyon nima qilishi kerak?

— Mister Yunger, — dedi o'tirgan ayollardan biri, — kechirasiz-u, masalani qo'yishga siz juda faol chiqib qolmadingizmi? Gap qanday shaxs, xususan embrional shaxs haqida ketayotir, siz professional savollar kutmoqdasiz. Marhamat qilib javob bering-chi, hammaning o'tkasini yorib ilojsiz-umidsiz bir ahvolga solishda davom etayotganingiz million-million gazetxonlar hamda teletomoshabinlar uchun, matbuot uchun lo'nda qilib aniq qilib javob bering-chi biron jon iltimos qilmagan holda siz Filofey ikkalangiz nima uchun shu halokatli muammoni jamiyatning bo'yniga osmoqchi bo'layapsanlar?

— Iltimos qilishganda qanday, xonim. Birgina ruh emas, son-sanoqsiz ruhlar so'rashyapti. Homilalar bizga najot so'rab murojaat qilishmoqda, bizlarning hammamizni qulq solishga va o'zlar haqidagina emas, biz bilan siz — Hammamiz haqida o'ylab ko'rishga chorlamoqda, biz bo'lsa ularga ham, o'zimizga ham javob berishdan bosh tortayotirmiz, irodasizlik qilayotirmiz, har holda yolg'lonni pesh qilib bo'lsa ham sho'rlik embrionlarga chap berib ketish oson-da! Bunda biz hammamiz, biz bilan siz ham, xonim, o'tgan ajdodlarimiz bilan birga gunohkormiz. Hammamizga qaratilgan bu ovozlar, takror aytaman, tinglashga, o'rganishga, tahlil qilinishga muhtojdir, bu buyuk Filofeyning kashfiyotidir. Men bu insonning buyukligini yuziga aytmoqchiman, mana, ekranda ko'z o'ngimizda turibdi, lekin mening boshqa ilojim yo'q. Ha, u buyuk zot. Siz mendan, o'z iborangiz bilan aytganda, biz jamiyatning bo'yniga osmoqchi bo'lgan halokatli muammoni tushuntirib berishimni qattiq turib talab qilmoqdasiz. Aytaylik, Eynshteyn nisbiylik nazariyasini majburiy ravishda kashf qila olarmidi? Filofey ham xuddi shunday — bu olim, bu fan, bu iste'dod, bu basho-rat, bu tajribalar va kashfiyotlar, bu aql-zakovat. Men shunday deb tushunaman. Tog' ortidan quyoshning chiqishiga monelik qilib bo'limganiday, bunday kashfiyotga ham qarshilik ko'ssatib bo'lmaydi. Biz odamlar, ya'ni jamiyat o'z mavqeimizni aniqlab olishimiz kerak — gap ana shu haqda borayotir. Biz o'z-o'zimizga aytishimiz kerakki... Insoniyatga bundan buyon hayotning yangi dasturi lozim.

Xuddi shu paytda Uolter Shermet yonidagi telefon dastagini ko'tardi-da, kimgadir qisqa luqma tashladi:

— Kommutator, tayyormisiz? — va telefon dastasini qo'yar-qo'ymasdan asabiy bir holatda Entoni Yungerga murojaat qildi: — Siz Filofey bilan qilgan safsatangizga xalqaro jamoatchilikning javobini eshitishni xohlaysizmi? Siz ishonch hosil qilmoqchimisiz?

— Siz nimani nazarda tutayotirsiz?

— Matbuot konferentsiyasiga bo'layotgan aks sadoni nazarda tutayotirman. Konferentsiyamiz

dunyoning turli burchaklaridagi shaharlarning maydonlarida tarjimasi bilan namoyish qilinayotir. Qani hammamiz, birgalikda sayyoramizda nima bo'layotganini, rohib Filofey bilan uning hamfikrlarining mulohazalariga kishilarning munosabatini o'z ko'zimiz bilan ko'raylik. Yana bir bor takrorlayman – dunyoning turli nuqtalarida, turli tillarda kishilarning munosabati bilan tanishaylik. Shunday qilib diqqat! – deb komanda berdi telefon dasturiga. – Markaziy monitorni ishlatinglar. Boshladik. Dastlab Tyananmen maydonidan olib ko'rsatinglar, dunyoda aholisi eng ko'p davlatning poytaxti Pekin shahrida nimalar bo'layotganini ko'raylik.

Sahnaning markazida yog'dulanib turgan katta ekranda son-sanoqsiz odamlar izg'ib yurgan Tyananmen maydoni. Binoning old tomonida Mao Szedunning ulkan surati ko'zga tashlanadi. Maoning ma'noli nigohi ostida turgan maydondagi dahshatli qiyomat – arosat quturgan odam ummonini eslatardi. Xitoylar yong'inda qolganday qattiq jazava bilan baqirib-chaqirishmoqda. Sharhlovchining gapiga qaraganda maydonda xuddi shunday voqeа 1989 yilda talabalar g'alayonlarini bostirish paytida bo'lib o'tgan edi. "Tyananmenning jo'r ovoziga quloq osing, — dedi so'zida davom etar ekan sharhlovchi, — so'zma-so'z keltiraman: "Filofeyga o'llim! Sotsializm dushmani raketa bilan urib tushirilsin!"

Zal Filofeyga, uning ekranda ham ko'zga tashlanadigan bo'zdek oqargan yuziga, mikrofon oldida tosh qotib turgan Entoni Yungerga, Uolter Shermetga boqar edi, Shermet komanda berar edi:

— Endi Moskvani, Qizil maydonni ko'raylik! Diqqat!

Qizil maydonda ham xuddi shunday manzara. Sahar payti. Gulxanlar yonib turibdi. Olomon qichqirmoqda: "Soxta rohib Filofeyga o'llim!" – "Ig'vogar raketa bilan urib tushirilsin!" Ana shunday olovlangan qiy-chuv olomon ustida boyqushga juda o'xshab ketadigan tungi qush ekranda lip-lip uchib ko'zga tashlandi. Bu qush oyog'i tushab qo'yilganday mavzoley ustida, Kreml devori bo'y lab na'ra tortayotgan olomon ustida u yoqdan bu yoqqa uchar edi.

Uolter Shermet Yer sharining boshqa nuqtalaridan olib ko'rsatish uchun shahd bilan Berlin, Varshava, Montreal, Rio-de-Janeyro deya buyruqlar berar va hamma joyda xuddi shunday holat, xuddi shunday dod-faryod, hayqiriqlar eshitilar va o'sha "Filofeyga o'llim", "Ablah raketa bilan urib tushirilsin!" degan hukmlar yangrardi.

— Yetar, bas! Menga so'z beringlar! – chap tomondagi ekrandan Filofeyning ovozi eshitildi.

— Ha, qulog'imiz sizda, birodar Filofey! — dedi Uolter Shermet bamaylixotirlik bilan. Qomatini rostlab "Siz amaldagi demokratiyani ko'rgach, endi nima deysiz?" deganda Shermetning tepakali zafarli yarqiraganday bo'ldi.

— Ko'ngilimga tugib yurgan narsalarni aytaman, — deb javob berdi Filofey. Uning afti-angoridan qandaydir hodisa oldida ekanligi uning nimagadir jazm qilganligi sezilib turardi. — Men sizdan minnatdorman, mister Uolter Shermet, siz dunyoning turli burchaklaridan reportaj uyuشتirdingiz. Endi hech qanday shubhaga o'rın qolmadı. Manzara mutlaq oydinlashdi — men butunlay mag'lub bo'ldim. Men insoniyat diqqatini halokatdan qutilish mumkinligiga va hatto tadrijiy taraqqiyotning yangi bir bosqichida erishish imkoniyatiga qaratmoqchi bo'ldim. Buning uchun bitta yo'l bor — u ham bo'lsa cassandra-embrionlarning oxirzamon haqidagi ishoralariga quloq solish va umuman jamiyatni, jumladan, har biringizni takomillashtirish zarurligi haqida xulosalar chiqarishdir. Mana oqibat — mening urinishlarimdan hech nima chiqmadi. Zamondoshlarning mening chaqiriqlarimga munosabati oxir-oqibatda salbiy bo'lib chiqdi. Tan olaman — men mag'lub bo'ldim. Va munozarani davom ettirishga hojat yo'q. Bo'ldi, nuqta qo'yilsin.

— Birodar Filofey, mana endi siz haqiqiy vaziyatni hisobga olayotirsiz, gap ana shu haqda borayotir: odamlarni xotirjam qilish, jamoatchilikka taskin berishga to'g'ri keladi, shunday emasmi? — dedi Uolter Shermet.

— Ha, shunday — rozilik bildirdi Filofey. — Robert Borkning o'ldirilishiga olib kelgan mislsiz g'alayon uchun xudo oldida ham, bandasi oldida ham men gunohkorman. Mana vaqt(soati yetdi — qilmish uchun intiqom payti keldi. Men shunga xursandmanki, umrimning so'nggi damlarida odamlarning ko'z o'ngida bo'lish imkoniyatiga egaman va ular mening tavba-tazarrumming samimiy

ekanligiga ishonch hosil qilishlari mumkin.

— Birodarimiz Filofey, — deb yana burnini suqdi Uolter Shermet, o'zini butun dunyo ko'rib turganiga va har bir so'zi oltin barobarida ekanligiga ishonch hosil qilib. — Birodarimiz Filofey, — takrorladi u, — shaxsan sizdan bizga hech narsa kerak emas. Ommanning g'azabi cheksiz, bu rost gap, lekin bunga o'zingiz aybdorsiz.

— Ha, ha, haq gap, — javob berdi Filofey. — Yaxshi so'zlariningiz uchun rahmat, lekin men qilmishim uncha-munchalardan emas. Men bunga javob bermog'im darkor. Dunyo mening kashfiyotimni qabul aylagundai bo'lса, g'oyalarimni ruhning o'zini o'zi yangicha tushunishi deb bilguday bo'lса, murodimga yetishishimga yoki bo'lmasa, qaqshatqich zarba yeb, o'z kashfiyotimning qurboni bo'lishimga aqlim yetar edi. Boshqacha bo'lishi mumkin emas edi. Men tavakkal qilgan edim. So'nggi so'zim shu. Men odamlarga yomonlik sog'inmoqchi emas edim. Lekin amalda boshqacha bo'lib chiqdi. Yaxshi niyat yomonlikka aylanib ketdi. Endi hammamiz ana shu yovuzlik qarshisida ojizmiz. Biroq men kashfiyotning o'zidan, cassandra-embrionlar fenomenidan, ular dunyoning oxir bo'lishi xabarchisi degan fikrimdan hech qachon voz kechmayman; kishilar bilib qo'yishsin: oxirzamon o'zlarimizda yovuzlikning muttasil jamg'arilib borishidan, o'zlarimizning qilmish-qidirmishlarimizdan, niyatlarimizu maqsadlarimizdandir; bularning hammasi odamning genetik kodiga ta'sir e'tib, buhronni yaqinlashtiradi. Peshona devorga tekkandan keyin kech bo'ladi...

Zalda shovqin ko'tarildi. Qahr-g'azabga to'la ovozlar jarangladi. O'tirganlardan bittasi mikrofonga kelib jon-jahdi bilan baqira ketdi:

— Do'q-po'pisani to'xtating! Laqillatganingiz yetar! hamma eshitib qo'ysin: bu samoda turib insoniyat ustidan hukmronlik qilmoqchi bo'lib yurgan shaytoni laindir. Ha, ha, o'tmishning hokimi mutlaqlari ana shunday qudrati mutlaq haqida xayol surganlar, butun dunyoda hukmron bo'lishni orzu qilganlar, inchunin bu o'sha Hitler, o'sha Stalin. Ular qon kechib kelib, qon kechib ketganlar. Bu esa samodan turib tovlamachilik qilish bilan dunyoda hukmron bo'lmoqchi. Hozir u xalq nafratidan yiroq, ana shuni bilib turib, insoniyatga zulm o'tkazmoqda!

Entoni Yunger chidab tura olmay mikrofonga otildi:

— Mister, sizning kim ekanligizingizni men bilmayman mikrofonga qarab tomog'ingizni yirtishdan oldin yo'q deganda o'zingizni tanishtirsangiz-chi!

— Mening ismim o'lguday jo'n — Smit, Jon Smit.

— Bu boshqa gap, Jon Smit! Siz bilibmi-bilmasdandanmi, ishning mohiyatini noto'g'ri talqin qilayotirsiz, sizning ozodligizingizni-yu huquqingizni hech kim poymol qilmayotir. Siz xohlaganingizday yashayverishingiz mumkin. Biroq kashfiyot qilgan, kishilik tarixida eng buyuk kashfiyot qilgan olim sizning betashvish, bamaylixotir yashashingiz uchungina o'zining ilmiy tadqiqotlarining natijalarini jamiyatdan yashira olmadi va u buni yashirmsligi shart edi. Filofeyni haqiqatdan, o'zlikdan voz kechishga majbur qilsa bo'lar, lekin voqeа voqeligicha qolaveradi — cassandra-embrionlar yashayveradi. Cassandra tamg'asi bundan buyon o'zimizdagи yovuzlik nishonasi bo'lib qolaveradi. Va biz o'zimizga firib bermasligimiz, bor narsani o'zimizdan yashirmsligimiz darkor. Aksincha, biz, aniqroq nima desam ekan, harbiylar tili bilan aytganda, o'qqa ko'krakimizni tutishimiz kerak...

— Nima deyapsiz?! Shunday deb bo'ladimi — o'qqa ko'krak tutish kerak emish! Kim ko'krak tutadi? Ayollar ekan-da, — butun zalda xotin-qizlar guv etib dod-voy solishdi. — Siz faqat erkaklarning manfaatini ko'zlaydigan xudbin ekansiz! Xotin-qizlarning ishtirokisiz ish bitirishga erkaklarga kim ruxsat berdi! Bu yerda ham la'nesi patriarxat ish berayotir! Men shaxsan o'qqa ko'krak tutmayman! O'sha jirkanchni, isnodni peshonamga tamg'a qilib bosib yurmoqchi emasman.

— Kechirim so'rayman! — ekrandan Filofeyning ovozi chiqdi. — Kechirasiz. Xudo haqi, men sizning so'zingizni bo'lmoqchi emas edim, lekin aytmasdan tura olmayman: Cassandra alomati — nuqson ham, isnod ham emas. Aslo, men tushuntirib berdim: bu cassandra-embrionning odam bolasida avloddan-avlodga jamg'arilib borilayotgan yovuzlikka munosabati, bu biz bilan sizni ogoh qilayotir. Dunyo oxir bo'lishining sababi o'zimizda — Cassandra tamg'asi ana shunday nishonadir. Iltimos, tinchlaningiz. Shu daqiqada meni eshitib turganlarning hammasidan o'tinib so'rayman, oxirgi

vidolashuv so'zimni aytib olishga ruxsat etgaysiz. So'nggi bir kechayu kunduzda ko'rganlarim, eshtganlarim mening kashfiyotimning juda barvaqt, bemahal ekanini, bu kashfiyat zamondoshlarimizga tushuniksiz ekanini ko'satdi. Va shuning uchun men yo'qolishga, hayotdan ketishga, yaxshilik bilan, ezgulik bilan, tinchlik bilan foniylikdan boqiylikka rixlat etishga qat'iy qaror qildim, buni men hech kim xalaqit bermaydigan kosmosda qilaman. Ana shu daqiqalarda meni eshitib, ko'rib turgan yoki meni keyinroq bilib oladigan insonlar oldida o'z aybimga iqror bo'lmoqchiman. Men eng musaffo niyatlar bilan ish ko'rgan bo'lsam ham sizlarni qiyonoqqa solib qo'ydim. Endi hayotdan ko'z yumayotirman. Men hozir ochiq fazoga chiqaman. Shunday qilib hayotimga yakun yasayman. Buni taqdir deydilar. Men bunday o'limga tayyorman, boshimga shlyom kiysam bo'ldi. Men Pushkining "O'sha, bulutdan yuksak hujraga Xudoga qo'shni bo'lib yashirinsam" degan chaqirig'iga ko'ra intilib samoviy hujramni tark etishdan oldin, ya'ni so'nggi qadam tashlashimdan ilgari meni ko'rib va eshitib turgan barcha odamlarni ishontirib aytmoqchimanki, sayyoraga zondaj-nurlar tarqatib turgan barcha asbob-uskunalarini o'z qo'lim bilan yo'q qildim. Barcha hisob-kitoblar, tadqiqotlar, tadqiqotlar bilan bog'liq barcha yozuvlar, Cassandra tamg'asi fenomeni bilan aloqador jamiki narsalar yo'q qilindi. Bularning hammasi yo'qoldi. Bularning hammasi o'zim bilan birga ketadi. Bundan buyon xotirjam bo'linglar. Ehtimol, inson tafakkuri qachonlardir bu hodisaga yana qaytajak, lekin bu bizdan keyin bo'ladi, bu keljakning ishi. Hozircha esa hammasi falakning gardishi bilan davom etayotir. Hech qanday izsiz. Mendan keyin kimdir orbital stantsiyani ko'zdan kechiradigan bo'lsa, bir narsaga ko'zi tushishi mumkin. U ham bo'lsa mening o'z hayotim haqidagi yozuvlarim, samoviy rohibning taqdir, vaqt to'g'risidagi, Cassandra-embriolarning qanday qilib va nima uchun menga oshkor bo'lib qolganligi to'g'risidagi memuarlardir. O'zimdan qoldirganim faqat shu. Agar, o'g'lim Entoni Yunger bordi-yu bular senga ma'qul tuyulsa, ana shu yozuvlarni men senga vasiyat qilib qoldiraman.

Qimmatli Yunger, kechirasani, senga o'g'lim deb murojaat qilayotirman, bu mening yurak amrim. Taqdirimdan rozmanki, odamlar oldida seni o'g'lim deyayotirman. Mening hayotim shunday kechdiki, farzandsiz qoldim va oxir-oqibatda, so'nggi lahzalarda Entoni Yunger degan o'g'lim bor deb o'layman.

Zal jim bo'lib qoldi. Yana Filofeyning ovozi yangradi:

— Meni afv etasizlar, odamlar! Vidolashish paytida hammasini aytolmaysan. Lekin bir narsa haqida indamasdan tura olmayman. Meni ko'pincha soxta rohib, soxta Filofey deb atashgan. Ha, bu to'g'ri. Hech kim meni rohib bo'lish uchun sochimni qirqqan emas, menga hech kim Filofey deb ism bermagan. Lekin gap cherkov marosimida emas, gap taqvodorlikdadir. Bu sohada meni to'g'ri tushunishlarini so'rayman.

Vaqt yetdi. Sizlar bilan vidolashaman. Yer kurrasini ekranlardan birida butunisiga ko'rib turibman — sayyoramiz koinot bo'shlig'ida suzib yuribdi, ikkinchi ekranda esa ayrim-ayrim manzaralar yirik qilib ko'rsatilayotir — unda hatto daraxtlar, o'tlar, toshlar ko'zga tashlanadi. Birdan qandaydir g'alati, hozircha tushunib bo'lmaydigan manzara paydo bo'ldi. Agar orbital monitordagi manzaralarni yerdagilarga olib ko'rsatish texnikaviy jihatdan mumkin bo'lsa edi. Siz o'sha manzarani o'z ko'zingiz bilan ko'rgan bo'lar edingiz. Qarang, qarang, mana ekran mening yonimda, o'ng tomonimda turibdi, qarang ekranda dengiz, bu ummon — Atlantika okeani! Qarang, sohil yaqinidagi sayoz qirg'oqqa qandaydir dahshatli to'lqinlar yopirilmoqda va nima bo'layotganini ko'rib turibsizlarmi?! Kitlarni ko'rayapsizmi?! Man shu kitlar, bir gala bo'lib suzib yurishibdi. Ular tog'larga o'xshab okeandan suzib chiqishmoqda, qarang, voy-bo'y dahshat. Yopiray, Tangrining qudrati bilan kitlar o'qday suzib kelib o'zini qirg'oqqa otmoqda! Ular nimalar qilyapti? Bular o'zini o'zi o'ldiradigan kitlar-ku! Ularga nima bo'lgan? Nima uchun suvdan chiqadi? Nima sababdan halok bo'lishni xohlab qolishadi. Buning boisi nimada? Kitlarni shunday qilishga nima majbur etayotir? Qandaydir yovuz kuch, qandaydir dahshat o'limga majbur qilayotirmi? Yoki bu keyingi qilmish-qidirmishlarimiz bilan bog'liqmikan? O'zlarini o'limga mahkum qilgan kitlarning nima uchun shunday qilayotganini tushunayotgandayman. Afsuski, bu hodisaning tub sababini chuqurroq o'rgana olmayman, hayotning ana shu g'aroyib jumbog'ining

sirini bilib olish uchun endi vaqt yo'q. Robert Bork ham xuddi shu ahvolga tushib qolgan edi. Uning maqolasini o'qir ekanman, tafakkurining naqadar teran ekanligini tuydim. Shu bilan birga matn ortida aytib ulgurilmagan yana qandaydir fikr bor edi. Men bir-birimizga dilimizni ochamiz va Ruhni yangichasiga tushuna boshlaymiz deb umid qilgan edim. Biroq bu nasib qilmadi. Kitlar ham xuddi shu ahvolga tushib qolgan. Ularning tili bo'lganda edi, ko'p narsalarni bilib olgan bo'lur edik... Lekin men uchun endi kech bo'ldi... ularning nolalarini eshitayotganga o'xshayman. Kitlar meni chaqiryapti. Men kitlarga qo'shilib ketaman. Men ham o'zimni qirg'oqqa uloqtirib o'ldiradigan kitman. Azizim Robert! Men sening oldingda aybliman. Endi o'zim kitlar bilan birga sening yoningga boraman. Alvido...

Shunday keyin hammaning ko'z o'ngida ro'y bergan voqeа tomoshabinlarni hang-mang qilib qo'ydi. Filofey butun dunyoning ko'z o'ngida, teleekranlar ro'parasida o'tirgan barcha kishilarning qarshisida hayot bilan vidolashdi. Samoviy rohibning har bir harakatlari uning qarori qat'iy ekanligini ko'rsatib turardi. Rohibning o'zini o'zi o'ldirayotganini hamma ko'rib turdi. Va hech kim Filofeyni o'lim bo'sag'asidan qaytara olmadi...

Zalda vahimali jimlik hukm surar edi. Hech kim qimir etmas, ovozini chiqarmas edi. Barchaning nigohi samoviy rohib hayotining so'nggi onglari aks etgan ekranga qadalgan edi. Entoni Yunger o'lim erkinligi ruhning hech nima bilan to'ldirib bo'lmaydigan, hech nima bilan o'lchab bo'lmaydigan ulkan fojeasi ekanligini payqab qoldi. Shu paytda Filofey boshiga kosmonavtlarning katta shlyomini kiyib uni kombinezon yoqasiga tugmalab qo'ydi. Ana shu daqiqadan boshlab uning chehrasini ko'rib bo'lmay qoldi. Hammasi tayyor bo'ldi. Ochiq fazoga chiqish kerak edi. Filofey orqasiga qaradi, bir narsalar deganday bo'ldi, lekin so'zlarini eshitib bo'lmas edi. Qo'li bilan vidolashar ekan, ochiq kosmosga sakrash uchun tuynuk tomon yurdi. Tuynukning tabaqalari ochildi-yu, Filofey bo'shliqqa qadam tashladi.

U yulduzlararo fazoga chiqib yuqorisi ham, pasti ham, chap tomoni ham, o'ng tomoni ham, ufq ham, chegaralariyu o'lchovlari ham bo'lmaydigan cheksizlikka indi.

U fazoda bir oz muallaq turib qoldi. Keyin kemadan tobora uzoqlashib intihosi va ibtidosi yo'q fazoda suzib ketdi.

U vaznsizlik holatida muallaq suzib, ko'p o'tmasdan ko'zga ko'rinxay qoldi.

## O'nbirinchibob

Qirg'oqqa otilgan kitlar sayozlikda ko'zlarini chaqchaytirib qiynoq va dahshatda jon taslim qilmoqda edi. Kitlarning jasdralri yong'inda kuyib ketganga o'xshab u yer-bu yerda dumalab yotar edi.

Yer esa hamon Quyosh atrofida aylanib-o'rgilmoqda edi.

Keyingi kuni ertalab butun dunyo gazetalari kelishib olganday birinchi sahifalarida "Kosmosda birinchi xudkushlik!", "Samoviy rohib Filofey insoniyatni Cassandra tamg'asining og'ir sinovlaridan ozod qildi!", "Joyi jannatda bo'lsin!" kabi shiorlar bilan chiqdi, gazetalar, teleekranlar va radiokanallar xilma-xil sensatsiyalarni tarqatdi.

"Tribyun" gazetasida Entoni Yungerning bir necha shoshilinch satrlari bosildi: "Men otalarim Filofey bilan Robert Bork izlaridan boraveraman..."

Shu bilan birga ichiqoralik bilan bayon qilingan tantanavor hayqiriqlar ham bor edi: "Soxta rohib arshi a'loga ko'tarila olmaydi. U hozirdanoq koinotda qorni osmonda bo'lib qolgan!"

Xilma-xil hayratomuz yangiliklar orasida yana o'sha sirli xabar: "Atlantika okeanining g'arbiy sohilida katta bir gala kitlar okeandan quruqlikka otilgan. Hammasi nobud bo'lgan".

Yana bir g'alati, kurakda turmaydigan xabar Rossiya gazetalaridan ko'chirib bosildi: "O'tgan kechasi Qizil maydonda kimdir mavzoleyning ustiga o'lgan boyqushni uloqtirgan. Qushning tanasida portlovchi qurilma topilmagan".

Ikki kundan so'ng Robert Bork dafn etildi. Qabristonda shovqin-suron bo'lindi. Kuz. Osmon musaffo. Dafn oldidan duo o'qilayotgan paytda Entoni Yunger osmonga boqar ekan, xayolidan shu

narsalar kechdi: haqiqat yo'lini tanlagan har ikkalasi taqdir etilgan o'z joylarini egallahshdi: biri – kosmik fazodan, poyonsizlik oqimidan, ikkinchisi — yer qa'ridan, abadiylik og'ushidan o'r'in oldi. Va haqiqat ham ular bilan...

## Epilog

"Otang kim?" — deb so'rashsa,  
"Shamoldan bo'ldim", der emish.  
"Onang kim?" — deb so'rashsa,  
"Tumandan bo'ldim", der emish.

*Qirg'iz xalq qo'shig'idan.*

"Vaqtimning kuyib kulga aylanishiga sanoqli onlar qoldi. Shu bois vidolashuv maktubimni kompyuterda terishga oshiqyapman. Nihoyat, yana g'aroyib hodisaning guvohi bo'ldim: Yerda tag'in yangi kun tug'ilishi uchun yorug' tun zulmati yamlab yutayotir. Mana sizga mangulikning zohiriyoqimi, mana sizga vaqtning ayoniy poyonsizligi. Biroq orbitadan kuzatayotgan shaxsning qismati bitdi.

Koinot miqyosida inson umri pashshaning umriday gap. Biroq insonga tafakkur ato qilingan, shu narsa uning umrini uzaytiradi. Lekin aksi ham bo'ladi — keskin qisqartiradi ham. Kun bilan tunning almashinishi sirini necha martalab beixtiyor kuzatganman, o'shanda o'zimga oxirgi nuqtani o'zim qo'yaman deb sirayam o'ylamagan edim. Endi mening kunim bitdi, gunohkor hayotimning oxirgi kuni, mening uchun qiyomat kuni yetdi. Har qanday kishining hayoti bilan bog'liq barcha narsalari kabi, mening qiyomat kunim ham o'zim bilan birga ketadi. Men qiyomat kunimni o'zim belgiladim, ayanchli imtiyozim ham, inqirozim ham shunda.

Mana shu satrlarni bitib bo'lgach, nasib qilsa, kosmik matbuot konferentsiyasida so'zga chiqmoqchiman. Shundan so'ng hayot bilan vidolashib o'z jonimga qasd qilaman. Mening o'zimga chiqargan hukmim shundoq. Men turmushning qonun-qoidalarini buzdim. Men millionlar nafratiga yo'liqdim. Robert Borkning o'limiga men aybdorman. Men boshi berk ko'chaga kirib qolganman. Men daf bo'lismi, hayotdan ko'z yumishim lozim. Boshqa yo'l yo'q.

O'lim oldidan nafas olib to'ymaysan deyishadi. Lekin men pirovardida hamma gapni ochiq aytib olmoqchiman. Yerdagi la'nati hayotning, joningga tegib bo'lgan bu dunyoning sendan keyin qanday bo'lisingining nima ahamiyati bor? Senga bari bir emasmi? To'ng'iz qo'pmaydimi? Biroq o'z qo'lim bilan hozirlagan ajalim oldidan meni vahima bosmoqda — odamlar nima bo'ladi, Kassandra tamg'asi hodisasini ertangi kun kishilarining aql-idroki, qalbi qanday qabul qiladi? Nima bo'lganda ham, la'natlangan haqiqat haqiqat bo'la olmaydi. Bugun inkor etilgan muammo ertaga yana paydo bo'ladi, bunday qutilish hecham mumkin emas.

Mening kun-soatim bitdi. Bundan tonib bo'lmaydi. Orqaga yo'l yo'q. Odamlar, men sizlarga tavbatazarrumni qoldirayotirman. Bundan siz keyinchalik o'zini samoviy rohib deb e'lon qilgan kaminaning kim ekanini, nasl-nasabimni, umrimni qanday o'tkazganimni, nima ishlar qilganimni mash'um kashfiyotim — Kassandra tamg'asining sir-asrorini qanday bilib olganimni tushunib yetasiz...

Vidolashar ekanman, yana ikki og'iz so'zim bor. Kosmosdaligimda mening ongimda mislsiz kechinmalar, xayol-fikrlar jo'sh urdi. Nima uchun shunday bo'ldi — bilmayman sababini. Har safar kosmosdan bulutlar pardasi orqali yerga boqar ekanman, tahnilar o'qiyan: yo Rabbim, qanday buyuk bir samoviy xilqat Yer o'zi. Quyosh ham insoniyat maskani bo'lmish Yer uchun yaratilgan bo'lsa ajab emas, yo'qsa bularning hammasi na kerak? Dunyo inson uchun kerak — odam uning asl mohiyatini tushunib olish uchun yaratilgan, shu bois ham dunyo turibdi. Bo'lmasa butun boshli galaktikasi nimaga kerak, aks holda na mazmuni bor, na mundarijasi bor dunyosining? Xudo haqida ham shunday deyish mumkin! U odam uchun zarur, shuning uchun ham u Xudo, shuning uchun ham u barhaq! Lekin inson shu koinotga, dunyoviy qonunlarga munosibmikin? Ana shu ulkan ochunga arzirmikin? Olamning jumbog'i ana shunda!

Bas, kunpayakun bo'lish fursati yetdi. Sanoqli daqiqalar qoldi. Ko'p o'tmasdan o'zimni uloqtirib tashlayman, stantsiyadan ochiq fazoga sakrayman. Yerdan uzoqda. Benihoya uzoqda. Va butunlay gum bo'laman.

Meni afv etinglar.

*Filofey"*

Filofeyning xati va uning Tavba-tazarrusining ruscha matni orbital stantsiyaga astronavtlar kelishi bilanoq kosmik rohibning xonaqosidan Yerga jo'natildi. Kosmik kema qo'mondonining shoshilinch xabarnomasida aytishicha: shaxsiy kompyuterning xotirasida Filofeyning vasiyati saqlangan, bu vasiyatda samoviy rohib kosmik stantsianing bo'lajak xodimlariga murojaat etib, kompyuter xotirasida terilgan Tavba-tazarruni Entoni Yungerning ixtiyoriga yuborishni iltimos qilgan. "Entoni Yunger mening yozganlarimni nima qilsa o'zi biladi".

Matn sarlavhasi: "Sen bilan va sendan keyin ko'rgan-kechirganlarim".

So'ngra bunday deyilgan:

"Ilgarilari kosmosdagi orbital stantsiyaga kelib qolishni xayolimgayam keltirmagan edim. Meni bu yerga fan yetaklab keldi. Lekin kosmosga faqat ilmiy maqsadlar ilinjidadina kelmaganimni, balki badarg'a qilinganimni, Yerdan tashqariga o'zimni o'zim quvg'in etganimni, keyichalik o'zimni samoviy rohib deb nomlaganimni hech kim bilmaydi. O'tmisht davrlarda siyosiy yoki boshqa sabablarga ko'ra chet ellardan o'z vatani — Sovet Ittifoqiga qaytmagan va shu tariqa butun dunyo ko'z oldida buyuk davlatning hokimlariga qarshi chiqqanlarni "o'z vataniga qaytishdan bosh tortganlar" deb atashgan, meni ham shunday deb atash to'g'ri bo'lsa kerak.

Yo'q, bu gal ishlar boshqacharoq. Men badarg'a ham qilingan emasman, o'z vataniga qaytishdan bosh tortgan kishi ham emasman, osmoni falakka kelib qolishimni tushuntirish qiyin — bu o'zlikka chekinish, kosmos orqali o'zlikka chekinishdir. Buni ruhiyatning kosmos bilan uyg'unlashib ketishi desa bo'lar edi, biroq bu o'ta balandparvoz tuyulishi mumkin. Lekin kosmosda bo'lism butun hayotimning mantiqiy yakuni, taraqqiyotimning eng oliy va so'nggi nuqtasi bo'ldi. Bu azaliy qismat bo'lsa ajab emas. Bunga ishonish qiyin, lekin dunyoda nimalar bo'lmaydi deysiz.

Mening taqdirim ham boshqalarnikidan ayricha. Shu bois ham men umrim bo'yи bu haqda gapirmaslikka, nasl-nasabim, to'g'rirog'i tug'ilishim sirini doimo oshkor qilmaslikka tirishdim.

Meni chaqoloqligimda adyol ustidan qop-matoga o'rab bolalar uyining eshigi oldiga tashlab ketishgan. Eshik oldidagi soyabonli pillapoya rus tilida "kiriltso" deyiladi. Menga bolalar uyida Kriltsov deb familiya berishganining sababi ham shunda. Otimni Andrey deyishgan, ota ismim Andreevich ham ismimdan olingan. Kriltsov Andrey Andreevich. Bu ayanchli voqeа, menga aytib berishlaricha, 1942 yilning oxirlarida subhidamda ro'y bergen. O'shanda qor qalin edi. Men esa subhi sodiq paytini es-es bilaman, desam, bunga hech kim ishonmaydi, albatta. Lekin men to'g'risini gapiraman. O'shanda qulog'imga onamning qadamlari ostida qorning g'arch-g'urch ovozi eshitilgan. Yodimda, onam o'sha qish kuni, kallayi saharda shosha-pisha qadam tashlar edi. Esimda, u bezovtalanib meni bag'riga bosar, dam-badam seskanib cho'chib tushar edi, onam yuragini qo'rqinch aralash gupillab urganini mening norasta tanam sezар edi. U qadam tashlab borar ekan, harsillar, o'zicha nimalarnidir gapirib-gapirib qo'yар, menga qarab nimalarnidir pichirlar, o'krab yuborguday bo'lar va ko'z yoshini bazo'r tiyar edi, onam meni bolalar uyining eshigi oldiga tashlab ketish uchun ko'tarib borayotgan paytda adyolning tirkishidan uning yuziga ko'zim tushdi, qor qoplagan kipriklarini, tepadagi bulutli osmonni, qor uchqunlarini ko'rdim. Bo'ralab qor yog'ayotgan edi. Aftidan u mening qulog'imga shunday pichirladi: "Sen yig'la, ovozing boricha yig'la, o'shanda sening ovozingni tezroq eshitishadi".

U meni eshik oldida yerga qo'ygandan so'ng bu qilmi-shining sir-asrorini hadeganda tushunavermadim. Men sovuq yeya boshladim va onam qaytib kelib meni ko'tarib olar deb kutdim. Lekin u nariroqda qor bosgan butalar orqasida yashirinib turar va men tomonga kelmas edi. Shundan keyin men yig'ladim, qattiq yig'ladim, shu asnoda eshik ochilib, kimir keldi-da meni ko'tarib olib ketdi...

Qorni tilga olishimning boisi shuki, keyinchalik eshitishimcha qor uyumlarida onamning izlari

qolgan, boshqa hech qanday nishona topilmagan ekan.

Men endi tasavvur qilaman – butalar orasida yashirinib turish va tashlandiq bolasining chinqirig’ini eshitib ham yoniga kelmaslik onamga oson bo’lmagan bo’lsa kerak. Men tez-tez, doimo bir xil tush ko’raman: qalin qor uyumlari uzra qadam tashlayman va onam izlarini axtara ketaman, bu izlar esa qorong’i o’rmonga olib boradi: meni vahima bosadi, qor ko’mib tashlaydi, sovgotaman: “Ona! Onajon!” deya faryod solaman-da, uyg’onib ketaman.

Lekin mening onamni o’sha dahshatli sahar paytida bunday mudhish qilmishga nima majbur etdi ekan? Koshkiydi bilsam! Mening otam kim edi? Buni onamning o’zi bilganmikin? Shu kabi ko’plab savollar men uchun javobsiz, butun umrim bo’yi jumboq bo’lib qolaverdi.

Bolalar uyida bu haqda menga hech kim og’iz ochmadi, o’zim ham bunga harakat qilmadim. Ochig’ini aysam, kimgadir yuragimni to’kib solgim kelar edi. Lekin onamning o’sha qorli qish kuni tongda meni ko’tarib borganini eslayman, xolos, boshqa hech vaqo yodimda qolmagan. Buning ustiga chaqaloqligimda esimda qolgan voqealarni aytib bergenim bilan hech kim ishonmas edi.

Ammo dunyoda nima uchundir mening so’zlarimga qulq soladigan, aytganlarimni jon qulog’i bilan eshitadigan ayol bor edi. U Valeriya Valentynovna yoki xizmatdoshlari tili bilan aytganda Valya edi. Biz bolalar ham uni Vava, Vava xola der edik. Bu so’zda qandaydir iliqlik, qon-qardoshlik ma’nosи borday edi. Tabiiyki, Vava xola bizning eng suyukli tarbiyachimiz edi.

Bizning 157-bolalar uyimiz Ruza shahrining chekkasida, Maleevka posyolkasining yonida Moskvadan taxminan yuz chaqirim narida edi. Bolalar uyi nemis qo’shinlari Moskva ostonasidan chekingandan so’ng oradan ko’p o’tmay front yaqinidan keltirilgan bolalar uchun yetimxona sifatida qurilgan edi. Vava o’sha paytida bu yerga yaqin – Ruza shahridagi o’rmon-parkda joylashgan kompozitorlarning Ijodiyot uyida ishlar edi. Aslida bu koshona sovet kompozitorlarini yetishtirib beradigan «parvarishxona» edi. Bu yerda turli o’lkalar va respublikalar kompozitorlari davlat ta’minotidagi parvarishxonada har biri shaxsiy kottejda yashab asrning tantanali muzikasi – barcha zamonlarning eng buyuk dohiysi, xalqlarning otasi o’rtoq Stalinni sharaflaydigan kantatalar va xorallar ijod qilishar edi... Ba’zida bu yerga yuksak martabali partiya arboblari qadam ranjida qilishib, etikchi o’g’lidan XX asr hokimiga aylangan ana shu zotga bag’ishlangan muzikaviy asarlarni birinchi bo’lib eshitib ko’rishar edi. O’qtin-o’qtin bu yerda otaliq kontsertlari ham uyuhshtirilar, bunday kontsertlarga biz – bolalar uyining tarbiyalanuvchilari ham kiritilar edik. Vava xola ijodiyot uyining ma’muri edi, buning ustiga bu ayolning o’zi binoyiday pianinochi ham edi. Shu bois u urushdan keyin bizga muzika rahbari bo’lib kelgan edi.

Qirq birinchi yilning kuzidan to qirq ikkinchi yilning bahoriga qadar Ruza shahri va uning atroflarida nemislarning tank qo’shinlari turgan edi. Bu voqeaga mening hech qanday daxlim yo’q edi, albatta, biroq men tug’ilgan vaqt bilan tashlandiq bolalik taqdirim o’rtasida qandaydir aloqa borga o’xshaydi, har holda Vava xolaning bu haqda o’ylanib qolganlarini sezganman. O’smirligimda men bilan bo’lgan suhabatlarda bunga shama qilgan paytlari ham bor. Vava xola Ruza deyarli yarim yil davomida nemislar qo’lida ekanligida shu shaharda yashagan, ko’p narsalarni biladi. Ikkalamiz muzika xonasida xoli qolganimizda u menga nota o’rgatar edi, ba’zan shunday ham bo’lar ediki, suhabatimiz muzika mashqlaridan yiroq-yiroqlarga ketar edi.

Vava! Vava! Qani endi keksa bo’lsa ham yonimda senga o’xshagan onam bo’lsa edi, sen o’z onamday sirdosh, jondoshsan. Tasodifni qarang, hech qachon mening onam bo’lmagan, Vavaning esa – bolalari. Bu ayolning hayotida nega omadi kelmaganikin, uning bola-chaqali bo’lishiga nima xalaqit berdiykin? Ehtimol u so’qqabosh bo’lganidan yetim bolalarni joniday ko’rar?

— Andryusha, — der edi u menga, — sen tashlandiq ekanligindan ich-ichingdan zil ketasan, albatta. Men sening ahvolingga tushunaman. Bu haqda o’ylamaslik mumkin emas. Lekin bunday o’y-xayollardan ne naf? Sen o’zingga chetdan qarab boq. Butunlay o’zgacha bir manzarani ko’rasan. Men yanglishmasam, Xudo senga, Andryusha, cho’ng iste’dod ato qilgan. Xudo haqqi shunday! Mening so’zlarim bir kuni bo’lmasa, bir kuni esingga tushar, sening boshing oltin, sen haddan ziyod qobiliyatli bolasan. Hatto muzika sohasida ham sendan binoyidek navozanda chiqishi mumkin. Lekin kim bo’lish

o'zingning ixtiyoringga. Muzikani o'zing uchun o'rgansang bo'ladi, odamlar uchun esa boshqa sohalarda xizmat qilishing mumkin. Maktabni tugatib o'qishni davom ettirasan, xohlaganingday hayot qurasan. Sen uchun hamma yo'llar ochiladi, Andryusha, bunday zehnu qobiliyating bilan hali uzoqqa borasan. Senga xalaqit beradigan narsaning o'zi yo'q. Onangning kim ekanligini parvardigordan boshqa hech kim bilmaydi, otangning kim ekanligi ham mutlaqo noma'lum. Onangni kim majbur qildi o'z jigarporasidan voz kechishga, g'oyib bo'lishga? Bu haqda biron narsa deyish amrimahol. Mening fikri ojizimcha, sen onangning go'riga g'isht qalamasliging kerak. Yo'q, ona aybdor bo'lsa ham uni afv etish lozim. Sen onangdan minnatdor bo'lishing kerak desam jahling chiqmasin. Ha, minnatdor bo'lishing joiz. Bu gaplar qulog'ingga g'alati eshitilishi mumkin. O'zing bir o'ylab ko'r, Andryusha. Birni ko'rib fikr qil, mingni ko'rib shukr qil. Sendagi favqulodda salohiyat onangdan, ota-onangdan meros, bu iste'dod onangdan, u orqali o'tgan. Seni tashlab ketish oson bo'lmagandir u mushtiparga. Shunga jur'at qiptiki, seni asrab qolishning boshqa chorasini topolmagan, sho'rlik. Bunga mening iymonim komil. Tavakkal qilib tahlikaga borgan. Bunday yo'l tanlashga nima majbur qilgan uni? Bilmayman. Eng muhimi, sen omon qolding. Gap gap bilan, ammo mamlakatimizdag'i bolalar uylari chakki emas. O'zingga qarab baho beraverishing mumkin. Gap yana onangga borib taqaladi. Sening bo'y'i-basting, aqli hushing onangdan meros. Sendagi jismoniy va aqliy iqtidor aksari tabiatdan, demakki onangdan. Mening senga bir maslahatim bor: sening onang noilojlikdan shu yo'lni tutgan, bu so'zlarimni qulog'ingga qo'rg'oshinday quyib ol. Voyaga yetgach, oq-qoran o'zing ajratib olarsan.

Yillar o'tib men shunday xulosaga keldimki, Vava qandaydir favqulodda vaziyatlarni, ochiq muhokama qilib bo'lmaydigan sirlarni nazarda tutgan ekan. Vavaning o'z fikrlariga naqadar amin ekanligi haqida biron narsa deb bo'lmaydi. Oradan bir necha yil o'tgach, Moskvada universitetda o'qib yurgan kezlarimda Vava vafot etdi. Lekin Vavaning gaplari umrim bo'y'i qulog'imda jaranglaydi, ammo kampirning og'zidan chiqqan so'zlarining to'g'ri-noto'g'riliqini isbotlaydigan biron dalil yo'q.

Men to'qqizinchi sinfda o'qib yurgan paytlarimda Maleevka posyolkasida katta baxtsizlik ro'y berdi. Bir ayol va uning o'n yetti yashar qizi o'z jonlariga qasd qilishibdi. Avval ona, so'ng qizi o'zini osib qo'yibdi. Ona yolg'iz qizi bilan turar ekan. U kompozitorlarning ijodiyot uyida farrosh bo'lib xizmat qilar, qizi esa mакtabda o'qir ekan. Bu ayol nemis qo'shinlari Moskva ostonasidan chekinib ketgandan so'ng yarim yil o'tgach tuqqan ekan, qizi nemis soldatidan, ya'ni bosqinchidan, istilochidan, fashistdan tug'ilgani hech kimga sir emas ekan. Qo'shnilar sho'rlik ayolga kun berishmas, mакtabda esa qizchani ko'z ochirishmas ekan. O'sha kuni Vava bu fojiali voqeadan dahshatga tushib og'zidan g'alati so'zlar chiqib ketdi, men bo'lsam kampirning ilmoqli so'zlarini qulog'imga quyib oldim: "Sirayam o'zimga kelolmayapman, Natalya, — dedi u tarbiyachilardan biriga, — qanday dahshat bu! Qanday vahshiyona ajal bu! Onasi ham, qizi ham o'z joniga qasd qilsa-ya!... Odamlarni ne ko'yga solish mumkin, axir?! Tanangga mundoq o'ylab ko'rsang, nima uchun shu darajaga borishdi? Urush urushda! Uning vahshiyona qonun-qoidalari bor. Bir-birlari bilan urishishadi, bir-birlarini o'ldirishadi. Lekin odamlarga tokaygacha yomonlik sog'inish, ta'na toshini otish, malomat qilish mumkin? Xo'p, bo'lar ish bo'pti, sho'rlik ayol boshiga balo qilib nemisdan bolalik bo'libdi, tug'ibdi, o'z boshiga sho'rishu g'avg'oni sotib olibdi. Nega endi undan o'ch olish kerak ekan! Qanday vahshiylik bu! Qizchaning gunohi nima ekan?! Axir hech kim ota-onasini tanlolmaydi-ku, ota-onang kim bo'lishi Xudodan. Nega endi sho'rliklarning ko'zini ochirishmaydi? Bordiyu ona o'z jigarporasini eshik oldiga tashlab ketganda, mushtday farzandning chivinday joni omon qolsin, el qatori unib-o'ssin deb o'zi ochiq mozorga kirgandek, nom-nishonsiz yo'qolganda, tirik murda bo'lib yurganda anavilarning qichig'i qonarmidi?"

O'sha paytlardan boshlab vaqt-soati yetib jo'ja tuxum po'chog'ini teshib chiqqani kabi, miyamda bir fikr nish urdi: mening onam ham, xuddi o'shanaqa bo'lib chiqsa-chi, onam norasidani eshik yoniga tashlaboq dorilbaqoga rixlat qilgan bo'lsa-chi?..

Bunday hodisa nechuk va qanday holatlarda yuz bergan bo'lishini tasavvur etishga urinib ko'rdim. Xayol oti olib qochdi, kallamga nimalar kelmadı deysiz. Hechqaqo yo'q, kimsasizlik, ma'naviy yolg'izlik. Dengizda kemadan qolib ketgan kishi xuddi shunday ahvolga tushsa kerak... Ovozing boricha qichqirsang ham kema ko'zdan g'oyib bo'ladi. Tevarak-atrofda tirik jon ko'rinxaydi, qayoqqa

qarasang faqat dengizni ko'rasan. Qирг'оқдан nom-nishon yo'q... Kimdir uni dengizga tashlab yuborgandir? U kim edi?

hammasini bilish, o'zimcha bu savolga javob topish istagi tinchlik bermas edi menga. Lekin nega menda shunday istak paydo bo'ldi, bundan murod ne edi – bu savollarga javob topa olmas edim. Bundan qanday naf ko'rар edim? hech qanaqa! Bordi-yu mening otam nemis soldati bo'lsa, uning taqdiri ne kechdi ekan – shu kabi savollar tinchimni buzzardi mening. Birdan miyamda kurakda turmaydigan g'alati fikr paydo bo'ldi – nega endi u mening padarim bo'lishi kerak ekan, buni kim undan iltimos qildi, butun Yevropani qadamlab kelib, meni dunyoga keltirishni va suvga cho'kkан toshday nom-nishonsiz g'oyib bo'lishini undan kim o'tindi? ha, nasl-nasabingni bilishni istaysan, lekin buning uddasidan chiga olmaysan, tinimsiz o'ylayverasan. Onamning qaerda ekanini bilgim keladi. Ha, yana shuni bilgim keladiki, o'sha nemis soldati, mening otamga nima bo'ldi – u tirik qolganmi yoki o'lib ketganmi, bordiyu tirik, sog'-salomat bo'lib, Germaniyaning qaysidir burchagida istiqomat qilayotgan bo'lsa, dunyoda qirq ikkinchi yilda bolalar uyining eshigi oldiga tashlab ketilgan o'g'li borligi tushiga ham kirmayotgandir... Men uning o'sha o'g'liman. Uning esa men bilan sariq chaqalik ishi yo'q. Mo'jiza yuz bersa-yu, xabar topib kelib qolsa-chi? "Mana, men keldim, mening o'g'lim qani?" — desa-chi? Shundan so'ng nima bo'ladi? Bunday xayolparastlikning nima keragi bor? Bordi-yu, hammasi haqiqatdan ham men o'ylaganday bo'lsa, tupukday esdan chiqqan bu tarix bilan nemisning hemirilik ishi bor deysizmi? Nega endi u bizning g'amimizni yeishi kerak?

Bunday bema'ni boshvoqsiz fikrlar g'ujg'on urar edi menda. Nima haqda o'ylasang, kishilar qismati chorrahasida albatta urush turar edi. Urushda tug'ilgan, ota-onalari hayotning tubsiz jahannamida chirigan bolalarning fojiasi shundoq ko'z oldingizga kelar edi. Sovuqlik, begonalik, nojinslik, jirkanchlik ufurar edi bu jahannamdan. Va mendan farqli o'laroq "risoladagiday tug'ilganlar" ahliga nisbatan mening qalbimda ichki dushmanlik hissi paydo bo'lardi, dunyoda osoyishta-xotirjam kelganlarga o'zimning shak-shubhasiz ustunligimni isbot qilishni, jamiyat mening benazir shaxs ekanligimni ko'rib qo'yishini, mening daho ekanligimni bilib olishini va bunga tan berishga majbur bo'lishini, kuchga kuch bilan, yovuzlikka yovuzlik bilan javob berishga doimo tayyor turishni xohlar edim...

Ana shunday puch xayollar bilan katta hayot yo'liga kirdim. Bu dunyoda bir o'zim ekanligimni, so'qqaboshligimni bir soniya ham unutmas edim. Mening otam ham, onam ham, aka-ukalarim ham, opa-singillarim ham, amma-xolalarim ham, jiyanlarim ham, amakivachchayu ammavachcha, xolavachchalarim ham, qo'yingki, hech kimim yo'q. Men oydan tushgan kishiga o'xshar edim. Ehtimol, shu narsa menga yordam bergandir... Ha, fanda mislsiz shuhrat qozondim, butun borlig'imni fanga bag'ishladim, bu esa menga o'zim tanlagen sohada – kamtarlik qilmayman – dohiyona kashfiyotlar qilishimga imkon beradi. Ha, chindan ham shunday. Men fanga xizmat qildim, fan esa menga, mening mashhur bo'lishimga, mening nafsoniyatimga, mening jamiyatdagi o'rnimga, mening moslashuvchanligimga xizmat qildi...

Bularning hammasi oxir-oqibatda mening taqdirimni belgiladiki, meni kosmosga, orbital stantsiyaga olib ketdi, men bu yerda o'zimni o'zboshimchalik bilan samoviy rohib deb e'lon qildim. Bu esa shuhratim yulduzining so'na boshlashidan nishona edi. Endi menga yerda joy yo'q ekanligiga aqlim yetdi.

Men samoda shu narsani tushunib yetdimki, taqdir ko'rgan-kechirganlarimni, kosmosga kelib qolganimning sabablarini qog'ozga bemalol tushirishdek noyob imkon beribdi. Men o'zimga o'zim shunday dedim: sen barcha ko'rgan-kechirganlarining dadil tan olishing, o'zingga va boshqalarga iqror bo'lishing shart. Tavba-tazarruning mohiyati shunda – o'zingga hecham rahm-shafqat qilmaysan. Hamma-hammasini boshidan oxirgacha aytib berasan.

Aslini olganda, keyinchalik ko'p shov-shuvga sabab bo'lgan bu tarix, aytish mumkinki, arzimas narsadan – tibbiyot institutidagi seminaridan boshlangan. Oqibatda men homiladorlik mo'jisasini va odamning dunyoga kelish sirlarini o'rganishga mutbalo bo'lib qoldim. Ehtimol, tashlandiqlik sabab alamzada bo'lib qolganim uchun qaltis bo'lgan bu mavzuni odatda hech qachon, hech kim bilan muhokama qilmaganman, boz ustiga yaqin-atrofdagi kishilardan ham tashlandiq degan gap-so'zlarni

hech qachon eshitgan emasman.

O'ylashimcha, birga ishlashib turganlar uchun men eng avvalo talabchan ilmiy rahbar, qattiqqo'l boshliq, barcha tan olgan va kattakonlarning doimiy e'tiborida bo'lgan obro'li kishi edim. Iqror bo'lishim kerakki, mening nazarimda, insoniyat uchun la'nati jumboq bo'lmish intilish – shuhratparastlik va amrifarmomonlik balosidan men ham xoli emas edim. Men hamma vaqt mavqeimni mustahkamlashga, o'z obro'-e'tiborimni oshirishga harakat qildim. Orqavarotdan men haqimda "Bizning gendik" deb pichirlashganlari "Bizning general direktorimiz" degan ma'noni emas, balki "Bizning genial diktatorimiz" degan ma'noni anglatar edi. Bundan zarrachayam xijolat tortmas edim. Buni tushuntirib berish qiyin. Lekin hokimiyatga, hukmronlikka bo'lgan zo'r chanqoqlik chindan ham insoniyatning aql bovar qilmaydigan jumboqlaridan biridir. Va men buyurishga, farmon berishga orzumand edim, hammani tartib-intizomga chaqirar, o'zimning yopiq laboratoriym xodimlaridan, direktor bo'lganimdan keyin esa institut xodimlaridan, ham so'zsiz itoatkorlikni talab qilar edim, iste'dod va tartib-intizom – kadrlarni tanlashda mening andozalarim ana shu edi.

Ana shular tufayli men eksperimentator sifatida biologiyada yangi, kutilmagan yo'nalishning dadil tashabbuskori sifatida faqat fanda hammaning diqqatini o'ziga qaratgan taniqli namoyandagina emas, shu bilan birga, tashkilotchilik, rahbarlik bobida ham obro'-e'tiborga sazovar edim. Ha, mening omadim chopdi, bu sohada manfaatdor tashkilotlarning yordami ham chakki bo'lmadi, lekin bu haqda alohida gapirarmiz, men bo'lsam, muvaffaqiyatlardan ilhomlanganimdan, shiddat bilan kuch to'plagan qovoq ariga o'xshab, fan pay-kali ustida parvoz qilar edim: men kashfiyotdan kashfiyotga uchib, oldinlari hech kimga noma'lum bo'lgan fikr-g'oyalari shovqinidan gangib yurar, ana shu sohada abadiylik sir-asrorining muallifi – Olloh taolonning o'zini ham orqada qoldirishga tayyor edim. Men ilmiy eksperimentlar doirasida bo'lsa-da, ota-onalar xohlashadimiyo'qmi, kimning yorug' dunyoga kelishini, qanday tug'ilishi, qanday ota-onalardan tug'ilishini shaxsan o'zim hal qilar edim, ularning urug'laridan nima yarata olishimni bilishsa edi...

Men endi o'zimga o'zim deyman: buning ajablanarli joyi yo'q, o'zingni "menga yetadigan kishi yo'q" deb hisoblappingning sababi ham shunda! Nimasini ham aytsam – men inson homiladorligi va tug'ilishini idora qila olganimdan chinakamiga esankirab qolgan edim.

Chorva mollarini sun'iy qochirishga o'xhash, sun'iy urug'lantirish yo'li bilan ota-onalari noma'lum odamlarni yaratish fikri birinchi bor paydo bo'ldi. Zootexnika sohasida-ku, bu masala hammavaqt dolzarb muammo. Inson o'zining xo'jalik manfaatlariga qarab chorva mollarining zotlarini o'zgartirib kelgan.

Eksperimental biologiya bu holatdan qanchalar uzoqlashib ketdi. Endi u shunchaki ilmiy-tadqiqot maqsadlaridagina emas, balki odamning tug'ilishini idora qilish, to'g'rirog'i, bu borada tsirkdag'i nayrangboz kabi, xohlagancha hunar ko'rsatish yo'li bilan odamni sun'iy yaratish muammolari ila shug'ullanmoqda!..

Ha, fanning qorong'i kavagida (fanga o'z mohiyatidan boshqa hamma narsa bir pul) karaxt holda otlib ketganimni anglab yetishga endi harakat qilayotirman, biroq o'sha paytlarda inson zoti uchun xavfli bo'lgan, axloq doirasidan chetga chiqadigan mashg'ulotlarga o'ylamay-netmay boshim bilan sho'ng'ib ketganim haqida fikr yuritmas, buni xayolimga ham keltirmas edim. Men uchun, yosh olim uchun birdan-bir o'lchov — ilmiy peshqadamlilik edi. Va fan tantanasi yo'lida men shunday sohaga kirib bordimki, u barcha dinlarda taqiqlangan, oldin biron kishi ham bu jabha sari qadam qo'yishga jur'at eta olmagan edi, men bo'lsam ilohiy eshikni surbetlarcha tepar edim, holbuki, bu eshik ostonasida Xudoga tiz cho'kish kerak edi.

Mana, sen qaerlarga borib qolding. Kunlardan bir kun seni institut partkomiga chaqirishdi va katta hurmat, xayrixohlik, hatto xushomadgo'ylig bilan kechirim so'rab bildirib qo'yishdiki, sening ilmiy ishlaring bundan buyon mutlaqo maxfiy hisoblanadi, "Sening qimmatli tadqiqotlaring haqida ochiq matbuotda, ayniqsa chet ellarda hech narsa bo-silmasligi kerak, o'shanda ham sen bu gaplarga ahamiyat ber-mading. Holbuki, o'shanda sening qo'ltig'ingga birinchi bor qo'l solib ko'rishgan edi. Keyingi buyurtmachilar sendan o'z-lari uchun tayyor malay yasab oldilar. Sen uchun esa boshqa

narsa – «ish qilish, fanni oldinga siljishi» muhim edi.

Tan olish kerakki, sen biologiya jahannamida Mefistofel eding. Bosiq aql, o'tkir mushohada – sen olimning hammadan ko'ra ham ana shu sifatlarini yuqori qo'yari eding. Sen o'z roling uchun vaj qidirmading, ana shu la'nati yo'lda shu qadar katta kuch-quvvat sarflashga seni nima majbur etganini tushunib yetishga harakat ham qilmading. Tashlandiq bolaning eng avvalo, asrning hech kim oldiga tusha olmaydigan dahosi bo'lish istagida ekanini kim bilibdi deysiz? Sen ilmiy muammolarga butun borlig'ing bilan sho'ng'ib ketib, o'zing sezmagan holda yaxshilik va yomonlikning, ezgulik va yovuzlikning narigi qirg'og'iga o'tib qolding, odamlarni qiyab kelgan masala – o'zлari yaratgan va o'zлari cho'qinadigan amri axloqlarini butunlay mensimay qo'yding. Hayotning mazmun-mundarijasini anglab olish uchun asrlar bo'yи sarson-sargardon yurgan odamlarni nazar-pisand qilmading, sening bundan boshqa ishtiyoqlaring ham oshib-toshib yotar edi. Buyuk faylasuf, sening vatandoshing, zamondoshing Losevning gaplarini payt topib o'zingdan nariroqqa surib qo'yding, holbuki olim insoniyat tarixida fanning roli haqida mulohaza yuritar ekan, go'yo ataylab sening uchun dolzarb fikr bildirgan. Darvoqe, Losev jamiyat va madaniyatning cheksiz taraqqiy etishi to'g'risida yangi yevropacha ta'limotning nigelizmi borasida so'z yuritar ekan, bunday degan edi: yevropacha paradigmaga ko'ra, har qanday davr o'z oldiga umuman mazmunsiz bo'lgan holda, boshqa davr uchun tayyorgarlik va o'g'it, bundan keyingi har qanday davr ham o'z holicha mazmun-mundarijasiz bo'lGANI holda boshqa bir davr uchun, shu bilan birga kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lGAN barcha davrlar uchun oziq va zamindir, xolos; maqsad esa har doim va muqarrar suratda cheksiz zamonlar sari tobora uzoqlashaveradi; shunday qilib, yangi-yangi jannatlar va'da qilganlarning haq ekanligini hamisha tasdiqlaydi. Sen bo'lsang Losevning ana shu teran fikrini o'zingga erkinlik yaratmoq, javobgarlikni avlodlar zimmasiga yuklamoq uchun o'z intilishingga moslab sharhlading. Sen o'zingni mening vazifam «fanni rivojlantirish», kashfiyotlar qilishdan iborat, bu kashfiyotlarning natijalari nima bo'ladi – buni boshqalar hal qilsin deb ishontirding. Sening ishing – inkubator bachadonda homila yetishtirish edi; sun'iy yetishtirilgan odamlarning taqdiri nima bo'ladi, buning senga daxli yo'q edi.

Hozirgi kudalik hayotda «Bu bizning muammolarimiz emas» degan surbetlarcha ibora tarqalgan. Sen bo'lsang oldinlari ham xuddi shu yo'sinda ish ko'rар eding, sun'iy homilalarning taqdiri haqida gap ketganda o'z raqiblaringga: bu masala ularning o'zlarini tashvishga solsin, ularni o'z muammolarini o'zлари hal qilishlariga qo'yib berish kerak, deb javob berar eding. Shu yo'l bilan tug'ilganlar, ijtimoiy mavqe nuqtai nazaridan boshqalar bilan teng sharoitda bo'lGAN ikszurriyotlar o'zgalar kabi o'zлари haqida o'zлари o'yplashlari lozim edi. Sen bularning fan uchun hech qanday daxli yo'q deb hisoblar eding. Sun'iy bola tug'dirish texnologiyasidan tashqarida bo'lGAN biron narsa seni tashvishlantirms edi.

Ha, sen shunaqa odam eding. Ehtimol, chindan ham o'z ilmiy sohangda dunyo ahamiyatiga ega kashfiyotlar qila biladigan, fanning kelajak taraqqiyotini oldindan aytib bera oladigan daho bo'lGandirsan. Lekin sening barcha qilmishlaringni o'sha tashlandiq bola boshqarib turar edi. Sen bo'lsang buni tan olmading, qachonlardir eshik oldiga tashlab ketilgan xuddi o'sha tashlandiq bola mo'jizalar ko'rsata olishini, oldindan rejalashtirilgan odamlarni tug'dirishga amr bera bilishini butun dunyoga isbot etish uchun har doim urinar edi. Sen bu taqdirlarni o'z laboratoriyangda hal qilding, sen hech kim jur'at eta olmagan, hech kim qila bilmagan ishlarni qilding – sen o'z xohishing va chizma rejingga qarab, sun'iy loyihalashtirilgan odamlarni dunyoga keltirding, sen vasvasaga tushgan eding, sen odamlar ustidan botiniy hokimligingdan mast eding.

\* \* \*

Va har ehtimolga qarshi sen o'z qilmishlaringni XX asr oxirzamonini oldindan sezganing bilan oqlamoqchi bo'lding, holbuki buni geopolitik miqyosda butun dunyo anglab tashvishga tushgan. Axir termoyadroviy kashfiyotlarning mudhish, tubsiz jahannami yoqasida hech kim fan otining jilovini tortmagan, shu sohada ish olib borayotgan olimlardan birontasi olamning umuman hayotni xavf ostida qoldiradigan sirli negizlariga burun suqmaslik uchun cho'rt orqaga qaytmagan, bunga o'zini

majbur ham qilmagan edi. Fan kashfiyotlarning dohiyonaligi ila yumushlarning jinoyatkorligi orasida beparvolik bilan ish ko'rib, ularni baravarlashtirmoqchi bo'ldi, strategik mulohazalarga ko'ra maxfiy tutilgan, lekin vaqt o'tishi bilan atom bombalarining otalari deb e'lon qilingan, umri oxir bo'lgan sari tobora ko'proq vijdon azobini tortgan va coyada qolmasmakinman deb o'ylagan olimlarni fan butun dunyoga ma'lum va mashhur qildi va ularning fani olg'a boraverdi. Axir fan arboblari uchun hech qayoqqa qaramasdan va hech narsani nazar-pisand qilmasdan atomning ichki dunyosiga kirib borishdan, odam bolasining g'arib jismi-joniga nisbatan bayaybat ana shu dev kuchini tezroq qo'lga kiritishdan muhim vazifa yo'q edi, axir, bu kuch odamlarga butun koinotda cheksiz qudrat egasi bo'lishga da'vo qilishga imkon berar edi-da! Ana shu ilmiy g'oyalarning g'irt mutaassibligidan kelib chiqadigan halokatli xavf haqida, yadrochilar kashfiyotlarining muqarrar oqibatlari to'g'risida shuni aytish kerakki, bu tashvishlar avlodlar chekiga tushar edi. Otalarning vasvasaga tushib qilgan kashfiyotlarining mashaqqatlarini shu avlodlar tortishi kerak edi, qanday ish ko'rish lozimligi haqida, tirikchilik qilish uchun qaysi yo'l bilan moddalarni yanada boshqa holatlarga aylantirish ustida bosh qotirish ham avlodlar zimmasiga qoldirilgan edi. Hozircha hammasining iloji topilayotgan edi. Sen ham shunga umid bog'lar eding...

Ha, sen ham tabiat inson oldida mas'ul bo'limgan kabi, olim ham o'z tadqiqotlarining samaralari uchun javobgar emas, deb astoydil ishonarding. O'z burchingning xaloskorligiga bo'lgan ishonchingga hech nima putur yetkazmas, sen hech narsadan xijolat chekmas eding.

Ha, sen nigohdan yashiringan ko'zgu orti ilmiy dunyosida chiqib kelayotgan yulduz eding. Va hatto xotining Yevgeniya birdan vabodan qochganday seni tashlab ketib, viloyat teatrлari bo'ylab kezar ekan, azob-uqubaqtan boshi chiqmagan kampirlar roliga rozi bo'lib yurganda ham, barcha voqeadan xabar topib, ko'p narsalarni sen bilan birgalikda boshidan kechirgandan so'ng birdan qarib qolganda, hatto sendan qochib ketganda ham o'zingni yo'qotmading, iztirobga tushmading, alanglab qarab qolmading, uning ketidan quvib ketmading, eng muhimi, uning ko'ziga o'ta dahshatli bo'lib ko'ringan narsalarni tanqidiy nuqtai nazardan xayoldan o'tkazishga ham harakat qilmading. Yevgeniya tadqiqotlarining ma'nosini chaqishga biron marta ham urinmadi. Eksperimentlarining mohiyatini biron marta ham tasavvur qila bilmadi. Xotining ilmiy maqsadlardan uzoq edi, o'zga muhitda yashar edi, lekin u senga qadrdon edi va sen u bilan ko'p yillar bir yostiqqa bosh qo'ygan eding, u sen faqat ish bilan ovora bo'lganingda ham, hatto o'zing uni tez-tez abort qilib turganingda ham (keyinchalik bu haqida o'zing achchiq alam aralash afsuslanding, axir bu bilan sen o'z oilaviy hayotingning ildiziga bolta urgan, risoladagi ayolning qat'iy nafratiga uchragan eding-da) — Hamma-hammasinga chidadi, lekin seni hech narsa to'xtata olmas edi. Sen fanga fidoiylik bilan kirib ketib boshqalarning, eng avalo sevikli xotiningning his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari bilan hisoblashmasdan to'g'ri ish qilayotirsamiyo'ymi — bu savolga javob berishga harakat ham qilmading, bu haqda o'ylab ham ko'rmading. Yevgeniya sening nima ishlar qilib yurganlaringdan, yillar o'tib, nimalarga erishganingdan va bundan qanday maqsadlarni ko'zlayotganidan xabar topgach, sening oldingda tiz cho'kib yig'ladi, hammasini tashlab, Moskvadan uzoq-uzoqlarga, aytaylik ilmiy markazlarida ishlar to'lib yotgan, professorlar yuksak qadrlanadigan va Moskvadagidan kam maosh olmaydigan Uzoq Sharqqa ketishni iltimos qildi; xotining o'sha tomonlarda teatrлardan ish topishini aytib, yangidan turmush boshlashni, nihoyat, bolalik bo'lishni o'tinib so'radi, lekin sen rafiqangning tavallollarini inobatga olmading, ayolingning, o'zing aytganday eksperimentlarining soddalarcha qo'rishi, injiqqliklari senga chivin chaqqancha ham ta'sir etmadi, sen o'zingga ishonib topshirilgan yumushlardan voz kechishni xohlamading. Buning uchun keyinchalik qanchalar afsuslanmading, qanchalar o'kinmading, lekin endi kech edi... Hayot echa bir o'zandan o'tib, boshqa o'zanlarda davom etaveradi...

Senga shuhratparastliging tinchlik bermas edi. Yevgeniya ketdi-qoldi, shunga ham kuyib-pishamanmi deb o'ylading — nima, shunga ham ota go'ri qozixonami, o'zingga boshqasini topib olasan, ishlardan sal qutilgach, razm solasan — atrofda qancha xotinlar bor va albatta o'zingga, didingga yoqqanini, eng muhimi, pokdomon, sen qilayotgan ishning axloqqa to'g'ri kelish-kelmasligiga ortiq darajada shubha bilan qaramaydiganini tanlab olasan. Va bu ayolni imtiyozli kishilar uchun

ajratilgan «feodallar» xiyobonida, atomchilarining xuddi shunday dang'illama hovlilari biqinidagi o'zingning akademiklarga mo'ljallangan toq-ravoqingga olib kelasan. Lekin bu rejalaring bermalol ro'yobga chiqadigan bo'lishiga qaramasdan, o'shondog'icha qolib ketdi. Yangi voqealar yuz ko'rsatishi bilan uylanishdan boshqa tashvishlaring ham yetib ortar edi, sening keyingi butun hayoting, kosmosga, orbital stantsiyaga jo'nab qolishga va o'zingni samoviy rohib deb e'lon qilishga majbur etgan barcha shart-sharoit mana shu voqealar oqibati bo'ldi.

U paytlarda sen akademiklar orasida anchagina mashhur shaxs eding, fanga otalik qiluvchi organlarning alohida diqqat-e'tiborida turarding. Adolat yuzasidan aytganda, KPSS MK bu ma'noda maqtovga sazovor edi. Bunga o'z tajribangda bir necha marta guvoh bo'lgansan.

Har qanday mablag' va imtiyozlarning sening institutingga, eng avvalo, o'zingning mashhur laboratoriyannga deyarli yugur-yugursiz, tanish-bilishlarsiz osongina berib turilishi MK homiyligi tufayli edi. O, hokimlarning marhamatiga, saroydagilarning mehribonligiga-yu, to'ralarcha hozirjavobligiga odam bolasi naqadar tez ko'nikadi. Endi esa hamma vaqt shunday bo'lib kelganmi, har doim shunday bo'lib qolaveradimi, deb o'z-o'zingga savol berasan. Misol keltirish uchun uzoqqa borish shart emas. Fanlar akademiyasining prezidenti, yetakchi atomchi olim shaxsiy suhbatlardami, telefon orqalimi, «Andrey Andreevich, xudo haqqi, hech narsadan o'zingizni qismang. Dadil bo'ling, mamlakat sizning programmangizni jamiki zarur narsalar bilan ta'minlashga tayyor. Chet ellardan keltirilgan asbob-uskunalar bo'ladimi, transportmi, qo'ying-chi, nimaiki zarur bo'lsa, aytavering, tortinmang. Siz o'ta muhim ish qilyapsiz», deb qayta-qayta tayinlar edi.

Dunyoning yarimini egallagan butun mamlakat nomidan aytilan ana shunday maqtovlardan, oliy himmatdan g'alati bo'lib ketar eding, o'lja ilinjida aylanib ucha boshlagan yirtqich qushlar yanglig' partiya xodimlarining sof ilmiy tajribalar bilan tobora ko'proq qiziqa boshlagani sening g'ashingga tegar edi, lekin sen og'zingga talqon olib g'ing demay turaverar eding, sen minnatdorchilik og'ushida xushomadgo'ylik ham qilmading, shu bilan birga oliy rahbariyatning e'tiborini ohangraboday o'ziga tortgan shov-shuvga sabab bo'ladigan qandaydir loyihaning bo'yin tovlamas ijrochisi deb qarashlariga qarshilik ham ko'rsatmading, men bunaqlardan emasman deb ham qo'yamading. Ha, o'zingni vaqtida to'xtatishing, keyinchalik ma'lum bo'ldiki, o'zingning chindan ham mulohazali ekanligingga amin bo'lish uchun bahona qoldirmasliging kerak edi. Lekin sen ojizmiding, betayinmiding, amalparastmiding, senda hokimiyat egalariga xira pashshaday yopishib olish xususiyati bormidi? Ehtimol, xuddi shuning uchun bo'lsa kerak, niyat-maqsadi o'ta dudmal ilmiy programmani boshqarishni senga taklif qilishdi. U «Jinslarni embrional negizda boshqarish» deb ataladi, biroq bundan maqsad: noma'lum (anonim) ota-onalardan yangi surriyotlar yaratish metodini ishlab chiqish edi.

Bunaqasi dunyoda bo'lgan emas. Sen daf'atan paydo bo'lgan qaroqchiga o'xshab bu ishga o'ralashib qolding. «Ikszurriyot» istilohi sening ixtirong emas, uni qisqartmalar desa o'zini tomdan tashlaydiganlar – fan mutasaddilari o'ylab topganlar, bu ibora tezda qariyb o'ziga xos inqilobiy sirso'z (parol) bo'lib qoldi, chunki laboratoriya sharoitida ikszurriyotlar yaratishdan maqsad yangi tipdagi odamlarni, mafkuraning bo'lajak fidokorlarini yetishtirish edi. Ikszurriyotlar XXI asrning fidoyi inqilobchilari bo'lib qolishlari kerak edi. Xuddi ana shu narsa nazarda tutilar edi. Partiya rahbarlari o'lim to'shagida yotgan jahon kommunistik mafkurasini tiriltirish va qayta tiklashning yangi usuli ana shunda, deb tushunishar edi. Sen iqror bo'lishing kerak – oradan ko'p o'tmasdan «ikszurriyot» degan yangi so'zga qulog'ing o'rganib ham qoldi, sen qilayotgan ishga yuraging, qalbing odatlanib qoldi – sen o'zingni o'zing shu narsaga ishontira oldingki, sening eksperimentlaring bor-yo'g'i fandir, tajribalardan nimalar kelib chiqishi esa sening ishing emas.

To'xta! Oshiqma! Bu yerda hamma narsani ipidan ignasigacha gaplashib olishga to'g'ri keladi. Ha, «ikszurriyot» atamasini yuqorida taklif etishgani tushunarli, bunda insoniyatning yangi zotini yaratishning uzoq muddatli programmasi ko'zda tutilgan edi. Lekin ishning eng boshida strategik maqsadlar tilga olinganda, sen e'tiroz bildirmading, undan voz kechmading, o'zingni chetga olishga harakat ham qilmading. Va seni yangi Darvin deb ko'kka ko'targanlarida ham, tsivilizatsiya tarixidagi

bu mislsiz programma sening nazariy va amaliy ishlaringdan, bu boradagi bashoratlaringdan kelib chiqdi, deganlarida xijolat ham tortmading. Seni ilmiy rahbarlikka taklif qilganlarida go'yo shunday bo'lishi tabiiyday, o'sha zahoti rozilik bildirmagan bo'lsang ham, o'ylab ko'raman, deding, lekin butunlay voz kechmading. Ha, voz kechish kerakmi, shunday qilish mumkinimi? Yolg'iz otning changi chiqmas. O'sha paytga kelib, rasmiy doiralar da'vatiga shunday uchgan edingki, xo'jayinlarning bironta iltimosiga yo'q demasding.

\* \* \*

Bu gap to'g'ri bo'lib chiqdi. Fanlar Akademiyasi prezidentining taklifiga javoban «o'ylab ko'raman» degan kungingoq sen Eski maydonga, Siyosiy byuro a'zosi, KPSS MKning mafkuraviy masalalar va xalqaro kommunistik harakat bo'yicha sekretari Konyuxanov Vadim Petrovich huzuriga taklif qilinding.

Eski maydonga sen deyarli o'z uyingga kelganday yetib kelding, tez-tez bo'lmasa ham turli masalalar yuzasidan yiliga bir necha marta bu yerga kelib ketar eding-da. Bu safar ham o'zingning derektorlik qora «Volga»ngda kelding, Moskva ko'chalarida izg'ib yurgan mashinalarga, chumoliday qaynab yotgan yo'lovchilar oqimiga alang-jalang qarab qo'yar eding. Sening qayoqqa va qanday maqsad bilan ketayotganining bilganida bormi, olomon ko'chani to'sib olib mashinangning dabdalasini chiqarib tashlagan, o'zingni esa toshbo'ron qilgan bo'lar edi. Buni vahshiylit deyolmasding, ularning bu shafqatsizliklarini Parvardigor afv etgan bo'lur edi.

Har doimgiday, tushdan keyin Moskva, ayniqsa, shahar markazi odam dengiziga aylangan edi. Odamlar bu haqda fikr qilib ko'rishdimi-yo'qmi, lekin xuddi shu soatda ular uchun turmushning jamiki muammolari biron narsani qidirib topish haqida bosh qotirishdan va qo'lga kiritish, sotib olish, shu niyatda itday izg'ib yurishdan iborat edi desa bo'ladi. Lekin ulardan birontasi ham sal nariroqda kimningdir Tabiatga, Tarixga, Xudoga, odamlarga – Hamma-hammasiga qarshi qandaydir ish qilish niyatida ekani, shundan so'ng dunyoning qaytadan yaratilganday o'zgarib ketishi haqida bir lahma bo'lsa ham o'ylab ko'rmas edi.

Darvoqe, ana shu rejani amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan kishi ularning yonginasida ko'zni kuydirib salobatli avtomobilida suzib ketayotgan edi va tabiiyki, xuddi shu onda bu kishining oila, nasl-nasab, avlodlarning vorisiyligi tushunchalari o'tmisning sarqitlari bo'lib qoladigan zamon kelishi uchun ishlayotganini, oqibatda har kim ibrido va intiho bo'lib qolishi mumkin ekanligini, kishilar kimgardan paydo bo'lgani va kimlarni dunyoga keltirgani haqida zig'irchayam tasavvurga ega bo'lmay qolishini ulardan birontasi xayoligayam keltirmas edi... Bu vazifalarni oila o'rniiga Ota-Davlat bajarishi kerak edi.

Ammo bu sening shaxsiy jahonshumul programmang emas edi, albatta. Mafkuraviy g'oya lop etib sening miyangga kelgani yo'q, bu boshqalarning fikri, shunday bo'la qolsin, lekin bunga shaxsan sen va sening ilming xizmat qildi, tajribalaring totalitar davlatning qora kuchlariga ulardan o'z maqsadlarida foydalanish yo'lini shipshitib qo'ydi. B haqda sen endi, bo'lari bo'lgandan keyin gapiryapsan. Biroq sen o'sha kezlarda ham kashfiyotingdan qanday amaliy xulosalar chiqarish mumkinligiga fahming yetar edi, ammo sen bu narsaning bevosita menga aloqasi yo'q deb hisobladning va bu haqda o'ylamaslikka intilarding. Shunday bo'lib chiqdiki, ulkan reja, kirdikor mo'ljallangan, bu hech ham xomxayolik emas ekan, sen shug'ullanayotgan kori-amal endi xo'jayinlarning erkatoyi bo'lmish tadqiqotchining ilmiy mashqlarigina emas edi. MKga kelganingdan keyin bunga amin bo'lding.

Bu safar eshik oldida seni Konyuxanovning kotibi kutib oldi va maxsus liftda barcha nazorat postlarining yonidan o'tib, yettinchi qavatiga olib chiqdi. Konyuxanov seni kutib turgan edi. U eshikni o'zi ochib, seni kabinetiga taklif qildi.

— Andrey Andreevich, sizni ko'rganimdan xursandman! – U ko'zoynagini yaltiratib salomlashdi sen bilan. Uning iltifotida soxtalik sezilmasdi. – Biz siz bilan tez-tez ko'rishib ham turolmaymiz. Keling, biroz gaplashaylik, yuragimizni bo'shataylik. Sizni kutib o'tiribman, buning uchun har kungi yumushlarni bir chekkaga surib qo'ydim, qurib ketsin bu ishlar! ha, siz haqsiz, har holda tez-tez

muloqot qilib turgan ma'qul, Andrey Andreevich. Lekin hammasiga vaqt kerak, vaqt, vaqt! Marhamat. — Va kotibani ogohlantirdi: — Hech kim bezovta qilmasin. Men yo'qman.

Bu pisanda uchrashuv favqulodda ahamiyatga ega ekanligini bildirar edi. Oqibatda xuddi shunday bo'lib ham chiqdi.

Konyuxanov o'zini tuta bilar, suhbatdoshini o'ziga rom qila olar edi. Odobli edi, andisha bilan qulog solar, o'ylab gapirar edi. Taomili bilan kiyingan edi: sipo kostyum, shu rangdagi galstuk, sifatli poyabzal. Ovqatni ko'p yemasa, suyuqni ko'p ichmasa, qaddi-qomatiga ahamiyat bersa kerak. Favqulodda yaltiroq ko'zoynagi uning turmush lazzatlaridan voz kechgan kishilarnikiga o'xshash cho'zinchoq yuziga yarashib tushgan edi. «Takaning soqolini yopishtirib qo'ysa, Dzerjinskiyning o'zi bo'ladi-qoladi», deb o'ylagansan sen o'shanda nima uchundir.

MKning bu kotibi haqida fikr yomon emas edi, aksincha, ko'plar uni keng fikrlaydigan odam deb hisoblardi. Siyosiy byuro a'zolari orasida u eng yoshlaridan biri edi. U ellikka yaqinlashib qolgan va eng ishchan kotib deb tan olinar edi. Diplomatiya sohasida martabaga erishdi, bizlar uchun siyosiy jihatdan ayricha ahamiyatli bo'lgan mamlakatlarda bag'oyat puxtalik bilan, aniq maqsadni ko'zlab ish ko'rardi. Shimoliy Koreyada, Vietnamda, Kubada va Xitoyda maslahatchi, so'ngra elchi bo'ldi, uning xizmatlari yuksak baholandi va o'sha yerdan, o'sha qaynoq chiziqdan mas'ul ishga ko'tarishdi, shuni aytish kerakki, umumiy fikrga qaraganda, juda munosib va odilona ish bo'lgan. Keyinroq esa, xalqaro Olimpga – BMTga Doimiy vakil bo'lib jo'nab ketishdan sal oldin – Konyuxanov birdan partiya organlariga, ularning oliy pog'onalariga ishga olindi va shundan buyon xalqaro kommunistik harakatlar sohasida barcha mafkuraviy va tashqi siyosiy ishlarni boshqaradi.

Sen Konyuxanovi bilar eding va mana, kezi kelib uni boshqacharoq nuqtai nazardan ko'ryapsan.

Umumiyligi qaplardan keyin, muddaoga ko'chishdan oldin u qistirib qo'ydi – Andrey Andreevich, gapni uzoqroqdan boshlayman. Meni to'g'ri tushunsangiz kerak, demoqchimanki, insoniyatning tarixi bir lahzada, aytaylik, kimningdir miyasiga qandaydir fikr yashin yanglig' kelib qolganda voqe bo'ladi. Ma'lumki, hayotda hamma narsa muayyan vaqtgacha tadrijiy rivojlanadi. Lekin ba'zan birdan, aytish mumkinki, inqilobi paydo bo'ladi, kolliziya ro'y beradiki, qandaydir g'oya chindan ham hamma narsani birvarakayiga ag'dar-to'ntar qila oladi. Va hozir xuddi ana shunday paytdir. Faqat, xudo haqqi, bu g'oyaning muallifi kamnai kamtarin deb o'ylamang. Men bu o'rinda bor-yo'g'i galaga qo'shilib uchadigan qushday boshqalarga hamrohman, xolos.

— Unda men qanaqa qushman? — suhbatdoshning nima demoqchi ekanligini tushinib olishga harakat qilib luqma tashlading sen o'zingni tutolmay.

— Ozgina sabr qiling. Bu shunchaki, gapning xamirturishi, muqaddimasi, bo'lmasa, ishning mohiyatiga yaqinlashish amrimahol. Demak, muqaddimani davom ettiraman. Men nazarda tutgan narsa – inqilobi xarakterdagi tarixiy qadam. Unda Frantsiya inqilobining uchquni, bizning Oktyabr inqilobimizning yolqini mujassam, men shunday deb bilaman. Bu tafakkurning mutlaq erkinligi, siyqasi chiqqan zamonlar Aflatun nazarda tutgan fikrning o'zginasidir: g'oyaning moddaga ta'siri va moddaning o'zgarib ijtimoiy-siyosiy idealga aylanishi. Men tushunib turibman, Andrey Andreevich, siz hozir bu gaplarning nima keragi bor, bu qanday lektsiya o'zi, deb hang-mang bo'lib qoldingiz. Lekin meni afv eting, bu masala sizga, sizning faningizga bevosita aloqador! ha, ha! Ajablanmang, shunday!

Ikkovlaring guruh-guruh odamlarni yig'ib o'tkaziladigan kengashlar uchun mo'ljallangan katta stol atrofida o'tirdinglar, kotiba jimjimador gulli nafis finjonlarda choy keltirdi. Sen bu yerga o'ta muhim yumush yuzasidan taklif qilinganligingni tushunding, aks holda uzundan-uzoq debocha kimga kerak edi. Va sen o'zingning o'ta ayricha ilmiy eksperimentlaringning amaliy ahamiyati partiya Markaziy Komitetining e'tiborini nimasi bilan tortganini fahmlab olishga urinib ko'rding. Asta-sekin manzara oydinlasha bordi, bu ish seni o'z miqyosi bilan hayratda qoldirib, sergaklikka chaqirar va ayni vaqtida o'zining shiddati bilan o'ziga rom etar edi.

— Mana sizga, Andrey Andreevich, ochig'ini aytganda, suhbatimizning mundarijasi, — davom etdi Konyuxanov. U chekib bo'lgan papirosov qoldig'ini billur kuldonga qo'li bilan xomush ezib o'tirar ekan,

birdan boshini ko'tardi. — Masalani keragidan ortiq darajada chigallashtiryapman shekilli, — kulib qo'ydi u. — Shunaqa muqaddimalarga ko'nikib qolganman. Siz esa o'zimizniki. Shuning uchun imkon qadar samimiy va qisqa gaplashaman. Mana shunisi qiyinroq. Faqatgina... Birinchisi, eng muhimi, partiya sizga ishonadi, Andrey Andreevich. Ishonadi. Va tarix sizning oldingizga qo'ygan vazifa — Hammamizning umumiy vazifamiz. Ha, tushunaman, fan bilan partiya — ayrim-ayrim narsalar, biroq hamma sohada va hamma joyda sinfiy yondashish muqarrardir. Biz markschi-leninchilar shunga asoslanamiz va bizning tarixiy afzalligimiz, shubhasiz, ana shunda. Mana shu masalada sizning kashfiyotlaringiz, ta'bir joiz bo'lsa, qo'l bola biologiyaning kashfiyotlari — bu odam tabiatiga chuqur kirib borish, aslida inson shaxsini qayta qurish, shaxsning kelib chiqishini, jamiyatdagi o'rni va rolini qayta qurish, keyinchalik esa sun'iy tug'iladiganlar matritsasiga asosan butun insoniyatni qayta qurish imkoniyati demakdir. Faqat boshlab yuborish qiyin, xolos. Mana, XX asr aravasi qaerlargacha bordi!

Men sizga aql o'rgatmoqchi emasman, lekin shu ma'noda men Fan bo'limimizning fikriga to'la qo'shilaman — dunyo yaratilgandan beri bunaqasi bo'lgan emas. Sizning siymongizda fan chindan ham misli ko'rilmagan qudratga ega bo'ldi. Darhaqiqat, siz tahsinga loyiqsiz. Idora qilib bo'lmaydigan homiladorlik va tug'ilish hodisasi boshqariladigan jarayon bo'lib qolayotir. Endi shunday fikr tug'ildi: buni ommaviy tartibda joriy qilishga urinib ko'rilsa, qanday bo'larkin? Bu inqilob, faqat nomi yo'q, biologik tur sifatida odamni qayta ishlab chiqarishdagi chinakam inqilob. Shunday ekan, bu jarayon boshqariladigan va nazorat qilinadigan ekan va jamiyat hayotida yangi omil ekan, tarixning yangi dastagi ekan, demak, siz ham tan oling, bu endi siyosatning ishi. Va bu asnoda biz siz bilan, Andrey Andreevich, endi sheriklar, partnyorlar sifatida uchrashyapmiz. Biz shunga asoslanamizki, partiya chetda qolmasligi, qandaydir kuzatuvchi bo'lib turmasligi kerak, aksincha, vaqt ni qo'ldan boy bermasdan, bu jarayonning boshida turmog'i, jamiyatimiz, mafkuramiz maqsadlari va vazifalarini ko'zlab uni tegishli yo'nalishga burishi lozim. Xudo haqqi, meni kechiring, Andrey Andreevich, men tuzalmaydigan sergapman. Lekin siz gap nimada ekanligini tushunasiz. Siz hamma narsani oldindan bilib turasiz, siz — daho kishisiz. Va men bir narsani qo'shimcha qilmoqchiman. Gap nima haqida ketmasin — kosmosdagi kashfiyotlardan tortib eksperimental biologiyadagi kashfiyotlarga — biz o'zimizning pirovard maqsadimizni, jahonshumul rolimizni unutishimiz mumkin emas. Mana sizga eng muhimi. Afsuski, hatto bizning MKda, apparat doiralarida ham ma'lum revizionistik kayfiyatlar bor. Men sizdan hech narsani yashirmayman, siz o'zimiznikisiz. Ba'zi bir o'rtoqlar alohida mamlakatda sotsializm sharoitida tinchgina yashashni xohlaydilar. Ular bizning butun dunyo mehnatkashlari haqida qayg'urishimizni unutib qo'yadilar. Kapitalizm bilan musobaqada biz g'alaba qilishimiz lozim. Va jahon inqilobi shiori hozir ochiq aytilmayotgan bo'lsa ham sayyorada kommunizm g'alaba qilajak! Bu — bizning asl maqsadimiz va uni har qanaqa yo'l bilan, jamiki vositalarni ishga solib yaqinlashtirmog'imiz darkor. Inchunin faqat ilm bilan andarmon bo'lib, eksperimental biologiya sohasidagi sizning noyob yutuqlaringiz insoniyat hayotida qandaydir jahonshumul voqeal bo'lajagidan bashorat qilayotganiga shubha qilmasangiz kerak. Ha, shunday! Men buni jiddiy aytayapman. Sirtdan qaraganda, buni tasavvur qilish ham qiyin — axir hamma narsa bor-yo'g'i laboratoriyyada undirilgan embriondan, aytaylik, probirkada dunyoga kelgan urug'dan boshlanadi-da! hamma gap shundaki, buning oqibatida tug'ilgan odam — uni ikszurriyot deb ataylik — noma'lum shaxs. Bu — ota-onasi noma'lum, sun'iy yetishtirilgan sub'ekt, men shunday tushunaman. Sizga kunday ma'lum bo'lgan narsalarni nima uchun men tushuntirib berishga urinyapman? Gap shundaki, bu siz uchun qiziqarli laboratoriya eksperimentlari ob'ekti bo'lsa, biz uchun ikszurriyot — yangi tipdag'i odam. Va bizning taxminlarimizga ko'ra, mehnatkash sinflarni eski dunyodan xalos qilish uchun, uni ag'dar-to'ntar qiladigan ham xuddi ana shu ikszurriyotdir! hamma gap ana shunda. Vaqt kelib, tarixiy jarayonda harakat qiluvchi bosh shaxs ham ana shu ikszurriyot bo'lishi mumkin!

Ehtimol, meni hissiyotga berilib, jo'shib ketyapti, deb o'ylarsiz, Buning sababi bor. Axir ikszurriyotlar fenomeni siyosiy jihatdan hayron qolarli darajada istiqboli porloq. Bu shunday o'tkir kuch bo'ladiki, bu kuch bizdan farqli o'laroq, orqa-oldiga qaramasdan, qo'rqinch va shubha nima ekanini bilmasdan butun dunyoda kommunizm g'alabasi uchun kurashadi. Oila va qarindoshlik

aloqalarini eski, zo'ravonlik dunyosining qoldiqlari sifatida huddi ana shu ikszurriyotlar tarix axlatxonasiga uloqtiradi. Shaxs va ruhiyatning misli ko'rilmagan ozodligini o'zida mujassamlashtirgan ikszurriyotlar odamzodning inqilobiy ta'limimiz allaqachon oldindan ko'ra bilgan yangi davriga yo'l ochib berajak. Ikszurriyot o'z umrini o'tagan eski dunyoni kelajakda qo'porib tashlash barobarinda yangi dunyoni bunyod etajak. Aminmanki, ikszurriyotlar muhitida buyuk kishilar, daholar odatdagi eskirib qolgan muhitdagiga qaraganda ko'proq paydo bo'ladi. O'zingiz tushunib turibsiz – bunda oilaviy va boshqa eskirgan kishanlar va tashvishlardan butunlay ozod bo'linadi. Bolalar sun'iy yo'l bilan, ota-onalarsiz bunyod etiladi, tegishlicha tarbiya qilinadi. Aytmoqchi, bo'limdagi ayrim o'rtoqlar ota-onasi noma'lum bo'lgan bolalarni kelib chiqishi noaniq bo'lgan qimmatli tog' jinsi parchasiga o'xshatib "sbakitlar" deb atashni taklif qilmoqdalar, lekin mening nazarimda "ikszurriyot" yaxshiroq, aniqroq.

Hozircha biz faqat nazariyabozlik qilayotirmiz, faqat bizni qiziqtirgan mavzu yuzasidan fikr yuritmoqdamiz, mislsiz yangi olam hodisasi nimalarga olib kelishini oldinroq ko'rishga harakat qilayotirmiz, lekin buni oldinroq aytib bera olish zarur. Hozirgi zamon tsivilizatsiyasi voqealarni, muammolarni qatorlashtirib qo'yayotgan ekan, qo'l qovushtirib turish mumkin emas. Tarix buni kechirmagan bo'lur edi. Shu munosabat bilan aytadigan gapim shuki, kelajak ko'p jihatdan dunyoviy kurashda birinchilikni qo'lga ola bilgan kishiga bog'liq bo'ladi. Yangi odamlarga — ikszurriyotlarga jamiyat eshigini ochib qo'ygan kishi g'olib chiqadi, ikszurriyotlarning shubhasiz afzalliklari shundaki, ana shu ota-onasiz, qon-qarindoshsiz tug'ilgan zotlar oiladan, har xil qon-qarindoshlik va urug'aymoqlik rishtalaridan, patriarchal hamda o'zga aloqalardan mutlaqo erkin bo'ladi, bu esa eskirgan axloqning asriy yukidan qutqaradi. Siyosiy jihatdan esa mislsiz yutuq. Ikszurriyotlar kollektivizm va baynalmilallik etaloni bo'lib qoladi. Ular kommunistik baynalmilalning zarbdor kuchi bo'lib qoladi va xuddi shu odamlar G'arbgaga hal qiluvchi zarba berajak!

Bularning hammasi, sezib turganingizday, istiqbolda bo'ladi, lekin umumi kontseptsiya ishlab chiqilishi kerak va ishga tushirilishi lozim. Va partiya siz kabi olimning, Andrey Andreevich, mazkur masala yuzasidan bizning mavqeimizga sherik bo'lishdan o'ta manfaatdor. Aslini olganda ikkovimizning uchrashuvimizdan murod ham shu. Va men o'ylaymanki, til topisha olamiz. Axir, amalda, Andrey Andreevich, asosiy narsa sizga bog'liq, siz – ikszurriyotlar yetishtirish texnologiyasining ijodkorisiz. Biz esa shunchaki sheriklarmiz: mafkura – yelkanga urilgan kuchli shamol, yelkanning emas, balki harakatning shamolidir... Shunday emasmi? Aytganday, vakolatli organlar sizning ishingizga katta qiziqish bilan qaramoqdalar, bu borada ularning muayyan takliflari ham bor.

Suhbat davom etar edi. MK kotibining o'z og'zidan eshitgan gaplardan hang-mang bo'lib, shu paytda meni tashvishga solgan va qiyanagan narsalarni yashirishga intildim. Suhbat davomida aytgan mulohazalarim va bildirgan e'tirozlarim haqida bu o'rinda gapirib o'tirmayman. Fikrlarim shu ma'noda unchalik muhim emaski, ularda MKning mavqeidan farq qiladigan yoki aytaylik, Konyuxanovning fikriga e'tiroz bildiradigan gaplar yo'q edi, nari borsa mening mulohazalarim suhbatdoshning ehtiyojkorlik bilan bildirgan mulohazalariga o'xshaydi.

Nega o'sha suhbatni endi eslab, vahimaga tushyapman?! Va endi kosmosdan turib oradan ancha vaqt o'tgandan keyin xitob qilayotirman: ikszurriyotlar atrofida nima ishlar qilina boshlagan, nimalar rejallashtirilgan, nimalarga tayyorgarlik ko'rila boshlagan. Esda qolgan o'sha uchrashuvni xolisanlillah tasvirlashga harakat qilar ekanman, hamma narsani qanday bo'lgan bo'lsa shundayligicha, o'zimni ham o'sha soatda qanday ahvolga tushib qolgan bo'lsam o'shandog'icha tasvirlayman. Mening o'sha paytda o'zimni qanday tutganim obro'yimga obro' qo'shmaydi. Lekin o'sha kezda Eski maydonda o'zimni boshqacha tutishim mumkin ham emas edi, men o'zimni oqlamoqchi emasman, men qahramon emasman, qahramon bo'imoqchi ham emasman, lekin vijdon hurmati, aytib qo'yishim kerak: o'zimni boshqacha tutishim amri mahol edi; aks holda kelajakda meni siqib qo'yishar, o'zimning asosiy mavzuimni tadqiq qilishdan asta-sekin chetlashtirib, partianing sodiq askarlari bo'lmish o'z xodimlarim bu mavzuni o'ziniki qilib olishgan bo'lur edi – Fanlar akademiyasi tarixida

bunday misollar to'lib-toshib yotibdi. Ko'pincha rahbarlikni va ta'sirni boy berish fandagi o'rinni yo'qotishdan ko'ra ham dahshatliroq halokatga sabab bo'lar edi. Nimasini aytasiz, men borib turgan aqidaparast, hokimiyatning malayi bo'lib ish tutdim, axir o'sha davrdagi ziylolilarning ko'pchiligi urushdan so'ng qiliching bilan tezak chop deganlariday, o'zlari haqida endi nimalar deyishmasin, xuddi menga o'xshab kun ko'rishgan.

Yana ahamiyatiga ko'ra boshqalardan qolishmaydigan, o'sha holatda menga xalaqit bergan bir jihat, shaxsiy masala... Tushunib turibman, o'zimni oqlash uchun aytayotganim yo'q, shunday bo'lsa ham... Organizmga har doim fermentlar berib turadigan me'da osti bezi kabi o'zimning ota-onam noma'lumligi haqida Konyuxanov nima deb o'ylayapti ekan degan alamli fikr meni to'xtovsiz siuvga olar va tinchlik bermas edi. Bu fikr menga o'zimni odamday his qilishimga imkon bermas edi. U buni bilar edimi yoki yo'qmi, yo bo'lmasa, o'zining fikr-xulosalari hamda g'oyalalariga mahliyo bo'lib, mening kim ekanligimni, nasl-nasabimni butunlay unutib qo'ydimikin yoki aksincha, tarjimai holimdag'i ana shu faktdan – bir vaqtlar Ruza bolalar uyining eshigi yonida qanor matoga o'rab tashlab ketilgan bolaning tarjimai holi voqeasidan atayin foydalanayo-tirmikin? Aslida men ham iksurriyotman, tabiiy holda tug'ilgan bo'lsam ham, nasl-nasabsiz, urug'-aymoqsiz o'shanday odamman, bag'ritoshlik bilan bo'lmasa ham sabot-matonat bilan, pinagini buzmasdan ish ko'radigan, o'z ishining qattiqqo'l mutaxassis, o'z layoqati hamda vaqtini maqsadni aniq ko'zlagan faoliyatidan boshqa narsalarga sarflamaydigan xodim deb nom chiqarganman. Hamma narsa shuni ko'rsatdiki, partiya mafkurachilarini xuddi shu xususiyat qoniqtirar edi ular, iksurriyotlarning xuddi ana shunday bo'lishlarini xohlar edilar. Men taqdir taqozosi bilan iksurriyot bo'ldim-qoldim. Bu haqda oshkora gapirilmasa ham, men istar-istamas jonli misol, ma'lum darajada timsol bo'lib qoldim... Buni tushunar edim... Ehtimol, Eski maydonidagi eng nufuzli xosxonalardan birida g'alati his-tuyg'ular shuning uchun ham o'sha kuni mening yuragimga g'ulg'ula solgandir.

Men o'zimni bo'shang, beqaror sezdim: jonim qynoqda edi. Shunday bo'lib chiqdiki, shu xonada, o'zimning ishtirokimda menga qarshi fitna uyuştirildi. Ilmiy tajribalar bilan jinoyat o'rtasidagi chegara qaerdan o'tadi, ana shu omonat chiziqni kim ko'rsata oladi?! Qalbimni shubha kemirar edi: agar bu narsa insoniyatning uzoq davrlardan buyon davom etayotgan avlodlar silsilasida mashaqqatlar chekkan asriy armonlariga qarshi, qo'rqinchli va bema'ni hayot bilan yashayotgan bo'lsa ham, avloddan-avlodga takomillashishga chanqoq insoniyatga qarshi – o'zlariga nasib qilmagan bo'lsa-da bolalari, nevaralari baxtga erishadilar deb astoydil ishongan ajdodlarning orzu-umidlaridan kelib chiqib, mo'jiza ro'y berib, xayoliy g'oyalarning amalga oshishiga insoniyatga qarshi fitna bo'lsa-chi? Iksurriyotlar bu yorug' dunyoda hamma uchun va har bir kishi uchun avlodlar tajribasining davomi bo'lmish tarix g'ildiragining harakatini to'xtatishi, Otalikka, Onalikka chek qo'yishi, hamma narsaga barham berishi kerak edi... Asrlar osha ko'z ko'rib qulqoq eshitmagan va aqlga sig'maydigan holat: Odam Ato bilan Momo havodan so'ng ikkinchi marta dunyodan Ota bilan Ona quvg'in qilindi, quvg'in qilinganda ham yashirinchha, osmoni falakni larzaga keltiradigan momoqaldiroy yanglig' nafrat guldiroslarisiz, barcha davrlarda bo'lganiday nafrat-la'natlarsiz quvg'in qilindi – ota-onalik burchlarini yo'qqa chiqarish yo'li bilan, makkorlik va sekin-astalik bilan homilalarga "hunar ko'rsatish" orqali quvg'in qilindi, shu bilan bir qatorda yo'qlikka quvg'in qilindi.

Bu voqealarning barchasida bosh qahramon, Otarlik va Onalikning ta'qibchisi va ko'zga ko'rinnmas jallodi sifatida men turar edim.

Shu bilan bir vaqtda tushunar edimki, endi mening rolim, ahamiyatim tobora oshar, zamon quyoshi ostida mening o'rnim tobora muhim bo'la borar edi. Ulkan ishni amalga oshirishda dunyo hokimlari menga muhtoj-mute bo'lishardi.

Men tashlandiqligimning mevasiga to'yib bo'ldim. Ehtimol, bu taqdir taqozosidir – oldindan tayyorlangan qandaydir dahshatli stsenariy asosida xuddi ana shu aqlga sig'maydigan usul bilan dunyodan o'ch olish uchun meni atayin rag'batlantirishayotgandir – iksurriyot bo'lib tug'ilganim sababli o'zim ishlab chiqqan texnologiya asosida ota-onasi noma'lum bo'lgan iksurriyotlar avlodini yaratish mening zimmamga tushgandir. Voqealarning shunday kechishi kimgadir juda qo'l kelgandir –

shu paytda lop etib men chiqib qolgandirman.

Eshik oldida xayrlashar ekan, Konyuxanov bunday dedi:

— Andrey Andreevich, sizni bilmayman-u, bu uchrashuvdan men juda katta qoniqish oldim...

Men ham unga taxminan xuddi shunday lutf bilan javob qaytardim. U yana gapni davom ettirdi:

— Bilasizmi, Andrey Andreevich, men bir jihatni tushuntirib qo'ymoqchiman. Sizga organlardan o'rtoqlar murojaat qilishadi, ular haligi masala yuzasidan... — u gapini oxiriga yetkazmadni va davom etdi: — sizga yordam berish uchun ularning o'z takliflari bo'ladi. Bular endi tashkiliy masalalar, albatta, xavotir olmasangiz bo'ladi. Darvoqe, ularda, har qachongiday, hamma narsa o'ylab, hisob-kitob qilib qo'yilgan va bu safar ham, aytgan bo'lur edimki, ishning ko'zini bilib...

Rostini aytsam, bunday axborot meni tashvishga soldi:

— Vadim Petrovich, — murojaat qildim men Konyuxanovga. — Modomiki o'zingiz bu haqda gap ochdingiz, buning uchun men sizdan minnatdorman, tilga olingan o'rtoqlarning ko'magi nimalardan iborat bo'lishini shaxsan o'zingizdan eshitsam yaxshi bo'larmidi? Aytaylik, tegishli muloqotlarga tayyor bo'lib turish uchun.

— Xo'p bo'ladi, — mening fikrimni o'qiganday kulib qo'ydi Konyuxanov. — Siz bilan, Andrey Andreevich, fikrlashishga tayyorman va shunda to'g'ri bo'ladi, roziman. Menda sizning bo'limingizdan ma'lumotlar bor. Qolganlarini bevosita ish jarayonida bilib olasiz.

Keyinchalik eshitib-bilganlarimiz, sof xizmat yuzasidan olganda, chindan ham maqsadga juda-juda muvofiq bo'lib chiqdi. O'rtoqlar nima istashlarini yaxshi bilishar va hamma narsani o'ylab, pishitib qo'yishgan edi.

Mashinada ketayotib ham shu haqda o'ylardim. Moskvaning gavjum ko'chalariga yana nazar tashlar ekanman, Konyuxanov bilan bo'lgan suhabatni ikir-chikirlarigacha esga oldim, mening laboratoriya mashqlarim qanday qilib birdan davlat ahamiyatiga ega bo'lgan o'ta maxfiy programmaga aylanganidan hayratda qolib borardim.

Nufuzli organlarning loyihibariga qaraganda ikszurriyotlarni ikki bosqichda yetishtirish ko'zda tutilgan edi. Birinchi bosqich – embrional – inkubatsion bosqich – to'laligicha va butunlayin, mening institutimga, mening mas'uliyatimga yuklatilgan edi, buning uchun men tegishli huquq va mablag'lar olar edim. Bu bosqichda eng qiyini laboratoriyyada undirilgan noma'lum urug'ni inkubaning, ya'ni embrionni ko'tarib yurish uchun, aniqrog'i, to'qqiz oylik odatdagiday homiladorlik uchun o'z organizmini laboratoriya ixtiyoriga topshirgan ayolning bachadoniga implantatsiya qilish (ko'chirib o'tkazish) bilan bog'liqdir. Bola tug'ilgandan keyin ikkinchi bosqich boshlanadi, buni shartli ravishda emizik bosqichi deb atash mumkin. Bu qismning bizga aloqasi yo'q edi, ikszurriyotlarni tarbiyalash bilan maxsus internatlar shug'ullanishlari kerak edi. Ikszurriyotlar "sanoati" haqidagi vakolatli organlarning umumi tasavvuri taxminan ana shunday edi.

Muammolar-chi? Barcha sohalardagi kabi bunda ham o'ziga xos muammolar paydo bo'lgandi. Hayron qolarlisi shundaki, bu texnologiyada urug'ni donor ayolning qorniga joylashtirish ham, homilani undirish ham emas, balki inkubalar deb ataladigan ana shu ayollarning ruhiyati bilan bog'liq axloq-etikaga borib taqaladigan sof insoniy omillar masalaning eng nozik jihatni bo'lib chiqdi. Laboratoriyyada sun'iy undirilgan ikszurriyotning inkuba bo'lmish ayolga genetik jihatdan hech aloqasi yo'q edi. O'zini bilgan har qanday ayol ham ana shunday "ijara"ga, o'z onalik pushtini soxta onalik uchun topshirib turishga rozilik beravermas edi. Buni aytib o'tirishning hojati ham yo'q. Ana shu muammo tevaragida jamiyatda janjal boshlanib ketishi hech gap emas edi. Chet ellarda ham shovshuvlar ko'tarilib, BMTgacha va muhimroq ishlarga tuzoq qo'yib o'tirgan boshqa insonparvar tashkilotlarga yetib borgan bo'lur edi. Mana bu o'rinda bizning hamma narsadan voqif "uch harfligimiz" — DXK (Davlat Xafsilik Komiteti)ning ziyrakligi va tadbirkorligiga qoyil qolish kerak. Konyuxanov eshik oldida meni kuzatib qo'yayotib vakolatli organlarning tashkiliy g'oyalarini tushuntirib berganda men g'orga kirib qolgan qush uchun faqat bitta yo'l borligini, bizning laboratoriymizni, institutimizni va mening o'zimni vakolatli organlar allaqachondan buyon bedorlik bilan kuzatayotganini – muammoning mohiyatiga naqadar aniq tushunishganini anglab olgan edim.

D XK xodimlari vazifani hal qilishda o'z usuli va ko'magini taklif qilgan edilar. Taklif bunday edi: inkubalar jazo muddatini o'tayotgan mahkumalar orasidan maxfiy yo'l bilan tanlab olinadi. Bunday mahkumalar esa mamlakatda keragidan ortiq darajada. Turli jinoyatlar uchun turlicha moddalar bilan kesilgan o'n minglab va yuz minglab mahkumalar ko'pdan-ko'p ayollar koloniyalari va badarg'axonalarda to'lib-toshib yotibdi. Ana shu ma'noda mahkumalar orasidan inkubalarni xohlagan miqdorda tanlab olish mumkin. Mening roziligidim kerak bo'lib qoldi. Men o'ylab ko'rman, dedim.

Keyinroq vakolatli organlar takliflari bilan ikir-chikirlarigacha tanishdim va ularning topqirligidan, rejalashtirilgan vazifalarning aniqligidan bu safar ham og'zim ochilib qoldi. Inkubalikka 10 yildan 25 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum etilgan mahkumalardan nomzodlar tanlab olinishi kerak edi. Tegishlicha tibbiy yordam ko'rsatilgandan so'ng mahkumaga quyidagi shartlar asosida inkubalik rolini bajarish taklif qilinardi: a) bir iksurriyot tug'ilishi qamoq muddatining yarmisini qisqartirar, ikkinchi iksurriyotning tug'ilishi butunlay ozod bo'lish huquqini berardi; b) mahkuma-inkuba iksurriyot-chaqalojni uch oyga to'lguncha emizib turishga, shundan so'ng uni davlat tarbiyasiga so'zsiz topshirishga majbur; v) bola tug'ilgandan keyingi ta'til davri tugagandan so'ng mahkuma-inkuba o'ta uzoq rayonlardagi lagerga yoki badarg'axonaga jo'natiladi; g) mahkuma-inkuba o'zining roli, manzili haqidagi, xizmat qiluvchi xodimlarning shaxsi haqidagi ma'lumotlarni sir saqlash to'g'risida tilxat beradi, tilxatda ko'rsatilgan shartlar buzilgan taqdirda ikkinchi marta jazoga tortilardi.

Mahkumalar orasidan inkubalar tanlash loyihasi umumiylar tarzda ana shunday edi. Men uzoq o'yladim. Bu loyihani qoyil qolib qarshi oldim deya olmayman, lekin boshqa yo'lini topa olmadim va tavakkaliga rozilik berdim.

Vakolatli organlarning bir xodimi bilan suhbatlashganim esimda. U suhbat uchun institutga keldi. Xiyla aqli odam ekan. Inkubalarni qamalganlar orasidan tanlab olishning axloqiy jihatiga shubha qilganimda u hozircha boshqa yo'li yo'q, vaqt kelib mahkumalardan foydalanish zaruriyatni qolmaydi – inkubalarning xizmatlari, aytaylik, fohishalarning hizmatlari kabi pullik bo'ladi deb javob berdi. Va ehtimol, otalari noma'lum bo'lgan bolalarni qornida ko'tarib yurish ma'lum doiradagi ayollar uchun kasb, bo'lganda ham talaygina serdaromad kasb bo'lib qolajak.

Mutlaqo oshkora, ochiq gaplashdik.

— Shunday vaqtlar keladiki, — deb isbotlamoqchi bo'ldi u: — Inkubatorlik oshkor bo'libgina qolmasdan, balki bolalarni dunyoga keltirishning bu yo'li eng afzal yo'l bo'lib qoladi. Va ana o'shanda "Ona", "Ota" tushunchalari cho'pchakka aylanadi yoki faqat shartli ahamiyat kasb etadi.

Shu tariqa vakolatli organlarning rejalari hali ishga solinmagan jihatlari va uzoqni ko'zlagan g'arazlari bilan tobora oshkora tus ola bordi, yangi tipdag'i ildizsiz odamni yaratish ustidan nazorat qilishdan ayricha manfaatdor ekanligi qadam-baqadam ravshanlasha bordi. Birmuncha vaqtidan so'ng bu ishni keng yo'lga qo'yish mo'ljallangandi. Yana ko'zda tutilgan ediki, tug'ishni o'ziga kasb qilib olgan ayollar vositasida otalari noma'lum ana shunday bolalarni dunyoga keltirishni tobora keng joriy qilish, iksurriyotlarni tashkiliy suratda internatlarda tarbiyalash, oqibatda bola tug'ib o'stirish zaruratidan butunlay ozod bo'lgan aholi o'zini, hayotini unumli mehnatga, boshqa dolzarb vazifalarga va eng avvalo, albatta, hujumkor jahon inqilobi ishiga butunlay bag'ishlash imkoniyatiga ega bo'lar edi. Kommunistlar bu maqsaddan hech ham voz kechmoqchi emas edilar. Iksurriyotlar jahon tarixiga nuqta qo'yishadi va yangicha yil hisobi – taqvimi boshlanajak...

"Iksurriyotlar uzil-kesil nuqta qo'yishadi, — takallufsiz so'zlar edi mening suhbatdoshim, boshlig'im, — bu nuqta allaqachondan beri zarur edi. Barcha shovqin-suronlar, butun dunyoda tinchlik uchun kurash va boshqa soxta go'zal iboralar – hissiyotni ko'zlab aytilgan safsatalardir. Modomiki, hal qiluvchi so'z atom zARBASIDA ekan, bu ishni xuddi ana shu iksurriyot amalga oshiradi. U nimaniyam yo'qtardi, uni biron kishi bilan bog'lab turgan hech narsa yo'q, uning hech kimi yo'q, u ham hech kimniki emas, uning Vatani – probirkada unga hayot bergan sistemadan boshqa narsa emas. Knopkani bosish kerak bo'lganda uning qo'li qaltiramaydi ham. Hamma gap kim birinchi bo'lishida, kim tomonidan voyaga yetkazilgan iksurriyot birinchi bo'lib yadro zARBASINI berishidadir".

\* \* \*

Moskva ostonalaridagi o'rmonlar orasida joylashgan va oldin kasaba uyushmalariga qarashli bo'lgan chog'roq sanatoriy oradan ko'p o'tmay bizga ilmiy-tadqiqot bazasi qilib berildi. Kabinetlar, palatalar, qorovulxonalar va boshqa xonalarni ta'mirlab jihozlashga yarim yilcha vaqt ketdi.

Men unchalik shoshib-pishmadim. Lekin baribir ishga kirishish vaqt keldi. Boshida aytib qo'ymoqchimanki, bu ishga xotirjam bo'lib kirishmadim va ehtimol shuning uchun inkubalikka nomzodlarning shaxsiyatları bilan ularning hujjatlaridagidan boshqa ma'lumotlarga mutlaqo qiziqmadim. Ular bilan rasmiy muomala qilar, ro'yxush bermay, qisqa-qisqa so'zlashardim. Ularni klinikaga yopiq mashinada bitta-bittadan belgilangan soatda oddiy kiyimda olib kelishar, ular esa men uchun bor-yo'g'i iksembrionning bo'lajak implantatsiya ob'ektlari edi. Men ularga ismi familiyasini tilga olmasdan "juvon" deb murojaat qilar edim: "Salom, juvon. Ahvolingiz qalay, juvon, sizni ko'rib qo'yishim kerak, qimirlamang". Faqat shu. Shuningdek, menga ham "professor" debgina murojaat qilish mumkin edi. Hech qanaqa ortiqcha gap bo'lmasisligi shart edi, barcha inkubalar ijara olingan muvaqqat onalar sifatidagina muhim edi. Men ularning birontasini yuzidan tanimas edim, chunki ish uchun buning keragi yo'q edi... Faqat bittasigina bundan mustasno edi. Lekin bu haqda keyinroq... o'sha haqda keyinroq gapirilsa bo'ladi...

Mana sen qirg'oqqa kelding, nariroqda esa boshqa Daryo...

Sen unga bog'liq xotiralarni orqaga surish, kechiktirish uchun o'zingni qiyansan, bahona qidirasan. Xo'sh, oqibat nima bo'ldi? O'zlikdan qochishga urinishning bema'niligiga, xomxayolligiga har gal ishonch hosil qilmaysanmi? O'lish mumkin, lekin o'zlikdan qayoqqa qochasan? Shu ma'noda odam o'limga mahkum bo'lsa ham umrboqiydir.

Yo tavba, nega sen tushuntirish mushkul bo'lgan narsalarni tushuntirishga urinasan, so'z bilan, yo'q deganda sening so'zing bilan ifodalab bo'lmaydigan narsalar haqida hikoya qilib berish uchun qalbingning qa'riga nazar tashlaysan.

Axir sen o'zingni o'ta kuchli shaxs deb bilar eding, do'ppi tor kelganda, zaruriy maqsad yo'lida o'zingga o'zingning kuching yetmas ekan, bu g'alati bir holdir. Lekin bu safar sen o'zligingni yenga olmading... Boshqa dumli yulduzga kelib urilgan uchar yulduz yanglig' nima bilan to'qnashishingni bilmasding. Hammasi bir maromda borayotgan edi-ku.

Bu voqeа keyingi yili bahor paytida bo'lib o'tdi – mahkuma-inkubalarning birinchi guruhiга embrionlar implantatsiya qilingan va bu guruhi tegishlicha tibbiy kuzatishdan o'tkazilmoqda edi.

Bu ayolni o'sha kuni boshqalar kabi "feldsher" hamrohligida tekshirish uchun olib kelishdi (biz inkubalar soqchisini eskichasiga ana shunday atar edik). Assistant bilan hamshira uni mening huzurimga kiritishgandan so'ng uning dastlabki tibbiy ko'rigi haqidagi ma'lumotlarni apil-tapil ko'zdan kechirdim. Hamma narsasi: umumiy jismoniy ko'rsatkichlari ham, ginekologiyasi ham joyida ekan, meni faqat shu narsa – mijozning homilani ko'tarib yurish uchun yaroqliligi qiziqtirar, qolgan jihatlari maxsus xizmatlarning ishi bo'lib, bu haqda ular bosh qotirishlari kerak edi. Shu ma'noda ish yaxshi yo'lda qo'yilgan, hech qanchay muammo yo'q edi. Boshqacha bo'lishi mumkin ham emas edi. Chunki nomzodlarni turmalardagi malakali xodimlar tanlab olishgan, mahkumalarning ko'zlangan maqsadga loyiqligini sinchiklab tekshirishgan edi; homilani bo'yida olib yurishga rozi bo'lgan mahkumalar hammasidanam jazo muddatini qisqartirishdek favqulodda imkoniyatni puchga chiqaradigan biron-bir voqeа ro'y berib qolmasligidan ko'proq manfaatdor edi: homilani oy-kuniga yetkazib tug'ib berish bilan bir necha yillik hibsdan ozod bo'lish mumkin edi. Bunday narsa avvallari birontasining tushiga ham kirmagan. Mahkumalarning bu yerga kelganlarida qo'rqinch va umiddan titrab-qaltirab turishlari, o'zlarining dahshatli yo'lda duch kelgan inoyatdan mahrum bo'lib qolmaslikni falakdan iltijo qilishlari ravshan edi. Tekshirishning oxirgi bosqichida sendan inkuba chiqmaydi deb yaroqsizlar qatoriga qo'shib qo'yishlari hech gap emas edi. Ayollarning hayajonga tushishlari tabiiy edi.

Kabinetga boshlab kelingan yangi mahkumanı eshik oldidagi kursida qoldirib ketishdi. Qisqa salom-alikdan so'ng men hujjatlarni – mahkumaning shaxsiy nomeri va hibsxona indeksini yana ko'zdan kechirdim, familiyasiga yana bir bor qarab qo'ydim-u, o'sha zahotiyoyq esdan chiqardim. Lopatina bo'lsa kerak. Familiyalar odatda esda turmaydi – yoki juda murakkab yo bo'lmasa o'lguday jo'n. Biroq

juvonning ismi menga juda g'alati eshitildi – Runa, bunisi qanaqa ism bo'ldiykin, bu ism qandaydir sirliday tuyuldi, o'zimdan-o'zim kulimsirab, boshimni ko'tardim. Esimda qolgan birinchi narsa shu bo'ldiki, juvon ko'zoynak taqqan edi. Demak, inkubalar orasida ko'zoynaklisiyam paydo bo'pdi. Ko'rinishidan ziyoliga o'xshar ekan, bu ayolga zonada oson bo'lmasa kerak, degan fikr xayolimdan o'tdi, axir u yerlarda boloxonador qilib so'kinish, yoqalashish-mushtlashish, sochlarni yulish va boshqalar odatiy hol. O'zi kelishgangina, qamalmasdan oldin yana ham chiroyliroq, ehtimol go'zal bo'lgandir. Uning ko'z qarashlari ham mahkumalarnikiga o'xshamaydi – aybdorlar singari zo'rma-zo'raki kulib ham qo'ymaydi, nigohida iltifotdan darak ham yo'q. Qo'y ko'zlaridagi sinchkovlikni ko'zoynak yashirib turganday. Qamoqqa tushmasdan oldin o'ziga qarab yurgani, qoshlarini terib, kipriklarini bo'yab, oyna oldida o'ziga zeb bergani shundoq bilinib turibdi... Bularning hammasi shunchaki omadi gaplar, aslida u jiddiy jinoyatga qo'l urgan, uning o'n yilga hukm qilingani, mahkuma bo'lgani bejiz emas, albatta... Endi bo'lsa qamoq muddatini qisqartirish uchun iksurriyot tug'ib berishga jur'at qilgan.

— Xo'sh, endi, juvon, — dedim men, — tekshirish analizlarini tag'in bir marta takrorlashga to'g'ri keladi. Shundan so'ng yana nimalar qilish kerakligi aniq bo'ladi.

U indamadi.

— Shikoyatlar bormi?

— Siz nimani nazarda tutyapsiz? — dedi u.

— Sog'ligingizni. Boshqa hech narsani emas.

— Yo'q, hozircha yo'q.

— Tayyorgarlik davri ko'rsatmalarining hamma-hamma-siga qat'iy amal qilish kerak. Nima qilish lozimligini senga aytishadi. Hamma narsa ko'ngildagidek chiqsa, kelgusi haftaning boshlarida, seshanba yoki chorshanba kuni implantatsiya qilishadi. Demak, biroz kutishga to'g'ri keladi.

— Men shoshilmayman. Bularning hammasi men uchun bir pul.

Uning qo'rs javobidan hayratda qoldim. Munaqasi umuman uchramagan. Ko'zoynaklik ayolga diqqat bilan nigoh tashlab, stoldan turdim-da, yoniga keldim. U ham o'rnidan turdi. Shunda men bunday qo'pol muomala qilmaslik kerakligini aytib qattiq ogohlantirdim:

— Agar sen shoshmayotgan bo'lsang va buning senga bir pullik ahamiyati bo'lmasa, huda-behuda ishlarning nima keragi bor edi? Sen bu yerga qanday niyat bilan kelding, sen qaerga va nima uchun borayotganining bilarmidинг?

— Bilardim. Bilganda qanday.

— Shundaymi? Juvon, men sendan so'rayapman. Sen bu yerga nima maqsadda kelding?

— Nima maqsad bilan? Sizni ko'rish uchun, professor va bularning hammasi bolalarning cho'pchaklari emas ekanligiga ishonch hosil qilish uchun.

— Bor-yo'g'i shuning uchunmi?

— Ishoning – bor-yo'g'i shuning uchun. Sizni ko'rish uchun, butun haqiqatni yuzingizga aytish uchun.

— Ha, shunaqami?! — beixtiyor og'zimdan chiqib ketdi. Shundan so'ng men lo'nda qilib uzil-kesil gapirdim:

— Sen yozma tarzda rozilik bergenmiding?

— Ha.

— Sen tushunasmaniyo'qmi — bu qiliq bilan tilxatni buzgan hisoblanasan va sening muddating yana cho'ziladi.

— Tushunaman.

— Shunday qilishing shartmi?

— Shart. Bu siz uchun zarur.

— Men uchun? Nima, biz sen bilan qandaydir muammoni hal qilayotirmizmi?

— Ha. Odamlar tabiat va Xudo aytganday urchishadimi yoki bu muammo shaytoni la'inning vasvasasi bilan hal qilinadimi?

Men shiddat bilan devorga kelib urilganday jim qoldim. Shundan so'ng g'azabimni zo'rg'a tiyib, dedim:

— Bunga o'zimning ham aqlim yetadi, xonim. Sen bilan vidolashishga to'g'ri keladi. Afsus, sen muddatingni qisqartirolmaysan, aksincha yanada cho'zar ekansan. Endi o'zingdan ko'r.

— Men aytadigan gaplarimni aytib oldim.

— Sen haddingdan oshmayapsanmi? Me'yor degan narsani bilasanmi o'zi?

— Men mahkumaman, Andrey Andreevich, — u kutilmaganda menga rasmiy ohangda murojaat qildi va har kuni boshqalardan yuz martalab eshitgan bu so'zlar uning og'zidan chiqqani g'alati tuyuldi. — Men mahkumaman, vassalom, — takrorladi u. — Nimaga buyoqqa kelayotganimni bilardim. Bu burchni qo'llimdan kelganicha bajardim. Bu suhbat, ehtimol, sizda qandaydir his uyg'otar, o'ylab ko'rishga majbur qilar. Boshqa gapim yo'q.

— Sen menga aql o'rgatma! — g'azabnok javob berdim, inkubalar bilan ishlashda ro'y bergan bu ko'ngilsizlikning qachonlardir yuz berishi muqarrar ekanini yaxshi tushuna turib. — Sening o'rningga o'nlarcha talabgorlar chiqadi!

— Eng dahshatlisi mana shu-da, — ta'kidladi u. — Buning uchun ham siz aybdorsiz, bu ham sizning vijdoningizga havola. Boshdan-oyoq sizning vijdoningizga.

— Vijdon bilan vijdonning farqi bor, — kesib gapirdim men.

— Bunaqangisini birinchi bor eshityapman.

— Falsafiy munozarani vaqtি bermalol bo'lganlarga qoldiraylik. Seni bu yerga safsata sotish uchun olib kelishmagan. Kelgan joyingga qarab tuyog'ingni shiqillatib qol. Sen bilan gaplashadigan gap qolmadи.

Men tugmachani bosdim. Uni olib ketish uchun kelishdi.

— Xayr, — dedi u ketayotib.

Indamadim.

Eshik yopildi. Men yozuv stolimga qaytib keldim. Boshqa ishlar, boshqa tashvishlar bilan o'ralashib qoldim.

Lekin o'sha ko'ngilsiz hodisa hech ham miyamdan chiqmas edi. O'sha "haqiqatparvar"ni kelgan joyiga, zonasiga (Kostroma atroflari shekilli) jo'natib yuborish haqida ko'rsatma kerak edi, u o'sha yerda o'zini kim deb bilsa, bilavermaydimi. Lekin bu ishni keyinga qoldirdim. Ishlar, qo'ng'iroqlar, suhbatlar orasida o'sha mahkuma yodimga tushaverar, uni unutishga o'zimni hech ham majbur qila olmas edim, lekin hech kimga hamkasblardan birontasiga, hatto ancha yaqin bo'lgan xodimga ham mening jahlimni chiqargan va hamon dilimni achitayotgan voqeа haqida bir og'iz so'z ochganim yo'q.

Juda g'alati ahvolga tushib qoldim, o'zimni-o'zim tanimay qoldim. Men nima uchundir uning ishi bilan yaxshiroq, batafsilroq tanishishga qaror qildim. Bunaqasi qaerdan chiqdi? U asli kim? Nima uchun qamalgan? Qaysi modda bilan ayblangan? Miyasi mundayroqlarni zonalarda ushlab o'tirishmasa kerak. Bu bebosh juvon kim o'zi? Uni qanday umidsizlik shamoli haydab kelgan, uning miyasida qanday fikrlar va so'zlar jo'sh urmoqda? Erk berib qo'ysang bormi, seni vijdon azobiga solish, ko'nglingga alag'dalik urug'ini sochish uchun, azob-uqubatdan qon yutib emaklab qolishing uchun hali ko'p vaysashi mumkin edi.

Vijdonlilik da'vosini qilganlarning qat'iy nuqtai nazaridan boshqa hech vaqosi bo'lmasligi mumkin va ularning hujumkorligi shundan. Biroq vijdon, eng avvalo, ichki mustaqillikni talab qiladi, aks holda uni eski-tuski narsalar kabi bozorda sotish va sotib olish mumkin bo'lardi. Sirasini aytganda dunyoda vijdon tushunchasidan ham ko'ra siyqasi chiqqan narsa bo'lmasa kerak. O'sha mahkuma bu yerga Amerikani qaytadan kashf qilish uchun kelganmidi? Jinoyatchiga, hukm qilingan xiyonatkorga vijdon haqida gapirishni kim qo'yibdi.?

Shunday deb o'ylar edimu baribir o'zimdan nafratlanardim. Sen o'zingni oqlamoqchisan, kimning oldida va nima uchun oqlamoqchi bo'lasan?! Sen ojiz ekansan. Bo'lmasa nima uchun hamon o'sha juvonni o'ylayapsan?

Men uning hujjatlarini yana bir bor varaqladim. Lopatina Runa Fedulovna, sovetlarga qarshi

materiallarni saqlagani va tarqatgani uchun 158-moddaga binoan hukm qilingan. A-ha, mana endi tushunarli, qanday parranda ekanligi parvozidan ma'lum ediku? Albatta, albatte, bundaylar hech qachon tinib-tinchimaydi, to'ymaydi, o'zining kim ekanini bildirib qo'yish uchun ular har doim norozilik bildirishlari kerak, bu gal qaerga bosh suqishni topganga o'xshaydi... Eri yo'q, ajrashgan. Bunday palid ayol bilan kim ham yashardi. Ajablanishga o'rın yo'q ekan.

Keyin boshqa ishlar bilan chalg'ib ketdim va faqat xizmat hujjatlari uchun mo'ljallangan po'lat sandiqlarda saqlanishi kerak bo'lgan qog'ozlarni uyg'a olib ketmaslik uchun ishdan qoldim. Runa Lopatinaga oid barcha qog'ozlarni boshdan-oyoq o'qib chiqdim. Umuman olganda qandaydir boshqacha, hayotga o'z nuqtai nazari bilan qaraydigan juvon ekan, bunday shaxslar, odatda, keskin chora-tadbirlar tarafдорлари bo'lgan guruhlarda, ma'naviy, siyosiy doiralarda, hukumatga qarshi muxolifatchilar orasida hamma zamonlarda bo'lib kelgan. Bundaylar orasida har xil odamlar bo'lishi mumkin. O'zlarini xaloskorlar deb biladigan va g'oya yo'lida o'z muxlislarining barchasini qurban qilishga tayyor turadiganlari ham bo'ladi. Lekin Runaning bunga nima aloqasi bor? Barcha ma'lumotlarga qaraganda, u so'qqabosh idealist. Yanayam kim biladi deysiz. Uni bir marta ko'rib, undan bor-yo'g'i bir necha so'z eshitibgina qanday xulosa chiqarishim mumkin? ha, albatta, u oddiy odam emas, ayniqsa, uning qismati qiyin kechgan, o'qituvchilik qilgan, keyin kinohujjatchilik bilan shug'ullangan –sovet maktabi haqida hujjatli kinostsenariylar yozgan, bizda esa maktab muammolari ijtimoiy jihatdan har doim keskin bo'lib kelgan.

Birdan qimmatli Vava, Valeriya Valentynovna esimga tushib qoldi. Koshki u o'zining daho shogirdi endilikda nima ishlar bilan shug'ullanayotganini bilsa! Lekin bu shunchaki gap edi. Runaga kelganda shuni aytish kerakki, bu ayol, barcha ma'lumotlarga qaraganda, o'zining ukasi Lopatin Igor Fedulovich kasriga qolgan. Xuddi o'sha kishi professional kinochi bo'lgan ekan, mashhur Kinematografiya institutini bitirgach, ehtimol, akasining ta'siri va yordamida Runa maktab haqida kinosujetlar bilan shug'ullangan. Keyingi materiallarda qayd qilinishicha, sobiq o'qituvchi Runa Lopatina Gorkiy nomidagi kinostudiya qoshidagi havaskorlar sektsiyasida ishlab, kino havaskorlari orasida g'oyaviy jihatdan shubhali fikrlar tarqalishiga ko'maklashgan, ba'zi bir guvohlar bu juvon, Runa san'atda muayyan bir g'arazli yo'nalish uchun, sovet kishilarini va ularning hayotini salbiy tomonidan tasvirlaydigan hujjatli lavhalar tayyorlash uchun kurashgan deb isbotlaganlar. Bular qoralov muqaddimasi edi.

Ish yuzasidan bosh aybdor juvonning ukasi Igor Lopatin edi. U "shtatdagi" kinooperator bo'la turib, davlat apparatlari va vositalaridan jinoiy jazoga loyiq faoliyat yo'lida foydalangan, sovet vogeligini buzib ko'rsatadigan, sovet ijtimoiy va davlat tuzumini badnom qiladigan, boshdan-oyoq tuhmatdan iborat hujjatli lentalarni suratga olgan va shu yo'l bilan g'arb jamoatchilagini yolg'on ma'lumotlar bilan chalg'itmoqchi bo'lgan". Yana shu narsa qayd qilinganki, "sudlanuvchi mazkur jinoiy ish bilan beg'araz shug'ullanish u yodqa tursin, aksincha, sovet davlatini badnom qiladigan kinomateriallarni G'arbg'a valyuta hisobiga sotib yurgan. Xuddi o'sha yerda, chet ellarda materiallar kinozallarda va televiedenie kanallari orqali namoyish qilinayotganda bizning maxsus xizmat tashkilotlarimiz bu kinolentalar-ning qaerdan kelganini aniqlagan".

Bunday hollarda qanday tanish qo'shiqlar, qanday tanish qilmishlar deyishganidek, aslida shunday bo'lganmi-yo'qmi – kim biladi deysiz, har qalay Runa ana shu gaplar bilan ayblangan. Runa ukasi bilan bevosita hamkorlik qilganda ayblangan – ukasi opasiga "ruxsatsiz suratga olingan lentalarni bergen, opasi bu lentalarni yaqin dugonasinkida saqlagan". Bu ishlar tekshiruvda aniqlangan. Kimdir iziga tushgan. Igor qamoqqa olingach, Runa ogohlantirish uchun shoshilib dugonasinkiga kelsa, bu yerda tegishli xizmat xodimlari uni kutib turishgan ekan. Shunday qilib, Runa jinoyat ustida ushlangan. Shundan so'ng kutilmagan voqeа sodir bo'ladi – protsess jarayonida Runa ukasining qismatini qanday qilib bo'lsa ham yengillashtirish uchun bor kuchi bilan urinib ko'radi. U sovet kishilarining hayoti va turmush sahnalarini kinoga olish mendan chiqqan g'oya edi, nimalarni va qanday qilib kinoga olish kerakligi to'g'risida ukamga men ko'rsatma bergen edim, suratga olingan lentalarni xorijiy muxbirlarga valyuta hisobiga shaxsan men bergen edim, ukam mendan chiqqan

g'oyalarni ijro etgan xolos, deb, asosiy aybni o'z gardaniga olgan edi.

Mana shunday gaplar. Bu o'rinda yana bir tafsilotni aytib o'tishga to'g'ri keladi: sudda Runani amerikalik jurnalist bilan oshiq-ma'shuqalikda ayplashadi – jurnalist Amerikasiga qaytib kelgandan keyin maqola yozgan emish. "Bu maqolada o'ynashi haqida maqtovli fikr aytgan, sovet jamiyatiga esa, aksincha, o'ta dushmanlik munosabatda bo'lgan" emish, bu esa qamoqqa tushib qolgan jinoyatchi juvon uchun o'ch olish usuli emish. Runa bo'lsa amerikalik jurnalist o'ynashi bo'lganini tan olmagan, mehmonga rus tilini o'rgatib yurganman, xolos deb ko'rsatma bergen. Xullas, kalavaning uchini topolmaysan. Ularning nima ishlar qilganini kim biladi deysiz, nima bo'lganda ham, bularning hammasi Runaning boshiga balo bo'ldi.

O'sha kuni ishdan kech qaytdim. Boshqa yumushlarim bor edi, shu bilan birga Runa Lopatinaning o'tmishi bilan yaxshiroq tanishishga bo'lgan ishtiyoq ham meni ancha ushlab qoldi.

Odatdagiday darvoza oldida soqchiga ishora qilib qo'yib, xiyobon bo'ylab Uspenskiy ko'chasiga kirganimda g'ira-shira bo'lib qolgan edi. Moskvaga oshiqayotgan mashinalar oqimiga qo'shildim.

Bu yerlarda o'rmonlar va tepaliklar oppoq qorga burkangan qish paytida ham tushdagiday ko'rkar, yashillik olami gulga bezangan yoz faslida ham tengsiz go'zal, ana shu paytda o'rmondan o'tgandan so'ng birdan Moskva daryosining nurafshon tuyulishi bir necha lahma kishini maftun qilib qo'yadi. Bu suv, osmon, o'rmon mo'jizasidir, men har doim shu yerga kelganda oyna orqali boqib, mashinada olg'a qarab yelib borar ekanman, ortda qolgan manzarani mumkin qadar ko'proq xotirada saqlashga odatlanganman.

Bu tafsilotlarga to'xtalib o'tirishim bejiz emas. Bu yerlarda har ikki tomonga qarab necha martalab mashinada g'izillab o'tganman, lekin hayotimning ana shu yo'l yoqasidagi go'shalar bilan chambarchas bog'lanib ketishi yetti uxbab tushimga ham kirmagan. Vaqt kelib bu yerlardan o'tishga yuragim dov bermay, aylanma yo'ldan yura boshlar ekanman...

Bu gal Moskvaga yaqinlashar ekanman, o'sha inkubalikka nomzod qaysar juvon Runa Lopatinani keyingi kuni yana klinikaga keltirish kerakmi deb o'yladim. Ha, keltirish to'g'risida ko'rsatma berdim. Nega bunday qildim? Unga nimalar deyman? U inkubalikka rozilik berganda butkul boshqa maqsadni ko'zlaganligi aniq emasmidi. Ehtimol, o'sha Runa savdoyidir, unda soxta odillilik, o'ta vijdonlilik kabi boshqa bir xislatlar vasvasa qilayotgan bo'lsa-chi? U bilan pachakilashib o'tirishim shartmi?! Uni uzoq-uzoqlarga haydab yuborish kerak, zonada harom o'lsin. Izza qilish uchun odamini topibdi, o'zi kim bo'pti?! – "Sen o'zing-chi? Senchi? – dedim o'zimga o'sha zahotiyoq. — O'zinga nishon, mo'ljalni rosa topibsani! Jazoga hukm qilingan, haq-huquqdan mahrum mahkuma bo'lsa-yu, sen u bilan olishib yuribsan! Barakalla azamat, gap yo'q, zo'rsan!"

Yo'l tuyulishlarida ikki marta tormozni qattiq bosib yuboribman, yo'lovchilar tum-taraqay qochib qolishdi – rulda o'tirib xayol surib ketibman, xira fikrlar hamon ta'qib qilardi. Men o'sha Runasini bor yo'g'i bir marta ko'rdim, uning nimasi rom qilgan edi meni? Bo'lgan voqeani xotirladim – stoldan turdim, unga yaqinlashdim, u ham turdi. Mana, mening yonimda turibdi – mahkuma, shahar chekkasidagi klinikaga professorga ko'rsatish uchun maxsus kiyimda olib kelishgan, egnida xudo bilsin qaerdadir tikilgan kulrang kofta, halpillagan keng yubka, dag'al botinka. Kiyim-bosh ko'rka ko'r, husniga husn qo'shgan paytlarda u go'zal bo'lgan, albatta. Men uning menga hayajon bilan, dadil va mardona boqqan ko'zlarini esladim. Ko'zni odatda qalb ko'zgusi deyishadi, lekin bu to'g'ri emas, ko'z dilning o'zi, uning jonli ifodasidir. O'g'il bolalarnikiga o'xshash yelka suyaklari turtib chiqqan, nimjon kiftlari beixtiyor junjikkan, nozik, ingichka qo'llarini qovushtirib turar edi. Qaddini rostlab g'oz qadam tashlasa, tortinmasdan emin-erkin yursa, yayrab qahqaha otsa, ola-bula olomon orasida ko'chada yallo qilib yursa yarashmasmidi? Murtadlik uchun va umuman bu zamon uchun yaratilgan emas u. Unga o'tgan asrning liboslarini kiyintirib qo'ysa bormi?! Axir hamma vaqt shunday bo'lib kelgan, kishi qaerga bormasin o'z vijdonini pesh qiladi, nima bo'lmisin, nima ro'y bermasin – unga bu vijdondan yoki vijdondan emas deb javob ber. Har bir kishi qo'ltig'ida o'zi bilganday vijdonini ko'tarib yuradi. Odam bolasi borki, o'z vijdoni bilan maqtanadi. Odam bolasi borki, vijdонни tilga olganda Xudo nomidan gapiradi... Lekin birgina vijdon bilan uzoqqa borib bo'lmaydi. Ollohga qarshi, u

hammamizga ato qilgan va bizlarni jilovlab turadigan vijdonga qarshi chiqish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi, har doim faqat Olloh taoloning kor-u amali bo'lib kelgan ishlarni, aytaylik, odamning dunyoga kelishi jarayonini o'z qo'liga olish, kerak bo'lib qolganda "mana men" deyishga qodir odamlar ham ko'p emas. Xudoning o'lim ustidan yakka hukmronligi yetar, bu kasbni hech kim undan tortib ololmaydi. Tug'ilish masalasiga kelganda shuni aytish kerakki, men bu o'rinda u bilan bellashaman va mening vijdona bilan hemirilik ishim yo'q... Buni Runa tushunarmidi – u tushunmasa kerak. Shu boisdan ham u vijdona deya na'ra tortib, o'zini qahramon qilib ko'rsatdi... Undan ko'ra o'zi haqida o'yalsa bo'lmasmidi, endi u qaerga boradi va nimalar qiladi?

O'sha kechani men akademiklar uchun mo'ljallangan dang'illama hovlimda o'zimni qayoqqa qo'yishni bilmay o'tkazdim. Bu hovli Stalin o'zining atom bombalar yasaydigan komandasiga tortiq qilgan uylardan biri edi. Devorlari nihoyatda qalin, derazalari katta, shiplari juda baland uylar. Xo'sh, qanday qilib men bu yerga kelib qoldim? Umuman men bu yerga nimaga keldim va nima uchun bu yerda yashayapman? O'sha kechasi tashlandiq ekanligim yana esimga tushdi. Men ortiqchaman, mening o'zim iksurriyotman, men insoniyat orasida "qora tuynukman". Dunyoda mendan kim baxt ko'rdi, kim? Qaysi ayol men bilan uchrashganida hayotdan mamnun bo'lganini izhor qildi? Orqa-oldiga qaramasdan qochib qolgan Yevgeniyami? U, o'sha ajoyib aktrisa men bilan yashab nima ko'rdi? Iltifotsizlik, e'tiborsizlik, shafqatsizlik, o'z erining qo'li bilan qilingan abortlarnimi? hayot yo'lida chaqmoqday to'qnashib g'oyib bo'lgan ayollar ham men bilan uchrashuvlarini nogohoni baxt onlari deb eslamagan bo'lsalar kerak. Mening butun ko'rgan-kechirganlarim bo'm-bo'sh, g'amnok tuyuldi...

Birdan xayol oti meni yana o'sha ayol, bugungi o'sha mahkuma Runa, runik davrlardan qolgan ismli juvon sari eltdi. Nega men o'sha ayol haqida o'layapman? Shu soatda u nimalarni boshidan kechiryapti ekan? Qiynalayotgan bo'lishi mumkin. Ehtimol, o'zini qiyonoqqa solayotgan, miyasida g'ujg'on o'ynayotgan yovuz fikrlardan xoli bo'lish uchun sochini tarab yoyayotgandir. Qamalmasdan oldin u sochini boshqacha tarab yurgan bo'lsa kerak, uning sochlari quyuq va jingalak bo'lган, zonadagiday yelkasiga siqib turmaklab yurmagan. Professorning "ko'zini ochib" qo'yaman deb, o'zini yana qiyin ahvolga soldi, o'zining hayotini yanada mushkullashtirdi. Nahotki, u hammasini bila turib qilgan bo'lsa? U bugungi uchrashuvimiz haqida nimalarni o'layaptikin? Ehtimol u qaysi bir masalalarda haqdir, lekin birgina vijdona bilan, ezgu niyatlar bilan dunyonni to'ldirib bo'lmaydi-ku! Quyosh tagida tobora ko'proq joy olish uchun orzumand bo'lган insonning vahshiyona nafsi qondirib, o'zgartirib bo'lmaydi, agar odamlarning ishtahasi shunday bo'laversa bormi, ko'p o'tmasdan odamlarga quyosh ham ozlik qiladi, lekin yana ham xavfisi shuki, u, ya'ni inson boshqa kishilar ustidan tag'in-da ko'proq va tag'in-da kuchliroq hukmronlik qilish kasaliga mubtalo bo'ladi. Shuning uchun ham yangi odamlar – iksurriyotlar kerak... u ayol bo'lsa ularning yo'liga qarshi chiqmoqchi, ularning hayotga, hokimiyatga, urushga kirib kelishiga monelik qilmoqchi bo'ladi. Buni tushunish mumkin, lekin bu qudratni yengadigan hech qanday kuch yo'q...

\* \* \*

Keyinchalik men behuda bo'lsa ham tez-tez o'z-o'zimga savol berardim: nima uchun o'sha kechasi butunlay o'zim bilan o'zim bo'lib qoldim? Boshqa kunlari tinchlik bermaydigan biron ta majlis ham, yig'in ham, uchrashuv ham va boshqa siyosiy voqeя yoki kundalik to's-to'polon ham bo'lmadi...

Men o'sha kechasi qiynalib chiqdim va hech ham o'zimga kela olmadim. Meni o'sha mahkuma Runa dovdiratib qo'ydi va g'aflatda qoldirdi – axir tevaragimizdagи biron ta kishi ishimizga shubhalangan emas yoki menga shunday tuyuldumikin?..

Lekin u o'zini ham ayamadi, o'zini namoyishkorona qurban qildi! Shunday qilib bo'ladimi? Nima uchun u meni mirshab va prokuror rolida nojo'ya harakatlar qilishimga majbur etadi? Nahotki u mening aybimni yuzimga aytish uchungina o'zini yana bir necha yil ozodlikdan mahrum etishga jur'at qilgan bo'lsa?! To'g'ri, uni ham tushunsa bo'ladi, o'z mavqeini, ko'nglidagi haqiqatni aytib olishni maqsad qilib qo'ygan ekan, shundan boshqa yo'l yo'q edi-da. U buni ko'chada, majlisda, ayniqsa, xorijiy muxbirlarga ochiqchasiga hammaning oldida oshkora aytish imkoniyatiga ega emas. U zonaga

mixlab tashlangan... Endi bo'lsa uni yangi jazo xavfi kutmoqda. Yaxshiyamki, ikkalamizning oramizda nima gap o'tganini hech kim bilmaydi, yaxshiyamki, men bu haqda biron tirik jonga lom-mim degan emasman, yaxshiyamki, uni takror chaqirish haqida ko'rsatma berdim. Ha, ertaga, kunduz soat ikkida uni olib kelishadi. Hali hamma narsa boy berilgani yo'q, hamma ko'priklar kul qilib kuydirilganicha yo'q. Ehtimol, uni yana sudlanishdan qutqarib qolish mumkin bo'lar.

Miyamda ana shu fikr borgan sari qat'iylashar, menda uni himoya qilish, jazodan qutqarib qolish istagi tobora kuchliroq avj ola bordi va o'zimni boshqacha his eta boshladim, o'zimni o'zim kashf qilar ekanman, o'zimni tanimay qoldim. Menga nima bo'ldi o'zi? Juvonni tushunish va himoya qilishga intilar ekanman, asta-sekin shunday fikrga keldimki, Runa Lopatina menga da'vo qilib o'zini qyinoqqa solar ekan, bu xudoning xohishi emasmikin? ...Ilgarilari men Rahmoni Rahim degani nima, bu nimalarda va qanday namoyon bo'ladi – bu haqda o'yamagan ham edim va endigina birdan sezal boshladim: men o'z kuchiga mahliyo bo'lib, odam urug'ini ming ko'ya solib hunar ko'rsatgan bo'lsam, bu asnoda Xudoning ko'kragidan itarib qo'yan bo'lsam, mahkuma Runa Akram ul-akraminning elchisi, ifodachisi emasmikin? Bu mendagi Ezgulikni sinab ko'rish yo'li emasmikin?

Ana shunday achchiq va shirin xayollar og'ushiga g'arq bo'lardim. Menda o'sha juvonga, o'sha mahkumaga nisbatan ko'zimni ochishga, o'zimga shubha bilan qarashga, o'zimning takabburligimni va dimog'dorligimni tushunib yetishimga majbur qilgani uchun minnatdorchilik hissi paydo bo'ldi. Men uning oldida endi o'zimni boshqacharoq tutishim kerak ekan. Afsus, Runaga, uni vaqtincha saqlab turgan xos izolyatorga o'sha zahoti telefon qilib bo'lmash edi. Unga ko'p narsani gapirib bergen, javobiga undan ko'p narsa eshitgan bo'lardim. Qani endi iloji bo'lsa-yu, mashinamga o'tirib tun qorong'usida o'sha izolyator tomon yo'l olsam-da, uni topib gaplashsam! Lekin bu ham amalga oshmaydigan orzu edi, xolos. Qo'llimdan keladigani ertangi uchrashuvni kutish edi. Runani kabinetimga olib kelib, suhbat qilish uchun tashlab ketganlaridan so'ng unga yaqin kelib, qo'l olib ko'rishaman. "Meni afv eting, Runaxonim, biz o'sha suhbatimizni davom ettiramiz. Men sizning mulohazalaringizni jiddiy e'tibor bilan eshitishga tayyorman, sizning ham xuddi shunday yo'l tutishingizni iltimos qilaman. "Mening ham vajlarimga quloq tuting", – "Juda yaxshi!" – deb javob beradi u va samimiyl iqror bo'ladi: — Men bo'lsam sizni hech qachon ko'rmayman deb o'ylovdim, professor. Eski hammom, eski tos deganlaridek, men la'natini ertalabdan o'z joyimga, zonamga, haydab borishadi, meni yangidan sud qilishadi va yana ham uzoqroqqa, Sibergami, Oltogyami olib borib tashlashadi deb o'ylabman, birdan deng, navbatchi nazoratchi kelib qoldi, meni yana professor Krltsov Andrey Andreevich chaqiryapti, deb qolsa bo'ladi. Mana, men keldim..."

"Odil hakam Xudoyim! Qanaqangi noma'qulchiliklarni yog'dirasan menga? – pichirladim chorasisizlikdan. — Qanaqangi bolalik bu o'zi, meni to'xtat, go'dakligim tutib ketibdi!"

Chindan ham, buyuklik bilan bachkanalik orasi atigi bir qadam ekan, mayli men bachkana bo'la qolay, hamma narsa men o'sha kechasi shirin hayolga botganim kabi bo'la qolsa jon derdim. Diling tubidagi bema'nilikka ishonishning o'zi ham bir baxt!

Dilimni birdaniga yalang'ochlab tashlagan ana shu barcha jo'shqinliklardan so'ng ufqdan ko'tarilgan qora bulut kabi mening uchun eng og'ir shubha paydo bo'la boshladim – men inkubalar qornida ikszurriyotlar yetishtirishga ma'naviy huquqqa egamidim? Mening ishlaramni qaysi yuksak maqsadlar bilan oqlab bo'ladi? Ikkiyuzlamachilik qilmayman, bunday shubhalar dilim tubida har doim mavj urar edi, lekin na men, na mening hamkasblarimdan birontasi hech qachon bu haqda g'ing degan emasmiz. Fan yutuqlari bizning obro'yimizni o'z ko'z o'ngimizdagina emas, balki jamiyat nazarida ham yuksaklikka ko'targan edi. Biroq, fan bilan vijdonning bir-biriga qanchalik mos kelmasligiga, ko'pgina hollarda fan bilan jinoyat bir-biri bilan bog'lanib ketganligiga misollar topish uchun XX asrda uzoqqa borish shart emas.

Mana, mening vijdonim, turma mahkumasi uyg'otgan vijdonim tilga kirdi. Betayin ota-onalardan noma'lum bolalar yetishtirishning, ularni inkubalar yordamida dunyoga keltirishning insoniyatga qarshi harakat ekanligini tan olish – Runa meni ana shunga undadi.

Uni menga nima olib keldi, ajal ostonasigacha bizlarni nima bog'lab qo'yan bo'lib qolish mumkin bo'lar.

biladi... Hukmni men chiqarmay...

O'sha kechasi hammasi o'zgarib ketdi. Mislsiz fidokorligi, aqlga sig'maydigan qilmishlari meni rom etgan ayoldan kechirim so'rashga tayyor edim. Men inson zotiga qilgan yovuzligimdan voz kechish yo'lida o'sha ayol oldida tiz cho'kishga tayyor edim. Bordi-yu u mening muhabbatimni qabul qilsa va o'z navbatida menga muhabbat izhor qilsa, men unga uylangan bo'lardim... Ha, ha shunday!

Bunga qanday erishish mumkinligini tasavvur ham qila olmayman, axir ko'p yillarga hukm qilingan, u "mayli" deydigan bo'lsa, men u bilan o'rmongami, toqqami, dengiz ortigami – qaerga bo'lmasin, faqat birga yashash uchun bosh oqqan tomonga qochib ketishga tayyor edim... Hayotni yangidan boshlash uchun darbadarlikka ham roziman, bu bilan men mash'um o'tmishimning gunohlarini yuvgan bo'lardim...

Bu haqda bir marta xayol surdim-u, o'zimni to'xtata bilmadim. Mening xayollarim cheksiz-chegarasiz edi. Men o'zimda to'ntarish yasadim. Xayollar og'ushida qoldim. Mening yangi hayotim ertadan, Runani olib kelishgan va ikkalamiz xoli qolgan soatdan boshlanishi kerak. Menda qanday o'zgarishlar ro'y berganini tushuntirib, ruhan yengil tortganimni hikoya qilib berishga va o'zimning hamma narsaga tayyor ekanligimga uni ishontirishga harakat qilaman. U faqat "xo'p" desa bas, u meni sevgilim deb tan olsa bo'ldi. U faqat mening samimiyl ekanimga ishonsa, bizning birga bo'lismizga amin bo'lsa kifoya.

Men divanda notinch va sergak uyquga ketganimda tun yarmidan oshgan edi. Tong saharda momoqaldiroq guldiradi. Tom ustida gumbirlagan ovoz eshitildi, deraza ortida jala quydi. Tabiat hodisalariga nazar tashlar ekanman, bu momoqaldiroqni xuddi o'zim gumbirlatayotganday bo'ldim, osmonning yarmisini egallab chaqmoqlar chaqqanini, chelaklab quyayotgan yomg'ir qasirg'asidan shox-shabbalarning yerga tekkunday yukunganlarini, qushlar galasining momoqaldiroq quchog'ida hurkib bezovtalanib boshpvana ilinjida uyoqdan-buyoqqa o'zini urganini ko'rdim...

O'zim ham momoqaldiroq qo'ynida parvoz qildim. Men darcha orqali derazadan uchib chiqdim, tomlar ustida, ko'chalar va xiyobon ustida qanot qoqdim. Yashin hamda bulutlar orasida tusmollab va chamalab parvoz qillardim – axir qaerdadir turma bor, o'sha joyda u, inkuba bo'lishdan bosh tortgan juvon ham momoqaldiroq ovozini eshitdi. "Runa, Runa! – deb qichqirdim men. — Bu menman! Men seni qidirib yuribman!". Momaqaldiroq gumbirlayotgan, men osmoni falakdan bor ovozim bilan unga murojaat qilayotgan shu onlarda u nimalar haqida o'ylayaptiykin?..

Keyingi kuni o'zimni tutishga, klinikamizdag'i barcha xizmatchilarining har doimgiday puxta ishlashi uchun men o'zimni ishlayotganday qilib ko'rsatishga qancha kuch sarf qildim. Hamma narsa odatdagiday edi. Xodimlardan birontasi ham mening boshqa odam bo'lib qolganimni sezmadni...

Men o'z vaqt-soatimni kutar edim. Vaqt esa mashaqqat bilan sekin o'tayotganday tuyular edi menga...

Men hammaning ko'z o'ngida edim, har doimgiday o'z burchlarimni ado etar edim. Lekin bu endi men emas edim...

Vaqt esa men uchun mashaqqat bilan sekin o'tayotganday edi...

Tayin qilingan soat yaqinlashmoqda. Runa hademay kelib qoladi. Mana, mana... Lekin hamon olib kelishmadni...

Yana chorak soat o'tdi. Lekin hanuz yo'q. Men qo'ng'iroq qilishni va mashinaning qachon yo'lga chiqqanini aniqlashni buyurdim. Kotiba telefonda gaplashibdi, unga mashina o'z vaqtida jo'nab ketgan deyishibdi.

Men xavotirga tusha boshladim. Nima bo'ldiykin? To'satdan yo'lda halokatga uchragan bo'lsa-ya?

Soat uchga yaqinlashmoqda edi. Qachon keladi? Men o'zim qo'ng'iroq qila boshladim. Menga mashinaga bir narsa bo'lgan deb javob berishdi. Shu paytda kotiba yugurib kirib keldi. Rangi o'chib ketgan.

– Nima bo'ldi o'zi? — deb qichqiraman.

– Mijozimiz vafot etibdi!

– Qanday vafot etibdi? Qaysi mijoz ekan?

- Biz kutayotgan ayol. Hozirgina qo'ng'iroq qilishdi.
- Halokatga uchrabdimi?
- Yo'q. U qochgan ekan.
- Qochgan ekan? Keyin nima bo'pti?
- Uni o'ldirishibdi.
- hozir borib, hammasini aytib beramiz deyishyapti.
- Ha, tunov kuni men bergen yo'llanmaga ko'ra mahkuma R. F. Lopatinani tayin qilingan vaqtida klinikaga yetkazib kelish uchun A-6-87 nomerli mashinada olib ketishgan.

Shahardan chiqqandan keyin Moskva daryosi qирг'оги yaqinidagi о'рмон орасидан о'tayotganda mahkuma ko'nglim ayniyapti, boshqa yurishga majolim qolmadи deb zorlanadi, mashinani to'xtatib tushishga imkon berishlarini so'raydi, talab qiladi va qayt qila boshlaydi...

To'xtashga to'g'ri keladi. Mahkuma mashinadan tushadi, yo'ldan bir necha qadam nariga boradida, yugurib о'рмон ichiga kirib ketadi. Soqchi ayol uning orqasidan quva boshlaydi. Mahkumaga "to'xta" deb buyruq beradi. Lekin u to'xtamaydi. Soqchi "otib tashlayman" deb ogohlantirib, osmonga qaratib ikki marta o'q uzadi. Har qanday qilib bo'lsa ham tirik tutib olish uchun quvaveradi. Birdan Moskva daryosining tuyulishida tik qирг'оq chiqib qoladi, mahkuma chopgan bo'yicha jarlikdan o'zini suvga tashlaydi. Soqchining otishdan boshqa iloji qolmaydi. Mahkuma halok bo'ladi. Jasadini suvdan tortib olishadi...

Keyinchalik o'z-o'zimga: "U nima uchun shunday qildi?" – deb savol berdim. Nega shunday qildi? Nima uchun? Bu nima o'zi? Noilojlik oqibatimi? Qo'rkoqlikdanmi? Nafratlanishdanmi? Dushmanlikdanmi? Yoki bu norozilikning bir ko'rinishi edimi?

Bu savollarga hech kim javob bera olmaydi... Keldi-yu ketdi... U biz olib borgan eksperimentlarning birinchi qurboni bo'ldi.

To kech kirgunga qadar xonamdan tashqariga chiqmadim. Ichkaridan qulflab olib o'tirdim. Mening vujudimda nimalar bo'layotganini hech bir jon tasavvur ham qilolmasdi. U shunday dahshat bilan mening rejalarimga xalaqit bermaganda edi! hayfki, u halok bo'ldi, afsuski, u abadiylikka ketdi, ketganda ham mening gaplarimni eshitmay ketdi, u chindan haq edi, fan har qanday yuksaklikka ko'tarilmasin, uning yutuqlari o'tkinchi, fan cheksiz taraqqiy qilishi mumkin, lekin fan taraqqiyoti vijdon oldida hech nima emas. Mangulikning mazmuni va rivojini o'zida mujassamlashtirgan Ruh oldidan hamma narsa o'taversin.

Xonamda o'tirib ho'ngrab yig'ladim. Atigi bir marta uchratgan ayolni eslab zor-zor yig'ladim... Usiz qolgan umrim baxtsiz o'tishini ko'z oldimga keltirib yig'ladim...

Kechqurun yo'nga chiqdim, bu dahshatli hodisa bo'lib o'tgan joyga, Moskva daryosining о'рмон ortidagi tuyulishiga yaqinlashganimda to'xtadim-da, orqaga qaytdim. Bu yer u halok bo'lgan joy edi, u xuddi ana shu о'rmongan qochib o'tib o'zini daryoga otgan... Boshqa yo'ldan ketdim.

Dunyoda biron o'lchov bormidiki, mening uyg'a kelgandan keyin butkul ojizligim, ilojsizligimni o'lchab berolsa! Bu menga yuborilgan jazo emasmikin? Uyimda kechasi bilan ovozim boricha dod solib, ho'ngrab yig'lab chiqdim. U endi yo'q. Mening unga nima demoqchi bo'lganimni u endi hech qachon bilmaydi. U umrining to oxirgi onlarigacha meni o'z ilmiy kashfiyotlaridan ikszurriyotlar yaratish yo'lida foydalangan razil odam deb bilardi... Viski ham yordam bermadi, shishani ko'tarib ichsam ham bo'lmadi. Musiqa yordam berarmikin, degan xayolga bordim, lekin bunday musiqa yo'q edi...

Ana shunday musiqani oradan yillar o'tgandan so'ng eshitdim, bu navo mening dilimda umr bo'yи mudrab yotgan bo'lsa ajab emas. Yapon dengizida paroxodda ketyapman. Kechki payt edi. Yulduzli osmon tagida qotib turgan qoramitir orollar sirli jismlar yanglig' Vaqt bilan Moddaning mevasi o'laroq dengiz tubidan boqib turganday. Hamma yodda sokinlik, salqinlik... Ko'z ilg'amas to'lqinlarning pichirlashi quloqqa chalinadi. Bizlar Nagoya shahriga konferentsiyaga kelgan bir necha sovet olimi edik. Sheriklarim bilan tarjimonlar mayxonada qolishdi. Men bo'lsam kimsasiz sirli orollarga to'yib-

to'yib boqish uchun kema sahnida uyoqdan-buyoqqa odimlardim. Qирг'оqdagi chiroqlar elas-elas ko'rindardi. Biz ana shu chiroqlar tomon borayotgan edi. Paroxodda tinimsiz gumburlagan rok-muzikadan kishi seskanib sakrab tushganini o'zi ham sezmay qolardi... birdan rok tinib qoldi. Dilkash qo'shiq boshlandi. Bu yaponcha enka- lirika, sevgilini qo'msash, afsun va anglashilmovchilik, intazorlik hamda vidolashuv qo'shig'i edi. Birdan o'sha juvon xayolimga keldi. U mening yonimda, ehtimol, sal nariroqda, hu anavi orolchada turganday va shu ashulani eshitayotganday, mening u haqda o'layotganimni sezib turganday.

Shundan so'ng men hammadan va butun borliqdan uzoqlashishim kerakligini tushundim...

Qayta qurish yillarida ikszurriyotlar yetishtirish masalasiga chek qo'yildi. Gorbachev huzurida bo'ldim. Yarim yildan so'ng kosmosga, orbital stantsiyaga yo'l oldim. Ana shu yerda samoviy rohib Filofey bo'lib oldim. Chetdan qaraganda bu jinnilikday tuyulishi mumkin. Lekin hech ham unaqa emas.

Mening o'tmishim menga tinchlik bermaydi, tinmay ta'qib qiladi. Tug'ilib bo'lgan va endi voyaga yetib kelayotgan, ota-onasi noma'lum ikszurriyotlar endi nima bo'ladi degan va hal qilib bo'lmaydigan savol tomoqqa tiqilib qolgan so'ngakday hech kimga tinchlik bermaydi. Ularning kimgardan bo'lganligi sir saqlanganidan buni hech kim bilmaydi. To'g'rirog'i, bir necha kishi – mening sobiq hamkasabalarimgina bilishadi. Ana o'shalar men haqimda: murtad, kosmosga qochib qoldi deb o'ylashlari mumkin. Lekin meni qiynayotgan, meni ranjitayotgan narsa ularning menga bo'lgan munosabati emas. Mening o'zimga la'nat o'qiyotganimni, o'zimni razil mazoxist deb, itvachcha deb atayotganimni hech kim bilmaydi! Men Yerga tushsam-u bizning laboratoriyamizda o'tkazilgan tajribalar natijasida dunyoga kelgan go'daklarning ko'zlariga bir boqsam!... Nega endi bu haqda yozyapman. Chunki biz qilgan xatoni tuzatib bo'lmaydi. Davlat mulki bo'lib tug'ilgan odamlar nima bo'ladi oxiri? Ular ertasiga o'zlarining kim ekanliklarini tushunib olishadi. Ular jamiyatdan qanday qilib o'ch olishadi? Vaqt(soati) kelib ikszurriyotlarda insoniyatdan o'ch olish, to'ng'iz qo'pqir dunyosiga o't qo'yishdek qat'iy istak paydo bo'lmasmikin? Men bu yerda, kosmosdaman, ular, ikszurriyotlar esa o'sha joylarda voyaga yetishyapti – shuning o'zi dahshatli. Boshqacha so'z topib bo'lmaydi. Men ularning kelajagi uchun mas'uliyatni o'z gardanimga olgan emasman, faqat ularning tug'ilishi bilan bog'liq muammolarni hal qilganman, xolos deb aytishim mumkin edi. Lekin bu vaj bo'lolahdimi?! Ular aybdorlarni, qilg'ilikni qilib, hamma narsaning pachavasi chiqqandan so'ng qochib qolganlarni qaerdan topishsin. Hatto DXK ham xonavayron bo'ldi. Ehtimol, xonavayron bo'lmagandir... O'lib ketmaydimi..."

Filofeyning Tavba-tazarrusi shu yerda uzilib qolgan.

\* \* \*

Tavba-tazarruning matni Entoni Yungerning qo'liga qishning boshlarida tegdi. Bu Filofeydan kelgan oxirgi xabar edi.

U qish kuni erta tongda rulga o'tirib yog'ayotgan oppoq qor parchalariga boqar ekan, "Favqulodda voqeа, hech kimning xayoliga ham kelmagan hodisa", deb o'yladi achinib. Yunger Filofey Tavba-tazarrusining kechasi o'qilgan matni ta'sirida edi.

Shunisi g'alatiki, deb o'ylaydi u, hech kim bunday vafot etgan emas. Hozir sayyoramizdan tashqarida o'z joniga qasd qilgan yagona odam – go'yo koinotda mo'miyolanganday Filofey dunyomiz tepasida uchib yuribdi. Nihoyat sukunatda dunyo bilan murosaga keldi. Va mana, u yana o'zi haqida xabar berayotir...

Bu qismatning saboq bo'lib qolishida qandaydir ilohiy mazmun bordir deb o'ylash mumkin. Lekin bu saboq naqadar qimmatga tushdi!

Biroq bunday yo'ldan borish har doim juda qimmatga tushadi. Bir zamonlar abadiylikka daxldor saboq bo'lib o'tgan – Golgof tepaligida lyso alayhissalomning chormixga tortilishi insoniyatga qimmatga tushgan. Har narsaning bahosi o'zgacha. U o'z bahosini kosmosda hisob-kitob qildi.

Nahotki, u kosmosda ham o'zining chaqaloqligida bolalar uyining eshigi tomon olib ketayotgan onasining qor ustida bosgan oyoq tovushining g'ichirlashlarini eshitayotgan bo'lsa? Nahotki u

kosmosda ham o'zini oxirgi marta ko'kragiga bosib ko'tarib borayotgan onasi yuragining dukillab urayotganini eshitayotgan bo'lsa?..

## «Oxirzamon nishonalar» romanidagi ayrim so'zlar izohi

**Aparteid** – irqiy kamsitishning eng ashaddiy shakli.

**Aura** (yunon tilida “shabada” demakdir) – odam tanasidan va har qanday jonli organizmdan uzuksiz chiqib, o'zgarib va rivojlanib turadigan bilinar-bilinmas nur. Aura inson dunyoga kelib, birinchi nafas olishi va nafas chiqarishi bilan paydo bo'lib, hayotida oxirgi marta nafas olishi va nafas chiqarishi bilan so'nadi. Shunday qilib aura organizmning kosmik energiya bilan o'zaro ta'siri mahsuloti – odam organizmida qayta ishlangan va aks etgan kosmik energiya bo'lib odamning butun badanini qamrab olgan.

Har bir odamning aurasi shakli, zichligi va rangiga hamda boshqa xususiyatlariga ko'ra o'zgalarnikidan farh hiladi. O'ta sezgir odamlarda, aqliy va ma'naviy jihatdan yetuk kishilarda, bashoratchilarda, ekstrasenslarda aura zichroq va hajman kattaroq bo'lib, u qadar rang-barang bo'lmash ekan. Ko'zi bog'lab qo'yilganda ham tevarak-atrofdagi narsalarni bemalol ko'ra oladigan aura "ko'zli" odamlar bo'ladi. Kishining aqliy va jismoniy imkoniyatlariga ko'ra, tashqaridan qaraganda aura nurining shakli turlicha ko'rinar ekan. Mutaxassislar fotografiya va kompyuter yordamida aurani plyonkaga olib, mohiyatini aniqlamoqdalar.

Yumaloq shakldagi aura eng yaxshi hisoblanar ekan. har jihatdan barkamol, yetuk kishilarning aurasi yumaloq shaklda ko'rinar ekan. Boshqalar homiyligida bo'lgan yoki o'zi birovlarni himoya qila oladigan odamlar aurasi uchburchak shaklida, ekstrasenslar deb ataladigan o'ta sezgir kishilarning aurasi yulduz shaklida bo'lar ekan.

Auraning qanday rangda ekanligi ham katta ahamiyatga ega. Auraning ko'k (havo rang) bo'lishi sog'liq belgisi, to'q sariq aura kishining dilkash va ko'ngli ochiq ekanligi, och qizil samimiylilik va jismonan baquvvatlilik, to'q qizil rang manmanlik va ochko'zlik, och sariq aqlilik, och yashil rang yashovchanglik va sog'gomlik, och kulrang salomatlikning yaxshi emasligi alomatlardar va b.

**Genotip** – organizmning tuzilishi (konstitutsiyasi), undagi genlar majmui.

**Genofond** – insoniyat yoki hayvonot dunyosidagi individlarning genlar majmuvi.

**Yekklesiast** – Injil aqidalarini targ'ib qilgan, tafsirlagan olim.

**Ikszurriyot** – laboratoriyyada undirilgan urug'dan yetishtirilgan, ota-onasi noma'lum bola [lotincha – iks "noma'lum", arabcha surriyot (birligi – surriy) – "farzandlar, avlod"].

**Kassandra** – yunon mifologiyasida: Troya podshosining qizi, sohibbashorat, folbin bo'lgan ekan.

**Kolliziya** – qarama-qarshi fikrlar, niyatlar, manfaatlarning to'qnashishi.

**Mazoxizm** – jinsiy buzuqlilik: jinsiy aloqada bo'lgan ikkinchi shaxsning azob-qiyonoqlar, axloqiy xo'rlik-tahqirlari ta'sirida shahvoniylazzat olish. Ana shunday buzuqliklarni tasvirlab yozgan avstriyalik yozuvchi L. Zaxoder-Mazox (1836 – 95) nomi bilan atalgan.

**Mutatsiya** – organizmning genetik materiali: xromosomalar va genlardagi qayta qurilish va buzilishlar oqibatida organizmning irlari xususiyatlarida ro'y bergan tabiiy yoki sun'iy o'zgarishlar.

**Nekrofil** – murda bilan jinsiy aloqa qilishga moyil kishi.

**Nigilist** – umumqabul qilingan qadriyatlar: ideallar, axloqiy hamda madaniy normalarni va ijtimoiy hayotning boshqa shakllarini inkor etuvchi shaxs.

**Paradigma** – isbotlash, taqqoslash uchun tarixdan olingan misol.

**Parokszim** – qandaydir ruhiy hayajon, hissiyotning xuruj qilishi.

**Patsifistlar** – har qanday urushni qoralaydigan, bu yo'lda harakat qiladigan shaxslar.

**Periskop** – yashirin joyda (masalan okopda) turib tevarak-atrofni kuzatishga imkon beradigan asbob.

**Substantsiya** – ob'ektiv reallik, o'z-o'zidan mavjud bo'lgan xilqat.

**Substrat** – barcha jarayonlar va hodisalarning umumiy moddiy negizi.

**Transtsendental qobiliyat** – tajribadan kelib chiqmagan, balki azaldan mavjud es-hush, idrok.

**Feministiklar** – erkak bilan teng huquqlik uchun kurashadigan ayollar.

**Fenomen** – nodir yoki favqulodda siyrak uchraydigan hodisa-voqea; biron sohada boshqalardan tubdan ajralib turadigan o'ta iste'dodli odam.

**Flyuid** – odamdan chiqadigan psixik (ruhiy) tok.

**Futurolog** – jamiyat taraqqiyoti haqida bashorat qiluvchi mutaxassis.

**Futurologiya** – jamiyat taraqqiyotining kelajagi haqidagi ta'limot.

**Xarizma** – yunoncha “xudoning tuhfasi, marhamati” demakdir. Qadimgi yunonlar barcha sohalarda katta yutuqlarga erishadigan, obro'li, xudoning sevgan bandalarini shunday atashgan. Bunday odamlar o'z oldilariga qo'ygan maqsadlarining foydali va to'g'ri ekanligiga uzil-kesil ishonch hosil qilgach katta ilhom bilan ish ko'radilar va boshqalarni o'zlariga mahliyo qilib qo'yadilar, bunday shaxslardan mislsiz sarkardalar, ajoyib davlat arboblari, buyuk artistlar yetishib chiqqan.

Xarizmalik xususiyatini ohangraboga – magnitga o'xshatish mumkin: kuchli magnitlar magnit maydoni yordamida bir necha tonna yukni ko'tara oladi. Zaiflari esa kichik bir gaykani ham torta olmaydi.

Xarizmalik xususiyati hammada bo'lar ekan – birovlarda kamroq, boshqalarda esa odamlarni hang-mang qilib qo'yadigan darajada kuchli bo'lar ekan.

Ish harakatlari, gap-so'zlari, muomalalari bilan boshqalarni og'ziga qaratib qo'yadigan, rom qiladigan, o'z kasbini sevadigan, zavq-shavq bilan ishlaydigan samimiy kishilar – taksist bo'ladimi, sotuvchi bo'ladimi, artist bo'ladimi, yozuvchi bo'ladimi – ana shunday xarizmatik insonlardir.

Har bir inson o'zining xarizmatik mahoratini bosqichma-bosqich oshirib borsa bo'lar ekan.

**Embrion** – pusht, homila.